



MAKTAB  
KUTUBXONASI

Daniyel Defo

**ROBINZON KRUZONING  
HAYOTI VA AJOYIB  
SARGUZASHTLARI**



**Daniyel  
Defo**

---

**ROBINZON  
KRUZONING  
HAYOTI VA AJOYIB  
SARGUZASHTLARI**



  
**YANGI ASR AVLODI**  
**TOSHKENT**  
2016

**UO'K: 821.512.133-31**

**KBK: 84 (4Ingl)**

**D-46**

**Defo, Daniyel**

Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari: roman. Daniyel Defo / Rus tilidan Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 240 b.

ISBN 978-9943-27-360-3

Atrofigda sen bilan dardlashadigan, umuman, muloqot qiladigan kimsa yo'q, go'yo olamda faqat yakka o'zing va bir qancha jonivorlar. Barcha tashvishlar-u kulfatlarga faqat shu jonivorlarga guvoh. Orzu-xayollar, iztiroblar, sog'inch hisi seni sira tark etolmaydi.

Kimsasiz, to'rt tomoni bepoyon ummon bo'lgan orolda yigirma sakkiz yil yashagan Robinzon Kruzoning sarguzashtlarga boy kechmishi kitobxonni befarq qoldirmaydi, shuningdek, voqealarning oddiy va kutilmagan holatlar bilan bayon qilinishi qiziqtirishi tabiiy.

Bir necha yuz yillardan beri qayta-qayta nashr etilib, qo'ldan tushmay kelayotgan dunyoga mashhur ushbu kitob siz azizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

**UO'K: 821.512.133-31**

**KBK: 84 (4Ingl)**

Rus tilidan  
**Yo'ldosh SHAMSHAROV**  
tarjimasi



ISBN 978-9943-27-360-3

© Daniyel Defo, «Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari». «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

## ***Birinchi bob***

### **ROBINZONNING OTA-ONASI HAMDA UNING O‘Z UYIDAN QOCHIB KETGANI HAQIDA**

Men bolalik chog‘imdanoq dengizni olamdagi hamma narsadan ham yaxshi ko‘rib qoldim. Uzoq safarga jo‘nab ketayotgan har bir matrosga hasad qildim. Bir necha soatlab dengiz bo‘yida turib, o‘tib ketayotgan kemalarga ko‘z uzmay qarab qolardim.

Mening bu qilig‘im ota-onamga sira yoqmadi. Keksa, dardchil otam mening katta amaldor bo‘lishimni, qirol mahkamasida xizmat qilib, katta maosh olishimni istar edi. Men esa dengiz sayyohi bo‘lishni orzu qilar edim. Dengiz va okeanlarda kezib yurish, nazarimda, buyuk bir baxt edi.

Mening niyatlarimni otam sezib qoldi. Kunlardan bir kun u meni chaqirib oldi va darg‘azab bo‘lib bunday dedi:

– Men sezib yuribman: sen uydan qochib ketmoqchisan. Esingni yema. Sen hech qayoqqa jilmagin. Agar uyda qolsang, men sening mehribon otangman, qochib ketsang, oq qilaman – baloga giriftor bo‘lasan! U qaltiroq va xasta ovoz bilan qo‘shib qo‘ydi: – Bemor onangga rahming kelsin... U sendan ajralib qolsa, farzand dog‘iga chiday olmaydi.

Uning ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi. Otam meni juda sevar va menga yaxshiliklar tilar edi.

Cholga juda rahmim keldi, uydan hech qayoqqa jilmaslikka, dengiz sayohatlari to‘g‘risida o‘ylamaslikka qat‘iy qaror qildim.

Afsus, oradan bir necha kun o‘tar-o‘tmas, bu yaxshi niyatlarimdan nom-nishon qolmadi. Ko‘ngil yana dengiz qirg‘oqlarini tusay boshladi. Machtalar,

to'liqlar, kema chodirlari, baliqchi qushlar, mayoqlarning chiroqlari tushlarimga kira boshladi.

Otam bilan gaplashgandan ikki-uch hafta keyin yana qochish fikriga tushdim. Oyimning xotirjam va xursand paytini topib, oldiga kirdim-da, ehtirom bilan gapirdim:

– Men o'n sakkizga kirdim, endi mahkama ishini o'rganishdan naf chiqmaydi. Mabodo, biror joyga xizmatga kirsam ham, baribir, bir necha kundan keyin uzoq mamlakatlarga qochib ketaman. O'zgalarning yurtlarini borib ko'rish, Afrikani ham, Osiyoni ham kezib chiqish uchun ishtiyoqim shuncha zo'rki, biror ishga joylashganimda ham u ishni o'rganishga qunt qilolmayman. Sizdan o'tinaman, hech bo'lmasa, oz vaqt dengizda yurib, o'zimni sinab ko'rish uchun otamdan ijozat olib bering; agar dengizchilar hayoti yoqmasa, uyga qaytib kelaman va keyin, o'layin agar, hech qayoqqa jilmayman. Otam o'z xohishi bilan rozilik bersin, yo'qsa, uning ruxsatini olmayoq ketishga majbur bo'laman.

Oyim mendan juda xafa bo'lib, bunday dedi:

– Hayronman, otang bilan gaplashganingdan keyin qanday qilib tag'in shu haqda o'ylay olasan, axir! Otang dengiz sayohatini butunlay esingdan chiqargin, degan edi-ku. Axir, qaysi ishning boshini tutishing kerakligini u sendan yaxshi biladi-ku. O'zingni xarob qilging kelsa, hoziroq jo'nab ketaqol, ammo amin bo'lginki, sening sayohatingga otang bilan ikkimiz aslo rozilik bermaymiz. Onam bu ishda yordam beradi, deb chakki o'ylabsan. Lekin bu gaplaringni bittasini ham otangga aytmayman. Yo'q, keyinchalik, dengizda yurib, muhtojlik ko'rganingda, jafo chekkaningda, oyim yo'l qo'ygan edi, deb meni ayblashingni istamayman.

Ko'p yillardan keyin bilsam, oyim, ishqilib, o'sha gapimizning hammasini oqizmay-tomizmay otamga

aytibdi. Otam xafa bo'lib va og'ir nafas olib, unga bunday debdi:

– O'g'lingni dardini bilolmadim. O'z yurtimizda u qiyinchilik ko'rmay muvaffaqiyat qozonishi va baxt topishi mumkin. Biz boy-badavlat bo'lmasak ham, uncha-muncha pulimiz bor. U hech narsaga muhtoj bo'lmay, bahuzur biz bilan yashasa bo'ladi. Agar u elma-el kezib ketadigan bo'lsa, haligacha odam bolasi boshiga tushmagan musibatlarga duchor bo'ladi. Yo'q, men uning dengizda yurishiga ijozat berolmayman. Vatandan narida u yolg'iz qoladi, mabodo, biror falokat yuz bersa, unga taskin beradigan do'st topilmaydi. U vaqtda o'z mulohazasidan pushaymon yeydi-yu, ammo o'kinishi befoyda bo'ladi!

Shunga qaramay, men bir necha oydan keyin o'z uyimizdan qochib ketdim. Voqea bunday bo'ldi: bir o'rtog'im otasining kemasida Londonga boradigan bo'lib qoldi. U, kemaga bepul tushib borasan, deb meni o'zi bilan borishga unday boshladi.

Shunday qilib, otamdan ham, oyimdan ham ruxsat olmay – yomon bir vaqtda – 1651-yil 1-sentabrda Londonga jo'nab ketayotgan kemaga tushdim.

Bu yaxshi ish emas edi: keksa ota-onamni tashlab ketib, insofsizlik qildim, ularning maslahatlariga qu-loq solmay, farzandlik burchiga xilof ish qildim. Ko'p o'tmay, men bu ishimdan qattiq pushaymon bo'ldim.

## ***Ikkinchi bob***

### **DENGIZDAGI BIRINCHI HODISA**

Kemamiz hali Hamber mansabidan chiqib olmasdanoq shimol tomondan sovuq shamol turdi. Osmonni bulut qoplab oldi. Dengiz mavj ura boshladi.

Men bungacha dengizda hech bo'lmagan edim, shuning uchun ham lohas bo'lib, ko'nglim ayniy-verdi. Boshim aylanib, oyoqlarim qaltiray boshladi,

Yiqilib tushishimga sal qoldi. Katta to'liqlar kemaga har gal urilganda, men hozir dengizga g'arq bo'lamiz, deb o'ylar edim. Kema har gal baland ko'tarilgan to'liq ustidan pastga sho'ng'iganda, men u endi qaytib ko'tarila olmasa kerak, der edim.

Agar omon qolsam, qadamlarim yana quruq yerga tegsa, darhol uyga – otam yoniga qaytib boraman va umrim bo'yi kema palubasiga qadan. bosmayman, deb ming bor tavbalar qildim.

Mening bu yaxshi niyatlarim bo'ron quturib turgan vaqt uchun kifoya qildi, xolos.

Shamol tinib, to'liq pasayishi bilan o'zimni ancha yengil seza boshladim. Durust, hali dengiz kasalidan butunlay xalos bo'lolganim yo'q, lekin kechga yaqin havo ochildi, shamol tamom to'xtadi, kishini zavqlantiradigan go'zal kechki payt boshlandi. Quyosh yarqirab chiqdi. Shamolsiz sokin dengiz quyosh nurida shunday go'zal manzara hosil etdiki, men bunaqa ko'ngil ochuvchi dilxush manzarani hech qachon ko'rmagan edim.

Tun bo'yi rohat qilib uxladim. Ertasiga ham quyosh kechagidek yarqirab chiqdi. Menda kechagi dengiz kasalidan nom-u nishon qolmadi. Ko'ngil darhol orom topib, dilim xush bo'ldi va kecha menga shafqatsiz va qo'rqinchli bo'lib tuyilgan dengizga hayratlanib tikila boshladim, u bugun juda beozor va orombaxsh edi.

Shu paytda, qasd qilgandek, meni o'zi bilan birga borishga tashviq qilgan o'rtog'im yonimga kelib, yelkamga urdi va:

– Xo'sh, og'ayni, kayfiyating qalay? Qo'rqqaningga imonim komil. Rostini ayt, kecha shabboda turganda xo'b qo'rqding-a? – dedi.

– Shabboda deysanmi? Shabboda emish-a? U quturgan bo'ron edi-ku. Bunday dahshatli bo'ronni men tushimda ham ko'rgan emasman!

- Boʻron deysanmi? Esingni yebsan! Seningcha, shu ham boʻronda-a? Yoʻq, bu - hali holva! Aytmoqchi, sen dengizda birinchi boʻlishing: qoʻrqqaningga ajablanib boʻlmaydi... Yur, ogʻayni, yaxshisi sharbat qaynattirib, bir stakandan ichaylig-u, boʻronni esdan chiqaraylik. Bunga qara, qanday yaxshi kun! Ajib havo, shunday emasmi?

Xullas, ish hamma dengizchilarga xos shumlikka aylandi: sharbat qaynatildi, men ichib toza mast boʻlibman va hamma vaʼda, tavbalarimni, darhol uyga qaytib ketish haqidagi fikrlarimni vinoga gʻarq qilib yuboribman. Dengizda sokinlik paydo boʻlishi bilanoq toʻlqin yutib yuboradi deb qoʻrqishlarim ham yoʻqoldi va shu ondayoq hamma yaxshi niyatlarimni unutib yubordim.

Oltinchi kuni Yarmut reydiga<sup>1</sup> yetib keldik. Boʻrondan keyin shamol roʻparadan urib turdi, shuning uchun biz juda sekin yurdik. Yarmutda langar tashlashga majbur boʻldik. Orqadan shamol turishini kutib, yetti-sakkiz kun shu yerda turib qoldik.

Shu kunlarda Nyukasldan reydga koʻp kema kelib toʻxtadi. Agar shamol tobora kuchayib bormaganda, besh kundan keyin esa yana ham zoʻrayib, dovulga aylanib ketmaganda edi, biz shunchalik uzoq toʻxtab qolmay, suv kuchayishi bilan daryoga chiqib olgan boʻlar edik.

Kemamizning langarlari va langar arqonlari mahkam boʻlganidan matroslarımız juda xotirjam boʻlib, sira parvo qilmadilar. Ular bizning kemamiz har qanday xavf-xatardan xoli deb ishongan edilar va shuning uchun ham butun boʻsh vaqtlarini oʻyin-kulgi bilan oʻtkazar edilar. Ammo toʻqqizinchi kuni ertalab shamol yana kuchaydi va sal oʻtmay, dahshatli dovulga aylanib ketdi. Juda sinalgan, tajribali dengizchilar ham qattiq qoʻrqdilar. Kapitanimizning goh

<sup>1</sup> Reyd - kemalar toʻxtaydigan joy.



kayutaga, goh kayutadan chiqib, mening yonimdan o'tayotganda ohistagina ovoz chiqarib: «Biz halok bo'ldik! Biz halok bo'ldik! Tamom bo'ldik!» – degan so'zlarini bir necha bor eshitdim. Lekin shunday bo'lsa ham, u o'zini yo'qotib qo'ymadi, matroslarning ishini ziyraklik bilan kuzatib, kemasini qutqarish uchun butun choralarni ko'rdi.

Qo'qqisdan allakim, bizdan nariroqda turgan bir kema g'arq bo'lib ketdi, deb qichqirdi.

Dovul yana ikki kemani langardan surib, ochiq dengizga eltib tashladi. Ularni qanday falokat kutmoqda? Qattiq bo'ron machtalarning hammasini sindirib yuborgan edi.

Kechqurun shturman bilan botsman kapitan yoniga kelib, kemani qutqazib qolmoq uchun oldingi machtani kesib tashlash zarur, deyishdi.

– Bir daqiqa ham kechikib bo'lmaydi! Buyuring, biz uni kesib tashlaylik, – deyishdi ular.

– Biroz kutaylik, ehtimol, bo'ron pasayar, – dedi kapitan.

U machtani kestirishni sira istamas edi, lekin botsman, agar machta qoldiriladigan bo'lsa, kema dengizga g'arq bo'lib ketadi, deb isbot qilgandan keyin, kapitan noiloj rozi bo'ldi.

Oldingi machta (fok – machta) kesilgandan keyin bosh machta (grot – machta) qattiq qimirlab, kemani lapanglata boshladi, oqibatda uni ham kesib tashlashga majbur bo'lindi.

Tun boshlandi. Kemaning ikkinchi qavatidagi omborga tushgan bir matros, kemaga suv kiriyapti, deb qichqirdi. Omborga yana bir matrosni yubordilar, u ham, suv to'rt futcha<sup>2</sup> ko'tarilibdi, deb xabar berdi.

Kapitan:

– Hammangiz nasos mashinalar bilan suvni chiqarib tashlanglar! – deb buyruq berdi.

<sup>2</sup> Fut – uzunlik o'lchovi. 30,5 santimetrغا teng keladi.

Bu buyruqni eshitib, qoʻrqib ketganimdan behud boʻlib qolibman: oʻlayotgan odamdek karavotga chalqanchasiga choʻzilib qoldim. Lekin matroslar meni turtishib, xushyoqmaslik bilan yotmay, ishla, deb talab qilishdi.

– Shuncha bekor yotganing yetar, tur, ishla! – deyishdi. Men noiloj nasos mashina yoniga kelib, kuchim boricha tirishib suvni sepib tashlashga tutindim.

Shu mahal shamolga bardosh berolmagan kichkina yuk kemalari langarlarini koʻtarib, ochiq dengizga chiqib ketishdi.

Kapitan toʻplardan oʻq otib, bizning qattiq xavf ostida ekanimizni ularga maʼlum qilishni buyurdi. Toʻplarning gumburlashini eshitib, men kemamiz majaq-majaq boʻlib ketdi, deb oʻyladim. Men qoʻrqqanidan behush boʻlib qoldim. Lekin shu paytda har kim oʻzini qutqazib qolish bilan ovora edi, menga hech kim eʼtibor ham bermadi, menga nima boʻlgani bilan qiziqmadi ham. Matroslardan biri meni oyogʻi bilan surib qoʻyib, oʻrnimda ishlay berdi. Hamma meni oʻldi deb ishongan edi. Men ancha vaqt shu holda yotdim.

Hushimga kelgandan keyin yana ishga tutindim. Matroslar tinmay ishlasa ham, ombordagi suv tobora koʻpaymoqda edi.

Kemaning gʻarq boʻlib ketishi aniq edi. Toʻgʻri, dovul sal pasaya boshlagan boʻlsa ham, lekin gavanga yetib olguncha suv ichida turishga zarracha ham holimiz qolmagan edi. Shuning uchun ham, kapitan biror odam bizni halokatdan qutqazib olar degan umid bilan toʻplardan toʻxtovsiz otib turdi.

Nihoyat, yaqinimizdagi kichikroq bir kema bizga yordam koʻrsatmoq uchun qayiq yuborishga jurʼat qildi. Qayiq xavf-xatarlardan oʻtib, bizning kemamizga zoʻrgʻa yaqinlashdi. Afsuski, biz unga tusholmadik, chunki odamlar bizni qutqazmoq uchun oʻz jonlarini ayamay, zoʻr berib eshkak eshib qayiqni

haydasalar ham, bizning kemamizga olib kelishning hech ilojini qilolmadilar. Biz ularga arqon tashladik. Ular ancha vaqtgacha arqonni ushlay olmadilar, chunki bo'ron arqonni hadeb boshqa tomonga uchirib ketaverdi. Lekin, baxtimizga, botirlarning bittasi epchillik ko'rsatdi va ko'p harakatlari zoye ketsa ham, oxiri arqonning uchini ushlab oldi. Shundan keyin qayiqni kemamizning quyruq'iga tortib keltirib, hammamiz unga tushib oldik. Biz ularning kemasiga bormoqchi edik, lekin to'lqinga qarshi yurib bo'lmadi, to'lqin bizni qirg'oqqa qarab olib ketdi. Qayiqni shu tomongagina yurgizish mumkin bo'ldi, xolos.

Oradan chorak soat o'tar-o'tmas bizning kemamiz suvga g'arq bo'la boshladi.

Biz tushib borayotgan qayiqni irg'itib-irg'itib borayotgan to'lqin juda baland bo'lganidan qirg'oqni ko'rib bo'lmas edi. Qayig'imiz to'lqin sirtiga ko'tarilib chiqqan daqiqalardagina qirg'oqqa to'plangan olomonni ko'ra oldik: biz qirg'oqqa yaqinlashgach, bizni suvdan chiqarib olishga tayyorlanayotgan odamlar u yoqdan-bu yoqqa yelib-yugurishar edi. Ammo biz qirg'oqqa juda sekin borar edik.

Ko'p mashaqqatlar tortib, oxiri kechqurunga borib quruq yerga chiqa oldik.

Yarmutga piyoda ketdik. U yerda bizni yaxshi kutib oldilar; shahar aholisi bizning baxtsizlikka uchraganimizni bilib, yaxshi uylar tayyorlab qo'ygan ekan. Bizni lazzatli taomlar bilan mehmon qilishdi, Londongacha yoki Gullgacha yetib olishimizga yetadigan pul ham berishdi.

Mening ota-onalarim Gullda edi, shuning uchun men, albatta, ular yoniga qaytib borishim kerak edi. O'zboshimchalik qilib qochib ketgan bo'lsam ham, ular mening gunohimni kechirar edilar va hammamiz ham baxtiyor bo'lar edik.

Dengizda yana mashaqqat va kulfatlarga yo'liqishimga aql yetib turgan bo'lsa ham, ammo shum taqdir meni yana dengiz sarguzashtlariga undadi. Mening sayyohlikka bo'lgan kuchli zavqim bo'shshamadi va men yana nima qilib bo'lsa ham kemaga tushish, dengizda olamni kezib chiqish to'g'risida o'ylay boshladim.

Mening do'stim (dengizga cho'kib ketgan kema otasiga qarashli o'sha yigitcha) endi juda xafa va g'amgin edi: yuz bergan baxtsiz hodisa uni ezmoqda edi. U meni otasi bilan tanishtirdi. Otasi ham cho'kib ketgan kemaga qattiq achinmoqda edi. Chol menga jiddiy yo'sinda tikilib turib, bunday dedi:

– Yigitcha, siz bundan so'ng dengizda yurmang. Darhol uyga qaytib borib, ota-onangizdan uzr so'rang. Otasining roziligini olmasdan sayohat qilgan kishi baxt topa olmaydi.

U haq gapni aytayotganini tushundim va unga hech e'tiroz bildira olmadim. Shunday bo'lsa ham, men uyimizga qaytib bormadim, yor-u birodarlarimning ko'ziga ko'rinishga yuzim chidamadi. Nazarimda, qo'shnilarimiz go'yo meni masxara qilayotganday, do'stlar va tanish-bilishlarimiz muvaffaqiyatsizlikka uchraganimdan kulayotganday bo'ldilar. Men uyga qaytib boraymi yoki yo'qmi deb ko'p o'ylaganimdan keyin Gullga emas, Londonga qarab ketdim.

### ***Uchinchi bob***

## **ROBINZONNING ASIR TUSHGANI, QOCHGANI, BRAZILIYAGA BORGANI**

O'sha vaqtdagi menga o'xshagan shum va sayoq yigitchalar, odatda, yomon odamlar orasiga tushib qolib, bir-ikki yilda butunlay buziladi va batamom yo'ldan chiqib ketadi. Toleyimga, men bunday odamlarga yo'liqmadim.

Londonga kelganimdan so'ng keksaroq bir hurmatli kapitan bilan tanishib oldim. Bu odam menga ko'p yaxshilik qildi. Men tanishguncha u o'z kemasi-da Afrika sohillariga, Gvineyaga borib kelgan ekan. Bu sayohatdan u juda katta foyda ko'ribdi. U shu kunlarda yana o'sha o'lkalarga safar qilmoqchi bo'lib turgan ekan.

Men ancha dilkash bo'lganimdan unga yoqib qoldim. U bo'sh vaqtlarida men bilan hamsuhbat bo'ldi. Dengizning narigi tomonidagi mamlakatlarni ko'rishni orzu qilib yurganimni bilib, meni o'zi bilan birga borishga taklif qildi.

– Siz hech sarf qilmaysiz, men sizdan borish uchun ham, ovqat uchun ham pul olmayman, – dedi u. – Agar bu yerdan biror buyum olib ketishga imkoningiz bo'lsa, Gvineyada u buyumlarni ko'p foydasiga sota olasiz va undan keladigan foydaning hammasi o'zingizniki bo'ladi. Toleyingizni sinab ko'ring, zora, baxtingiz ochilsa.

Bu kapitan ko'nglida kiri yo'q, to'g'ridil odam bo'lib, hamma unga ishonganidan uning taklifini xursandlik bilan qabul qildim.

Gvineyaga jo'nab ketayotib qirq funt sterlingga<sup>3</sup> biroz yuk oldim: mening olgan yukim yovvoyi odamlar yurtida bozori chaqqon bo'lgan turli o'yinchoqlar edi.

Qarindoshlar bilan xat yozishib turar edim. Bu qirq funt pulni topishda menga o'shalar yordam berishdi; men ularga savdogarlik qilmoqchiman deb xat yozdim. Ular onamni, ehtimol, otamnidir, mening dastlabki ishimga biroz pul bilan yordam berib turgani unatibdilar.

Afrikaga qilgan mana shu safarimni sayohatlarim orasida eng muvaffaqiyatli bir safar edi, desa bo'ladi. Albatta, men kapitan beg'araz, yaxshi odam bo'lganligi orqasida shunday muvaffaqiyatga erish-

---

<sup>3</sup> Funt sterling – Angliya pul birligi.

dim. Yo'lda ketayotganda u menga hisob ilmini va kemachilik ishini o'rgatdi. U o'z tajribalarini menga aytib, men bilan dillashgani uchun xursand edi, men bo'lsam uning gaplarini eshitganim va undan o'rganganim uchun xursand edim.

Sayohat orqasida men ham dengizchi, ham savdogar bo'lib oldim, o'z o'yinchoqlarimni besh qadog'-u to'qqiz unsiya oltinga almashdim. Londonga qaytib kelgandan so'ng bu oltindan ikki yuz oltmish funt sof foyda ko'rdim.

Shunday qilib, men o'zimni Gvineyaga borib savdo qiladigan sanoatchi boy deb hisoblasam bo'ladi. Lekin, baxtinga qarshi, mening do'stim kapitan Angliyaga qaytib kelgandan so'ng tez orada vafot etdi va men ikkinchi dafa do'stimning maslahati va yordamiga tayana olmay, o'z boshimcha safarga chiqdim.

Men Angliyadan o'sha kemada jo'nadim. Mening bu safarim bu dunyoda odamlar qilgan safarlar ichida eng kulfatli safar edi.

Dengizda ko'p yurib Kanar orollariga yaqin kelganimizdan keyin, tong otar paytida bizga dengiz qaroqchilari hujum qildi. Bular Solih turklaridan iborat qaroqchilar edi. Ular bizni uzoqdan ko'riboq, kemalarini jahd bilan yurgizib quva boshladilar.

Dastlab, ulardan qochib qutula olamiz degan umid bilan biz ham yelkanlarni ko'tarib, kemani jadal yurgizdik. Ammo besh-olti soatdan so'ng ular bizni quvib yetishlari muqarrar bo'lib qoldi. Biz jangga tayyorlanmoq zarurligini tushundik. Bizning o'n ikkita to'pimiz bor edi, dushmanning to'plari esa o'n sakkizta edi.

Kunduz soat uchlarda qaroqchilar quvib yetdi, lekin qaroqchilar katta xato qildilar; bizga kemaning quyruq tomonidan yaqin kelish o'rniga, ular chap tomondagi bortdan kela boshladilar, kemaning bu tomonida bizning sakkizta to'pimiz bor edi. Ularning

shu xatosidan foydalanib, biz to'plarning hammasini to'g'rilab birvarakayiga o'q uzdik.

Turklar ikki yuz kishicha bor edi, shu sababdan ular to'plardan va shu bilan birga ikki yuz miltiqdan bizning kemamizga baravar o'q yog'dirdilar. Baxtimizga, bizning hech qaysimizga o'q tegmadi, hammamiz sog'-salomat qoldik. Shu jangdan so'ng qaroqchilar kemasi yarim mil orqaga chekinib, qaytadan hujum qilishga tayyorlana boshladi. Biz o'zimizni yana mudofaa qilishga tayyorlandik.

Bu safar dushmanlar bizning kemamizga o'ng tomondagi bordan kelib, ilmoqlar bilan osilib chiqa boshladilar; oltmishga yaqin dushman kema sahniga chiqib olib, machtalarni jadallik bilan kesib yiqita boshladilar.

Biz ularni miltiqlardan o'q yog'dirib qarshi oldik va kemadan ikki marta quvib tushirdik, lekin shunga qaramay, taslim bo'lishga majbur bo'ldik, chunki bizning kemamiz bundan keyingi yurish uchun yaramay qolgan edi. Bizdan uch kishi o'ldi, sakkiz kishi yarador bo'ldi. Bizni asir qilib, arablarga qarashli Solih portiga olib ketdilar.

Qolgan inglizlarning hammasini mamlakat ichkarisiga, zolim sultonning saroyiga yubordilar. Qaroqchilar kemasining kapitani meni o'ziga qul qilib olib qoldi, chunki ular orasida yoshi va chaqqoni men edim. Otamning, bir kunmas-bir kun baloga yo'liqasan va senga yordam beradigan odam bo'lmaydi, degan gaplari yodimga tushdi va qattiq pushaymon bo'lib yig'ladim. Otam aytgan baxtsizlik balosi ana shu bo'lsa kerak, deb o'yladim. Ammo hozir tortayotgan alam-qayg'ularim bundan keyin duchor bo'ladigan kulfatlar oldida holva ekani xayolimga ham kelgani yo'q.

Yangi xo'jam bo'lmish qaroqchilar kemasining kapitani kemalarni talagani borganda, o'zi bilan

birga meni ham olib boradi, deb umid qilib yurdim. Bir kunmas-bir kun uni ispan yoki Portugaliya kemachilari qo'lg'a tushiradi va shundan keyin men yana ozodlikka chiqaman, deb qattiq ishongan edim.

Lekin tez orada bu umidlarimning behuda ekanini tushundim, chunki mening xo'jam birinchi marta dengizga safar qilgandayoq meni, odatda, qullar bajaradigan og'ir ishlarni qilish uchun uyda qoldirib ketdi.

Shu kundan boshlab men faqat qochib qutulish haqida o'yladim. Lekin qochib ketishning hech iloji yo'q edi: men yolg'iz hamda ojiz edim. Asirlar orasida men ishona oladigan bitta ham ingliz yo'q edi. Qutulishning hech ilojini topolmay, ikki yil asirlik azobini tortdim.

Lekin uchinchi yilga o'tganda men qochib qutulishga muyassar bo'ldim.

Mening qutulishimga quyidagi hodisa sabab bo'ldi. Xo'jam doim kema qayig'ini olib haftasiga bir-ikki marta dengizning qirg'oqqa yaqin joylarida baliq ovlar edi. U har safar meni va yana Ksuri degan bolani o'zi bilan birga olib ketar edi. Biz eshkaklarni zo'r berib eshar va qo'limizdan kelganicha xo'jayinimizni xursand qilar edik. Baliq ovlashga ancha usta bo'lganimdan men bilan haligi Ksuri degan bola ikkimizni xo'jam o'z qarindoshi bo'lgan bir keksa arabning nazorati ostida ba'zan baliq ovlab kelishga yuborar edi.

Bir kuni xo'jam katta mansabli ikki mavrni o'zi bilan yelkanli kemada sayr qilishga taklif etdi. Bu safar uchun u ko'p ovqat tayyorladi. Bu ozuqalarni kechqurundan boshlab qayiqqa yubortirgan edi. Qayiq katta bo'lib, xo'jayin o'zining kemadagi duradgor ustasiga bundan ikki yil oldin qayiqqa kayuta va kayuta ichiga esa oziq-ovqat asraydigan ombor qildirib qo'ygan edi. Oziq-ovqatning hammasini o'sha omborga men joylashtirdim.



– Ehtimol, mehmonlarning ov qilgisi kelar, – dedi xo‘jayin, – kemadan uchta miltiq olib, qayiqqa keltirib qo‘ygin.

Men buyurilgan ishning hammasini bajarib, qayiq sahnini yuvdim, machta bayrog‘ini ko‘tarib, ertasi-ga ertalabdan boshlab qayiqda mehmonlarni kutib turdim. Birdan xo‘jayin kelib, bugun mehmonlarim kelmaydi, ular zarur ish bilan band bo‘lib qolishdi, dedi. So‘ngra u menga, haligi Ksuri degan bolaga va mavrga: dengiz qirg‘og‘iga yaqin joydan baliq tutib kelinglar, dedi.

– Do‘stlarim kechqurun ovqatga kelishadi, shuning uchun ko‘proq baliq tutib kelinglar, – dedi u.

Ozodlik to‘g‘risida ko‘pdan beri o‘ylab yurgan orzu menda yana paydo bo‘ldi. Endi mening kemam bor. Xo‘jayin ketgan zamonog‘a, men baliq ovlash uchun emas, uzoq safarga jo‘nash uchun tayyorgarlik ko‘ra boshladim. To‘g‘ri, men qayoqqa yo‘l olishni bilmas edim, lekin qullikdan qutulmoq uchun har qanday yo‘l ham yaxshi.

– O‘zimiz uchun biror ovqat olishimiz kerak edi. Mehmonlar uchun tayyorlab qo‘yilgan ovqatga xo‘jayindan ruxsatsiz tega olmaymiz, – dedim mavrga.

Mavr fikrimga qo‘shildi va darrov katta bir savatda patir bilan uch ko‘za suv olib keldi.

Men xo‘jayinning vinosi qayerda turishini bilar edim, mavr borib ovqat keltirguncha men kemadagi hamma shishalarni go‘yo oldindan xo‘jayin uchun keltirib qo‘yilgandek qilib qayiqning omboriga joylashtirdim. Bundan tashqari, katta bir bo‘lak mum (ellik qadoqcha), yana bir kalava ip, arra va bolg‘acha keltirib qo‘ydim. Keyinchalik bular hammasi, ayniqsa, mum bizga asqotdi, mumdan shag‘am qildik.

Men yana bir hiyla topdim va soddadil arabni tag‘in aldadim. Uning nomi Ismoil bo‘lganidan hamma uni mulla der edi. Men unga mana bunday dedim:

– Mulla, kemada xo‘jayinning miltig‘i bor. Bir oz dori bilan bir necha o‘q topsak, yaxshi bo‘lar edi. Ehtimolki, o‘zimizga ovqat uchun qush otib olish nasib bo‘lar. Xo‘jayinning kemada dorisi va sochma o‘qlari bor, sen qayerda turishini bilasan-a?

– Mayli, olib kelaman, – dedi u. Arab katta bir charm xaltada bir yarim qadoqcha, balki undan ham oshiq keladigan miltiq dorisi, yana bir xaltada sochma o‘q olib keldi. U yana tayyorlangan o‘q ham keltirdi. Bularning hammasini qayiqqa joyladik.

Bundan tashqari, xo‘jayinning kayutasidan yana biroz dori topildi, men xumchadagi vino yuqini to‘kib tashlab, unga dorini solib qo‘ydim.


Uzoq safar uchun zarur narsalarning hammasini g‘amlab olib, biz go‘yo baliq oviga ketayotgan odamlardek Gavandan chiqib jo‘nadik.

Men qarmoqni suvga solib boraverdim-u, lekin hech baliq tutmadim (qarmoqqa baliq tushsa ham, jo‘rttaga tortib olmadim).

– Biz bu yerdan bitta ham baliq tutolmaymiz, – dedim arabga, – quruq qaytib borsak, xo‘jayin bizga rahmat demaydi. Dengizning ichkarirog‘iga borish kerak. Balki, qirg‘oqdan nariroqda baliqlar ko‘p ilinar.

U mening aldayotganimni payqamadi, gapimga unadi. U qayiqning burnida borar edi, chodir‘hi ko‘tardi.

Men esa kemaning quyrug‘ida rulni boshqarib borar edim. Qayiq dengiz ichkarisiga uch milcha kirgandan keyin go‘yo yana baliq ovlashga kirishgan odamdek bo‘lib, kemaning yurayotganini kishi sezmaydigan qilib olib ketdim. Keyin rulni bolaga berib, o‘zim qayiqning burniga qarab bordim, men arabning orqa tomonidan borib, uning belidan ushlab dast ko‘tarib dengizga irg‘itdim. U darrov suv yuziga sho‘ng‘ib chiqdi, chunki suzishga juda usta edi. Dunyoning qaysi burchiga olib ketsang



ham boraman, meni qayiqqa chiqarib ol, deb yalina boshladi. U juda tez suzganidan bizga yetay deb qoldi (shamol bo'sh esganidan qayiq zo'rg'a yurmoqda edi). Arabning bizga tezda yetib olishiga ko'zim yetdi, darhol kayutaga kirib miltiqni olib chiqdim-da, uni nishonga olib turib, bunday dedim:

– Men senga yomonlik qilmayman. Lekin hoziroq xarxasha qilmay, uyga qarab qayt! Sen suzishga ustasan, dengiz esa tinch, bazo'r qirg'oqqa yetib olasan. Orqangga qayt, senga ziyon yetkazmayman, agar qayiqning orqasidan ergasha bersang otib tashlayman, chunki men uzil-kesil ozodlikka chiqishga qaror berganman.

U qirg'oq tomonga burilib ketdi, uning suzib qirg'oqqa yetib olishiga ishonaman.

Bolani dengizga uloqtirib tashlab, shu arabni o'zim bilan birga olib ketishim mumkin edi, albatta, lekin cholga ishonib bo'lmas edi, men uning xo'jayiniga sadoqati baland ekanini bilar edim.

Arab qayiqdan orqada qolib ketgandan keyin, bolaga qarab bunday dedim:

– Ksuri, menga mehr qo'yib halol xizmat qilsang, seni katta odam qilib chiqaraman. «Muhammad haqqi sizga xiyonat qilmayman», – deb qasam ich, bo'lmasa, seni dengizga uloqtirib tashlayman.

Bola ko'zlarimga tikilib turib jilmaydi va: «Umr bo'yi sizga sodiq bo'laman, siz xohlagan tomonga boraman», – deb qasam ichdi. U shu qadar sofdillik bilan gapirdiki, ishonmasligim mumkin emas edi.

Arab suzib ko'zdan g'oyib bo'lib ketguncha, odamlar bizni go'yo Gibraltarga ketyapti, deb o'ylasin degan niyat bilan ochiq dengizga qarab boraverdim.

Qosh qoraya boshlashi bilanoq sharqdan uncha uzoqlashib ketmay, janubga tomon yo'l tutdim, chunki qirg'oqdan uzoqlashib ketishni istamadim.

Salqin shamol esib tursa ham, lekin dengiz bir xilda tinch, shu sababdan biz ancha tez borar edik.

Ikkinchi kuni soat uchlarda birinchi marta quruq yer ko'rindi. Biz Solihdan bir yuz ellik mil janubga kelib qolgan, Marokash sultonining va boshqa Afrika podsholarining yeridan juda uzoqlashib ketgan edik. Biz yaqinlashib kelgan qirg'oqda odamzod yo'q edi.

Lekin men asirlikda bo'lib, juda yurak oldirib qo'yan edim, shu sababdan yana arablarga asir tushib qolmayin, degan vahima bilan orqadan esayotgan shamoldan foydalanib, kemamni juda qattiq haydadim, besh kungacha langarga yotmay va qirg'oqqa to'xtamay, hadeb olg'a qarab yura berdim.

Besh kundan keyin shamol o'zgarib, janub tomondan esa boshladi. Orqamdan birovning quvib kelish xavfidan ko'nglim to'q bo'lgani uchun qirg'oqqa tushishga qaror berdim va kichkina bir daryoning mansabiga langar tashladim. Bu daryoning qanday daryo va qayerdan oqib kelishini, uning qirg'oqlarida qanday odamlar turishini bilolmadim. Ammo daryoning sohili quruq dasht edi, men buni ko'rib suyundim, chunki odamzodni ko'rishga hech yuragim qolmagan edi.

Ichish uchun suv olishim kerak edi, xolos. Kechga yaqin daryoning mansabiga kelib to'xtadik va qosh qoraygandan keyin quruq yerga chiqib, atrofni kuzatmoqchi bo'ldik. Lekin qorong'i tushdi deguncha odamni vahimaga soladigan ovozlari eshitila boshladi: daryo bo'yi har turli hayvonlar bilan to'la edi, ular o'kirishar, irillab vovullashar ediki, bechora Ksurining qo'rqqanidan o'ti yorilay dedi va menga, tong yorishguncha kemadan chiqmang, deb yalina boshladi.

– Durust, Ksuri, tong yorishguncha turamiz! – dedim. – Ammo yorug'da bizni odamlar ko'rib qolishi ehtimol, unda boshimizga yirtqich yo'lbars va sherlardan ham battarroq kunni solishi mumkin-da.

– Biz ularga qarab o‘q uzamiz, qo‘rqib qochib ketishadi! – dedi kulib Ksuri.

Bolaning ruhi tushmaganini ko‘rib, juda xursand bo‘ldim. U bundan keyin ham o‘zini shunday dadil tutsin deb, unga bir qultum vino berdim.

Men uning maslahatiga ko‘ndim, biz tun bo‘yi kemandan chiqmay, miltiqni qo‘limizga tutib, langarda turdik. Tong otguncha mijja qoqqanimiz yo‘q.

Langar tashlaganimizdan keyin ikki-uch soat o‘tgach, qirg‘oqda allaqanday hayvonlar zotidan bo‘lgan bahaybat yirtqichlarni ko‘rdik (ular qanaqa hayvon ekanini o‘zimiz ham bila olmadik). Ular daryo bo‘yiga kelib, suvga tushishdi, tipirchilab suvni shapillata boshlashdi, aftidan, cho‘milishdi, shekilli. Ular suv ichida irillashib, yana bo‘kirishdi. Men shu kungacha bunday qo‘rqinchli ovozni sira eshitmagan edim.

Ksuri qo‘rqqanidan qaltirab ketdi: rostini aytsam, men ham qo‘rqdim.

Ammo yirtqichlardan bittasi suvni shapillatib kemamizga qarab kelayotganini eshitganimizdan keyin, ikkimiz yana ham battarroq qo‘rqdik. Biz uning o‘zini ko‘ra olmadik, faqat harsillab pishqirayotganini eshitdik, uning ana shu harsillashidagina yirtqich nihoyatda bahaybat va dahshatli bo‘lsa kerak, deb o‘yladik.

– U arslonga o‘xshaydi. Langarni bo‘shatib bu yerdan keta qolaylik! – dedi Ksuri.

– Yo‘q, Ksuri, langarni uzmaymiz, arqonni uzunroq qo‘yib, dengiz ichkarisiga sal ketsak kifoya: hayvonlar bizning ketimizdan bormaydi, – deb e‘tiroz bildirdim.

Shu so‘zlarni aytib bo‘lmasimdan o‘q, haligi yirtqich kemamizdan ikki eshkak bo‘yi narida paydo bo‘ldi. Men biroz dovdirab turdim, ammo darhol kayutadan miltiqni olib chiqib, unga o‘q otdim. Yirtqich orqasiga burilib, qirg‘oqqa qarab suzib ketdi.

Men otgan miltiqning ovozi gumburlab eshitilgan hamono hayvonlarning faryod ko'tarib o'kirishidan daryo bo'yi go'yo bir dahshatxonaga aylandiki, buni tasvirlab bermoq qiyin. Aftidan, bu yerdagi hayvonlar miltiq ovozini avval sira eshitmagan bo'lsa kerak. Shundan so'ng men kechasi bu yerda daryo bo'yiga tushish mumkin emasligiga tamoman ishondim; ammo kunduzi tushib bo'ladimi, yo'qmi, bu ham hali bizga qorong'i; biror yovvoyi odamga yemish bo'lishdan ko'ra arslon yoki yo'lbarsning changaliga tushgan yaxshi, albatta.

Ammo biz bu yerdami yoki boshqa bir joyga boribmi, harna qilib bo'lsa ham, daryo bo'yiga tushmog'imiz shart, chunki bizning ichishga bir qultum ham suvimiz qolmagan edi. Tashnalik bizni juda qiynab qo'ydi. Nihoyat tong otdi ham, Ksuri, menga ruxsat bersangiz, sayoz yerdan qirg'oqqacha kechib borib, suv topib kelar edim, dedi. Men undan nega men emas-u sen borasan, deb so'ragan edim, u:

– Mabodo, yovvoyi odam kelib qolgudek bo'lsa, meni yesa ham, siz omon qolasiz, – deb javob berdi.

Bu javobidan meni benihoyat yaxshi ko'rib qolganligi aniq sezilib turar edi, buni ko'rib unga mehrim ortdi.

– Ikkimiz birga boramiz, Ksuri, – dedim, – mabodo, yovvoyi odam kelib qolgudek bo'lsa, biz uni otib tashlaymiz va u seni ham, meni ham yeyolmaydi.

Bolaga qotgan non bilan bir qultum vino berdim, keyin qayiqni qirg'oqqa yaqin olib keldik. Suvga tushib, daryo bo'yidagi sayoz joyga keldik. Biz miltiq bilan suv olish uchun ikkita ko'zachadan boshqa hech narsa olganimiz yo'q. Kemani ko'zdan qochir-maslik uchun qirg'oqdan nariga ketgim kelmadi. Men yovvoyi odamlar tag'in o'z piragilariga<sup>4</sup> tushib bizning kemamizga kelmasinlar degan xavotirda edim. Lekin

<sup>4</sup> Pragi – yovvoyi odamlar qayig'i.

Ksuri qirg'oqdan bir milcha narida bir jarlikni ko'rib, ko'zani ko'targanicha yugurib ketdi.

Qarasam, u chopganicha qaytib kelmoqda. Qo'rqqanimdan: «Uni yovvoyi odamlar quvladimikan? Biror yirtqich hayvonni ko'rib qo'rqdimikan», – deb o'ylay boshladim.

Unga yordam bermoq uchun yugurdim, lekin yaqinroq borgandan keyin uning yelkasida katta bir narsa osilib kelayotganini ko'rdim. Ksuri, bizdagi quyonga o'xshash bir jonivorni o'ldiribdi, bu jonivorning faqat yungi boshqa rangda, oyoqlari uzunroq, xolos. Bu jonivorning go'shtiga ikkimiz ham juda suyundik, ammo Ksuri, jarlikda juda ko'p toza suv bor ekan deganda, men yana ham suyundim.

Ko'zalarni suvga to'ldirib olib, haligi quyonning go'shtini pishirib, xursandchilik qildik, keyin jo'nab ketdik. Biz bu yerda odamzoddan nishon ko'rmadik.

Bu daryoning mansabidan chiqib ketganimizdan keyin yo'l-yo'lakay yana bir necha joyda qirg'oqqa tushib suv oldik.

Bir kuni erta tong mahali bizga noma'lum bo'lgan bir burunga kelib langar tashladik. Suv qirg'oqqa urila boshlagan edi. Menga qaraganda ko'zlari o'tkirroq bo'lsa kerakki, Ksuri shivirladi:

– Bu yerdan ketaylik. Huv, anovi tepaning ustida yotgan bahaybat hayvonga qarang! U qattiq uyquda yotibdi, mabodo, uyg'onib qolgudek bo'lsa, bizni xarob qiladi!

– Menga qara, Ksuri, qirg'oqqa borib, shu arslonni o'ldirib kel, – dedim. Bola qo'rqib ketdi.

– Uni o'ldirayin! Arslon meni chivindek yutib yuborar, – dedi u.

Men unga, qimirlama, dedim va boshqa hech so'z aytmay, kayutadan miltiqlarning hammasini olib chiqdim (bizning uchta miltig'imiz bor edi). Miltiqlarning eng katta va og'irini olib, uning og'ziga

yaxshilab doridan solib, qo'rg'oshindan yasalgan ikkita to'ng'iz otadigan o'q soldim, ikkinchi miltiqqa ikkita katta o'q soldim, uchinchisiga esa beshta kichikroq o'q solib qo'ydim.

Birinchi miltiqni qo'lga oldim-da, arslonni yaxshilab turib otdim, men uning boshini nishonga olgan edim, lekin u oldingi oyoqlari bilan boshini bekitib yotgan edi, o'q uning oyog'iga tegib, kaftining suyaklarini mayda-mayda qilib yuboribdi. Arslon bo'kirib, o'rnidan turdi, lekin og'riqqa chidolmay yiqildi, keyin yana o'rnidan turib, uch oyoqlab oqsa-gancha sudralib qirg'oqdan nari ketdi. U jon-jahdi bilan shunday qattiq o'kirdiki, men bunday dahshatli ovozni hech qachon eshitgan emasman.

Otgan o'qim arslonning boshiga tegmaganidan sal xavotir tortdim, ammo ikkinchi miltiqni olib yana yurdim, bu safar o'qim xuddi mo'ljalga tegdi. Arslon xirillagan ovoz chiqarib, yiqildi.

Endi Ksuri yuragi dov berib, qirg'oqqa borish uchun ruxsat so'ray boshladi.

– Mayli, bor! – dedim.

Bola sakrab suvga tushib, bir qo'lida miltiqni ushlab, bir qo'llab suzganicha qirg'oqqa qarab ketdi. Yiqilgan arslon yoniga borib, miltiqning og'zini uning qulog'iga tirab turib, bir otishdayoq uni o'ldirdi.

Ovda arslonni otib o'ldirmoq yaxshi gap-u, lekin uning go'shtini yeb bo'lmas edi, shu sababdan, ke-raksiz hayvonni otamiz deb uch o'qni behuda isrof qil-ganimizga juda achindim. Shunda Ksuri, o'ldirilgan arslonning biror yerini kesib olaman dedi va qayiqqa qaytib kelganimizdan keyin mendan boltani so'radi.

– Nega? – dedim.

– Arslonni boshini kesib olaman, – deb javob qildi u.

Lekin arslonning boshini kesib olishga uning kuchi yetmadi; oldingi oyog'ini kesib, qayiqqa olib keldi. Oyoq juda katta edi. Mening xayolimga ars-



lonning terisi bizning bir korimizga yarab qolar degan fikr keldi. Men uning terisini shilib olishga qaror qildim. Biz yana qirg'oqqa bordik, lekin ishga qanday kirishishni bila olmay hayron bo'lib turdim. Ksuri menga qaraganda ancha epchil chiqdi.

Biz kun bo'yi shu ish bilan ovora bo'ldik. Terini kech kirgandagina shilib bo'ldik. Uni qayig'irizning ustiga yozib qo'ydik. Ikki kundan keyin bu teri of-tobda tamom qurib, menga ko'rpa bo'ldi.

Bu qirg'oqdan jo'nab, to'g'ri janubga qarab yo'l oldik va o'n-o'n ikki kungacha muttasil yo'limizni o'zgartirmay to'ppa-to'g'ri yurib bordik. Bizning oziq-ovqatimiz juda oz qoldi, shuning uchun qolgan ozuqalarni mumkin qadar tejashga harakat qildik.

Men Gambiya yoki Senegal daryolarining mansabigacha, ya'ni, Yashil burunga kelib tutashgan joy-gacha yetib olmoqchi bo'ldim. Bu yerda Ovrupodan kelayotgan biror kema uchrab qolar, degan umidda edim. Mabodo, biror kemani uchrata olmasam, ochiq dengizga tushib, orollarni qidirishim, yo bo'lmasa, yovvoyi odamlar orasida halok bo'lishim turgan gap ekanini bilar edim, boshqa yo'l yo'q edi.

Shuningdek, Ovrupodan keluvchi hamma kemalar, Gvineya qirg'oqlarigami, Braziliyagami yoki Hindistongami, ishqilib, qayoqqa borsalar ham, Yashil burundan o'tishini bilar edim. Shuning uchun mening butun baxtim Yashil burunda Ovrupodan kelayotgan biror kemani uchrata olishimda, deb o'ylardim.

«Agar shu yerda kema uchrata olmasam, o'lib ketishim aniq», – dedim o'z-o'zimga.

Yana o'n kuncha o'tdi, yo'lni o'zgartmay, janub tomonga boraverdik. Boshlab daryo bo'ylarida odamzod ko'rinmadi, keyin ikki-uch joyda qora tanli odamlarni ko'rdik, ular qirg'oqda bizga tikilishib turar edilar. Men qirg'oqqa tushib ular bilan suh-

batlashmoqchi bo'ldim, lekin mening dono maslahatchim Ksuri:

– Tushmang! Tushmang! Tusha ko'rmang! – dedi.

Ksurining maslahatiga qaramay, shu odamlar bilan gaplashmoq niyatida qayiqni qirg'oqqa yaqinroq olib yura berdim.

Yovvoyi odamlar mening niyatimni fahmlashdi, shekilli, ancha joygacha qirg'oq bo'ylab bizning orqamizdan yugurib borishdi.

Men ular qurolsiz ekanini bildim: faqat bittasining qo'lida uzun, ingichka kaltak bor edi. Ksuri, uning qo'lidagi yoy, yovvoyi odamlar yoyni juda uzoqqa va kishini hayratda qoldirarlik darajada nishonga olib otadi, dedi. Shuning uchun o'zim uzoqroqda turib, imo-ishoralar bilan ularga biz ochmiz, bizga ovqat kerak, degan fikrni tushuntirdim. Ular maqsadimni tushundi. Ular ham shunday imo-ishoralar bilan menga, qayiqni to'xtatgin, sizlarga ovqat keltirib beramiz, degan fikrni anglatishdi.

Men yelkanni tushirdim, qayiq to'xtadi, yovvoyi odamlardan ikkisi allaqayoqqa yugurib ketishdi, yarim soatcha o'tgach, katta-katta ikki bo'lak quritilgan go'sht va shu yerda bitadigan ikki qop don olib kelishdi. Biz go'shtning nima go'shti, donning qanday don ekanini bilganimiz yo'q, shunga qaramay, har ikkisini ham qabul qilib olishga hozir edik.

Ammo bu tortiqni qanday olish kerak? Qirg'oqqa tushishga yovvoyi odamlardan qo'rqamiz, ular bo'lsa bizdan qo'rqishadi. Har ikki tomon ham o'zini xavf-xatarsiz bilsin deb, yovvoyi odamlar ozuqalarni qirg'oqqa yaqin bir joyga qo'yib, biz ularni qayiqqa keltirib olgunimizcha o'zlari nariroqqa borib turishdi, keyin yana avvalgi joylariga kelib turishdi.

Biz bu ozuqalar o'rniga ularga beradigan hech narsamiz bo'lmaganidan haligidek alomatlar bilan ularga minnatdorlik bildirdik.

Ammo shu ondayoq ularga xizmat ko'rsatmoq uchun bizga juda yaxshi imkon tug'ildi.

Biz hali qayiqni yurgizib bo'lmagan ham edikki, tepadan ikkita zo'r, bahaybat yirtqichning yugurib kelayotganini ko'rib qoldik. Ular to'g'ri dengizga qarab yugurishmoqda edi. Biz ular bir-birini quvlab kelyapti deb o'yladik. Qirg'oqdagi odamlar, ayniqsa, xotin-xalaj juda qo'rqib ketishdi. Faqat qo'lida yoy ushlagan vahshiygina o'rnidan qimirlamay turardi, qolganlari har tomonga qochib ketishdi. Ammo yirtqich hayvonlar odamlardan hech biriga ziyon yetkazmay to'ppa-to'g'ri dengizga qarab kelishdi. Ular har ikkisi o'zini suvga tashlab, sho'ng'ib suza boshladi, bu holdan, ular faqat dengizga cho'milish uchun kelibdi deb o'ylash mumkin edi.

Ulardan biri suzib bizning qayig'imizga juda yaqin kelib qoldi. Men uning bizga bunchalik yaqin kelishini hech o'ylamagan edim, men ham dovdirab turmadim: miltiqni yovga ro'para qilib turdim. U nishonga olish mumkin bo'ladigan darajada yaqin kelishi bilanoq tepkini bosib, uning boshidan urdim. U shu ondayoq suvga botdi, keyin sho'ng'ib chiqib, goh suvga cho'kib, goh suv betiga chiqib qirg'oqqa qarab suzib ketdi. U og'iz-burniga suv to'lib, qoniga belanib jon talashib borar edi. U qirg'oqqa yetib bora olmay o'ldi.

Miltiqni varanglagan ovozini eshitib va undan chiqqan o'tni ko'rib vahshiylar hang-u mang bo'lib qolishdi, ba'zilar qo'rqqanidan o'likdek yer bag'irlab qoldi. Lekin yirtqichning o'lganligini va mening haligidek imo bilan ularni qirg'oqqa kelishga undayotganimni ko'rib, suv bo'yiga kelib to'planishdi: aftidan, ular o'ldirilgan yirtqichni suvdan olib chiqishni ko'zlashar edi. Yirtqich cho'kib ketgan joyning suvi qon bilan qizarib turar edi, shu sababdan men uni darrov topib oldim. Uni arqonga bog'lab,

arqonning bir uchini yovvoyilarga tashladim, ular o'lik yirtqichni qirg'oqqa tortib chiqdilar. U yunglari tovlanib turuvchi juda chiroyli katta qoplon edi. Yovvoyilar behad xursand bo'lganliklaridan qo'llarini osmonga ko'tarar edilar, ular men qoplonni nima bilan o'ldirganimni bilolmay hayron edilar.

Ikkinchi yirtqich miltiqning ovozidan qo'rqib ketib, qirg'oqqa suzib chiqdi-da, boyagi tepaga qarab qochdi.

Yovvoyilar o'lik qoplonning go'shtini yemoqqa orzumand ekanliklarini sezib, bu yirtqichni ularga tortiq qilib bersam, juda xursand bo'lishadi, degan fikr xayolimga keldi. Imo-ishoralar vositasi bilan qoplonni olishlari mumkin ekanini bildirdim. Ular mendan juda minnatdor bo'lishib, darhol ishga tushishdi. Ularning pichoqlari yo'q edi, ammo kalta uchi o'tkir kaltakchalar bilan qoplonni terisini hash-pash deguncha shilib olishdiki, hatto biz pichoq bilan ham bunchalik tez shilib ololmagan bo'lar edik. Ular menga go'shtdan olishni taklif qilishdi, lekin haligidek imo-ishoralar bilan, go'shtini sizlarga berdim, men olmayman, degan gapni anglatdim. Ulardan qoplonning terisini so'ragan edim, ular terini jon deb menga berishdi. Yovvoyi odamlar menga yana ozuqalar keltirib berishdi, men ular bergan bu tortiqni juda xursand bo'lib oldim. Men ulardan yana suv so'radim; ko'zachalarimizni barini olib chiqib, suvimiz yo'qligini, uning bo'shligini va ulardan shu ko'zada suv so'raganimni bildirmoq uchun ko'zani to'ntarib qo'ydim. Ular allanima deb qichqirishdi. Sal o'tmay, ikki xotin loydan yasalgan katta idishda (yovvoyi odamlar loyni oftobda kuydirishsa kerak) suv olib kelishdi. Xotinlar bu idishni qirg'oqqa qo'yib, o'zlari boyagidek nariroqqa borib turishdi. Men Ksurining qo'liga uchala ko'zani tuttirib yubordim, u ko'zalarni suvga to'ldirib keldi.

Suv va oziq-ovqatni g'amlab olib, mehribon yovvoyilarim bilan xayrlashib, o'n bir kungacha qirg'oqqa burilmay janub tomonga suzib bora berdim. Nihoyat, o'n bir milcha narida dengiz ichiga turtib kirgan bir bo'lak yerni ko'rdim. Havo shamolsiz, tinch edi, bu yerni aylanib o'tmoq uchun qayiqni ochiq dengizga burdim. Bu orolchanning dengizga kirgan joyiga borgan paytimizda, okean tomonda qirg'oqdan olti milcha narida boshqa bir orol borligini aniq ko'rdim va uzunchoq yer – Yashil buruni, uzoqdan ko'rinayotgan narigi yer Yashil burunning orollaridan biri, degan juda to'g'ri fikrga keldim. Lekin orol juda uzoq bo'lganidan unga bormaslikka qaror berdim.

Bu choq Ksurining:

– Afandim! Afandim! Kema! – deb qichqirgan ovo-zini eshitdim.

Soddadil Ksuri, juda qo'rqib ketganidan eshushini yo'qotib qo'yayozdi: bu kemani u bizning orqamizdan xo'jayin yuborgan kemalardan, deb o'ylabdi. Lekin men arablardan juda uzoq ketganimizni bilar va endi ular bizni ushlab ololmasligiga ishonar edim.

Kayutadan yugurib chiqib, darrov kemani ko'rdim. Hatto men bu kema portugaliyaliklar kemasi ekanini ham payqadim. «Bu kema qul uchun borayotgan kema bo'lsa kerak, – deb o'yladim, – to'g'ri, u negrlarni tutib kelmoq uchun Gvineya qirg'oqlariga borayotir». Lekin diqqat bilan kuzatgandan keyin kemaning boshqa tomonga ketayotganini va qirg'oqqa kelib to'xtashni ixtiyor ham qilmaganini bildim. Shundan keyin men harna qilib bo'lsa ham, kemadagilar bilan gaplashmoq uchun chodirlarni ko'tarib, ochiq dengizga yo'l soldim.

Sal o'tmayoq, men qayiqni juda jadal yurgizib borganimda ham kemadagilar mening signalimni

payqaydigan yaqin masofaga borolmasligimga aniq ishonдим. Lekin xuddi men qayiqni jadal yurgizgan paytda kemanding palubasidan (durbin bilan bo'lsa kerak) bizni ko'ribdilar. Keyin menga aytishlaricha, kemandagilar, bu qayiq Ovrupodan kelib dengizga g'arq bo'lgan biror kemanding qayig'i bo'lsa kerak, deb o'ylashibdi. Meni yaqinroq kelsin degan niyat bilan kema sekin yura boshladi, uch soatdan so'ng men kemaga yetib bordim.

Mendan dastlab portugal tilida, keyin ispan tilida, so'ngra fransuz tilida, kimsan, deb so'radilar, lekin bu tillardan birini ham bilmas edim.

Nihoyat, shotlandiyalik bir matros men bilan ingliz tilida gaplashdi, unga men inglizman, asirlikdan qochib kelyapmiz, dedim. Shundan keyin men va mening yo'ldoshimni juda samimiylik ko'rsatib, kemaga taklif qildilar. Ko'p o'tmay, bizni qayig'imiz bilan birga kema palubasiga chiqarib oldilar.

O'zimizni ozod kishi deb bilganimdan keyin shunday shod-xurram bo'ldimki, buni so'z bilan izhor qilib bo'lmaydi. Men qullikdan ham, o'lim vahimasidan ham qutuldim! Shodligim ichimga sig'mas edi. Xursand bo'lib ketganimdan, meni qutqazib olgan kapitanga bor molimni hammasini in'om qildim. Lekin u olmadi.

– Men sizning hech narsangizni olmayman, – dedi u, – Braziliyaga yetib borgandan keyin hamma narsalaringiz o'zingizga qaytarib beriladi. Braziliyadan Angliya juda uzoq, agar narsalaringizni men olsam, siz u yerda ochlikdan halok bo'lasiz. Men sizni keyincha halok qilish niyatida qutqazmadim. Yo'q, yo'q, ingliz to'rasi, men sizni Braziliyagacha tekinga olib boraman, bu narsalaringiz u yerda ovqatlanish va undan o'z yurtingizga yetib olmog'ingiz uchun koringizga yaraydi.

## **To'rtinchi bob**

### **ROBINZONNING BRAZILIYADA TURIB QOLGANI, YANA DENGIZGA SAFAR QILGANI, KEMASINING HALOKATGA UCHRAGANI**

Kapitan so'zining ustidan chiqadigan, muruvvatli va saxiy odam edi. U va'dalarining hammasini bajardi. U mening narsalarimga matroslardan hech biri daxl qilmasin deb buyurdi, keyin menga tegishli narsalarning hammasini ro'yxat qilib, o'z buyumlariga qo'shtirib qo'ydi. Braziliyaga yetib kelgandan keyin buyumlarini talab qilib oling, deb ro'yxatni menga topshirdi.

Kapitan mening qayig'imni sotib olmoqchi bo'ldi. Haqiqatan ham, yaxshi qayiq edi. Kapitan qayiqni o'z kemasi uchun sotib olmoqchi ekanini aytib, mendan bahosini so'radi.

– Siz menga shuncha yaxshilik qildingizki, men qayiqqa narx aytib, savdolashib o'tirishga o'zimni haqsiz deb bilaman. Berganingizni olaveraman, – dedim.

Shundan keyin kapitan Braziliyaga borganda qayiq uchun sakson chervon berish sharti bilan tilxat bermoqchi, bordi-yu, u yerda boshqa odam topilib narxini oshirsa, o'sha narxda pul to'lamoqchi bo'ldi.

Biz Braziliyagacha yo'lda hech shikast ko'rmadik, yigirma ikki kundan keyin Avliyolar buxtasiga kelib tushdik.

Bu yerga kelib tushish bilanoq tortgan mashaqqatlarim unutilib ketdi, endi men xo'rlangan qul emasman, hayotim yangidan boshlanadi, deb astoydil ishondim.

Portugaliya kemasi kapitanining qilgan benihoya yaxshiligini hech vaqt unutmayman.

Kapitan meni olib kelgani uchun bir tiyin ham haq olmadi, buning ustiga, uchta ko'zamgacha – hamma buyumlarimni bekam-u ko'st qaytarib berdi, arslon terisiga qirq dykat, qoplon terisiga yigirma dykat pul

to'ldi va umuman, sotadigan ortiqcha buyumlarimning hammasi, shu jumladan, bir yashik vinoni, ikki miltiq va qolgan mumni (uning bir qismini shag'am qilib yoqqan edik) sotib oldi. Xullas, buyumlarimning ko'pini sotib, Braziliya qirg'og'iga tushganimda, kismamda ikki yuz yigirma oltin pul bor edi.

Yo'ldoshim Ksuri bilan ajralgim kelmas edi. Ammo unga qildiradigan ishim yo'q; buning ustiga, ovqat topib, uni boqa olishimga ham ishonmas edim. Shuning uchun kapitan, rozi bo'lsangiz, bolani kemamda shogirdlikka olib qolib, keyinchalik matros qilar edim, deganda juda suyundim. Ksuri yo'lda kapitanni yaxshi ko'rib qolganidan, shu kemada uning qo'l ostida ishlashini bilib, juda xursand bo'ldi.

Braziliyaga kelganimizdan keyin do'stim kapitan meni o'ziga o'xshash odamparvar va ochiq ko'ngilli bir o'rtog'ining uyiga olib bordi. Bu odam qand lavlagi ekiladigan yerlarning va qand zavodining xo'jayini ekan. Men ancha vaqt shu kishining uyida turdim va shu tufayli qand lavlagisi yetishtirishni o'rganib oldim.

Bu yerdagi odamlarning juda yaxshi kun ko'rishini va tez orada boyib ketishini ko'rib, men Braziliyadan joy olib, qand lavlagisi ekmoq fikriga tushdim. Bor pulimga ijaraga yer oldim va bo'lg'usi ekinzorimning hamda hovli-joyning rejasini tuzishga kirishdim. Londonda biroz pulim qolgan edi, u pulni ham shu ishga xarjlashga qaror berdim.

Mening ekinzorim yonida Lissabondan ko'chib kelgan bir qo'shnim bor edi. Uning nomi – Uells. Bu odam asli ingliz bo'lib, ko'pdan beri Portugaliyada turib qolgan edi. Biz u bilan tez orada tanishib, juda yaqin do'st bo'lib ketdik. Ikkimizning ham mablag'imiz kam bo'lganligidan dastlabki ikki yil ichida olgan hosilimiz bilan zo'rg'a tiriklik o'tkazdik. Lekin yer ishlanib, hosilga kirishi bilan biz boyib ketdik.



Braziliyada to'rt yilcha istiqomat qilib, ishimni rivojga mindirib olganimdan keyin, ravshanki, men ispan tilini o'rganish bilangina kifoyalanib qolmadim. Balki yaqin oradagi odamlar bilan, shu qatorida bizga yaqin joyda, dengiz bo'yida bo'lmish San-Salvador shahridagi savdogarlar bilan ham tanish-bilish bo'lib oldim. Bu odamlarning ko'pi men bilan do'st bo'lib ketdi. Biz bot-bot uchrashib turardik, men ularga ko'pincha o'zimning Gvineya qirg'oqlariga qilgan ikki safarim to'g'risida, u yerdagi negrlar bilan savdo qilishning, ya'ni, har xil munchoq, pichoq, qaychi, bolta yoki oynalar olib borib, bularga oltin qumi va fil suyagi almashtirib kelish mumkinligi to'g'risida gapirib berar edim.

Ular mening so'zlarimni diqqat bilan eshitib, bu gaplarni uzoq muhokama qilar edilar.

Kunlardan bir kun bu odamlardan uchtasi mening uyimga kelib, oradagi gapni sir saqlashga mendan so'z olgandan so'ng bunday deyishdi:

– Hammamizning ham ekinzorimiz bor, ammo yerni ishlaydigan odamimiz yo'qligidan ishimiz rivoj topib ketmay turibdi. Siz o'zingiz borgan joydan qiyinchilik ko'rmay ko'p oltin qumi va boshqa qimmatbaho narsalar olib kelish mumkin, dedingiz. Biz kema bilan Gvineyaga oltin olib kelmoq uchun bormoqchimiz. Biz qora qullar sotib olib kelmoqchimiz. Oltinimiz bo'lsa, uylarimiz bo'lsa, ekinzordan ko'p hosil ola bilamiz. Siz Gvineyaga borishga rozi bo'lasizmi? Siz bu ish uchun bir chaqa ham pul qo'shmaysiz: u yerdan almashtirib kelish uchun lozim bo'ladigan mollarning hammasini sizga o'zimiz beramiz. Keladigan foydaga siz, mehnatingiz uchun biz bilan bab-baravar sheriksiz.

Men ularga, bormayman, deyishim va bu serhosil Braziliyada uzoq vaqt turishim lozim, deyishim kerak edi, ammo takror aytamanki, boshimga tushgan

kulfatlar uchun doim o'zim aybdorman. Dengizda bo'ladigan yangi sarguzashtlar meni o'ziga maftun qildi va xursand bo'lganimdan boshim aylanib qoldi.

Dengizda sayohat qilmoqqa ishtiyoqimning balandligi bu safar ham zo'r chiqdi va otamning yaxshi maslahatlarini inobatga olmaganimdek, yaqin do'stlarimning kishini yo'ldan ozdiruvchi taklifiga ham qarshi bora olmadim.

Men ularga javob qilib, Gvineyaga bajonidil boraman, lekin bir shartim bor: mening yo'qlik vaqtimda mol-mulkinga qarab turishni o'z ustlaringizga olasizlar va bordi-yu, qaytib kelish menga nasib bo'lmagan taqdirda, bu mol-mulkni men aytib qoldirgan tartibda tasarruf qilasiz, dedim.

Ular mening shartlarimni to'la bajarishga qat'iy so'z berdilar, shundan keyin biz o'z o'rtamizdagi bitimni yozib, rasmiylashtirib qo'ydik. Men ham o'z tomonimdan og'zaki vasiyat qoldirdim: mol-mulkimning hammasi meni o'lim xavfidan qutqazgan portugaliyalik kapitanga berilsin, deb vasiyat qildim. Shu bilan birga, kapitan pulimning bir qismini Angliyaga – kexsa ota-onamga yuborsin, deb pisanda qilib qo'ydim.

Kema safarga jo'nashga tayyorlandi, hamrohlarim o'z oramizdagi bitimga muvofiq, unga kerakli molni yukladilar.

Shunday qilib, 1659-yil 1-sentabr kuni men yana kema palubasiga chiqdim. Bu safar ham, sakkiz yil avval ota-onamni tashlab ketgan kunning o'zida yo'lga chiqdim, holbuki, o'sha aqlsizligim oqibatida butun yoshligimni xarob qilgan edim.

O'n ikkinchi kuni ekvatoridan o'tib, 70 42 shimoliy kenglik darajasiga yetganimizda, juda qattiq bo'ronga, to'g'rirog'i, dovulga duch keldik. Dovul janubi-sharq tomondan urib turdi, keyin ro'paradan va nihoyat shimoli-sharq tomonidan urdi, shu holda dovul tobora kuchayib, quturaverdi, biz o'n ikki

kun mobaynida tabiat balo-qazosining hukmi ostida qoldik, kemamizning jilovini to'liqin ushlab qayoqqa haydasa, o'sha yoqqa borishga majbur bo'ldik.

Shu o'n ikki kun ichida men har daqiqa o'lim xavfida turdim va bittamiz ham bu balodan omon qolarmiz deb ishonmadik.

Bir kuni ertalab (dovul hamon avvalgidek quturib turmoqda edi) matroslardan biri:

– Quruq yer! – deb qichqirdi.

Ammo bizning bu baxtiqaro kemamiz qaysi qirg'oq yonidan o'tib borayotganini bilmoq uchun hali kayutadan chiqib ulgurmasimizdan, dabdurustdan kemamiz sayoz yerga tiqilib qoldi. Kema birvarakayiga sayoz yerga tiqilib to'xtagan hamon nihoyatda zo'r va kuchli to'liqin kelib, palubaga shunday zarba bilan urildiki, biz darhol kayutaga kirib yashirinishga majbur bo'ldik.

Kema qumga juda qattiq botib qolganidan uni yurgizib ketishning hech iloji yo'q edi. Biz uchun yolg'iz bir yo'l, ya'ni, o'zimizni qutqarishning ilojini ko'rish yo'li qolgan edi, xolos. Bizning ikkita qayig'imiz bor edi. Qayiqning biri kemaning orqa tomoniga bog'lab qo'yilgan edi. Dovul vaqtida bu qayiq kema quyrug'iga urilib, dengizga g'arq bo'ldi yoki uni dovul oqizib ketdi. Bitta qayiq butun qoldi, ammo uni suvga tushirish mumkin bo'ladimi-yo'qmi, bunga hech kimning aqli bovar qilmas edi. Lekin o'ylab turishga fursat yo'q edi: kemaning har daqiqada qoq bo'linib ketishi ehtimol edi.

Kapitan yordamchisi matroslar yordami bilan qayiqni darhol kemadan olib, suvga tashladi. Biz o'n bir kishi hammamiz qayiqqa tushdik, endi bizning taqdirimiz kuchayib, mavj urib turgan to'liqinlar qo'lida qoldi, chunki garchi dovul sal pasaygan bo'lsa ham, katta-katta to'liqinlar hamon qirg'oqqa borib urilmoqda va dengiz hayqirib, quturib turmoqda edi.

Biz yana ham qattiq tahlika ostida qoldik: hozir qayiq ag'darilib ketadi-yu, o'zimiz halok bo'lamiz deb ishondik. Bizning chodir-yelkanlarimiz yo'q edi, ammo chodirlar bo'lganda ham, baribir biz uchun befoyda edi. Shunchalik qattiq qo'rqdikki, asti qo'yavering, biz o'limga olib ketilayotgan odamlardek vahima ichida qayiqni qirg'oqqa haydab bormoqdamiz. Hammamiz ham qayiq sohilga yaqin kelishi bilanoq qirg'oqqa urilgan to'lqin uni tarasha singari ilib ketadi deb o'ylar edik.

Dovul bizni yana shu holda to'rt milcha surib bordi va birvarakayiga, tog'dek baland ko'tarilib, mavj urib, quturib kelayotgan to'lqin qayig'imizning orqasiga kelib urildi. Bu so'nggi va eng dahshatli zarba edi. Qayig'imiz ag'darilib ketdi. Biz ko'z yumib ochguncha suv tagida qoldik. Dovul har qaysimizni har tomonga yumaloq-yostiq qilib olib ketdi.

Suv tagida qolganimni bilib, shuncha qattiq qo'rqdimki, buni ta'riflab berishga tilim ojiz. Men suzishga juda ustaman, shunga qaramay, darrov nafasimni rostlab, bu o'pqondan chiqib olishga sira madorim qolmagan edi. Nafasim og'zimga tiqilib o'layozdim. To'lqin meni qirg'oqqa tomon yumaloq-yostiq qilib olib ketdi va sulaytirib tashlaganicha o'zi bo'lak-bo'lak bo'lib orqasiga qaytdi. Og'zi-burnim suvga to'lgan edi. Nafasimni rostlab sal hushimga keldim. Qirg'oq juda yaqin (men o'ylagandan ham yaqin) qolgan edi, qalqib oyoqqa turdim va shoshib-pishib yugurdim. Boshqa to'lqin yetib kelib, meni ilib ketguncha sohilga chiqib olaman, deb o'ylagan edim, ammo undan qochib qutula olmasligimga aqlim yetdi: dengiz hayqirib, baland tog'dek ko'tarilib, go'yo quturgan dushman singari orqamdan quvib kelmoqda. Meni sohilga surib borgan boshqa to'lqinlardan qochishga harakat ham qilmadim, lekin ular qirg'oqqa sal urilib orqaga qaytdilar, men bo'lsam

yana ilib dengizga olib ketmasin deb, sohilga chiqib olmoq uchun tipirchilab ko'p urindim.

Ikkinchi bir to'liqin yigirma-o'ttiz futcha keladigan suvga meni g'arq qilib tashladi. Keyin ilib olganicha parrak qilib sohilga tomon olib ketdi. Bor kuchim bilan to'liqinni yana tezlatib, ancha vaqt suzib bordim va suv ichida nafasim qaytib o'layozdim. To'liqin meni balandlikka olib chiqayotganday bo'ldi. Baxtim yorishib, hayal o'tmay qo'lim bilan boshim suv betiga chiqib qoldi, garchi bir daqiqa o'tmasdanoq boshqa bir to'liqin orqamdan balo-qazodek quvib kelayotgan bo'lsa ham, lekin haligi bir nafaslik fursat menga kuch va ruh berdi. Quvib kelayotgan to'liqin meni yana ko'mib tashladi, ammo bu safar suv tagida uzoq qolib ketmadim. To'liqin bo'laklarga ajralib, orqasiga qaytganda, men ham unga bo'sh kelmadim, qirg'oqqa qarab suza boshladim va sal o'tmay oyoqlarim yerga tegdi. Ikki-uch daqiqa turib chuqur nafas oldim va bor kuchimni yig'ib, qirg'oqqa tomon tashlandim.

Ammo shunda ham quturgan dengizdan qutulolmadim; u orqamdan yana quva boshladi. To'liqin yana ikki bor menga yetib, o'z zabtiga oldi va qirg'oqqa surib bordi, qirg'oqning bu yeri juda nishab edi.

Eng so'nggi to'liqin meni olib borib qoyaga shuncha qattiq urdiki, hushimdan ketib qoldim. Men biroz vaqt hushsiz yotdim, agar shu chog' dengiz meni yana ilib o'z zabtiga olganda, albatta, halok bo'lar edim.

Xayriyatki, darrov hushimga kela qoldim: kelayotgan to'liqin meni yana chulg'ab olishi aniqligini bilib, qoyaga mahkam yopishib oldim va nafasimni rostlab, to'liqinni orqaga qaytishini kutib turdim.

Bu joy sohilga yaqin bo'lganidan to'liqin uncha kuchli emas edi. Suv orqasiga qaytdi deguncha yana jahd bilan olg'a yugurdim va sohilga shuncha yaqinlashib qoldimki, keyin kelgan to'liqin garchi meni boshim bilan ko'mib yuborsa ham, dengizga olib

keta olmadi. Yana bir necha qadam yurib yugurib bordim va sohilga chiqib olganimni sezib, benihoyat suyundim. Toshlariga tirmashib tepaga chiqib, o'tlar ustiga o'zimni tashladim. Bu yerda xavf-xatardan xoli edim: suv bu yerga yetib kelolmasdi.

Go'r yoqasidan qaytib kelgan kishining shodlik tuyg'ularini ta'riflab berishga so'z topolmay odam tili lol qolsa kerak! Men yelib-yugurib, dikirlab sakray boshladim, qulochlarimni keng yozib, hatto ashula aytib, o'yinga tushdim. Agar ta'bir joiz bo'lsa, butun vujudim omon qolganligim haqidagi fikr-tuyg'u bilan chulg'ab olingan edi.

Dengizga g'arq bo'lib ketgan o'rtoqlarimni juda qayg'urib eslay boshladim. Men ularga juda achindim, chunki yo'l bo'yi bu odamlarning ko'pi bilan juda yaqin bo'lib ketgan edim. Ularning rang-ro'yini, ismlarini xotirlay boshladim. Afsuski, ulardan birini ham qaytib ko'ra olmadim; dengiz qirg'oqqa chiqarib tashlagan ikkita shlapa, bitta qalpoq va ikkita boshqa-boshqa boshmoqdan bo'lak ulardan nom-nishon qolmadi.

Kemamiz turgan joyga tikildim, u juda uzoqda qolib ketgan edi, baland-baland ko'tarilayotgan to'lqinlar ustidan uni zo'rg'a ko'ra oldim. Men o'z-o'zimga: «Shunday dahshatli bir dovulda bu qirg'oqqacha yetib kelganligim bir mo'jiza, mo'jiza bo'lsa ham juda katta mo'jizadir», – dedim.

Bunchalik dahshatli o'lim xavfidan qutulib, omon qolganimga juda xursand bo'ldim, ammo quruqlik ham dengizdek xavf-xatarli bo'lmog'i mumkin, chunki bu yerning qanaqa joy ekanini bilmayman, demak, bu begona joyni darhol diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqmog'im kerak, degan fikrga keldim.

Shu fikrlar xayolga kelishi bilan xursandchiligidan asar ham qolmadi; garchi men omon qolgan bo'lsam ham, kulfat, mahrumlik va dahshatlardan

qutulmaganimni tushundim. Ustimdagi kiyimlarim ivib ketgan edi, almashtirib kiyadigan hech narsam yo'q. Kuch-quvvatga kelmog'im uchun yeyishga ovqatim ham, ichishga suvim ham yo'q edi. Endi holim nima bo'ladi? Yo ochlikdan o'lib ketaman, yoki yirtqich hayvonlar go'shtimni tilka-pora qiladilar. Bulardan ham g'amga soladigan narsa shu ediki, men ov ham qilolmayman, o'zimni yirtqichlardan mudofaa ham qilolmayman, chunki qo'limda hech bir qurolim yo'q. Umuman, yonimda pichoq, trubka va tamaki qutisidan bo'lak hech narsa yo'q edi.

Bu hol meni shunday qattiq tashvishga soldiki, men tentaklardek dengiz bo'yida u yoqdan-bu yoqqa yelib-yugurdim.

Kech kira boshladi. Men o'z-o'zimdand: «Bu yerda yirtqich hayvonlar ko'p bo'lsa, holim nima kechadi? Axir, ular hamisha kechalari ov qilishadi-ku», – deb so'radim.

Nariroqda archaga o'xshash sershox bir daraxt bor edi. Men shu daraxt ustiga chiqib, tun bo'yi uning tikanli shoxlari ustida o'tirib chiqishga qaror berdim. Yirtqichlardan jon saqlamoq uchun boshqa yo'l topmadim. «Tong otganda qaysi ajal bilan o'lishim ma'lum bo'lar, – dedim o'zimga o'zim, – chunki bu yerda yashamoqning iloji yo'q».

Tashnalik meni juda qiynab qo'ydi. Yaqin orada ichadigan suv yo'qmikan, deb biroz yurdim, toleyimga, qirg'oqdan yarim milcha narida ariq bor ekan.

Qonib suv ichdim va ochlikni sal bosish niyatida og'zimga bir chimdim tamakidan solib, haligi daraxt yoniga kelib, ustiga chiqdim, uyquda yiqilib tushmaydigan bo'lib, uning shoxlari orasiga joylashib oldim. O'zimni dushmandan mudofaa qilmoq uchun bir butoqni kesib oldim, xullas, durustroq joylashib oldim, rosayam charchaganimdan qattiq uxlab qolibman.

Juda shirin uxlabman, yumshoq o'rinda uxlagan odamlar ham uyquda bunchalik rohat qilmaydi, shunday uxlab turibmanki, boshqa har qanday sharoitda odam uyqudan bunchalik ruhli va tetik bo'lib uyg'onmas deyman.

### ***Beshinchi bob***

## **ROBINZON ODAM QADAM BOSMAGAN OROLDA. ROBINZONNING KEMADAGI BUYUMLARINI OLIB CHIQQANI VA O'ZIGA UY SOLIB OLGANI**

Kech uyg'ondim. Havo ochiq, shamol bosilgan, dengizning quturishi to'xtagan edi.

Men kemaga qaradim va uning kechagi joyida yo'qligini ko'rib, juda hayron qoldim. Endi u qirg'oqqa ancha yaqin kelib qolgan edi. U kecha meni to'liqin urib yuborayozgan qoyaga juda yaqin joyda turmoqda. Kechasi uni qattiq to'liqin o'rnidan qo'zg'atgan va shu yerga keltirib tashlagan bo'lsa kerak.

Kema men tunagan joydan bir milcha narida edi. Aftidan, to'liqin uni majaqlab yubormagan bo'lsa kerak: u suvda tikka turmoqda.

Men kemaga suzib borib, undagi ozuqalarni va boshqa buyumlarni olib kelib g'amlab olmoqchi bo'ldim.

Daraxtdan tushib, tevarak-atrofni yana ko'zdan kechirdim. Avvalo, kecha dovul ag'darib tashlagan o'zimizning qayiqqa ko'zim tushdi, u bu yerdan ikki milcha narida, o'ng qo'l tomondagi qirg'oqda turibdi. Men shu tomonga qarab yura boshlagan edim, lekin bu yerdan tikka borishning iloji bo'lmadi: endi yarim milcha keladigan kichikroq bir ko'l sohilni ancha o'pirib kirganidan, yo'lni to'sib turar edi. Orqamga qaytdim, chunki menga avval kemaga bormoq muhim edi: kemadan ovqat topib olishga amin edim.



Choshgohdan keyin dengizda to'liqin tamom to'xtadi va suv juda tez qaytdi, men kema tomon chorak milcha quruq yerdan bordim.

Bu yerga kelib yuragim yana orziqib ketdi: agar dovuldan qo'rqmasdan kemadan qimirlamay tura berganimizda hozir hammamizning ham omon yurgan bo'lishimiz menga aniq va ravshan bo'ldi. Dovulning pasayishini kutib turmoq lozim edi, shunday qilgan bo'lsak, omon-eson sohilga chiqib olgan bo'lar edik va men hozir bu yerda, odamsiz yerda yolg'iz sargardon bo'lib qolmas edim.

Bu yerda yakka-yolg'iz sargardon bo'lib qolganligimni o'ylab yig'ladim, lekin ko'z yoshi bilan hech qachon baxtsizlikdan qutulib bo'lmasligini o'ylab, yo'limda davom etishga va har nima qilib bo'lsa ham, majaqlangan kemaga yetib olishga qaror berdim. Yechinib, suvga tushib suzib ketdim. Qiyinchilikning eng og'iri endi keldi: men kemaga chiqa olmadim. U sayoz joyda turib qolganidan qaddi suvdan ko'tarilib qolgan edi, osilib chiqmoq uchun qo'lga ilinadigan hech narsa yo'q. Ancha vaqt kema atrofida suzib aylanib yurdim va birdan kema arqoniga ko'zim tushib qoldi (darrov uni ko'rmaganimga o'zim ham hayronman). Arqon kemaning teshigidan chiqib osilib turar edi, arqonning uchi suvdan ancha baland bo'lganidan uni zo'rg'a ushlab oldim. Men arqonga osilib, kema nasosxonasi yonidagi matroslar uyiga chiqib oldim. Kemaning tagi teshilgan, pastki qavatidagi ombor suvga to'lib qolgan edi. Kema qattiq, qumloq sayoz joyda turib qolgan, uning orqa tomoni baland ko'tarilib, burni esa suvga tegay deb qolgan edi. Shunday qilib, kemaning quyruq tomoniga suv kirmagan va bu yerdagi ashyolar omon edi. Men darrov quyruq tomonga bordim, chunki avvalo ashyolardan qaysi biri buzilganini va qaysi biri omon qolganini bilib olmog'im zarur edi.

Kemadagi oзуqalarning hammasi batamom qup-quruq ekan. Ochlikdan yuragim ezilib ketgan edi, shuning uchun darhol omborxonaga kirib, cho'ntaklarimni qotgan nonga to'ldirib oldim va fursatni boy bermaslik uchun kemani tekshirib yurgan yo'limda qotgan nonni yedim. Kema kayutasidan bir shisha rom topib oldim, bu romdan bir necha qultum ichdim, chunki oldimda turgan ishlarni bajarmoq uchun kuch yig'ib, baquvvat bo'lib olishim lozim edi.

Menga asqotadigan ashyolarning hammasini sohilga olib chiqmoq uchun, avvalo, qayiq topmog'im kerak edi. Lekin qayiq yo'q edi, yo'q narsani orzu qilish esa befoyda. Ehtiyojning o'zi bizni ixtirochi qiladi, men darhol ishga tutindim. Kemada machta va shu kabilar bor edi, men shulardan sol yasamoqchi bo'ldim.

Bir necha yengilroq xodani tanlab, oqizib ketmaslik uchun ularning har birini arqonga bog'lab suvga tashladim. Keyin o'zim kemadan tushib, to'rtta xodaning ikki uchidan arqon bilan mahkam bog'ladim, uning ustidan ikki-uchta yog'ichni ko'ndalangiga qo'yib turib bog'ladim, solga o'xshash bir narsa hosil bo'ldi.

Bu sol meni bemalol ko'tardi, lekin ko'p yuk uchun u juda yengil va kichik edi. Men yana qaytib kemaga chiqishga majbur bo'ldim.

Kema duradgorining arrasini qidirib topib, machtani uch bo'lak qilib arraladim, bu xodalar bilan solni ancha katta qildim. Men bu ishga juda katta, juda ko'p kuch sarf qildim, kerakli narsalarni g'amlab olish orzusi menga madad berib turdi, men shuncha katta va qiyin ishni bajardimki, oddiy sharoitda bu ishni qilishga kuchim yetmagan bo'lar edi.

Endi mening solim katta va mahkam, ancha-muncha yukni ko'tara oladigan bo'ldi.

Bu solga nimani yuklamoq va uni to'liqin oqizib ketmaslik uchun qanday tadbir qo'llamoq lozim?

O'ylab turishga fursat yo'q, shoshilish lozim edi. Avvalo, qayiqqa kemasidagi hamma yog'och va taxtalarni ortdim, keyin matroslarimizning uchta sandig'ining qulfini buzib ochdim va ichidagi narsalarni olib tashladim. O'zimga eng ko'p asqotadigan ash-yolarnigina olib, uch sandiqni to'ldirdim. Sandiqning biriga ozuqalarni: guruch, qotgan non, uch bo'lak golland pishlog'ini, beshta katta bo'lak quritilgan echki go'shtini (bu go'sht kemada bizga asosiy ovqat bo'lgan edi) va Ovrupodan kemasidagi tovuqlarimizga bermoq uchun olib kelgan arpadan qolgan qismini soldim. Biz tovuqlarni yo'ldayoq so'yib yegan edik, ammo arpadan ozginasi qolgan edi. Bu arpa bug'doy aralash edi: bu don menga juda asqotgan bo'lar edi, lekin kalamushlar unga juda qattiq ziyon yetkazgan ekan. Bulardan tashqari, bir necha yashik vino va olti gallonga<sup>5</sup> yaqin guruchdan qilingan araq topdim. Bular kapitanimizniki edi.

Bu yashiklarni solga, sandiqlar yoniga joyladim.

Ammo men yuk ortish bilan ovora bo'lib turgan paytda suv mavj ura boshladi, qirg'oqqa tashlab kelgan kamzulimni, ko'ylak va jiletkamni suv dengizga oqizib ketganini ko'rib, juda xafa bo'ldim.

Endi egnimda yolg'iz paypog'im bilan ishtonim qoldi, xolos (o'zi surpdan tikilgan, kaltaligidan tiz-zamga zo'rg'a kelar edi). Kemaga qarab suzgan vaqtimda bularni yechmagan edim. Bu hol meni faqat ovqatnigina emas, balki kiyim-boshning ham g'amini yeyishga majbur qildi. Kemada har xil ko'ylaklar ko'p edi, lekin hozircha bulardan bir juftini oldim, xolos, chunki meni boshqa narsalar, ayniqsa, ish asboblari ko'proq qiziqtirar edi.

Izlab-izlab oxiri duradgorimizning qutisini topib oldim, bu quti mening uchun eng qimmatli narsa edi, shu paytda men uni ichi oltinga to'ldirilgan bu-

---

<sup>5</sup> Gallon – suyuqlik o'lchovi – 3 3/4 litrga teng.

tun boshli kemaga ham alishtirmas edim. Qutining ichida nima borligiga qaramasdanoq solga qo'ydim, chunki qutida qanday asboblarni turishini o'zim yaxshi bilar edim.

Endi miltiq va o'q-dorini g'amlab olishim kerak edi. Kayutadan ikkita ov miltiq va ikkita to'pponcha, yana bir xalta o'q bilan ikkita zang bosib ketgan qinsiz qilich topib olib, bularni miltiq dorisi soladigan idish bilan birga qayiqqa joyladim. Kemamizda uchta kichkina bochkada miltiq dorisi borligini bilar edim-u, ammo bularning qayerda turishini bilmas edim; u yoq-bu yoqni yaxshilab ko'zdan kechirgach, uchala bochka ham topildi. Bir bochkadagi dori ivib qolibdi, qolgan ikkitasi tamom quruq turgan ekan, bularni ko'tarib chiqib, miltiqlar bilan birga qayiqqa ortdim. Endi qayig'im yukka liq to'ldi, yo'lga tushmoq kerak edi. Sohilga chodirsiz, eshkaksiz yetib olish oson emas: ro'paradan salgina shamol turishi bilan mening qayig'im suvga g'arq bo'lib ketishi turgan gap edi.

Baxtinga, dengiz sokin edi. Orqa tomondan sekingina toshqin boshlandi, bu toshqin mening solimni sohilga itarar edi. Buning ustiga sohilga tomon ohistagina shamol urdi. Shuning uchun kemadagi qayiqdan ikki-uchta siniq eshkak olib, darhol yo'lga tushdim. Oradan ko'p o'tmay, kichkina bir qo'ltiqqa ko'zim tushdi, shu qo'ltiqqa qarab yo'l tutdim. Qayiqni suv oqimining eniga qarab zo'rg'a yurgizdim va bu joy sayoz bo'lganidan suv tagiga eshkakni tirab haligi qo'ltiqqa yetib oldim, suv qirg'oqqa urilib orqaga qaytganda mening qayig'im butun yuki bilan sohilda qoldi.

Endi mening oldimda atrofni tekshirib ko'rish, o'zimga turar joy bo'la oladigan, buyumlarimni qo'yish uchun bexatar bir o'rin topish vazifasi turar edi. Qayerda turganligimni, ya'ni, qit'agami yoki orolga kelib qolganligimni, bu yerda odamlar yashaydimi,

yirtqich hayvonlar bormi – hali ham bilolganim yo‘q. Yarim milcha yoki undan salgina nariroqda tikka va baland tepalik ko‘rindi. Shu tepaning ustiga chiqib atrofni kuzatmoqchi bo‘ldim. Miltiq, to‘pponcha va dori soladigan xaltani olib, atrofni tekshirib ko‘rgani yo‘lga tushdim.

Tepaning ustiga chiqish juda qiyin edi.

Tepaning ustiga chiqib, atrofga ko‘z tashlagach, sho‘rlik peshanamning sira yorishmagani ma‘lum bo‘ldi: men orolga kelib qolgan ekanman! Chor atrof nuqul dengiz, agar dengizdan chiqib turgan bir necha katta toshni va ikkita orolchani hisobga olmaganda, quruq yerdan hech nishona yo‘q, shu ikkita orolchalar ham to‘qqiz milcha narida bo‘lib, men turgan oroldan ancha kichik edi.

Yana bir holni ham bilib oldim: bu yerda yovvoyi o‘simliklargina mavjud, hech qayerda odam obod qilgan yer ko‘rinmas edi, bundan chiqadiki, bu yerda chindan ham odamlar turmaydi.

Bu yerda yirtqich hayvonlar ham yo‘q edi, men bitta ham yirtqichni ko‘rmadim. Ammo parranda juda ko‘p, ularning hammasi men bilmaydigan allaqanday parrandalar zotidan edi, bir parrandani urib oldim, uning go‘shini yesa bo‘ladimi, yo‘qmi – hech bila olmadim.

Tepalikdan tushib kela turib, daraxt ustida turgan bir katta qushni urib oldim.

O‘ylaymanki, olam bino bo‘lgandan beri bu yerda miltiq ovozi birinchi marta eshitilgan bo‘lsa kerak. Men miltiqni otib bo‘lar-bo‘lmasdanoq daraxtzordan bir gala qush chiyillashib uchib ketdi. Qushlarning har qaysisi o‘z boshiga qichqiraverdi, ammo bu qushlardan hech birining ovozi men bilgan qushlar ovozigacha o‘xshamas edi.

Men otib o‘ldirgan qush, nazarimda, xuddi bizdagi qarchig‘aylar jinsiga o‘xshab ketadi: patlarining ran-

gi, tumshug'ining tuzilishi bizdagi qarchig'ayga juda o'xshasa ham, uning tirnoqlari kalta edi. Go'shtidan o'limtik isi buriqsib turganidan men uni yeya olmadim.

Birinchi kundagi tekshirishlarimning natijasi shunday bo'ldi. Keyin men qayiqdagi narsalarni sohilga tashishga tutindim. Bu ishni bitirguncha kech kirdi.

Kechqurun, bugun qayerda va qay holatda tunasam ekan, deb o'ylay boshladim.

Ochiq yerda yota berishga qo'rqdim. Agar menga biror yirtqich hujum qilib qolgudek bo'lsa, holim nima kechadi? Shuning uchun sohildan kechasi uxlashga qulayroq bir joy tanlab, uning atrofini sandiq va yashiklar bilan o'radim, o'rtasidan esa taxtalar bilan kapa yasadim.

O'zimdagi ozuqalar tamom bo'lsa, nima yeb kun o'tkazish masalasi ham boshimni qotirdi; qushlardan va men miltiq otgan vaqtimda daraxtzor ichidan chiqib qochgan bizdagi quyonlarga o'xshash bir xil jonivorlardan boshqa bu yerda hech bir tirik jonni ko'rmadim.

Shu payt meni ko'proq boshqa narsa qiziqtirar edi. Men kemadan olish mumkin bo'lgan narsalarning ko'pini hali tashib olganim yo'q edi; kemada menga asqotadigan ko'p narsalar, eng zaruri, kema chodirlari bilan arqonlar qolgan edi. Shuning uchun, agar menga hech narsa xalaqit bermasa, yana kemaga suzib borishga qaror berdim. Bo'ron turishi bilanoq kemani parcha-parcha qilib yuborishini bilar edim. Boshqa ishlarning hammasini qo'ya turib, kemadagi narsalarni tashib olish kerak edi. Oxirgi mixgacha sohilga chiqarib olmaguncha xotirjam bo'lishim mumkin emas.

Kemadagi narsalarni olib o'tishga qaror berganimdan so'ng, qayiq bilan borish kerakmi yoki

avvalgi singari bu safar ham suzib borish kerakmi deb o'ylay boshladim. Suzib borish yaxshiroq degan fikrga keldim. Bu safar kiyimlarimni kapaga yechib qo'ydim, egnimda ichki ko'ylagim, surp ishtonim va paypoqsiz kiyilgan tufli qoldi, xolos.

Avvalgidek bu safar ham kemaga arqonga osilib chiqdim, keyin yangi sol yasab ko'pgina zarur buyumlar olib o'tdim. Birinchidan, duradgorimizning hujrasida bo'lgan asboblarning hammasini, masalan, ikki-uch qop katta-kichik mix, mixni burab chiqaradigan otvertka, yigirma to'rtta bolta va bularidan tashqari menga eng kerakli asbob bo'lgan charxnini olib, solga joyladim.

Keyin kema to'pxonasidan bir qancha buyumlar, masalan, uchta temir lom, ikkila kichkina bochkada miltiq o'qi, biroz miltiq dorisi topib oldim. So'ngra kemadan juda ko'p har xil ko'ylak, chodir, gamak, to'shak va yostiqlar oldim. Bularning hammasini solga ortib, omon-eson sohilga chiqarib oldim.

Kemaga jo'nab ketayotganda, biror yirtqich ozuqalarimni yeb qo'yasmikan, deb qo'rqqan edim. Baxtinga, ozuqalar omon ekan.

Ammo mening yo'qligimda allaqanday bir jonivor daraxtzordan kelib, sandiqlarimdan birining ustiga chiqib o'tiribdi. U meni ko'rib, sal nariga qochdi, lekin darrov to'xtadi va hech qo'rqmay, bemalol cho'nqayib olib, men bilan tanishmoqchi bo'lgandek ko'zlarimga termilib tura berdi.

Bu jonivor juda chiroyli, xuddi bizdagi mushukka o'xshar edi. Men miltiqni olib uni nishonga oldim, lekin u o'z boshiga kelgan xatarni fahmlamay, hatto o'tirgan joyidan ham qimirlamadi. Buni ko'rib, unga bir bo'lak qotgan non tashladim, albatta, unga qotgan non tashlashim noto'g'ri edi, chunki qotgan nonim juda, oz va uni ehtiyot qilmog'im zarur edi. Shunday bo'lsa ham bu jonivor menga juda yoqib

qolganligidan bir bo'lak qotgan nonni undan ayamadim. U yugurib kelib, qotgan nonni iskab ko'rdi va uni yeb, maza qilib lablarini yalay boshladi. U yana berarmikin deb, umidvor bo'lib kutib turdi. Men unga boshqa hech narsa bermadim. U biroz tikilib turib, keyin qaytib ketdi.

Shundan keyin o'zim uchun kapa yasashga tutindim. Kapani daraxtzordan keltirgan xodalar bilan kema chodiridan yasadim. Oftobda yoki yomg'irda buzilishi mumkin bo'lgan narsalarning hammasini shu kapaga olib kirdim, kapa atrofiga bo'lsa, odam yoki hayvonlar hujumidan saqlanmoq uchun yashik va sandiqlarni uyib to'sdim, ichki tomondan taxtalar bilan berkitdim. Keyin yerga to'shak solib, boshimga ikki to'pponchani, to'pponcha yoniga miltiqlarni qo'yib yotdim.

Kema halokatga uchragandan beri birinchi kechagina ko'rpada yotayotirman. Kecha kechasi kam uxlaganim, kunduzi esa hech dam olmay ishlaganim, ya'ni, avval buyumlarni kemadan qayiqqa yuklab, so'ngra ularni sohilga olib chiqqanimdan juda charchagan ekanman, ertalabgacha qattiq uxlabman.

Hech kimning buyumlari mening hozirgi buyumlarimcha ko'p bo'lmasa kerak. Lekin bular menga haliyam oz ko'rinmoqda. Kema hali but, uni hozircha to'lqin boshqa bir tomonga olib ketmagan, unda hali menga kerakli buyumlar bor ekan – hech birini qoldirmay, sohilga chiqarib olmog'im zarur, degan fikrga keldim. Shuning uchun har kuni suv qaytgan vaqtda kemaga borib undan ko'pdan ko'p narsalarni sohilga chiqarib, g'amlab olaverdim.

Mening kemaga qilgan uchinchi safarim, ayniqsa, muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi. Asbob-uskunalarni va hamma arqonni olib keldim. Bu safar chodir bo'ladigan matoning katta bir bo'lagini ham olib o'tdim; biz bu mato bilan kema chodirlarini



yamar edik, miltiq dorisi solingan bochkalar ivigan taqdirida ularni o'rar edik; men o'tgan safar buni olmasdan kemada qoldirib ketgan edim. Oxiri kemadagi chodirlarning hammasini sohilga chiqarib oldim; ammo bularni bo'lak-bo'lak qilib kesib olib o'tishga to'g'ri keldi. Biroq men bu matoni bo'lak-bo'lak qilib kesishga ko'zim qiymadi, chunki chodirlar menga dengizda yurish uchun kerak emas, balki mening uchun bu chodirlarning qimmatini – shu matoning butunligida edi.

Endi yolg'iz kishining qo'lidan keladigan narsalarning hammasi kemadan tashib olindi. Eng katta va eng og'ir narsalargina qoldi, bularni so'nggi safarlarda tashiy boshladim. Katta arqonlarni tashishga kirishdim. Har qaysi arqonni uncha qiynalmasdan olib o'tish mumkin bo'ladigan qilib kesdim va bularni ham bo'lak-bo'lak qilib tashib oldim. Bulardan tashqari bolta bilan ajratib olish iloji bo'lgan temirlarni kemadan oldim. Keyin machta xodalaridan kesib bulardan kattaroq bir sol yasadim va unga bu yuklarning hammasini ortib yo'lga tushdim.

Lekin bu safar omadim yurishmadi: solga ortilgan yuklarim nihoyatda og'ir bo'lganidan uni eplab yurgizish juda qiyin bo'ldi. Qo'ltiqqa kirib boshqa buyumlar taxlab qo'yilgan qirg'oqqa yetay deganimda sol ag'darilib ketdi, men hamma yuklarim bilan suvga yiqildim. Men cho'kib ketmadim, chunki qirg'oq labiga yetib qolgan edim, ammo yuklarimning ko'pi, menga eng zarur bo'lgan temirning hammasi suv tagiga botib ketdi. To'g'ri, suv qaytganda arqonlarning ko'pini va bir necha bo'lak temirni sohilga chiqarib oldim, ammo har bir bo'lak arqon va temirni suvga sho'ng'ib olib chiqaverishdan tin-kam quridi.

Men har kuni kemaga borib har safar biror narsa olib keldim.

Bu orolda umr kechira boshlaganimga o'n uch kun bo'ldi deganda, o'n bir marta kemaga borib, odamning ikki qo'li ko'tara oladigan hamma narsani sohilga tashib oldim. Agar havo tinch turganida, butun kemani qismlarga bo'lib tashib olishim turgan gap edi.

O'n ikkinchi safarga tayyorlanayotganimda shamol ko'tarilayotganini payqab qoldim. Shunga qaramay, suvning qaytishini kutib, kemaga qarab yo'l oldim. Avvalgi safarlari kelganimda kayutani ship-shiydam qilib ketgan edim, shu sababdan endi bu uyda qo'lga ilinadigan narsa qolmagan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Ammo birdan javon bilan ikki yashikka ko'zim tushib qoldi; bu yashiklarning birida uchta ustara, katta bir qaychi, bir dujinacha vilka bilan pichoq; ikkinchi yashikda esa pul bor ekan, bularning bir qismi Ovrupo puli, yana bir qismi Braziliya puli bo'lib, bular o'ttiz olti funt-sterlingcha kumush va oltin pul edi.

Bu pullarning qadr-qimmatiga kulgim qistab ketdi.

– Keraksiz axlat, sening menga endi nima hojating bor? – dedim, – hozir shu arzimas pichoqlardan bit-tasiga bu oltinning hammasini jon deb berar edim. Endi ortiqcha yuksan, keraging yo'q, dengiz tagiga yo'q bo'lib ket! Yerda yotgan bo'lsang, bukilib olishga ham arzimaysan.

Sal o'ylab mulohaza qilgandan keyin bu pullarni bir parcha lattaga o'rab, cho'ntagimga solib qo'ydim.

Dengiz tun bo'yi hayqirib chiqdi, ertalab kapadan turib qaragam, kemadan nom-nishon qolmabdi.

Endi birinchi kundan buyon fikr-yodimni band qilgan masalani hal qilishga batamom kirishmog'im mumkin: menga yirtqich hayvon ham, vahshiy odamlar ham hujum qilolmasligi uchun nima qil-mog'im kerak? Qanday kulba solmog'im lozim? G'orni kavlayinmi yoki chodir tikaymi?

O'ylab-o'ylab har ikkisini ham qilmoqchi bo'ldim.

Uy solmoq uchun sohildan tanlagan joyim yaramasligi aniq va ravshan bo'ldi: bu yer dengiz yoqasidagi botqoqlik bir joy bo'lib, bu yerda yashamoq odamning sihatiga juda zararli, buning ustiga, yaqin orada toza suv yo'q edi. Uy qurmoq uchun boshqa yaxshiroq joy topishga qaror berdim.

Avvalo, mening uyim salqin va yirtqich hayvonlardan saqlanishga qulay joyda bo'lishi, zaxkash bo'lmasligi va toza suvga yaqin joyda bo'lishi lozim. Bundan tashqari, uyimdan dengiz baralla ko'rinib turmog'i shart edi.

«Ehtimol, baxtinga biror kema kelib, meni qutqazib qolar, – deb o'yladim, – agar dengizni ko'rib turmasam, qutulish imkonidan mahrum bo'lib qolishim mumkin».

Ma'lumki, men hanuz qutulish umidida edim.

Ko'p qidirib, oxiri uy solishga qulay va yaxshi bir joy topdim. Bu joy baland tepalik bag'ridagi teptekis bir maydon edi. Tepalikning cho'qqisidan haligi tekis maydongacha shu tepaning yonbag'ri baland devor shaklida tikka tushgan, bu devor meni tepa tomondan bo'ladigan hujumdan saqlar edi. Shu devorning maydonga taqalgan yerida g'orning og'ziga o'xshash kichikroq bir o'pirilgan joyi bo'lib, aslida bu g'or emas edi.

O'z chodirimni shu ko'kalamzordagi haligi chuqur qarshisiga tikmoqchi bo'ldim.

Men chodir tikmoqchi bo'lgan joy tepa bag'rining shimoli-g'arbiy tomonida bo'lib, kechgacha ham bu yerga oftob tushmaydigan salqin edi. Kechqurun esa botayotgan quyosh unga nur sochardi.

Chodirni tikmasdan oldin uchi o'tkir kaltak bilan haligi chuqur ro'parasidan o'n yardcha<sup>6</sup> diametrda yarim doira chiziq tortdim. So'ngra shu yarim

---

<sup>6</sup> Yard – inglizcha uzunlik o'lchovi – 0,9144 metr.

doiraning aylanasiga ikki qator qilib, baland boʻyli mahkam qoziqlar qoqdim, qoziqlarning uchini oʻtkir nish qilib qoʻydim. Ikki qator qilib qoqilgan qoziqlar oʻrtasidan biroz boʻsh joy qoldirdim va kemadan olib kelingan arqon boʻlaklarini uyib, qoziqlar tepasigacha bu oraliqni toʻldirdim. Arqonlarni bir-biriga mingashtirib taxladim, gʻovning ichkari tomonidan esa tirgak qoʻyib mahkamladim. Gʻov juda mahkam boʻldi: undan hech narsa – odam ham, hayvon ham oʻta olmaydi. Bu ishga juda koʻp vaqt va mehnat sarf qildim. Daraxtzordan xodalar kesib, bularni imorat joyiga keltirish, oʻyish va yerga qoqish juda qiyin boʻldi.

Chodir atrofi devor boʻldi. Eshik yoʻq edi. Uyga narvon orqali tushib chiqar edim. Uyga kirish yoki chiqish vaqtida har safar narvonni devorga suyab qoʻyar edim.

### ***Oltinchi bob***

## **ROBINZON YANGI UYDA. ECHKI VA ULOQ**

Buyumlarimning hammasini, yaʼni ozuqalar, miltiq va boshqa narsalarni qoʻrgʻonga tashib keltirish juda qiyin boʻldi. Men bu ishni zoʻrgʻa uddaladim. Bundan soʻng darhol yangi ishga, katta va mahkam chodir tikishga kirishmoq zarur boʻlib qoldi.

Maʼlumki, issiq mamlakatlarda yomgʻir juda serob boʻladi va yilning maʼlum faslida bir necha kungacha muttasil yogʻib turadi. Oʻzimni namdan saqlamoq uchun chodirni ikki qavat qildim, yaʼni avval kichik chodirni tikib, ustidan kattasini yopdim. Katta chodirning ustidan brezent bilan oʻradim.

Men endi quruq yerga solingan oʻrinda emas, kapitanimiz yordamchisining juda qulay belanchagiga oʻrin solib uxlay boshladim.

Yomg'irda buzilib qolishi mumkin bo'lgan hamma ozuqalarni va boshqa buyumlarni chodirga keltirdim. Bularning hammasini uyga tashib kiritgandan keyin eshik xizmatini o'tab turgan tuynukni ham mahkamlab bekitdim va boya aytib o'tganim narvon orqali uyga kirib chiqadigan bo'ldim. Shu tariqa, men har qanday xavf-xatardan xoli bo'lgan mustahkam qal'ada yashay boshladim, endi xotirjam uxlay olaman.

Qo'rani bitkazib bo'lib, tepa bag'ridagi g'orni kavlashga tutindim. Bu g'or xuddi chodir orqasida bo'lgani uchun uni yerto'la qilib oldim. Undan kavlab olingan toshlarni hovliga olib chiqib, qo'ra sahniga terib qo'ydim. Uning ustidan tuproq to'kdim, shunday qilib, hovli sahni bir yarim futcha<sup>7</sup> baland ko'tarildi.

Bu ishlar ancha vaqtimni oldi. Bu paytda fikrimga ko'p narsalar keldi va bir necha qiziq hodisalar bo'lib o'tdiki, men shu hodisalarni aytib bermoqchiman.

Bir kuni, men endi chodir tikishga va g'orni kavlashga tayyorlana boshlagan vaqtimda birdan osmonni qora bulut bosib, jala quyib berdi, so'ngra chaqmoq chaqib, juda qattiq momaqaldiroq bo'ldi.

Bu hodisa kishini hayratda qoldiradigan hodisa emas, albatta, meni qo'rqitgan narsa chaqmoq – yashin ham emas, ammo «dorilarim portlab ketsa-ya!» degan fikr xayolimga yashindan ham tez keldi.

Yuragim orziqib orqamga tortib ketdi. Juda qo'rqib ketdim: bir chaqmoq urisa, miltiq dorisining hammasi tamom! Ammo bu dorilar bo'lmasa, men o'zimni yirtqich hayvonlardan ham himoya qila olmayman va ovqat ham topib yeya olmayman, deb o'yladim. Shunisi hayratda qolarliki, o'sha paytda, mabodo, portlash yuz bersa, avvalo, o'zim halok bo'larman, degan fikr xayolimga ham kelmabdi.

Bu hodisa menga shunday ta'sir qildiki, men momaqaldiroq to'xtashi bilanoq o'zimning joylashish

<sup>7</sup> Fut – 30,5 santimetrga teng.

va uyni mahkamlash yoʻlidagi hamma ishlarimni yigʻishtirib qoʻyib, darhol duradgorlik va tikuvchilik ishiga tutindim: miltiq dorilarini solib qoʻygani xaltachalar tikdim va yashiklar yasadim. Dorilarni bir yoʻla portlab ketishdan ehtiyot qilmoq uchun ularni bir necha qismga ajratib, har qaysi boʻlak dorini alohida saqlash lozim edi.

Ikki haftacha vaqtim shu ishga ketdi. Dorilarimning hammasi ikki yuz qirq qadoqcha edi. Bu dori-ning hammasini taxminan yuztaga boʻlib, xaltachalarga joyladim.

Yashikchalar bilan xaltachalarni tepa yorigʻining nam tegmaydigan joylariga qoʻydim va bu joylar-ning har bittasini aniq belgilab qoʻydim. Nam tortib qolgan bochkadagi doridan uncha tashvish tortma-dim, chunki u ivib yomon boʻlib qolgan edi, shuning uchun uni gʻorda, yaʼni, oʻzim xayolan atab yurgan «oshxona»da qoldira berdim.

Sayr qilish, shuningdek, bu yerning tabiati bilan tanishish, qulay kelib qolgudek boʻlsa, biror jonivorni urib olish maqsadida shu kunlarda men kuniga bir marta, baʼzi kunlari esa bir necha bor miltiq koʻtarib tashqariga chiqardim.

Bu xil «sayohatga» birinchi dafʼa chiqqan kunim orolda echkilar borligini bildim. Men juda suyundim, ammo bu echkilar juda chaqqon va ziyrak boʻlganidan ularga yaqin bormoqning sira iloji yoʻq edi. Ammo men bundan esankiramadim: bugun boʻlmasa, ertaga oxiri bularni ovlashni bilib olishim-ga shubham yoʻq edi.

Oradan koʻp oʻtmay, qiziq bir holning tagiga yetib oldim: echkilar tepa ustida yurgan vaqtda men past-da paydo boʻlib qolsam, ularning hammasi gala-gala boʻlib qochadi, agar ular pastda oʻtlab yurganda men tepa ustida boʻlsam, ular meni payqamagandek boʻladilar. Bundan men bu echkilarning koʻzi alohida

ravishda tuzilgan ekan, shu sababdan yuqoridagi narsani ko'ra olmaydilar, degan xulosaga keldim. Shundan buyon men ovga chiqqanimda biror tepalik ustiga chiqib echkilarni balanddan ota boshladim.

Dastlab otganimda kichikroq bir echkini urdim, yonida uloqchasi bor ekan. Men unga juda achindim. Onasi yiqilganda u onasi yonidan qimirlamay, pinagini buzmay, tikilib tura berdi. Shunisi taajjubki, men o'lgan echki yoniga kelib, uni yelkamga tashlab uyga ko'tarib ketarkanman, haligi uloq orqamdan yugurib kela berdi. Shu tariqa uygacha keldi. Qo'rg'on yoniga kelganimda echkini yerga qo'yib, uloqni qo'limga oldim va devordan oshirib hovliga tushirdim. Men uni boqib, o'rgatib olaman, deb o'yladim, lekin u hali ovqat yeyishni bilmas ekan, shuning uchun uni so'yishga majbur bo'ldim. Bu ikki jonivorning go'shti menga ancha vaqtga yetdi. Men ovqatni kam yeb, zaxira ozuqalarimni, ayniqsa, nonni ehtiyot qilishga harakat qildim.

Uyimni tuzatib, joylashib olganimdan keyin endi pechka qurib olish yoki hech bo'lmaganda o'choq yasab olish to'g'risida o'ylay boshladim. Shuningdek, o'tin ham g'amlab olishim zarur edi.

Bu vazifani qanday uddalaganim, yerto'lamni qanday kengaytirib olganim, tirikchiligim uchun zarur bo'lgan narsalarni asta-sekin ro'yobga chiqarganim to'g'risida keyinroq mufassal so'zlab beraman.

## ***Yettinchi bob***

### **ROBINZONNING KALENDARI.**

### **ROBINZONNING O'Z UYINI TUZATIB OLGANI**

Orolga joylashib olganimdan keyin ko'p o'tmay, kalendar yurgizay, bo'lmasa kun hisobini unutib qo'yib, hatto yakshanba kunini ham boshqa kunlardan ajrata olmay qolaman, degan fikr xayolimga keldi.

Kalendarni mana bunday yasadim: katta bir g'o'lani bolta bilan yo'nib, uni dovul meni dengizdan chiqarib tashlagan joyga olib kelib qumga o'rnatdim, bu g'o'laning tepasiga taxta qoqdim, keyin pichoq bilan taxtaga katta-katta harflar o'yib quyidagi so'zlarni yozdim:

«Men 1659-yil 30-sentabrda bu orolga dastlab mana shu yerdan kirib keldim».

Shu kundan boshlab har kuni shu ustunga chiziqlar yo'nib qo'ya boshladim. Har olti chiziqdan so'ng bir uzunroq chiziq chizdim, bu chiziq yakshanba kunini bildirar edi, undan ham uzunroq chiziq esa har oyning birinchi kunini ko'rsatar edi. Shunday qilib, kalendarimni boshlab yubordim va unda kunlar, hafta, oy va yilni qayd qilib bordim.

Kemadan o'n bir marta qatnab olib o'tgan narsalarimni birma-bir aytib chiqib, garchi uncha ahamiyati bo'lmasa ham, lekin menga ko'p asqatgan mayda-chuydalar to'g'risida gapirmay o'tibman. Masalan, kema kapitani va uning yordamchisi kayutasidan siyoh, pero, qog'oz, uch-to'rtta kompas, astronomiya asboblari, kuzatuv trubasi, jug'rofiya xaritasi va kema jurnalini topib oldim. Bu narsalarning hammasini bir sandiqqa solib qo'ygan bo'lsam ham, bularning kerak bo'lish-bo'lmasligini o'zim bilganim ham yo'q. Kemadan portugaliyaliklar tilida yozilgan bir necha kitob ham topib oldim. Kemada ikki mushugimiz va bir itimiz bor edi. Mushuklarni qayiqqa solib olib o'tdim, it esa men kemaga birinchi safar borganimdayoq suvga sakrab tushib, orqamdan suzib o'tgan edi. Bu it ko'p yillar menga eng yaqin yordamchi, yupanch va umid nishonasi bilan yashadi, xizmat qildi. U men uchun odam o'rnini bosdi, desam bo'ladi, bir aybi – tilsiz edi, xolos. Koshki edi, uni gapga o'rgata olsam!



Siyoh, pero va qog'ozni juda ehtiyot qildim. Siyohim borligida boshimdan kechganlarning hammasini mufassal yozib bordim; siyoh tamom bo'lgandan keyin yozishni to'xtatishga majbur bo'ldim, chunki men siyoh yasashni va uning nimadan qilinishini bilmas edim.

Umuman aytganda, narsalarim juda ko'p bo'lishiga qaramay, menga siyohdan boshqa yana ko'p narsa yetishmas edi: kurak, belkurak, cho'kich, xullas, yer kavlash uchun bitta ham asbobim yo'q edi. Igna bilan ip ham yo'q edi. Ichki kiyimlarim butunlay ishdan chiqib qoldi, lekin men ichki kiyimlarsiz ham uncha qiynalmay, bir iloj qilib yurishga o'rganib ketdim.

Zarur asboblarning yo'qligidan ishlarim juda sekin yurishdi va ko'p qiyinchilik bilan qilindi. Uyimning chor atrofini shox va xodachalar bilan to'sib, qo'ra uchun bir yilga yaqin mehnat qildim. Daraxtzordan yo'g'on xodachalar kesish, ularni yo'nib qoziq qilish va bularni kapaga tashib keltirish uchun ko'p vaqt sarf bo'ldi. Qoziqlar juda og'ir edi, bir qatnovda faqat bitta qoziqni ko'tara olar edim, birgina qoziqni yo'nib, uyga keltirish uchun ikki kun, uni yerga qoqish uchun bir kun vaqt ketdi.

Qoziqlarni boshlab og'ir to'qmoq bilan qoqdim, ammo keyin kemadan olib kelgan temir lom esimga tushib qoldi. Garchi ishimni uncha yengillashtirmagan bo'lsa ham, lom bilan ishlay boshladim. To'g'risini aytganda, qoziqlarni qoqish mening uchun nihoyat og'ir, tinkani quritadigan ish bo'ldi. Ammo charchadim, deb qo'l qovushtirib turmog'im lozimmi? Axir vaqtni qanday o'tkazishni bilmasdim, buning ustiga, ovqat qidirib orolni kezib yurishdan boshqa ishim ham yo'q edi, shuning uchun kun sayin shu ish bilan muntazam shug'ullandim.

Meni goho umidsizlik bosardi, men yolg'izlikdan nihoyatda zerikar edim. Shu og'ir hissiyotni yengmoq

uchun qo'linga qalam olib, yolg'izlik va g'aribligimning yaxshi tomonlari ham ancha-muncha bor-ku, deb o'zimga taskin berishga urindim.

Qog'oz sahifasini ikkiga buklab chap tomoniga «yomon», o'ng tomoniga «yaxshi» deb yozdim, oqibatda bu ishim mana bunday bo'lib chiqdi:

### **Yomon**

1. Men odam qadam bosmagan huvullagan bir orolda sargardon bo'lib qoldim, qutulish uchun umidim yo'q.

2. Men insonlardan ayriliqda qolgan bir miskin; odamlar dunyosidan quvg'in bo'lgan bir sargashtaman.

3. Kiyimlarim oz qoldi va hademay qip-yalang'och qolaman.

4. Odamlar yoki yirtqich hayvonlar daf qilgudek bo'lsa, men o'zimni himoya qilolmayman.

5. Bu yerda men dardlashadigan, menga ruh va taskin beradigan hech kim yo'q.

### **Yaxshi**

1. Hamrohlarim kabi dengizga g'arq bo'lib ketishim ham mumkin hechedi-yu, ammo tirik qoldim.

2. Lekin shunisi borki, men ochlikdan o'lmadim va bu orolda halok bo'lib ketmadim.

3. Lekin bu yerning iqlimi issiq, kiyimboshsiz ham yashamoq mumkin.

4. Lekin bu orolda odamlar ham, yirtqich hayvonlar ham yo'q. Dahshatli yirtqichlar makoni bo'lgan Afrika sohillarida qolib ketmaganim uchun o'zimni baxtiyor bilaman.

5. Lekin turmush uchun kerakli hamma narsalarni g'amlab va o'z kunimning oxirigacha yetadigan ozuqalarni yig'ibolganman.

Bu o'ý va fikrlar menga zo'r madad bo'ldi. G'am chekmasligim va umidsizlanmasligim kerak, chunki har qanday og'ir va mushkul paytda ham odam tasalli topa oladi va topmog'i kerak, deb o'ýladim.

Men uyimni yuqorida bayon qilib edim. Bu uy, atrofi shox va g'olachalar ikki qator qilib qo'yib mustahkamlangan tog' bag'ridagi bir chodir edi. Qo'rg'onimning chor atrofini devor yoki ko'tarma deb atasa bo'ladi, chunki devorning tashqi tomonidan oltmish santimetr qalinlikda tuproq uydim. Bir qancha vaqtlar o'tgandan keyin esa (chamamda, bir yarim yilcha o'tgach) uchini tepalik bag'riga qaratib xodachalar yotqizdim, uning ustidan shox va butoqlar tashlab, xazon bilan yopdim. Shunday qilib, hovlim usti yopilgan shiypon tusiga kirdi. Endi yuqorida aytganimdek, bu orolda yilning ma'lum fasllarida quyib turadigan jaladan qo'rqmasam bo'ladi.

Buyumlarimning hammasini boshlab qo'rg'on ichiga, undan keyin kapa orqasidagi tepa bag'ridan kavlagan g'orga kiritib olganligim o'quvchiga yuqorida ayon bo'lgan edi. E'tirof qilmog'im kerakki, narsalarimning hammasi ustma-ust, betartib uyib tashlangan bo'lib, hovli to'lib yotar edi. Qadam bosgudek bo'sh joy yo'q edi, men ashyolarga hadeb qoqilib-surinib yurar edim. Bularning hammasini bir joyga saranjom va sarishta qilib qo'ymoq uchun g'orni ancha kengaytirishga to'g'ri keldi.

Qo'rg'onga yer tagidan kiradigan yo'l qilib olganimdan keyin parrandalar hujumidan o'zimni bexatar qilmoq uchun bu yerosti yo'lini kengaytirish va yana ham uzaytirishga kirishdim. Baxtinga, bu tepalik qum aralash yumshoq tuproqdan iborat ekan. Yerosti yo'lini mo'ljalga yetkazib, o'ng tomonga qarab kavlab borib, uni yana ham o'ng tomonga burdim va shunday qilib, bu yo'limni oxiri qo'rg'on orqasidan yuzaga olib chiqdim.

Yer tagidan o'tkazilgan bu yo'l uyga bemaolol kirib chiqishim uchun imkon berdi va buning natijasida omborim ham ancha kengaydi.

Bu ishlarni tamom qilib bo'lib, o'zimga kursilar yasashga kirishdim. Menga stul va stol har narsadan ham zarur edi: stol va stullarim yo'qligidan hatto shu yolg'izlikda faqirlik bilan o'tayotgan kunimdan ham huzur-halovat ko'ra olmadim, ya'ni, odamlarcha ovqat yemoq, yozish va o'qish imkoniga ega bo'la olmadim.

Ana shu tariqa men duradgor bo'lib oldim.

Umrimda duradgorlik asbobini qo'lga ushlagan odam emas edim, shunga qaramay, idrok va tirishib harakat qilish orqasida bu ishni asta-sekin o'rganib oldim, agar kerakli asboblarni bo'lganda har qanaqa yaxshi mebellarni ham yasay oladigan darajaga yetardim.

Hech bir asbob bo'lmagani holda, men bitta bolta-yu bitta randa bilan shunchalik ko'p buyum yasadimki, hech kim bunday oddiy yo'l bilan shuncha buyum yasamagan va bunchalik ko'p mehnat sarf qilmagandir. Birgina taxtani yasamoq uchun terakni kesib, uning shox va butoqlarini butashga, po'stlog'ini archib, u taxta tusiga kirguncha ikki yonidan yo'nishga to'g'ri keldi. Bu usul juda noqulay va nomuvofiq bo'lganidan butun bir terakdan bitta taxta chiqar edi, xolos. Boshqa iloj yo'q, sabr-toqat qilib ishlamoqqa to'g'ri keldi. Ammo mening vaqtim bo'sh, baribir, o'zim biror ish qilmog'im lozim edi, shuning uchun vaqtimning qayoqqa va qanday ishga sarf bo'lishining aslo ahamiyati yo'q edi.

Shu tariqa men, avvalo, stul bilan stol yasab oldim. Kemadan olib kelingan kalta taxtalarni shunga ishlatdim. Keyin bir necha taxtani o'sha oddiy usulda randalab, bularni yerto'laga kiritib, bir taxta ustiga ikkinchisini mindirib, kengligini qirq olti santimetr

qilib bir necha polka – tokcha yasadim. Bu polka – tokchalar ustiga asbob-uskunalarni, mix, temir parchalari va boshqa mayda-chuyda narsalarni – xullas, har bir buyumni osonlik bilan topib oladigan qilib joylashtirdim. Bundan boshqa, yerto'la devoriga qoziq qoqib, qoziqqa miltiq, to'pponcha va boshqa buyumlarni osib qo'ydim.

Hamma narsa saranjom-sarishta qilingandan keyin yerto'lamni kirib ko'rgan kishi uni har xil ro'zg'or buyumlari ombori deb bilar edi. Omborda turli-tuman buyumlar shuncha ko'p bo'lib, bular tartib bilan terilgan va osib qo'yilganda, har bir narsa o'z joyida turar ediki, omborga tikilib, o'zim dildan zavqlanar edim.

Shu vaqtdan boshlab kundalik daftar tutib, kun bo'yi qilgan ishlarimning hammasini yozib bordim. Dastlabki kunlarda daftarga muntazam yozib borolmadim, chunki ish bilan juda band edim; buning ustiga meni xafagarchilik shunchalik chulg'ab olgan ediki, bu holning kundalik daftarga ta'sir qilishidan qo'rqdim.

Lekin endi bu g'amginlikni bir qadar bosib olganimdan keyin, bo'lar-bo'lmas, bekorchi orzu va umidlar bilan o'zimni yupatishni tashlaganimdan keyin o'z uyimni tuzatishga kirishdim, ro'zg'orimni tartibga soldim, o'zimga stol bilan stol yasadim, imkon boricha ancha qulay va durust joylashib olib, kundalikni yozib borishga kirishdim. Kundalikka yozilgan narsalar yuqorida o'quvchiga ma'lum bo'lgan bo'lsa ham, ularni batafsil keltiraman. Qaytarib aytaman-ki, siyoh tamom bo'lguncha kundalikni hech kanda qilmay yozib bordim. Siyoh tamom bo'lgandan keyin esa kundalikni to'xtatishga majbur bo'ldim.

## **Sakkizinchi bob**

### **ROBINZONNING KUNDALIGI. ZILZILA**

1659-yil 30-sentabr. Bizning kemamiz ochiq dengizda dahshatli dovulda qolib halokatga uchradi. Kema ekipajining<sup>8</sup> mendan boshqa hammasi dengizga g'arq bo'lib ketdi; men baxtsiz, g'arib Robinzon Kruzo shu la'nati orol sohiliga chiqarib tashlandim va bu orolga Umidsizlik oroli deb nom qo'ydim.

Qosh qoraygach, darrandalardan qo'rqib, bir daraxtning ustiga chiqib oldim. Yomg'ir quyib turishiga qaramay, tun bo'yi qattiq uxladim.

1-oktabr. Erta bilan uyg'onib qarasam, bizning kemani to'lqin o'rnidan qo'zg'atib, sohil yaqiniga keltirib tashlabdi. Buni ko'rib menda shamol to'xtagandan keyin kemaga suzib borish, undagi ozuqalarni va boshqa narsalarni keltirib olish niyati tug'ildi, dengizda to'lqin to'xtab, suv qaytishi bilan kemaga qarab jo'nadim. Boshlab dengiz bo'yidagi sayoz joydan yurib bordim, keyin suzib ketdim. Shu kuni yomg'ir to'xtamay quyib turdi, lekin shamol tamom to'xtadi.

1-dan 24-oktabrgacha kemadagi narsalarni sohilga olib o'tish bilan band bo'ldim. To'lqin to'xtab suv qaytgan vaqtda kemaga suzib borib, suv ko'tarila boshlaganda kemadan sohilga keldim. Narsalarni solda olib o'tdim. Shu kunlarda doim yomg'ir yog'ib turdi; goho havo ochilsa ham, sal o'tmay yana ayniy boshladi: demak, bu mintaqada shu payt yog'ingarchilik payti bo'lsa kerak.

25-oktabr. Butun kech va tun bo'yi yomg'ir yog'ib, shiddat bilan shamol esib turdi. Kechasi kemani parcha-parcha qilib oqizib ketdi; kema turgan joyda uning ba'zi bo'laklarigina tikkayib qolgan edi, ammo bular ham suv qaytayotganda zo'rg'a ko'zga

---

<sup>8</sup> Kema ekipaji – dengizda suzuvchi kema komandasi va uning xizmatchilari.

ilinar edi. Shu kuni butun vaqtim narsalar atrofida yelib-yugurish, yomg'irda buzilib qolmasin deb, ularni o'rab-chirmash bilan o'tdi.

26-oktabr. Nazarimda, kulba solib olmoq uchun ancha muvofiq joy topdim. Endi uning atrofini shox va xodachalar bilan devor aylantirib olmoq kerak.

27-dan 30-oktabrgacha zo'r berib ishladim: tinmay yomg'ir quyib turishiga qaramay, narsalarimni yangi uyga tashidim.

31-oktabr. Erta bilan turib, biror jonivorni urib olmoq, aytmoqchi, atrofni ko'zdan kechirmoq niyatida qo'limga miltiq olib, orolni kezib yurdim. Bir echkini otib oldim. Uning ulog'i uyimgacha orqamdan ergashib keldi, lekin uni so'yishga majbur bo'ldim, chunki u juda yosh bo'lganidan hali ovqat yeyishni bilmas ekan.

1-noyabr. Yangi joyda, tepalik bag'riga katta chodir tikdim, uning ichiga katta qoziq qoqib, qoziqlarga belanchakka o'xshagan gamakni tang'ib bog'ladim, karavot bo'ldi.

4-noyabr. Vaqtimni bo'lib chiqdim, ov qilmoq uchun, ish uchun, uxlash va ko'ngil ochish uchun ma'lum vaqt belgilab qo'ydim. Agar yomg'ir bo'lmasa, ertalab qo'limga miltiq olib ikki-uch soat orolni aylanib yuraman, keyin soat o'n birgacha ishlayman, soat o'n ikkidan ikkigacha dam olaman (chunki bu ayni kun isigan vaqt bo'ladi), soat ikkidan yana ishga tutinaman. So'nggi ikki kun ichida butun ish vaqtimni stul yasash bilan o'tkazdim. Bu vaqtda hali durust duradgor bo'lib olganim yo'q edi. Ammo ehtiyoj odamni nimalarga o'rgatmaydi-yu! Men eng mi-rishkor usta bo'lib oldim. Mening ahvolimga tushib qolsa, har kim ham, shak-shubhasiz, bu ishning ustasi bo'lib oladi.

13-noyabr. Yomg'ir quyib turdi; yer va havo ancha musaffo bo'ldi, nafas olish yengillashdi, lekin

hadeb havo guldirab, chaqmoq chaqib turdi, tag'in dorilarim portlab ketmasin deb juda qo'rqdim. Mo-maqaldiroq to'xtagach, dorining hammasi birdan portlab ketmasligining ehtiyotini qilib, ularni mayda-mayda bo'laklarga ajratib, boshqa-boshqa joyda saqlash fikriga keldim.

14-15 va 16-noyabr. Shu kunlari dori uchun yashikchalar yasadim, bu yashikchalarning har biriga bir qadoqdan ikki qadoqqacha dori sig'ishi lozim. Bugun dorining hammasini yashiklarga solib, g'or ichiga bir-biridan uzoq qilib joylashtirdim. Kecha katta bir qush urib oldim, ammo uning qanday qush ekanini bilolmadim. Uning go'shti juda shirin edi.

17-noyabr. Narsalarimni yaxshiroq joylashtirmoq niyatida chodir orqasidan, tepa tagidan g'or qazishga kirishmog'im kerak edi. Ammo bu ish uchun uch narsa: cho'kich, temir kurak, tuproqni chiqarib tashlash uchun g'ildirak arava yoki g'altak bo'lishi lozim, baxtga qarshi, menda bulardan bittasi ham yo'q. Ishni to'xtatishga majbur bo'ldim. Bu asboblari o'rniga nima ishlatmoq yoki bularni qanday yasamoq to'g'risida ko'p bosh qotirdim, cho'kich o'rniga temir lom bilan ishlab ko'rdim: lom bilan ishlamoq mumkin-u, ammo u juda og'ir. Endi belkurak bilan g'altak qoldi. Belkuraksiz ish qilib bo'lmaydi, lekin men kurakni qanday yasash yoki uning o'rniga nima ishlatishning ilojini hadeganda topolmadim.

18-noyabr. Daraxtzordan Braziliyada «temir» deb ataladigan (yoki shu jinsdan bo'lgan) bu daraxtni topdim. Bu daraxt juda mahkam bo'lganidan unga «temir» deb nom qo'yanlar. Bir tup daraxtni ko'p mashaqqat tortib zo'rg'a kesdim. Boltam butunlay o'tmas bo'lib qoldi. Shu daraxtdan katta bir g'olani kesib, uyga zo'rg'a ko'tarib keldim. U nihoyatda og'ir edi. Undan kurak qilmoqchi bo'ldim. Bu daraxt judayam qattiq bo'lganidan bu ishga juda ko'p vaq-



tim va mehnatim ketdi. Lekin shunday bo'lsa ham, kurakni bir amallab yasadim. Uning sopi Angliyada qilinadigan kuraklar sopidan qolishmaydigan bo'ldi, ammo kurakning o'ziga kelganda sal yanglishibman. Uni tunuka bilan qoplab mahkamlamog'im lozim edi. Lekin mening taxta tunukam yo'q edi, shuning uchun ham kurak ko'p chidamadi. Menimcha, dunyoda hech bir kurak bunday oddiy usul bilan yasalmagan va bitta ham kurakka bunchalik ko'p mehnat sarf qilinmagan bo'lsa ham, har holda men ish boshlagan vaqtimda shu kurakdan yer qazish uchun yaxshi foydalandim.

Kurakka qaraganda tog'orani yasash ancha oson bo'ldi. Agar ertalabki paytlarda ovga chiqqan vaqtimni hisobga olmaganda, tog'ora, kurak yasashga va g'altak qilmoq uchun mening behuda urinishlarimning hammasiga to'rt kuncha vaqtim sarf bo'ldi. Umuman aytganda, mening ovga chiqmay qolgan kunlarim kamdan kam bo'lar va biror jonivorni otib kelmagan kunim bo'lmas edi, desam bo'ladi.

23-noyabr. Kurak va tog'orani yasab bitirdim. Bular tayyor bo'lishi bilan g'orni qazishga kirishdim. Kun bo'yi, kuchim yetguncha qazidim, menga yerto'la, narsalar qo'ymoq uchun ombor, o'tinxona, oshxona va ovqatxona bo'la oladigan keng joy darkor edi.

10-dekabr. Shu tariqa o'n sakkiz kun muqim ishlab, endigina bitkazdim, deganimda yerto'laning bir burchagi qulab tushdi. G'orni juda keng qilib qazib yuborgan ko'rinaman, o'pirilib tushgan joy juda katta bo'lganidan qo'rqib ketdim: basharti, shu paytda men shu g'or ichida bo'lganimda, menga go'rkovning ham darkori bo'lmagan bo'lar ekan. Bu baxtsizlik menga ko'p tashvish orttirdi: qulab tushgan tuproqning hammasini tashqariga chiqarib tashlamoq kerak, eng muhimi, shu o'pirilib tushgan joyni ustun

bilan tirab mahkamlash lozim, bo'lmasa, yana qulab tushmaydi deb xotirjam bo'lish sira mumkin emas.

11-dekabr. Shu kundan boshlab ishga kirishdim. Hozircha ikkita ustun tiqib, ikkitadan taxtani ko'ndalang tashlab, bir-biriga mingashtirib, bularga ustunlarni tirab qo'ydim.

17-dekabr. Birinchi ikki ustunni tamoman mahkamlab taxtalarni avvalgidek bir-biriga ko'ndalang tashlab, yana bir necha ustun tiqib tirab qo'ydim. Endi qulab tushish xavfidan tamom holi bo'ldim. Ustunlarni qator qilib tiqdim, bular yerto'lada ihota ham bo'lib qoldilar. Men bu ish bilan muqim bir hafta band bo'ldim. Shu kundan 20 dekabrgacha yerto'laga polkalar, ya'ni, tokchalar qildim, haligi ustunlarga mix qoqdim va osish mumkin bo'lgan narsalarning hammasini osib qo'ydim.

20-dekabr. Ro'zg'orga kerakli hamma qaqir-quruqlarni yerto'laga olib kirib, joylashtirdim. Endi mening ro'zg'orim sarishtayi saranjom. Yana bir stol yasadim va ozuqalarni qo'ymoq uchun bir necha kichkina tokcha qildim, bufetga o'xshash bir narsa hosil bo'ldi, taxtalarim juda oz qoldi.

24-dekabr. Butun tun va kun bo'yi jala quyib turdi. Uydan tashqariga chiqqanim yo'q.

26-dekabr. Yomg'ir tindi. Havo ochiq. Ancha salqin tushib qoldi.

27-dekabr. Ikkita uloq urib oldim, biri o'ldi, ikkinchisi oyog'idan yarador bo'lib qocholmadi; uni ushlab arqonga bog'ladim-da, uyga olib keldim. Uyda oyog'ini tekshirib ko'rdim; o'q ezib-sindirib yuboribdi, latta bilan o'rab, bog'lab qo'ydim.

Izoh. Bu uloqni boqib katta qildim: uning oyog'i tuzalib ketdi, oqsoqlamay bermalol yugurib yuradigan bo'lib qoldi. Lekin bu uloq qochib ketmadi: men uni ko'p parvarish qildim, u ham menga o'rganib, yonimdan ketmaydigan bo'lib qoldi. U chodir yonidagi may-

sada o'tlab yurdi. Bu echkiga tikilib o'tirib, uyda mol boqishim kerak, o'q va dori tamom bo'lganda go'shti ovqat bo'lar edi, degan fikrga keldim.

28, 29, 30 va 31-dekabr. Kun juda qattiq isidi, hech bir shamol bo'lmadi. Uydan kechqurunlarigina ov qilish uchun chiqdim, xolos. Uy-ro'zg'orimni tamoman saranjom-sarishta qilib oldim.

1660-yil 1-yanvar. Issiq hali qaytgani yo'q; shunday bo'lsa ham, bugun ertalab va kechqurun ikki marta ovga chiqdim. Choshgohdan keyin dam oldim. Kechqurun orol ichkarisiga borib, juda ko'p echki ko'rdim, lekin ular juda asov bo'lganlaridan yaqin bormoqning sira iloji yo'q edi. Itni ergashtirib kelib ularni ovlamoqchi bo'ldim.

2-yanvar. Bugun itni ergashtirib kelib, uni echkilarga olkishlab qo'ydim, lekin murodim hosil bo'lmadi: echkilarning hammasi itga qarshi go'yo balo-qazodek o'qtalib yurishdi. It boshiga kelayotgan xavfni juda yaxshi payqadi, shekilli, orqa-oldiga qaramay qochdi va qaytib echkilarga yaqin yo'lamadi.

3-yanvar. Qo'ra qilib, tuproq to'kib, uning atrofini mahkamlash fikriga keldim, chunki hanuz dushmanlarning qo'qqisdan hujum qilib qolish ehtimoli bartaraf qilinmagan edi. Bu ko'tarmani mumkin qadar qalin va mahkam qilishga harakat qilaman.

Men qo'rani qanday qilganimni yuqorida aytib o'tgan edim, shuning uchun bu qo'ra haqida yon daftarimda yozilganlarni qaytarib o'tirmayman.

Havo durust kunlari biror jonivorni urib olish niyatida ish oralarida orolni kezib chiqishni ham kanda qilmadim.

Orolni aylanib yurgan vaqtlarda ko'p yangi narsalar ko'rdim. Masalan, bir xil kaptarlarni uchratdim, bular bizdagi yovvoyi kaptarlarga o'xshab daraxtga emas, tepalikdagi kavaklarga in qurar edi. Odam bu kaptarlar iniga bemalol chiqa oladi.

Kunlardan bir kun bir necha kaptar bolasini inidan olib, uyga keldim, men ularni boqib, o'rgatmoqchi bo'ldim. Ko'p urindim, lekin katta bo'lib, qanot rostlashi bilanoq birin-ketin uchib ketdi. Ehtimol, menda ularga beradigan don bo'lmaganligidan ular ketib qolgandir.

Shundan so'ng undan qush bolalarini tez-tez olib keladigan bo'ldim, chunki ularning go'shti juda shirin bo'lib, undan lazzatli taom tayyorlash mumkin edi.

Bu vaqt ichida men juda usta duradgor bo'lib ketdim, bolta va randa bilan mirishkor duradgorlardan qolishmay ishlaydigan bo'lib oldim.

Lekin ba'zi buyumlarni yasashni hech bir uddalay olmadim. Masalan, bochka yasash qo'limdan kelmadi. Kemadan ikki-uchta bochka olib kelganimni yuqorida aytib o'tgan edim, shu bochkalar menga namuna bo'la olar edi, lekin bu ishga bir necha hafta ovora bo'lib, qancha urinsam ham, hech natija chiqara olmadim. Bochkaning tagini ham o'rnata olmadim, taxtalarini suv o'tmaydigan qilib mahkamlab joylashtira olmadim. Ana shu tariqa bu ishning bahridan o'tdim.

Shag'amsiz juda qiynaldim. Qosh qorayishi bilanoq (soat yetti bo'lar-bo'lmas qorong'i tushadi) ko'rpaga kirib yotishga majbur bo'lardim. Afrika sohillarini kezib yurganimizda Ksuri bilan shag'am yasagan mum esimga tushib turar edi. Ammo menda mum yo'q, faqat ov qilib otib olingan echkilarning yog'idan shag'am qilishnigina o'ylardim, xolos. Darhaqiqat, loydan qora chirog' yasab, uni oftobda toza quritdim, to'zib yotgan eski arqon tolasidan pilik qilib, echki yog'i solib yoqa boshladim. Qora chirog' shag'amga qaraganda ancha xira, nursiz yonar, buning ustiga, ko'pincha pirpirab turar va o'chib qolar edi.

Ro'zg'or ishlari bilan band ekanman, bir kuni kerak bir narsani qidirib omborni titkilab yurib,

bir qopchiq arpa topib oldim, bu arpani biz g'oz va tovuqlarga bermoq uchun kemada olib kelgan edik. Qopdagi donning hammasini kalamush yeb qo'yipti, shuning uchun ham, menga u nuqul nishxo'rt po'stloq bo'lib ko'rindi. Qop dori solib qo'yish uchun zarur bo'lganidan, uni hovliga olib chiqib, ichidagisini yerto'la yoniga to'kdim.

Bu hodisa yon daftarimda yozib o'tgan o'sha qattiq jala yoqqan kundan sal oldin bo'lgan edi. Men buni allaqachon unutib yuborgan va hatto qopni u yerga chiqarib qoqqanim ham esimdan chiqib ketgan edi.

Yarim oydan keyin tepa bag'ridagi yerto'la yonida yerdan endigina bosh chiqarayotgan bir necha tup maysani ko'rdim. Dastlab, bu shu yerdagi o'tlarning biror xili bo'lsa kerak, deb o'yladim. Lekin oradan bir necha kun o'tgach, o'sha ko'karib turgan maysalar katta bo'lib (bular o'n-o'n ikki tupdan ko'p emas edi) bosh tortdi, qarasam, ular bizning Angliyada o'sadigan arpalarning o'zi, buni ko'rib juda hayron qoldim. Bu yangilik meni shunchalik suyuntirdiki, buni so'z bilan aytish qiyin. O'zinga-o'zim: «Mo'jiza yuz berdi: mening huvullagan joyda o'tayotgan turmushimga yordam bermoq uchun urug' sepilmagani holda arpa ko'karib chiqdi», – dedim.

Bu fikr ko'nglimni bo'shashtirib yubordi va o'pkam to'lib, yig'lab yubordim. Meni deb shunday bir mo'jiza yuz berganidan behad suyundim. Mo'jiza bu bilan tugamadi: oradan ko'p o'tmay, bu arpalar yonida boshqa bir o'simlik – sholi paydo bo'ldi: Afrikada yashagan vaqtimda sholini ko'p ko'rganimdan bularning sholi ekanini darrov bildim.

Oлло taolo menga g'amxo'rlik qilib shu sholi bilan arpani bu yerda paydo qildi, deb ishonibgina qolmay, men uchun bu orolda bunday boshhoqlar xili ko'p ekaniga ham shubham qolmadi. Orolidagi hamma pastqam joylarni qarab chiqdim, har bir do'ng va

har bir tepani birma-bir ko'zdan kechirdim, lekin bir joyda ham na sholi va na arpa ko'rdim.

Shundan keyingina g'oz va tovuqlar uchun olib kelingan qopdagi donni shu yerga to'kkanligim yodimga tushdi.

Mo'jizaning tuguni yechildi!

Bular pishgandan keyin (iyul oxirlari edi) qanday ehtiyotkorlik bilan yig'ishtirib olganligimni siz tasavvur qila olasiz. Yerdagi har bir donni bittalab terib olib, bularni ishonchli, quruq joyga yashirib qo'ydim. Birinchi yilgi hosilning hammasini urug'lik uchun qoldirishga qaror berdim: bora-bora donim juda ko'payib, ham urug'lik va ham non uchun yetadigan bo'ladi, degan fikrga keldim.

To'rtinchi yilga boribgina donning faqat bir qismini, shunda ham juda oz qismini ovqat uchun ajratib qo'ya oldim. Gap shundaki, birinchi yilgi hosildan chiqqan donning deyarli hammasi nobud bo'ldi: men vaqtdan adashib donni quruqqarchilik oldidan sepibman, shuning uchun ham donning ko'pi unib chiqmadi. Bu haqda keyinchalik yana gapiraman.

Yuqorida aytib o'tganimdek, arpadan tashqari yigirma-o'ttiz tup sholi ham ko'karib chiqqan edi. Sholini ham arpa singari ehtiyot qilib bitta ham qoldirmay yig'ishtirib oldim va birinchi yilgi hosilning hammasini urug'lik uchun qoldirdim. Keyinchalik guruch yetarli darajada ko'paygandan so'ng undan bo'lka non emas (chunki boshqa pishiradigan hech nima yo'q edi), obinon pishirdim. Ammo oradan biroz vaqt o'tgach, chinakam bo'lka non pishirish yo'lini topdim.

Gapni shu yerda to'xtatib, yana kundalikka qaytaman.

14-aprel. Qo'ra batamom bitgan va tashqi tomonidan tuproq to'kib mahkam shibbalangan edi. Qo'rg'on ichida odamzod yashaydigan uy borligini

tashqaridan qaraganda payqab bo'lmaydigan qilish uchun qo'ra eshigini mahkam berkitib tashladim, o'zim bo'lsam qo'rg'onga narvon qo'yib kirib-chiqadigan bo'ldim.

16-aprel. Narvon bitdi. Qo'rg'onga kirib-chiqqanda shu narvonni qo'yib, devordan oshib tushadigan va har safar narvonni o'zim bilan birga u tomondan-bu tomonga ko'tarib o'tadigan bo'ldim. Mening qo'rg'onim ancha keng va unga faqat devordan oshib tushmoq mumkin, xolos.

Lekin men qo'rg'onni mahkam berkitib tashlagan kunning ertasiga bir hodisa yuz berib, meni qattiq qo'rqitdi; butun mehnatim havoga ketishiga sal qoldi, o'zim ham bu falokatdan zo'rg'a omon qoldim.

Bu hodisa mana bunday ro'y berdi.

Men qo'rg'on ichida, chodir orqasidagi g'or og'zida nima bilandir mashg'ul edim, g'orning men turgan burchagida ayni boshim ustidan tuproq to'kila boshladi, yerto'laning shipini mahkamlash uchun qo'yilgan oldingi ustun qattiq qirsillab darz ketdi.

Qo'rqib ketdim, lekin nima bo'lganini bilmay qoldim. G'orning tepasi tuprog'i bo'sh bo'lganidan avvalgi safargidek qulab tushdi, shekilli, deb o'yladim.

«Agar shu qo'rg'on ichida tursam, tuproq tagida qolib ketaman, – deb o'yladim, – tepa qulab, o'zimni bosib qolmasligi uchun bu yerdan qochmoq kerak!»

Hash-pash deguncha narvonni qo'yib, devordan oshib tushdim.

Lekin hali oyoqlarim yerga tegmasdanoq, yerto'laning qulab tushganligiga bu safar zilzila sabab bo'lganligi aniq ma'lum bo'ldi. Yer tebranib, larzaga kelmoqda edi, bir necha daqiqa ichida yer uch bor shunday qattiq qimirladiki, buning zarbiga har qanday mahkam bino ham yakson bo'lib ketar edi. Dengizdagi xarsangtoshlarning boshi uzilib tushib, shu qadar qattiq gumbirladiki, men bunday dahshatli ovozni umrimda sira eshitgan emasman.

Dengiz shu qadar qattiq larzaga kelib ko'pirdiki, men: yer dengiz tagida oroldagidan ham qattiq qimirlagan bo'lsa kerak, deb o'yladim.

Bunday dahshatni men avval sira eshitgan emas edim. Shu sababdan hozir juda hayratda qolib, to'liqinlanib ketdim. Dengizda kema chayqalganda odam qanday lohas bo'lsa, yerning tebranishidan ko'nglim shunday lohas bo'ldi. Ko'nglim ayniy boshladi. O'lyapman, deb o'yladim.

Xarsangtoshlarning sinib gumbirlashidan qu-loqlarim bitib, hang-mang bo'lib qoldim. Keyin hushimga kela boshladim va birdan agar tepa mening chodirimni bosib qolib, buyumlarim va ozuqalar uning tagida qolsa, nima qilaman va bu yerda qanday yashayman? – degan qo'rqinchli o'ylar xayolimga keldi. Yuraklarim yana orziqib ketdi.

Uchinchi tebranishdan keyin yer ancha tinchlandi. Men hushimga kelib, o'zimni ancha tetik seza boshladim, shunday bo'lsa ham, uyga qaytishga yurak dov bermadi. Qattiq xafachilik bilan nima qilishni bila olmay, shu yerda yana ancha vaqt o'tirib qoldim.

Shu orada osmonni bulut qopladi, yomg'ir yog'adigandek, qorong'ilik bosdi. Bilinar-bilinmas shamol turdi, bu shamol kuchayib-kuchayib, yarim soatdan keyin dovulga aylandi. Dengiz ko'pirib, toshib, hayqiriq solib, sohilga urila boshladi. Daraxtlar bo'ron zarbidan tag-tomiri bilan qo'porilishdi. Dovul uch soat beto'xtov davom etdi. Men bunday qattiq bo'ronni hech qachon ko'rmagan edim. Keyin bo'ron sal bo'shashdi. Ikki soatlardan keyin bo'ron taqataq to'xtadi-yu, ammo shu zahotiyuq qattiq yomg'ir quyib berdi.

Ertasiga, 18-aprelda kun bo'yi uydan chiqmadim, chunki yomg'ir tinmay quyib turdi. Men es-hushimni yig'ib olib, o'z ahvolimni hushyorlik bilan muhokama qila boshladim. Boshimga bunday fikr keldi: bundan



so'ng shu g'orda turish mening uchun g'oyat xatarlidir; bas, orolda zilzila bo'lib turar ekan, erta-yu kech shu tepa tagida qolib, tiriklayin ko'milaman, demak, chodirni biror ochiq joyga olib borib tikmoq kerak, yovvoyi odamlar va darrandalar hujumidan saqlanmoq uchun uning atrofiga yana baland devor olmoq lozim.

So'nggi ikki kun ichida, ya'ni, 19 va 20-aprelda ertalabdan kechgacha uy uchun yangi joy axtardim.

Buyumlarning hammasini yangi joyga tashib olmoqqa juda ko'p vaqt ketishi menga aniq va ayon bo'ldi, shu sababdan hozircha nimaiki bo'lsa ham, xavf-xatarga tan bermoq lozim, chunki devorsiz ochiq joyda yashamoq bundan ham xavflidir, degan fikrga keldim. Ammo har holda fursatni boy bermasdan, yangi joyga qo'ra tortishga kirishmoq kerak, devor bitgandan keyin chodirni ko'chirib kelarman, deb o'yladim. 21-aprelda bu ishni boshlashga qat'iy qaror berdim.

22 dan 27-aprelgacha bu rejamni qanday amalga oshirish kerakligini o'yladim. Asbob-uskunalar juda kam bo'lib, bu ishdagi katta qiyinchilik shu edi. Mening uchta katta va bir qancha kichkina (bularni biz negrlar bilan savdo qilmoq uchun olib kelgan edik) boltalarim bor edi, lekin bularning hammasi, doim qattiq daraxtlarni kesa berganimdan uchi qayrilib o'tmas bo'lib qolgan edi. Durust, menda charx ham bor edi, lekin bu charxni bir odam aylantirib turishi zarur bo'lganidan uni bir kishi udda qilolmas edi. Men o'z charximni boshqa bir kishining ishtirokisiz aylantirish kerak, degan buyuk vazifani hal qilish ustida o'ylayverib, shuncha ko'p aql sarf qildimki, hech bir davlat arbobi muhim siyosiy masalalarni hal qilish ustida bunchalik ko'p bosh qotirmagan bo'lsa kerak.

Oxiri buning ham yo'lini topdim: charxga tasma o'tkazib oyoq bilan bosganda aylanadigan qildim.

Endi ikki qo'l bilan asbobni ushlab charxlash mumkin bo'ldi. Bu yo'lni o'ylab topishga bir hafta vaqtim ketdi.

Izoh. Men oyoq bilan aylantiradigan charxni hech qachon ko'rmagan edim, ko'rgan bo'lsam, ham tuzalishiga nazar solmagan ekanman; natijada bunday charxlarning Angliyada juda ko'pligiga ishonдим, faqat u yerdagi charxlarning toshi menikidan kichikroq edi: mening charximning toshlari esa katta va og'ir edi.

28 va 29-aprel. Bugun va kecha kun bo'yi asboblarni charxladim; charx toshlarini aylantirish uchun o'tkazilgan tasma juda soz ishladi.

30-aprel. Bugun tekshirib qarasam, quritilgan nonim juda oz qolibdi. Qotgan nonni juda ehtiyot qilib sarflamoq kerak. Xaltalarning hammasini sanab ko'rib, kuniga bitta qotgan nondan ortiq yemaslikka qaror berdim. Bu juda mushkul bir hol, lekin boshqa iloj yo'q.

### ***To'qqizinchi bob***

## **ROBINZONNING DENGIZGA G'ARQ BO'LIB KETGAN KEMADAN BUYUMLAR TOPIB OLGANI, KASALLIK VA ZERIKISH**

1-may. Bugun ertalab suv qaytgan paytda sohilda turgan katta bir narsaga ko'zim tushdi, olisdan u bochkaga o'xshar edi. Borib qarasam, rostdanam bochka ekan.

Kemaning bo'lak-bo'lak parchalari shu yerda qolib ketgan edi. Dovul bularning hammasini sohilga chiqarib tashlagan bo'lsa kerak. Kemaning gavdasi cho'qqayib chiqib turgan tomonga qaradim, nazdimda, u har qachongidan ko'ra suvdan ancha baland ko'tarilib turgandek ko'rindi.

Bochkada miltiq dorisi bor edi: unga suv kirib, dori ivib, qotib qolibdi. Bochkani dengiz oqizib ketishidan saqlab qolmoq uchun uni bir amallab yumalatib, balandroq joyga chiqarib qo'ydim, o'zim kunimga yarab qoladigan biror narsa topilmasmikan, degan umid bilan kemani tekshirib ko'rmoq uchun sozliq joydan yurib, kema tomonga bordim.

Bir oz yaqinroq borib qarab hayron qoldim: kema o'rnidan qo'zg'alib qolibdi. Kemaning quyrug'i uning tanasidan ajralib qolganiga ko'p vaqt bo'lgan edi, endi esa u ancha nariga surib tashlanibdi, to'liqin bo'lsa, uni bo'lak-bo'lak qilib yuboribdi. Avval qum tagida qolgan tumshug'i esa endi olti futcha baland ko'tarilib qolibdi. Kema quyrug'ini paluba tomondan qum bosib qolibdi, xuddi shu joydan qirg'oqqa tomon qum aralash sozlik hosil bo'libdiki, endi men shu qumlikdan kema yoniga bora olaman. Avval bu yerda suv bo'lib, kema yoniga chorak milcha suzib kelganligim o'quvchining xotirida bo'lsa kerak. Nima sababdan kemaning o'z o'rnidan bunchalik qo'zg'alib qolganligiga ancha vaqt aqlim yetmay turdi. Lekin xiyla o'tgach, bu o'zgarish zilzilaning oqibati bo'lsa kerak, deb o'yladim.

Zilzila kemani juda majaqlab, bo'lak-bo'lak qilib yuboribdi, shuning uchun kemaning pastki qavatidagi ochiq omborda bo'lgan turli-tuman narsalarni shamol va to'liqin har kuni sohilga oqizib kela boshladi.

Kemadagi bu o'zgarish butun fikr-xayolimni chulg'ab oldi. Natijada yangi joyga ko'chish to'g'risidagi fikr ham xotirimdan ko'tarilib ketdi. Ertasiga kun bo'yi kemaning ichki xonalariga kirish ilojini topmoq to'g'risida o'yladim. Bu xonalarning og'ziga qum tiqilib, to'lib qolganidan bularga kirish oson emasdi. Lekin men qiyinchiliklardan qaytmaydigan va hech narsadan qo'rqmaydigan bo'lib qolganimdan bu o'rinda o'zimni yo'qotib, dovdirab turmadim.

Darhol kema bo'laklarini tashiy boshladim, chunki hozirgi turmushim uchun menga har qanday qaqir-ququrlarning kerak bo'lishini yaxshi bilardim.

3-may. Bugun qo'limga arra olib bordim, kema quyrug'ining butun qolgan qismini arralab olmoqchi bo'ldim, lekin dengizda to'lqin boshlanib, suv ko'tarilib kela boshlaganidan bu ishni to'xtatishga majbur bo'ldim.

4-may. Qarmoq solib baliq tutdim, lekin nuqul yeb bo'lmaydigan yomon baliqlar ilindi. Zerikib ketdim, uyimga qaytib ketmoqchi bo'ldim, lekin qarmoqni so'nggi marta tashlaganimda kichikroq bir delfin ilindi. Bundan juda suyundim. Qarmoqni o'zim yasadim. Kanopni arqonning tevitini yechib qildim, qarmoqning o'zini esa simdan yasadim. Shunday bo'lsa ham, qarmog'imga shunchalik baliq ilinar ediki, bemalol to'yar edim. Men baliqlarni of-tobda quritib yer edim.

5-may. Kemada ishladim. Palubaning to'sinini arraladim, palubadan uchta katta qarag'ay taxtani sug'urib olib, bularni bir qilib bog'ladim va suv qirg'oqqa qarab toshganda sol qilib sohilga suzib o'tdim.

24-may. Hamon kemani buzib tashish bilan ovoraman. Ombordagi ko'p narsalar bir-biriga zich qilib bosib qo'yilgan edi; bularni lom bilan o'rnidan qo'zg'atib qo'ydim, suv ko'tarilishi bilanoq bir necha bochka va ikkita matroslar sandig'l suv betiga qalqib chiqdi. Ammo baxtga qarshi, sohil tomondan shamol turib, bularni dengizga olib ketdi. Bugun shamol ro'paradan turdi, bochkalardan bir kattarog'ini to'lqin sohilga oqizib keldi, bu bochkada cho'chqa go'shti bor edi, ammo bochkaga sho'r suv va qum kirib go'sht buzilib qolibdi.

16-iyun. Dengiz bo'yidan katta toshbaqa topib oldim. Shungacha orolda bitta ham toshbaqani ko'rganim yo'q edi.

17-iyun. Toshbaqani pista ko'mir cho'g'ida pishirdim. Toshbaqaning ichidan oltmishtacha tuxum chiqdi. Umrimda bunchalik shirin go'sht yemagan bo'lsam kerak! Bu orolda kun ko'ra boshlaganimdan bu yoqqa go'shtli ovqatim faqat echki va qush go'shti bo'lgan edi, xolos.

18-iyun. Ertalabdan kechgacha yomg'ir quyib turdi, uydan tashqariga chiqmadim. Bu yerda yomg'ir sovuq bo'lmaydi, shunday bo'lsa ham, kun bo'yi badanlarim uyushib turdi.

19-iyun. Hamon tobim yo'q: sovuqdan xuddi qishdagi kabi qaltirab turdim.

20-iyun. Tun bo'yi mijja qoqmadim: boshim og'rib, badanlarim qaltirab turdi.

21-iyun. Ahvolim juda yomon! Uzoq yotib, kuchdan qolarmikanman deb qo'rqaman. Unda holim nima kechadi?

22-iyun. Bugun ahvolim biroz yaxshi, lekin tuzalib ketarmikanman, bilmayman.

24-iyun. Sihatim ancha yaxshi.

25-iyun. Qattiq bezgak tutdi, badanimdan yetti soat goh sovuq, goh issiq ko'tarilib turdi. Ter bosish va hushdan ketish to'xtadi.

26-iyun. Ancha durustman. G'amlab qo'yan go'shtim tamom bo'lib qoldi, garchi hali butunlay darmonsiz bo'lsam ham, ovga chiqishga majbur bo'ldim. Bir echki otib oldim, uni uyga zo'rg'a ko'tarib keldim. Echki go'shtidan bir parcha kesib kabob qilib yedim. Juda ham sho'rva ichgim keldi, ammo mening kastrulim ham, sho'rva pishirish mumkin bo'lgan boshqa idishim ham yo'q.

27-iyun. Bugun yana avvalgi kungidek qattiq bezgak tutdi, kun bo'yi tuz totmay va suv ichmay yotdim. Tashnalikdan yuragim kuyadi, lekin borib suv olib kelishga madorim yetmadi.

28-iyun. Kechasi tashnalik juda ezib yubordi, lekin chodirda ham, yerto'lada ham bir tomchi suv yo'q edi, ertalabgacha chidashga to'g'ri keldi. Faqat tong otarda ko'z yumdim. Tamaki suv bilan romni qo'shib, o'zimga dori tayyorladim. Ichgan edim, ko'nglim ayniy boshladi. Ammo har holda ancha yengil tortdim.

30-iyun. Kun bo'yi o'zimni durust sezdim. Badanlarim uyushmadi. Miltiqni olib tashqariga chiqdim, lekin tez qaytdim, uzoq yurishga qo'rqdim. Toshbaqa tuxumini maza qilib yedim.

Kechqurun kechagi doridan yana ichdim.

Shunga qaramay, ertasiga, 1-iyulda yana tobim qochdi: yana bezgak tutdi, ammo bu safar avvalgidan ko'ra bo'shroq tutdi.

3-iyuldan boshlab bezgagim tutmadi. Ammo men ikki-uch haftadan keyingina tamom tuzalib ketdim.

Mengacha bu sohilga odamzod qadami tegmaganligiga tamom ishonch hosil qildim, shuning uchun ham, bu yerdan omon-eson qaytib ketarman, degan umidim qolmadi.

Uyimning atrofni mahkamlab, qo'rg'on qilib oldim, keyin bu yerda tirikchiligim uchun zarur keladigan biror hayvon va o'simlik bor-yo'qligini aniqlash niyatida orolni yaxshilab tekshirib chiqmoqchi bo'ldim.

15-iyulda tekshirishga kirishdim. Avvalo, sol bilan kirgan o'sha kichkina qo'ltiqqa tomon yurdim. Bu qo'ltiqqa bir soyning suvi quyilar edi. Suv oqib kelayotgan tomonga soy bo'ylab ikki milcha yurgach, suv ko'tarilib, to'lqin bo'lganda dengiz suvi bu yerga chiqmasligiga ishondim, chunki bu yerdagi va yuqoriroqdagi suvning juda tiniq va tozaligi bundan dalolat berib turar edi. Yilning shu mavsumida bu yerda yog'ingarchilik bo'lmaganidan soyning ayrim-ayrim joylarida suv kam edi.

Soyning ikki qirg'og'i pasqam ekan: suv juda go'zal ko'kalamzor orasidan oqib boradi. Chor atrofni ko'm-

ko'k qalin o't-o'lan qoplab olgan, bu pastqam tekislik balandroq ko'tarilgan joylarda esa tamaki ko'karib yotibdi. Toshqin bu balandlikka chiqmaganligidan tamaki juda yaxshi bitibdi. Men bu vaqtgacha hech ko'rmagan boshqa xil o'simliklar ham bor ekan, agar bularning qanday o't ekanini bilganimda, ulardan ko'pgina naf ko'rgan bo'lar edim.

Issiq o'lkalarda yashaydigan hindlar tomiridan non qiladigan kassava<sup>9</sup> daraxtini qidirdim, lekin topolmadim. Ammo bu yerda ajoyib o'simliklardan bo'lgan aloe<sup>10</sup> va shakarqamish borligini ko'rdim. Shakarqamish yovvoyi holda o'sganidan undan qand qilib bo'lmas edi, lekin men aloedan odam yeydigan biror ovqat yasash mumkinligini bilmadim.

Ertasiga, 10-kuni yana o'sha joylarda bo'lib, undan ham nariroqqa, o't-o'lanlar o'sgan joyning oxirigacha bordim. Bu yerda har xil mevalar g'arq pishib yotmoqda. Bularning ko'pchiligi qovun. Daraxtlarga chirmashib ketgan toklarda bitgan uzum boshlari pishib pastga osilib yotmoqda. Bu ajoyibotni ko'rib juda hayron qoldim va behad suyundim. Lekin Verberida turgan vaqtimda ingliz toifasidan bo'lgan ikki tutqun uzumni ko'p yeb, ichburug' bo'lib o'lganligi darhol xotirimga keldi: shu sababdan men bu uzumdan faqat tatib ko'rdim, xolos. Lekin men uzumni boshqa yo'l bilan istifoda qilmoqchi bo'ldim, ya'ni, uni quritib mayiz qilmoqchi bo'ldim, chunki mayiz juda shirin bo'ladi, buning ustiga, u odamning sihatiga hech ziyon keltirmaydi.

Shu kuni uyga qaytib kelmadim. Daraxtzorda yotib qolgim keldi. Darrandalarning hujum qilib qolish xavfidan o'zimni saqlamoq uchun dastlabki kuni bu

---

<sup>9</sup> Kassava – Amerikada o'sadigan daraxt, ildizida odamni to'q tutadigan foydali kraxmal ko'p.

<sup>10</sup> Aloe – issiq o'lkalarda o'sadigan nilufarlar sirasidan bo'lgan o'simlik.

orolda yotganim singari bir daraxtning ustiga chiqib, tun bo'yi shu daraxt ustida uxladim.

Juda yaxshi uxladim, ertalab turib yana yo'lga tushdim. Shimol tomonga qarab yana to'rt milcha yurdim. Ikki tepalik o'rtasidan yurib bordim. Vodiy nihoyatda ajib, xushmanzara edi. Atrof butkul ko'kalamzor, gullagan, gullarning muattar bo'yi ham-mayoqqa esib turmoqda. O'zimni go'yo odam qo'li bilan ko'kartirilgan bog'da yurganday his qildim. Har bir tup ko'kat, har bir tup daraxt, har bir gul bahor libosiga bezangan. Xurmo, apelsin va limon daraxtlari juda ko'p edi, lekin bular parvarish ko'rmay yovvoyi holda o'sib yotganidan, ularning ba'zi birlarigina meva qilgan edi, xolos. Bir dona limonni uzib olib, uni suvga solib ichdim. Limon sharbati bilan suv ichgach, juda yengil tortdim va bu mening sihatimga ko'p naf qildi.

Uch kun deganda uyga qaytib keldim (endi kapa bilan yerto'lani uyim deb atayman) va bu ajoyib vodiyni zavq bilan esladim, uning go'zal manzaralari, sermeva daraxtlari, chakalakzorlari ko'z o'ngimdan o'ta boshladi, uning shamoldan pana va qulay joyda bo'lganligini, odam huzur qiladigan tiniq suvli buloqlari ko'pligini o'ylab, men uy qurgan joy orolning eng yomon joyi ekan degan fikrga keldim. Tabiiyki, men bu fikrga kelgandan keyin shu mevazor, yashab turgan vodiya ko'chib kelsam qanday yaxshi bo'lar edi, deb orzu qila boshladim. Vodiydan boyroq bir joyni belgilab, parrandalar hujumidan saqlamoq uchun atrofni devor qilmoq lozim.

Bu fikrdan anchagina hayajonlanib turdim: ko'm-ko'k go'zal vodiya meni o'ziga juda jalb qilgan edi. Vodiya ko'chib borish orzusi menga zo'r xursandchilik ato qildi. Lekin ko'chish haqidagi fikrni yaxshilab mulohaza qilib ko'rgach, hozirgi kapamdan dengiz ko'rinib turganini, binobarin, bir kunmas bir



kun qismatimda yaxshi o'zgarish yuz berar va bu yerdan qutulib ketmoqqa imkon bo'lar, degan umid tug'dirib turganligini o'ylab ko'rgach, yo'q, chor atrofini tepa to'sib turgan bir vodiya ko'chish fikridan qaytmog'im kerak, dedim. Meni bu orolga keltirib tashlagan shum taqdir boshqa bir bechora baxtsizni ham keltirmog'i mumkin. Basharti, shunday bir hol yuz bersa, bu baxtsiz sho'rpehana kim bo'lsa ham, o'zimning eng yaqin do'stim ko'rib xursand bo'lar edim. Albatta, bunday tasodifning yuz berishidan umidim kam edi, ammo dengizdan olis, orolning ancha ichkarisida bo'lgan tepa va daraxtlar orasiga kirib joylashmoq, shu jahannamda umrbod qolib ketish va ularning oxirigacha bu yerdan qutulib ketish umididan voz kechish degan gap edi.

Shunday bo'lsa ham, men bu vodiya ko'nglimni uzolmadim, iyulning oxirgi kunlarida hech joyga chiqmay, shu yerda turdim va o'zimga turar joy qilib oldim. Vodiya kapa tikdim va odam bo'yidan baland keladigan ikki qator qoziq qoqib, qoziqlar orasiga esa shox bosib, kapaning atrofini mahkam qo'rg'on qilib oldim. Qo'rg'onga katta uyimdagi kabi narvon qo'yib, tushib chiqadigan bo'ldim. Shunday qilib, bu yerda ham yirtqich hayvonlarning hujum qilish xavfidan xoli bo'ldim. Bu yangi joy menga juda yoqib qoldi, bir necha kunlab shu yerda turib, ikki-uch kechalab kapada tunadim; bu yerda ancha kenglikda turib, erkin nafas oldim.

«Endi dengiz bo'yida uyim, bu vodiya esa bog'im bor», – dedim o'z-o'zimga. Avgustning boshigacha butun vaqtim bu «bog' uyni» solishga sarf bo'ldi.

3-avgust. Osib qo'yg'an uzumlarim qurib juda yaxshi mayiz bo'libdi. Ularni darhol osib qo'yilgan daraxtdan oldim. Bularni tezda yig'ishtirib olmoq lozim edi, aks holda mayiz yomg'irda qolib buzilar va men qishlik mayizimdan mahrum bo'lar edim, mayizim

esa ikki yuz boshdan kam emas edi. Mayizni endi yig'ishtirib bo'lgan ham edimki, osmonni qora bulut bosib, juda qattiq yomg'ir quydi. Yomg'ir to'xtovsiz ikki oy, ya'ni, 14-avgustdan boshlab oktabrning yarmigacha yog'ib turdi. Bu yomg'ir chinakam to'fonga o'xshardi. Shu ikki oyi mobaynida bir necha kunlab yerto'ladan tashqariga chiqolmadim.

Bu vaqt ichida mening turmushimda quvonchli bir voqea yuz berdi: oilam ortdi. Mushuklarimning biri uydan chiqib ketganicha ko'p vaqtdan beri bedarak edi; bu mushuk o'lib ketgan deb xafa bo'lgan edim, avgust oxirlarida u birdan uch bolasini er-gashtirib uyga kirib keldi.

14-avgustgacha yomg'ir tinmay quyib turdi, men shu vaqt ichida uydan chiqmadim desam bo'ladi, chunki kasal bo'lganimdan buyon yomg'irda qolib shamollab qolmayin, deb o'zimni ehtiyot qiladigan bo'ldim. Ammo havoning yaxshi bo'lishini kutib, yerto'lada turgan vaqtimda ozuqalarim bitay deb qoldi, shu sababdan ikki bor ovga chiqishga majbur bo'ldim. Birinchi safar bir echki otib oldim, ikkinchi safar esa, 26-avgust kuni katta bir toshbaqa tutib olib, to'yib ovqatlan-dim. O'z vaqtida mening ovqatlanish tartibim mana bunday edi: nonushtaga bir shingil mayiz, tushda bir parcha echki yoki toshbaqa go'shti (go'shtni qovurish va qaynatma qilib pishirish uchun hech bir idishim bo'lmaganidan uni pista ko'mir cho'g'ida kabob qilar edim), kechqurun esa ikki-uchta toshbaqa tuxumi bilan ovqatlanar edim.

Yomg'irdan qochib yerto'lada yotgan vaqtimda o'n ikki kun surunkasiga har kuni ikki-uch soatdan yer qazib, yerto'lani kengaytirish bilan band bo'ldim. Yerni faqat bir tomonga qazib bora berib, oxiri qo'rg'on orqasidan yer betiga teshib chiqdim.

Endi uyimga kirib-chiqadigan yo'l bor: bu yo'l-kaga maxfiy eshik qurib oldim, endi narvon qo'yib

devordan qo'rg'onga oshib tushmasdan, shu eshik qurilgan yerdagi yo'lakdan bemalol kirib chiqa bera-man. Bu, albatta, mening uchun qulay bo'lsa ham, ammo avvalgidek xavf-xatardan xoli emas edi; avvalgi uyimning chor atrofi qo'rg'on edi, dushmanlar hujumidan xavf qilmay, bemalol uxlay berar edim; endi bo'lsa yerto'laga kirish hech gap emas; kirdimi – to'g'ri mening yonimga kela beradi! Darvoqe, hayronman, hech nimadan qo'rqishning hojati yo'qligiga o'sha vaqtda aqlim yetmabdi, chunki orolda yashay boshlaganimdan beri bu yerda echkidan katta hayvonni uchratganim yo'q.

30-sentabr. Butun orolda yakka-yolg'iz tura boshlaganimga bir yil to'ldi. Ustundagi chiziqlarni sanab ko'rsam, bu yerda rosa uch yuz oltmish besh kun umr kechiribman!

Menga shu jahannamdan qutulib ketmoq nasib bo'larmikan?

Yaqinda tekshirib qaragam, siyohim juda oz qolibdi. Uni ehtiyot qilib, tejab sarflash kerak: bu kungacha boshdan kechirganlarni har kuni eng mayda-chuydalarigacha yozib borar edim, endi esa turmushimdagi eng katta voqealarnigina yozib boraman.

Bu yerda yilning qaysi vaqtida yog'ingarchilik va qaysi vaqtda quruqqarchilik bo'lishini bilib oldim, demak, endi yog'ingarchilik mavsumi uchun ham, quruqqarchilik mavsumi uchun ham o'z vaqtida hozirlik ko'rib qo'yishni bilaman.

Lekin bu tajribani hosil qilmoq menga juda qimmatga tushdi. O'sha vaqtda mening turmushimda yuz bergan hodisa bunga dalil bo'la oladi.

Yog'inlar to'xtab, quyosh janubiy yarim doiraga o'tgan hamono oz-moz sholi va arpanni sepmoq uchun qulay fursat keldi, deb o'ylaganligim o'quvchiga yuqorida ma'lum bo'lgan edi. Sholi va arpani sepib qo'yib, hosilni kuta boshladim. Lekin quruqqarchilik

oylari boshlanib ketdi, yerda bir qatra ham nam qolmadi va bitta ham don unib chiqmadi. Yaxshiki, sholi va arpadan bir siqimdan olib qolgan ekanman. Men ehtiyotkorlik qilib, o'zimga: «Urug'ning hammasini sepib qo'ymayin, hali bu yerning iqlimini o'rganib olganim yo'q, urug'ni qachon tashlash va hosilni qachon yig'ishtirish lozimligini bilmayman», – degan edim. Bu ehtiyotkorligim uchun o'zimdanda juda mamnun bo'ldim, chunki yerga tashlagan urug'im qurg'oqchilik natijasida batamom chiqmay, yo'q bo'lib ketishiga ishongan edim. Ammo bir necha oy o'tgach, sal yog'in tushib, yer nam bo'lishi bilan oq sepilgan donning hammasi endi sepilgan urug'dek unib chiqqanini ko'rib, juda hayratda qoldim!

G'allam o'sib, pishguncha men bir ish qildim, bu ish keyinchalik menga katta foyda keltirdi.

Yog'inlar to'xtab, havo ochilgach, ya'ni, taxminan noyabrda men daraxtzordagi bog'imga bordim. Bir necha oydan buyon bu yerga kelmagan edim va hamma narsaning hech buzilmay, o'zim turgan vaqtda qanday bo'lsa, xuddi shunday o'zgarmasdan turganini ko'rib, juda xursand bo'ldim. Kapa atrofidagi qo'ragina o'zgaribdi, xolos. Ma'lumki, bu qo'ra ikki qator qilib qoqilgan qoziqlardan qilingan edi. Qo'raning o'zi but edi, lekin men o'sha vaqtda yaqin oradagi jinsi o'zimga noma'lum bo'lgan kichkina daraxtlardan kesib olib qoqqan qoziqlar uzun-uzun novda chiqaribdi, bu novdalar tolni kallak urganda chiqaradigan novdalarning o'ziga o'xshar edi. Bu nihollarni ko'rib, hayratda qoldim va qo'ramning ko'm-ko'k yashnab turishi meni juda xursand qildi. Bu novdalarning hammasi tekis va bab-baravar o'ssin degan niyat bilan har bir daraxtdagi novdalarni ko'zlab baravar qilib qo'ydim.

Bog' hovlimning sahni yigirma besh diametrcha bo'lsa ham, ko'p o'tmay, daraxtlarning (qoziqlarni

endi daraxt deb atashim mumkin) shoxlari o'sib, shunday quyruq salqin berdiki, har qanday issiq kunda ham odam bularning soyasida oftobdan o'zini saqlay oladigan bo'ldi. Shu sababdan yana shunday xodachalardan ko'pgina kesib kelib, ularni avvalgi uyimning atrofiga ikki qator qilib o'tqazdim. Bularning hammasi ko'kardi va oradan ko'p o'tmay, hovlimning atrofi qalin daraxtzorga aylandi, bu daraxtlar avval boshda meni issiqdan saqladi, keyinchalik esa boshqa yana muhimroq ishimga zarur keldi.

### ***O'ninchi bob***

#### **ROBINZONNING O'Z OROLINI TEKSHIRGANI**

Savat to'qimoqchi bo'lib ko'p urindim, lekin topgan xipchinlarim juda mo'rt bo'lganidan urinishlarim behuda ketdi.

Bolalik chog'imda shahrimizdagi bir savatchining uyiga borardim va savat to'qiyotganda zehn qo'yib tikilib turardim. Mana endi o'sha kuzatishlarim qo'l kelib qoldi. Bolalar har bir ishni bilib olishni havas qiladigan va kattalarga yordamlashishni yaxshi ko'radigan bo'ladilar. Savatchining ishlariga qarayverib, tez orada savat to'qishni o'rgandim, keyin savatchi do'stinga qo'limdan kelgancha yordamlasha boshladim. Oz-ozdan o'rgana borib, savat to'qishda undan qolishmaydigan bo'lib oldim. Endi esa menga material yetishmasdi, xolos. Oxiri boshimga bunday fikr keldi: men qoziq qilgan daraxtlarning novdasi savat to'qish uchun yaramasmikan? Axir, ularning novdasi ham bizdagi tol va majnuntol novdasi singari sinmaydigan, egiladigan bo'ladi-ku. Men sinamoqqa ular novdasidan savat to'qib ko'rmoqchi bo'ldim.

Ertasiga chorboqqa borib, ingichka-ingichkalarini tanlab bir necha novdani kesib oldim, keyin bilsam, bu novdalar savat to'qish uchun juda bop ekan. Ik-

kinchi dafa bu novdalardan ko'proq kesib kelmoq uchun bolta olib keldim. Bu yerda savat bop bu xildagi daraxtlar juda ko'p bo'lganidan uncha ovora bo'lmadim. Kesib olingan novdalarni kapam yoniga olib kelib, yashirib qo'ydim.

Yog'ingarchilik mavsumi boshlandi deguncha o'tirib, juda ko'p savat va gajava to'qib tashladim. Bu savatlar mening turli-tuman ishlarimga qo'l keldi: ularda tuproq tashidim, har xil narsalarimni solib qo'ydim va hokazo. To'g'ri, mening savatlarim dag'alroq chiqdi, ularni silliq va chiroyli qilolmadim, shunday bo'lsa ham, ishqilib, bu savatlarning xizmati yaxshi bo'ldi, menga shu kerak edi, xolos.

Shundan buyon men tez-tez savat to'qiydigan bo'ldim, eskilari sinib, titilib yoki ishga yaramay qoladi, shunda yangilarini to'qish kerak bo'ladi. Men har xil katta va kichkina savatlar to'qidim, lekin, eng muhimi, don asramoq uchun chuqur va mahkam savatlarni ko'paytirib oldim: men bu savatlar qop o'rnini bosarmikan deb to'qidim. To'g'ri, hozircha mening donim oz edi, lekin bir necha yil ichida donni ko'paytirib olish umidim bor.

Butun orolni aylanib tekshirib chiqishga qasd qilganimni va soy boshigacha hamda o'zim kapa tikkan joydan yuqoriroqqa borganimni aytib o'tgan edim.

Bu joydan orolning ro'parasidagi sohilga bema'lol o'tsa bo'lar ekan, hali u tomonni hech bir borib ko'rmagan edim. Miltiq, bolta, ancha-muncha dori, sochma va katta o'q oldim, har ehtimolga qarshi, ikkita qotgan non va ikki bosh mayiz ham oldim, keyin yo'lga tushdim. Har vaqtdagidek it ham orqamdan ergashdi.

Kapamga yaqinlab borib, to'xtamay g'arb tomonga qarab keta berdim. Yarim soatcha yuruvdim, ro'paramda dengiz paydo bo'ldi, dengizda esa bir

bo'lak quruq yer bor edi. Bu hol meni hayratda qoldirdi.

Havo ochiq, quyosh chiqib turmoqda, men uning quruq yer ekanini payqadim-u, lekin qit'ami yoki orolmi ekanini bilolmadim. G'arbdan janubga tomon cho'zilib yotgan bu yer baland, yalpoq tepalik bo'lib, mening orolimdan juda uzoq, mo'ljalimcha qirq milcha, ehtimol, oshiq ham kelar edi.

Buning qanaqa yer ekanligini bilolmadim. Shuni aniq bilamanki, bu yer Janubiy Amerikaning Ispaniya mulklariga yaqin qismi ekani ehtimoldan uzoq emas. Bu yerda odam yeydigan vahshiylar yashashi juda ehtimol, mabodo, men shu joyga tushib qolgan bo'lsam, ahvolim bundan ham yomon bo'lar edi.

Bu fikr ruhimni juda ko'tarib yubordi. Demak, o'z qismatimga la'natlar o'qib chakki qilgan ekanman. Yana ham yomon kunlarga qolmog'im mumkin edi. Dovul meni boshqa joyga eltmasdan, shu joyga keltirib tashladi deb, afsus qilib o'zimni o'rinsiz koyitgan ekanman. Demak, menga shunchalik rahm-shafqat ko'rsatgani uchun qismatimdan minnatdor bo'lmog'im kerak.

Shu tariqa fikr-xayol bilan sekin-asta ilgariga yurib bora berdim, ammo orolning bu qismi men avval boshda uy qurgan qismidan ko'p a'lo ekanligiga qadam-baqadam ishonch hosil qila bordim. Bu yer go'zal ko'kalamzor, ajib gullar, ko'rkam daraxtzorlardan iborat, sayroqi qushlari odamni maftun qilardi.

Bu yerda to'tilar juda ko'p ekan, men bulardan birini tutib olgim keldi; to'tini odamshavanda qilib, gapirishga o'rgatmoqchi bo'ldim. Ancha urunishlardan keyin bir yosh to'tini ushlab oldim: kaltak bilan uning qanotiga urgan edim, uchib keta olmadi. U karaxt bo'lib qolgan edi, men uni hushiga keltirib, uyga olib keldim. Oxiri men uni otini aytib chaqirishga o'rgatdim.

Dengiz sohiliga yetgach, taqdir meni orolning eng yomon qismiga keltirib tashlaganiga yana bir bor ishonдим.

Bu yerda toshbaqa nihoyatda ko'p, orolning men turgan qismida bo'lsa, bir yarim yil mobaynida atigi uchta toshbaqa topdim, xolos. Bu yerda turli-tuman jinsdan bo'lgan qushlar nihoyatda ko'p. Men umrimda ko'rmagan va bilmagan qushlar bor. Garchi men otlarini bilmasam ham, ba'zi qushlarning go'shti judayam shirin ekan. Men bilgan qushlar orasida eng yaxshilari pingvinlar edi.

Takror aytamanki, bu sohil men turgan sohilga qaraganda har jihatdan ham ko'p darajada a'lo edi. Ammo shunga qaramay, bu joyga ko'chib kelmoqni sira ixtiyor qilmadim. O'z kapamda ikki yilcha yashadim, u joyga o'rganib qoldim: bu joyda esa o'zimni go'yo yo'lovchidek, xuddi mehmondek his qildim, ko'nglim bir xil bo'lib, uyga qaytib ketgim kelaverdi.

Sohilga chiqib, sharq tomonga burildim-da, qirg'oqni yoqalab o'n ikki milcha yurdim. Ikkinchi marta bu yerga boshqa tomondan kelaman degan fikr bilan belgi uchun shu uzun kaltakni suqib qo'yib, orqamga qaytib ketdim.

Men uyga boshqa yo'l bilan qaytib ketmoqchi edim.

«Orol uncha katta emas, bunda odam adashmaydi, – deb o'yladim. – Adashib qolganimda ham tepaga chiqib qarayman-u, eski uyimning qayerda ekanini ko'rib olaman».

Biroq katta xato qildim. Sohildan ikki milcha nari borgandan keyin keng vodiya tushib qoldim, bu vodiya qalin daraxtlar o'sib yotgan bir-biriga tutash tepalardan iborat ediki, o'zimning qayerda ekanimni bilmoqning ham sira iloji bo'lmadi. Men quyoshga qarab yurmog'im mumkin edi, lekin buning uchun



shu paytda quyoshning qaysi tomonda ekanini aniq bilib olmoq kerak edi.

Eng yomon narsa shu bo'ldiki, men vodiya adashib yurgan uch-to'rt kun ichida havo bulut bo'lib, quyosh sira ko'rinmadi. Oxiri yana sohilga, o'zim kaltak suqib ketgan joyning o'ziga qaytib kelishga majbur bo'ldim.

Bu yerdan uyga avvalgi yo'l bilan keldim. Kun juda issiq, buning ustiga ko'targan yukim – miltiq, o'q-dori va boltam ham ancha og'ir edi, shuning uchun men asta-sekin, yo'lda dam ola-ola, oxiri uyga yetib keldim.

### ***O'n birinchi bob***

## **ROBINZONNING G'ORGA QAYTIB KELGANI. UNING DEHQONCHILIGI**

Bu sayohat vaqtida itim bir uloqqa qo'qqisdan hujum qilib, tappa bosdi, lekin g'ajilab tashlamasdan, yugurib kelib uloqni ajratib oldim. Uloqni uyga olib ketmoqchi bo'ldim: chorvani ko'paytirish va miltiq dorilarim tamom bo'lguncha ovqatga go'shtni g'amlab olish uchun harna qilib bo'lsa ham yana ikkita uloq topishni orzu qila boshladim.

Uloqqa bo'yinbog' qilib, unga chilvir o'tkazib oldim; chilvirni eski arqondan yechdim, bu eski arqonni doim cho'ntagimda olib yurar edim. Uloq qaysarlik qila boshladi, lekin oxiri yurishga majbur bo'ldi. Dala uyimga yetib kelgach, uni qo'raga tashlab, o'zim darrov jo'nab ketdim: tezroq uyga yetib olmoqchi bo'ldim, chunki bir oydan ko'p sayohatda yurmoqda edim.

Eski uyimga kirib kelganimdagi tuyg'uni va gammakka yotib huzur qilganimni tasvirlashim qiyin, orolda sargardon bo'lib yurganimda bosh qo'yadigan joy bo'lmasdan juda holdan ketgan edimki, o'z uyim (kulbamni endi shunday deb atadim) behad orombaxsh tuyuldi.

Men bir haftagacha dam olib, uydagi ovqatlardan yeb orom oldim. Vaqtimning ko'p qismi juda muhim ishga, ya'ni to'tiga qafas to'qishga sarf bo'ldi. To'ti tez vaqt ichida uy qushiga aylanib, menga juda o'rganib qoldi.

Keyin bog'da qamalib yotgan bechora uloq yodimga tushdi. «U men qoldirib kelgan o'tning hammasini yeb, suvni ichib bo'lgan va hozir och-nahor bo'lsa kerak», – deb o'yladim. Uni olib kelmoq kerak. Dala uyimga borsam, u o'zim qo'yib kelgan joyda turgan ekan. Chiqib ketgani qurbi kelmapti, ochlikdan o'lay-o'lay deb qolibdi. Shu yaqin oradagi daraxtdan bir serbarg shoxni kesib, oldiga tashladim.

Bargni yeb bo'lgach, bo'yin bog'idan arqon o'tkazib, avvalgiday yetaklab ketmoqchi bo'ldim, lekin ochlik orqasida u shunchalik mo'min bo'lib qolibdiki, arqonning hojati bo'lmay qoldi: u kuchukka o'xshab orqamdan yugurib kela berdi.

Men uni yonma-yon boqib keldim, bu orada u, uyimdagi jonivorlarga o'xshab, menga juda elikib, gapga kiradigan, yuvosh bo'lib qoldi, menga o'rganiganidan bir qadam ham keyinda qolmay kelaverdi.

Dekabr boshlandi, arpa-sholi unib chiqadigan vaqt yetdi. Mening ekinzorim uncha katta emas, chunki birinchi yili ekinim qurg'oqchilikda halok bo'lganidan, atigi nimchorakcha busheldan<sup>11</sup> arpa bilan sholim qolgan edi.

Bu safar hosilning yaxshi bo'lishi kutilardi, biroq kutilmaganda, butun hosildan yana mahrum bo'lish xavfi tug'ildi, turli-tuman dushmanlar ekinzorimni payhon qila boshladilar – bulardan ekinni saqlab qolmoq gumon. Bu dushmanlar, birinchidan, echkilar, ikkinchidan esa, men quyon deb yurgan jonivorlar edi. Sholi va arpaning shirin poyasi ularga juda

---

<sup>11</sup> Bushel – inglizcha sochiluvchi jismlar o'lchovi. Bir bushel 36 litrga teng.

ma'qul tushibdi: arpa bilan sholi hali bosh tortib ulgurmasdan ular kecha-yu kunduz ekin ichidan chiqmay, yosh poyalarni qiyrata boshladilar.

Bu dushmanlar hujumiga qarshi qo'llanadigan birgina vosita bor edi, xolos: ekinzorni chetan devor bilan to'sish darkor edi. Men shunday qildim. Lekin bu ish qiyin bo'ldi, buning eng asosiy sababi shuki, bu darrandalar boshhoqlarni hech qo'ymay qiyrata boshlaganlaridan oshig'ich ravishda devor olmoq zarur edi. Darvoqe, ekinzor uncha katta bo'lmaganidan chetan devor uch hafta deganda tayyor bo'ldi.

Chetan devor ko'ngildagidek bo'ldi. U bitguncha, dushmanlarni miltiq otib qo'rqitdim, kechalari esa itni bog'lab qo'ydim, u tong otguncha vovullab chiqdi. Shu ehtiyot choralari tufayli dushmanlar meni tinch qo'ydilar, boshhoqlar ham don torta boshladi.

Lekin g'alla don torta boshlashi bilanoq yangi dushmanlar paydo bo'ldi: to'da-to'da mechkay parrandalar uchib kelib, ekinzor tepasidan aylana boshlashdi, ular mening g'oyib bo'lishimni va ekinga yopirilish uchun qulay fursatni poylay boshladilar. Men ularga qarab shu zamonoz o'q uzdim (miltiqni doim o'zim bilan olib yurardim), o'q uzilgan hamonoz ekin ichidan boshqa guruh parrandalar duv ko'tarildi, avvalida bularni payqamagan edim.

Men juda tashvishda qoldim.

«Yana shu zaylda bir necha bor yopirilishsa, butun umidlarim puchga chiqadi. – dedim o'z-o'zimga, – chunki mening boshqa urug'ligim yo'q, donsiz qolaman».

Nima qilsam ekan? Bu yangi hujumdan qanday saqlanmoq kerak? Hech qanday tadbir o'ylab topolmadim, lekin nima qilib bo'lsa ham, hatto kecha-yu kunduz qimirlamay qo'riqlasam ham, g'allamni saqlab qolishga qaror berdim.

Parrandalar qanchalik ziyon keltirganligini aniqlamoq uchun ekinzorni bir boshdan tekshirib chiqdim. Ma'lum bo'ldiki, g'allaning anchagina qismi nobud bo'libdi, ammo g'allaning qolgan qismi omon-eson saqlab qolinsa, bu ziyonga toqat qilmoq mumkin edi. Parrandalar ketishimni poylab, yaqin joydagi daraxtlardan biriga qo'nib turmoqda edi.

Men miltiqni o'qlab, go'yo bir yoqqa ketgan bo'lib, o'zimni panaga oldim, o'g'rilar suyunishib, birin-ketin ekinga tusha boshlashdi. Bunga juda g'azabim keldi. Boshlab men hamma parrandalarning tushishini kutib turmoqchi bo'ldim, lekin sabrim chidamadi.

«Ular hozir yeb ketadigan har bir dona donni yo'qotish orqasida men bir butun nondan mahrum bo'lmog'im mumkin-ku, axir», – dedim o'z-o'zimga.

Qo'rg'on yoniga yugurib kelib o'q ota boshladim; parrandalardan uchtasi o'rnidan qimirlamay qoldi. Boshqa parrandalarni qo'rqitmoq uchun ularni olib, baland bir yog'ochga osib qo'ydim. Bu chora qushlarga shunchalik qattiq kor qildiki, tasavvur etmoq qiyin; bitta ham qush qaytib ekinga tushmadi. Qushlarning hammasi orolning boshqa qismiga qochib ketishdi; o'lik qushlar daraxtda osilib turgan vaqt ichida men bitta ham qush ko'rganim yo'q; ishonning-ishonmang – qushlar ustidan g'alaba qozonganimga juda huzur qildim.

Dekabr oxirida g'alla pishdi va men shu yili ikki marta hosil oldim.

Baxtga qarshi, cholg'im ham, o'rog'im ham yo'q edi, o'ylayverib, oxiri boshqa qurollar bilan birga kemandan olib kelgan qilichni o'rim-yig'imda ishlatish fikriga keldim. Darvoqe, g'allam shunchalik oz ediki, uni yig'ishtirish uchun uncha ko'p mehnat talab qilinmas edi. Men uni o'zim o'ylab topgan yo'l bilan yig'ishtirib oldim, ya'ni, faqat boshlarini uzib, katta savatga solaverdim, keyin uyga olib keldim. Hosil-

ning hammasini yig'ib bo'lgandan so'ng, boshqoni qo'l bilan uqalab, donini ajratib oldim, natijada, nimchorak bushel sholidan ikki bushelga yaqin sholi va nimchorak bushel arpadan ikki yarim bushel arpa oldim (albatta, bu taxminiy hisob, nimagaki mening tarozim yo'q edi).

Hosil juda yaxshi bo'ldi, bu muvaffaqiyat meni juda ruhlantirib yubordi. Endi mening bir necha yil ichida doimiy g'alla zaxiram bo'ladi, deb ishonmog'im mumkin. Lekin shu bilan birga mening oldimda yana boshqa bir qiyinchilik paydo bo'ldi. Tegirmon yo'q, tegirmon toshi ham yo'q, bu g'allani qanday qilib un qilaman? Unni qanday elayman? Unni qanday xamir qilaman? Nihoyat, qanday qilib non yopaman? Men bularning hech birini bilmas edim.

Shu qiyinchiliklar sababidan donga qo'l urmaslikka va donning hammasini urug'lik uchun asrab qo'yishga va kelgusi hosilgacha, asosiy vazifani, ya'ni, bu dondan non qilish yo'lini topmoq uchun harakat qilishga qaror berdim.

## ***O'n ikkinchi bob***

### **ROBINZONNING KULOLCHILIK QILGANI**

Yomg'ir yog'ib, uydan tashqariga chiqish mumkin bo'lmagan vaqtlarda, men ish orasida to'timni gapirishga o'rgatdim. Bu ish menga yaxshi ermak bo'ldi.

Bir necha darsdan so'ng o'z otini bilib oldi, keyinroq esa, ancha vaqt o'tgandan keyin, u nomini ancha qattiq va aniq qilib aytadigan bo'ldi.

Shundan keyin «To'ti» degan so'zni men bu orolda birov tilidan birinchi marta eshitdim.

Lekin to'ti bilan gaplashmoq men uchun ish emas, balki ishga bir yordam edi. Bu vaqtda men juda muhim ish bilan band edim. Idish-tovoqqa juda muhtoj bo'lganimdan, sopol idish yasash

haqida ko'pdan buyon bosh qotirar edim-u, lekin ilojini topolmay yurardim. Sopol bo'ladigan loy yo'q edi. «Kulolchilikka mos loy topsam, xurma, kuvacha yoki kosaga o'xshash bir idish yasay olardim, – deb o'yladim. – To'g'ri, xurmani ham, kosani ham o'tda pishirish kerak, ammo men iqlimi issiq joyda yashayman va bu yerda quyosh har qanday pech-kadan ham yaxshiroq qizdiradi-ku, idishlarim oftobda qurisa ham, ishqilib ancha pishiq bo'ladi. Uni qo'lda olib yurish mumkin, don va umuman quruq oziq-ovqatlarni nam tegizmaslik uchun ular ichiga solib qo'yish mumkin bo'ladi».

Muvofiq loy topishim bilanoq don solib qo'yadigan bir nechta katta xum yasab olishga ahd qildim. Ovqat pishirish mumkin bo'lgan sopol idishlar yasash to'g'risida hali o'ylab ham ko'rganim yo'q.

Dastlabki vaqtlarda qo'polligim orqasida qanchadan qancha idishlarimning juda qo'pol, dag'al va xunuk bo'lib chiqqanini, loyning yaxshi pishitilmaganligi natijasida qancha idishlarning darz ketganini va o'z og'irligini ko'tara olmay, o'tirib qolganini bir boshdan so'zlab bersam, o'quvchi, albat-ta, menga achinar, yo bo'lmasa, ehtimolki, mening holimga kular edi. Xurma va kuvachalarimning bir xillari oftobda quritmoq uchun ko'tarib borib yerga qo'yayotganimda yorilib ketdi; bir xillari esa oftob ko'rmasdanoq chil-chil bo'lib maydalanib ketdi.

Ikki oygacha boshimni ko'tarmay mehnat qildim. Kulolchilikda ishlatiladigan yaxshi loy topmoq, bu loydan ancha-muncha g'amlab uyga olib kelmoq va uni pishitmoq uchun ko'p mehnat sarf qildim, shunga qaramay, ko'p urinishlardan keyin beso'naqay, xunuk, lekin idishnamo narsa yasadim, bularni ko'za ham, kuvacha ham deb atash hech mumkin emas edi.

Ishqilib, bular juda foydali buyum bo'ldi. Novdalardan ikkita gajava to'qidim, xumchalar oftobda yax-

shu qurib qotgach, bularni astagina yerdan ko'tarib, haligi gajavalarga solib qo'ydim. Xumchalar bilan gajavalalar orasidagi bo'sh joylarga bular sinmasin uchun sholi va arpa poxolini solib qo'ydim. Dastlab ishlagan bu ikkita xumimda quruq don asramoqchi bo'ldim. Nam ovqatliklar solsam, bu idishlar nam tortib qoladi, deb qo'rqdim. Keyinchalik donlarni tortib un qilish yo'lini topsam, u vaqtda bu idishlarga un solib qo'ymoqchi bo'ldim.

Yasagan katta idishlarim ko'ngildagidek chiqmadi. Mayda idishlar: yumaloq kosachalar, likoplar, xurmachalar, kuvachalar, piyola va shu kabilarni ancha durust yasadim. Kichkina narsalarni yasash oson; buning ustiga, ular oftobda tekis quriydi va shuning uchun mahkam bo'ladi.

Lekin oldimga qo'ygan asosiy vazifam bajarilmay qoldi: menga o'tga chidash bera oladigan va suv turadigan idishlar yasash kerak, yasagan xurmachalarim esa bunga yaroqsiz edi.

Bir kuni kabob pishirmoq uchun katta o't yoqib, cho'g' qildim. Kabob pishgach, cho'g'ni o'chirmoqchi bo'lgan edim, tasodifan cho'g'lar orasiga tushib qolgan sopol parchasini ko'rib qoldim, bu sopol xurmachaning sinig'i edi. Sopol laqcha ichida qip-qizarib, g'isht singari pishib, toshga o'xshab qotib ketibdi. Men bu kashfiyotdan hayratda qolib, juda xursand bo'ldim. «Sopol parchasi o'tda qolib pishgan ekan, demak, o'tda sopol idish pishirmoq ham mumkin», – degan fikrga keldim.

Suvga ham, o'tga ham chidash beradigan kuva yasashga muvaffaq bo'lganimga terimga sig'may suyundim, rostini aytsam, bu kabi oddiy bir voqea-ga olamda hech kimsa menday xursand bo'lmagan bo'lsa kerak.

Kuvachalardan biriga suv quyib, o'tga qo'ymoq va unda go'sht qaynatmoq uchun hozirgina olov ichidan

olingan kuvachalar soviguncha zo'rg'a toqat qildim. Kuvacha juda soz bo'libdi. Echki go'shtidan juda yaxshi sho'rva pishirdim, agar sho'rvaga karam, piyoz solganda va tuz tashlab, oz-moz so'k uni solganda u juda quling o'rgilsin sho'rva bo'lardi-da.

Endi yarma tosh qilib, un tortish haqida, to'g'rirog'i, yarma qilmoq to'g'risida o'ylay boshladim; tegirmon kabi ajoyib ishlab chiqarish to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas, odamning ikki qo'li bunday ishning uddasidan chiqolmaydi.

Lekin yarma toshi yasamoq ham oson ish emas; tosh yo'nish hunariga xuddi boshqa ishlardagidek mahoratim yo'q, no'noq edim, buning ustiga, menda asboblari ham yo'q. Men bunga boproq tosh topaman, deb ko'p kunlar ovora bo'ldim, lekin hech narsa topmadim. Yarma toshi juda qattiq va shu bilan birga, ko'z o'ymoq uchun yaraydigan darajada ancha katta va qalin bo'lmog'i lozim edi.

Mening orolimda katta va tikka qoyalar bor edi, lekin bu qoyalarning hech biridan, qancha urinsam ham, yarmaga yaraydigan kattaroq parcha sindirib ololmadim. Buning ustiga, bu qoyalar serqum va mo'rt bo'lganidan yarma yorish uchun baribir yaramas edi: ikki tosh orasiga don solib surganda, bir-birining zarbidan uqalanib ko'chgan qumlar unga aralashib ketar edi.

Shu tariqa, tegirmon toshi bop tosh qidirishga ko'p vaqtim samarasiz ketgach, yarma toshi yasash fikridan qaytib, uni yog'ochdan yasash fikriga tushdim, uni yasamoq uchun material topish ancha oson bo'ldi.

Darhaqiqat, daraxtzordan juda qattiq, katta bir g'ola topdim, bu g'ola juda og'ir bo'lganidan uni o'rnidan zo'rg'a qo'zg'atdim. Uni bolta bilan yo'nib bir qadar og'ir tusiga kiritdim, keyin biroz o'yib, shu o'yilgan joyni yana kuydirdim. Braziliyadagi qizil



tanli odamlar qayiqni shu yo'sinda yasaydilar. Men bu ishga ko'p mehnat sarf qildim.

O'g'irni yasab bo'lib, temir deb ataluvchi yog'ochdan dasta qildim. O'g'ir bilan dastani kelgusi hosil uchun asrab qo'ydim. Mening hisobimga ko'ra, kelgusi yilda donim ko'payib, uning bir qismini un qilmoqqa ajratish mumkin bo'ladi.

Endi g'alladan un tortgach, xamirni qanday qilmoq to'g'risida o'ylay boshladim.

Avvalo, menda xamirturush yo'q edi; ammo baribir xamirturush qilmoqning iloji yo'q edi, shuning uchun ham xamirturush to'g'risida bosh qotirmadim.

Ammo pechkasiz qanday qilib non yopaman? Bu chindan ham bosh qotiradigan masala edi. Lekin men buning ilojini o'ylab topdim. Kulol loyidan bir necha katta va keng idishlar yasab, ularni olovda yaxshilab kuydirdim. Bu idishlarni g'alla o'rimidan ancha ilgari yasab omborga kiritib qo'ydim. Men bundan avval o'choq qurgan edim. Bu o'choq kvadrat shaklidagi (to'g'risini aytganda, uni kvadrat deb ham bo'lmas edi) yaxshilab pishirilgan g'ishtdan qilingan edi.

Non pishirish vaqti kelgach, men o'choqqa zo'r o't qaladim. O't yonib bo'lishi bilanoq, cho'g'ni o'choqqa yoyib, yarim soatcha shu holicha turg'izib, o'choqni yaxshilab qizdirdim. Shundan keyin hamma cho'g'ni bir chekkaga surib qo'yib, nonlarimni o'choqqa yopdim. So'ngra haligi sopol idishlardan birini olib kelib nonlar ustiga to'ntarib qo'ydim, idish ustidan esa qo'r yopdim.

Xo'sh, nima bo'пти, deng? Nonim pechkadagidan ham yaxshi pishiпти.

Yangi yopilgan nonni huzur qilib yedim. Men umrimda bunchalik shirin ovqat yemagan bo'lsam kerak, deb o'yladim.

Umuman aytganda, qisqa vaqt ichida usta-nonvoy bo'lib oldim: men ko'mach (gurunchli som-

sa) pishirishnigina emas, gurunch unidan bo'lka va obinon pishirishni ham o'rganib oldim. Pirog pishirganim yo'q, xolos, chunki menda echki va parranda go'shtidan boshqa go'sht yo'q edi.

Bu orolga kelganimning uchinchi yili butunicha shu ro'zg'or ishlari bilan o'tdi.

### ***O'n uchinchi bob***

## **ROBINZONNING QAYIQ YASAGANI VA O'ZIGA YANGI KOSTUM TIKIB OLGANI**

Butun shu vaqt ichida doim narigi sohilda ko'ringan yerga bormoq fikrida bo'lganinga shubha qilmasangiz ham bo'ladi. Bu sohilga ko'chib kelmaganimga ich-ichimdan afsus qilib yurdim, men bu yerni ko'rib turgan bo'lsam, bir iloj qilib unga borib olgan bo'lur edim. U yergacha yetib olsam, ehtimolki, menga bu joylardan qutulib ketib, erkinlikka chiqish nasib bo'lar.

Xuddi shu paytlarda kichkina do'stim Ksuri bilan yelkanli uzun qayig'imni va bu qayiqda Afrika sohillari bo'ylab ming mildan oshiq yo'l yurganimni qayta-qayta esladim.

Xo'sh, eslashdan nima foyda?

Men kema qayig'ini borib qarash fikriga keldim, o'sha biz halokatga uchragan paytdagi dovulda bu qayiq orolning mening uyimdan bir necha mil narirog'iga chiqarib tashlangan edi. To'lqin qirg'oqqa urilgan paytda uni to'ntarib tashlagan va yuqoriroqqa eltib, sayoz qumlikka botirib qo'yan edi; quruq joyda bo'lib, atrofida suv yo'q edi.

Bu qayiqni tuzatib, suvga tushira olsam, uncha mashaqqat tortmay Braziliyaga yetib olar edim. Ammo bunday ishni bajo keltirmoqqa yolg'iz odamning kuchi kifoya qilmas edi. Mening orolimni o'z o'rnidan qo'zg'atishning imkoni bo'lmaganidek, bu

qayiqni ham o'rnidan qo'zg'ata olmasligimni bilar edim. Shunga qaramay, urinib ko'rmoqchi bo'ldim: daraxtzorga borib, tirgak uchun ikkita yo'g'on xoda kesdim, to'nkalardan yo'nib ikkita g'ola yasadim va bularni qayiq yoniga olib keldim.

«Bu qayiqni bu yoqqa ag'darib ololsam, bas, keyin uni tuzatmoq qiyin emas. Bu qayiq shunaqa yaxshi qayiq bo'ladiki, unga tushib dengizda bermalol yurmoq mumkin», – dedim o'z-o'zimga.

Bu befoyda ishga mehnatimni hech ayamadim.

Mening uch-to'rt hafta vaqtim shu ishga ketdi. Bugina emas: nihoyat, bu katta qayiqni o'rnidan qo'zg'atishga kuchim kelmasligiga aqlim yetgach, men yangi reja o'ylab topdim. Qayiqning bir yonini o'yib, ichidagi qumni chiqarib tashlay boshladim, bir yoni tamom o'yilib bo'sh qolgach, qayiq ag'dariladi va yerga bag'ri bilan tushadi deb o'yladim; qayiq ag'darilganda men ko'zlagan joyga kelib tursin deb, daraxtlardan kesib kelgan g'olalarni uning tagiga qo'ydim.

Qayiq haqiqatan ham ag'darildi-yu, ammo mening niyatim aslo yuzaga chiqmadi: men uni suvga tushirmoqning ilojini qilolmadim. Hatto uning tagiga tirgaklarni ham qo'ya olmadim va oxiri bu ishimdanda voz kechishga majbur bo'ldim. Lekin bu muvaffaqiyatsizlik meni qit'aga borish uchun harakat qilishdan to'xtata olmadi. Aksincha, jonimga tekkan bu sohildan ketmoqning hech iloji yo'qligini ko'rganimda, okeanga tushib yurmoq haqidagi istagim pasaydi emas, aksincha, yana ham kuchaydi.

Oxiri boshimga bunday fikr keldi: o'zim qayiq yasasam yoki eng yaxshisi, shu yerli negrlarnikiga o'xshagan piroga yasab olsam bo'lmaydimi?

«Piroga yasamoq uchun asboblarning ham hojati yo'q, chunki u daraxt tanasidan egib qilinadi; yolg'iz odam ham bunday ishning uddasidan chiqa oladi», – deb o'yladim.

Xullas, piroga yasab olmoq juda jo'n ish bo'lib ko'rindi va buni o'ylarkanman, dilimdan quvonardim. Men bu ishni hatto negrlar yoki hindilardan ham osonroq bajara olaman, deb ishonar edim.

Piroga tayyor bo'lsa, uni suvga qanday tushiraman, degan savol xayolimga kelgani yo'q, holbuki, buning qiyinchiligi asbob-uskunalar kamchiligidan ham mushkulroq edi.

Men bo'lg'usi sayohatlarim to'g'risidagi xayolga juda cho'mib ketganimdan, garchi qayiq qurayotgan joydan dengiz oraligi qirq besh sarjin bo'lib, uni sudrab borib suvga tushirishdan ko'ra qayiqni dengiz yuzidan qirq besh mil masofaga yurgizib borish oson ekanini aniq bilsam ham, bu narsa parvoyimga ham kelmas edi.

Xullas, piroga qurish masalasida shunday soddalik qildimki, faqat aqlini yegan odamgina shunday ish qilmog'i mumkin.

Bu ishning uddasidan chiqmoqqa kuchim yetadimi-yo'qmi, bu to'g'rida hech mulohaza qilib ko'rmay, o'zimning xom xayollarimga yupanib ketdim.

Qayiqni suvga qanday tushiraman, degan fikr xayolimga kelmadi, deb bo'lmaydi, yo'q, xayolimga bunday fikr keldi-yu, ammo men: «Avval qayiqni yasab olayin-chi, suvga qanday tushirish to'g'risida keyin o'ylarman. Suvga tushirmoq yo'lni topolmasligim mumkin emas!» – degan bema'ni dalillar bilan har safar ham bu fikrni oqibatsiz qoldira berdim.

Albatta, bular aqlsizlik edi! Ammo mening qizg'in xayollarim har qanday mulohazadan ham ustun chiqdi va men uzoq o'ylab turmay, qo'limga boltani oldim. Yaxshi bir kedr daraxtini kesdim, bu daraxt tanasining eni besh fut o'n duym, daraxtning yigirma futcha balandroq joyi esa – to'rt fut o'n bir duym kelardi, undan yuqorisi bo'lsa bora-bora ingichka tortib borib, uchiga yetar-yetmas shoxlab ketgan edi.

Bu kattakon daraxtni kesmoqqa qanchalik ko'p kuch sarf qilganimni ana shulardan ham bilsa bo'ladim! Bu daraxt tanasining o'zini goh u yog'iga, goh bu yog'iga o'tib kesib yiqitmoq uchun yigirma kun vaqtim ketdi, uning yon shoxlarini kesib, katta tanasini ayirib olmoq uchun yana o'n to'rt kun ketdi. Bu katta g'olani tarashlab, sirtini silliqilamoq uchun rosa bir oy ishladim. Yo'nib, ichini chuqur qilmoq uchun esa rosa uch oy ketdi. Bu safar olov ishlatmadim: bu katta ishning hammasini bolg'a va iskana bilan bajardim. Oxiri, men juda yaxshi, katta bir qayiq yasadim, u yigirma besh kishini bemalol ko'taradi, demak, meni hamma yuklarim bilan ko'taradi.

Men o'z qayig'imni ko'rib, juda xursand bo'ldim: butun boshli bir daraxtdan qilingan bunchalik katta qayiqni hech mahal ko'rmagan edim. Axir unga mening qanchadan qancha kuchim ketdi-yu! Charchab, holdan ketib bo'lsa ham, bu daraxtga qanchadan qancha bolta urdim-a!

Nimaiki bo'lsa ham, ishning yarmi qilingan edi. Endi qayiqni suvga tushirish qolgan edi, xolos, agar uni suvga tushira olgan bo'lsam, men bu vaqtgacha dengizda qilingan hamma sayohatlardan ham mantiqsiz va bema'ni bir sayohat qilishimga hech shubham yo'q.

Lekin uni suvga tushiraman deb qilgan harakatlarimdan hech natija chiqmay, mehnatim havoga uchib ketdi. Qayig'im turgan joyidan qo'zg'almadi!

Men qayiq qurgan daraxtzor bilan dengiz oraligi atigi ellik sarjin kelar edi. Lekin daraxt turgan joy chuqur bo'lib, sohil bo'lak-bo'lak balandlik edi. Bu birinchi to'siq edi. Men dadillik bilan bu to'siqni bartaraf qilishga kirishdim: daraxtzordan sohilgacha nishab qilib qazib, tuprog'ini boshqa joyga olib tashlamoq kerak edi. Bu ishga shuncha ko'p mehnat

sarf qildimki, eslasam, yuraginga vahima tushadi. Ammo gap erkinlikka chiqmoq to'g'risida borarkan, kim bor-yo'q kuchini sarf qilmaydi!

Shu tariqa, birinchi to'siq bartaraf qilindi: qayiqqa yo'l tayyor. Lekin bundan natija chiqmadi: shuncha ko'p harakat qilsam ham, avval kema qayig'ini o'rnidan qo'zg'ata olmaganimday, qayiqni ham o'rnidan qo'zg'ata olmadim.

Shundan keyin piroga turgan joy bilan dengiz oralig'ini o'lchadim va qayiq uchun kanal qazimoqchi bo'ldim: qayiqni suvga olib borish mumkin emas ekan, demak, suvni qayiqqa olib kelish kerak. Kanalni qazishga kirishmoq oldidan bo'lajak kanalning chuqurligi va kengligi qancha bo'lishi kerakligini taxmin qilib ko'rdim va bir kishi bunday katta ishning uddasidan chiqishi uchun qancha vaqt ketishini hisobladim va bu ishni oxiriga yetkazmoq uchun kamida o'n-o'n ikki yil vaqt kerakligi ma'lum bo'ldi.

Nachora, noiloj bu ishdan ham voz kechishga majbur bo'ldim.

Nihoyatda qattiq xafa bo'ldim, ammo bir ishni boshlaganda, avval qancha vaqt va mehnat sarf bo'lishim va uni oxirigacha yetkazmoq uchun kuch yetish-yetmasligim taxminan hisoblab chiqmay turib, ishga tutinmoq ahmoqlik ekaniga endi aqlim yetdi.

Bu orolda yashay boshlashimning to'rtinchi yili bema'ni va natijasiz ish bilan o'tdi.

Bu vaqtga kelib kemadan olgan buyumlarimning ko'pi eskirdi, ko'pi yirtilib tamom bo'ldi, kemadan olingan ozuqalar ham bitay deb qoldi.

Avval siyoh, uning ketidan non, to'g'risi, non emas, kemadan olingan qotgan non ham tamom bo'ldi. Bularni iloji boricha iqtisod qildim. So'nggi bir yarim yil ichida men kuniga bir bo'lak qotgan nondan oshiq yemadim. Shunga qaramay, deh-

qonchilikdan olgan donim iste'mol qilmoqqa imkon beradigan bo'lgunicha, men bir yilcha bir burda nonsiz kun o'tkazdim.

Bu vaqtga kelib kiyimlarim ham butunlay yaroqsiz bo'layozdi. Matroslar sandig'idan topib olgan katak gulli ko'ylagim (uch dujinaga yaqin) bor edi, xolos. Bularni juda ehtiyot qildim; orolimda kunlar ko'pincha juda issiq bo'lganidan, men birgina ko'ylak bilan yurdim, bu ko'ylaklar bo'lmasa, juda mushkul ahvolda qolgan bo'lar edim.

Albatta, bu iqlimda yalang'och yurishim ham mumkin. Ammo kiyim kiyib yurganda kunning issig'i uncha ta'sir qilmaydi. Bu issiq joyda oftob terilarimni kuydirib yubordi, ko'ylak esa badanimni quyosh tig'idan saqlar, bundan tashqari, ko'ylak bilan badan orasidagi havoning harakati menga ancha salqin berar edi. Shuningdek, oftobda yalangbosh yurolmadim; har safar quyoshga yalangbosh chiqqanimda boshim og'riy boshladi.

Aqalli o'zimda bor eski-tuskilarni ko'zdan o'tkazib, yamab, bir tarzi qilib olishim kerak edi.

Avvalo, menga paxtalik kamzul zarur edi, o'zimda borlarini kiyib tamomladim. Shu sababdan men matroslar po'stinini buzib, uni paxtalik qilmoqchi bo'ldim. Matroslar bu po'stinlarni kiyib olib, qish kechalarida vaxtada turar edilar. Endi bo'lsa ular foydalanilmasdan bekor yotmoqda edi. Shunday qilib, men chevarlikka, to'g'risi, tikuvchilikka kirishdim va ignani chapa-chuppa tutib urina boshladim, chinini aytganda, men chevarlikka juda no'noq va ojiz edim.

Bir amallab, yamab-chatib ikki-uchta paxtalik tikib oldim, mo'ljalimcha, bular menga ancha vaqtga yetmog'i lozim. Durustroq shim tikib olayin, deb qilgan harakatimni aytib o'tirishning hojati ham yo'q, chunki bu ish sira-sira qo'limdan kelmadi.

Lekin ko'p o'tmay kiyim kiyimoqning yangi yo'lini o'ylab topdim va shundan keyin kiyim-boshga muhtoj bo'lmadim.

Gap shundaki, so'ingan hayvonlarimning terisini saqlab qo'ingan edim. Men har bir terini oftobda quritib olgan edim. Faqat dastlabki vaqtlarda tajribasizlik qilib, terilarni oftobda ko'proq turg'izganimdan ular hech narsaga yaramaydigan bo'lib, tarashadek qotib ketdi. Ammo keyingilari juda yaxshi chiqdi. Avvalo, bu terilardan kattakon shapka tikib oldim, yomg'ir o'tmasligi uchun shapkaning yungini ustiga qilib tikdim. Yungli shapkani juda boplab tikdim, shuning uchun bu materialdan butun boshlik kostum, ya'ni, kamzul-shim tikib olishga qaror berdim. Shimni tizzamdan keladigan – kalta, ammo keng qilib tikdim; kamzulni ham keng qilib tikdim, chunki bu kiyimlar menga issiqlik berishdan ko'ra, quyoshdan saqlash uchun kerak edi.

E'tirof qilmoq kerakki, bichish va tikish jihatidan bu kiyimlar juda beo'xshov edi; men ko'proq duradgor edim, chevarlikka esa no'noq edim. Harna bo'lsa ham tikkan bu kiyimlarim, ayniqsa, yomg'ir yog'ib turgan paytda uydan tashqariga chiqqanimda juda yaxshi ish berdi: hamma suv uzun yunglar ustidan oqib tushib ketdi, menga nam o'tmadi.

Kamzul va shimdan so'ng o'zimga soyabon yasab olmoqqa kirishdim.

Men Braziliyada soyabonlarni qanday yasaganlarini ko'rgan edim. Braziliyada kun shuncha issiq bo'ladiki, soyabonsiz yurmoqning iloji yo'q, mening orolimda esa issiq u yerdagidan sira kam emas, balki undan ham issiqroq, chunki bu joy ekvatorga ancha yaqin. Oftobdan yashirinmoqning imkoni yo'q; men ko'p vaqt ochiq havoda yurar edim. Ehtiyoj meni har qanday havoda ham uydan tashqariga chiqmoqqa majbur qilar edi, ba'zan esa oftobda va yomg'ir yog'ib



turgan paytda kezib yurar edim. Xullas, men uchun soyabon nihoyatda zarur edi.

Men bu ishga ko'p urindim va uni soyabonga o'xshash bir narsa qilmoq uchun ko'p vaqtim ketdi. Ikki-uch martagacha soyabon ko'ngildagidek bo'lib chiqdi deb o'ylaganimda, shunday beso'naqay narsa hosil bo'ldiki, natijada har safar ham uni yangidan boshlashga majbur bo'ldim. Lekin oxiri ko'nglim o'rniga tushdi – men ancha durust soyabon yasab oldim. Gap shundaki, ochilib-yopiladigan soyabon yasamoqchi edim, butun qiyinchilikning boshi ham shunda edi. Albatta, yopilmaydigan soyabon yasamoq oson edi-yu, lekin unda soyabonni har doim ochiq olib yurish lozim bo'lar va bu juda noqulay edi. Men bu qiyinchilikni yengdim, mening soyabonim ochilib-yopiladigan soyabon bo'ldi. Men echki terisining yungini ustiga qilib tarang tortib qo'ydim: yomg'ir suvi xuddi nishab tomdan oqib tushganday soyabonda turmaydigan va eng qattiq issiq ham undan o'tmaydigan bo'ldi.

Bu soyabon bilan men har qanday yomg'irdan qo'rqmaydigan va kunning eng issiq paytlarida ham bermalol yuraveradigan bo'ldim, soyabonning hojati bo'lmagan paytlarda uni yopib, qo'ltig'imga qisib keta berdim.

Men o'z orolimda shu tariqa, xotirjam va mamnunlik bilan kun o'tkazdim.

### ***O'n to'rtinchi bob***

## **ROBINZONNING BOSHQA BIR KICHIKROQ QAYIQ YASAB, OROL ATROFINI AYLANIB CHIQUISHGA HARAKAT QILGANI**

Yana besh yil o'tdi, xotirimdan chiqmagan bo'lsa, bu vaqt ichida hech qanday favqulodda voqea bo'lgani yo'q.

Hayotim avvalgicha – ohista va tinch kecha berdi; makonim o'sha eski joy, butun vaqtim avvalgidek mehnat va ov bilan o'tdi.

Endi don-dunim ancha ko'payib, ko'targan hosilim menga yil bo'yi bemalol yetadigan bo'ldi, uzum ham mo'l-ko'l bo'lib qoldi. Endi daraxtzor bilan ekinzor mendan avvalgidan ham ko'p mehnat qilishni talab qila boshladi.

Lekin mening asosiy mashg'ulotim yangi qayiq qurib olish bo'ldi. Bu safar qayiqni qurish bilan birga, uni suvga ham tushirib oldim; yarim milcha masofaga torgina kanal qazib, qayiqni ana shu kanal orqali kichkina qo'ltiqqa olib keldim.

O'quvchiga ma'lumki, birinchi qayig'imni juda katta hajmda yasaganimdan uni o'z aqlsizligimning xotirasi qilib qurilgan joyda qoldirib ketishga majbur bo'lgan edim. Bu qayiq menga doim bundan buyon o'ylab, aql bilan ish qilmoqni eslatib turar edi.

Shunday qilib, endi men ancha tajribali bo'lib qoldim. Durust, bu safar qayiqni suvdan yarim milcha narida qurdim, chunki suvga yaqin joydan qayiqqa yaraydigan daraxt topolmadim, ammo bu safar qayiqni har holda suvga tushira olishimga amin edim. Boshlagan ishimga bu safar kuchim yetishini bilib, uni oxiriga yetkazmoqqa qat'iy kirishdim. Qayiq qurish ishi bilan ikki yilga yaqin band bo'ldim. Qayiq bilan dengizda suzib yurmoq uchun imkon topmoq ishtiyoqim shunchalik baland ediki, bu imkonga yetishmoq uchun mehnatimni ham ayamadim.

Ammo shuni aytib qo'ymoq kerakki, men bu yangi qayiqni orolimni tashlab ketish niyatida qurganim yo'q. Bu niyatdan voz kechishga majbur bo'lganimga ko'p vaqt bo'ldi. Qayiq juda kichik edi, u bilan mening orolimdan qirq va undan sal-pal oshiq mil naridagi qit'aga suzib o'tmoq to'g'risida o'ylab ham bo'lmas edi.

Mening endigi niyatim juda kichik, ya'ni, orol atrofini aylanib chiqish edi, xolos. Men bundan avval ro'paradagi sohilga borib, unda ko'p yangi narsalarni ko'rgan edim, bu narsalar meni shunchalik band qilgan ediki, o'sha vaqtdayoq orolning chor atrofini aylanib chiqmoqni niyat qilib qo'ygan edim.

Mana endi qayiq yasab olgach, orolni dengizda qayiq bilan aylanib chiqishga qaror berdim. Yo'lga tushish oldidan safarga yaxshilab hozirlik ko'rdim. Qayig'imga kichkinagina machta yasadim, o'zimdagi chodir bo'laklaridan bu machtaga moslab kichkina chodir tikdim.

Qayiq anjomlari tayyor bo'lgandan keyin uning yurishini tekshirib ko'rdim va chodirni ko'targanda ancha durust yura olishiga ishonch hosil qildim. Shundan keyin yo'lga chiqadigan narsalarimni, ya'ni, ozuqa, o'q-dori va boshqa zarur buyumlarni yomg'ir va to'ldindan saqlash uchun ehtiyotdan qayiqning quyrug'iga hamda tumshug'iga ikkita yashikcha o'rnatdim. Qayiqning tag tomonini yo'nib, miltiqlarni joylashtirmoq uchun tarnov yasadim.

Keyin qayiqning quyruq tomoniga ochiq soyabon tikib, uni boshimda turadigan va meni quyoshdan saqlaydigan qilib o'rnatdim.

6-noyabrda, ya'ni, shohligimning yoki asir-ligimning – nima desangiz ixtiyoringiz – oltinchi yili yo'lga tushdim.

Mo'ljaldagidan ham ko'p yo'l bosdim. Gap shun-daki, mening orolim aslida kichik bo'lsa ham, lekin uning sharqiy qismidagi sohilga burilgach, ro'paramda kutilmagan to'siq paydo bo'ldi. Bu yer-da qator-qator qoyalar qirg'oqdan ajralib turmoqda; bu qoyalarning ba'zi birlari suvdan chiqib turibdi, ba'zilari esa suvda ko'rinmaydi. Bu qoyalar tizmasi ochiq dengizga olti milcha kirgan, qoyalarning u boshida esa naryoqqa qarab yana bir yarim milcha

sozliq ketadi. Shunday qilib, bu yerni aylanib o'tmoq uchun sohildan ancha uzoq ketishga to'g'ri keladi. Bu hol juda xatarli edi. Men hatto orqaga qaytmoqchi ham bo'ldim, chunki bu qator qoyalarni aylanib o'tmoq uchun qancha yo'l bosishim kerakligini aniq belgilay olmadim va tavakkal qilib yura berishga qo'rqdim. Bundan tashqari, qaytib keta olishimni ham bilolmadim. Shuning uchun langar tashladim (yo'lga tushish oldidan kemadan topib olingan temir sandiqlardan birmuncha langarsimon narsalar yasab olgan edim), qo'limga miltiqni olib, qirg'oqqa tushdim, yaqin joydagi baland tepa ustiga chiqib, bu qator qoyalarning uzunligini ko'z bilan chamalab ko'rdim, ular bu yerdan juda yaxshi ko'rinib turar edi, shuning uchun yo'lda davom etmoqqa qaror berdim.

Lekin hali bu qoyalarga yetganim yo'q ediki, birdan juda xatarli chuqur joyga to'g'ri kelib qoldim va uning ketidan dengiz girdobiga tushib qoldim. Tegirmon tarnoviga shasht bilan tushayotgan suvdek u meni bir burab, o'z zabtiga tortib olganicha olib ketdi. Qayiqni sohilga qarab burish yoki bir chekkaroqqa chiqib olish to'g'risida o'ylamoqqa imkon yo'q edi. Men faqat shu o'p'qonning eng chekkasida yurib, o'rtasiga tushmaslikka harakat qildim, xolos.

Bu orada girdob meni hech to'xtamay hadeb nari olib keta berdi. Loqaqal salgina shabada turganda ham men chodirni ko'tarib olar edim, lekin dengiz juda sokin va tinch edi. Eshkaklar bilan shuncha harakat qilsam ham, o'p'qondan chiqa olmadim va hayotdan umidimni uzib qo'ydim. Bir necha mildan so'ng, meni o'z domiga tortgan bu girdob orolni yoqalab o'tuvchi boshqa girdob bilan qo'shib ketishini bilar edim, shu sababdan, mabodo, men shu o'p'qonga yetmasdan bir chekkaga chiqib ololsam xo'b, ololmasam, muqarrar halok bo'laman. Shunga qaramasdan, qayiqni bir chetga chiqarib olmoqning ilojini hech topolmas edim.

Qutulish imkoni yo‘q: meni to‘ppa-to‘g‘ri o‘lim kutmoqda, dengiz tinch bo‘lganidan men dengiz to‘lqinida emas, balki ochlikdan o‘lib ketmog‘im mumkin.

To‘g‘ri, qirg‘oqdan bir toshbaqa tutib olgan edim, u judayam katta edi, uni qayiqqacha zo‘rg‘a ko‘tarib keloldim. Anchagina toza suvim bor edi, ko‘zalarimdan eng kattasiga suv to‘ldirib olgan edim, ammo ming mil yurganda ham quruq yerning qorasini ko‘rib bo‘lmaydigan bepoyon okeanda sargardon bo‘lib qolgan abgor odamning yashamog‘i uchun bu nima bo‘ladi?

O‘zimning odamsiz, huvullagan orolimni o‘ylab, uni yer yuzasidagi jannat deb bildim, fikr-yodim shu jannatga qaytib ketmoq bo‘lib qoldi. Bu orolga sidqidil qo‘l cho‘za boshladim.

– Oh, menga baxt ato etgan go‘sha! – deb xitob qildim. – Endi seni hech ko‘ra olmayman. Oh, holim nimalar kechadi? Bu shafqatsiz to‘lqin meni qayoqqa olib ketadi? Men qanday ko‘rnamak odam ekanman-ki, mehribon taqdir xush ko‘rib nasib qilgan o‘shanday go‘zal orolda yolg‘izlikdan vahimaga tushib, unga la‘natlar o‘qidim-a!

Mana endi bu orol men uchun qadrlı va aziz bo‘lib, uni ko‘rmoq umrbod nasib bo‘lmasa-ya, deb o‘ylaganimda yuragim ezila boshladi.

Oxiri yo‘q suv meni hamon olib ketmoqda. Men o‘lguday qo‘rqqan va noumidlikda qolgan bo‘lsam ham, bu hissiyot ichida o‘zimni yo‘qotib qo‘ymadim, bu o‘pqondan chiqib olmoq va toshlardan aylanib o‘tmoq uchun qayiqni shimol tomonga burishga harakat qilib, bor kuchim bilan eshkaklarni esha boshladim.

Choshgoh paytida qo‘qqisdan shabboda turdi. Bu shabboda ruhimni ko‘tarib yubordi. Shabada tez yurib, yarim soat deganda yaxshi shamolga aylanib ketganda, qanchalik quvonganimni o‘zingiz tasavvur qila bering!

Bu orada dengiz meni oroldan juda uzoqqa olib ketdi. Shu paytda tuman ko'tarilsa bormi, men halok bo'lib ketar edim! Yonimda kompas yo'q, mabodo, orolimni ko'zdan qochirsam, qayoqqa yo'l tutishni bilmay qolar edim. Baxtinga havo ochiq, tumandan esa asar ham yo'q edi. Men machtaga chodirni ko'tardim va qayiqni shimol tomonga burib, o'ppondan chiqib olmoqqa harakat qildim.

Shamol qayig'imni burib yo'lini o'zgartirgach va qayiq girdobni ko'ndalang kesib yura boshlagach, dengizda o'zgarish paydo bo'lganini ko'rdim: suv ancha tindi. Tushundimki, biror sababga ko'ra dengiz oqimi bo'shasha boshladi, bu shalola quturib oqib turgan paytda esa suv hamisha loyqalanib oqmoqda edi. Darhaqiqat, ko'p o'tmay, men o'ng tomonimda, ya'ni, sharq tomonimda qoyalarga ko'zim tushdi (bu qoyalarni ularning har biri atrofida aylanishib yurgan oq ko'piklar uzoqdan bildirib turar edi), shabadaning yo'lini to'sib, uni sekinlashtirgan ana shu qoyalar ekan.

Oradan ko'p o'tmay tushundimki, bu qoyalar shabadani to'sib sekinlatish bilan birga ularni ikkiga bo'lib yuborar, bularning eng kattasi qoyalarni chap tomonda qoldirib, o'zi janub sari astagina yo'l olar, ikkinchisi esa darhol orqasiga qaytib, shimoli-g'arb tomonga yo'l solar ekan.

Dor tagida bo'yniga sirtmoq solinayotganda guno-hi kechirilib, omon qolgan yoki tomog'iga pichoq taqalgan paytda qaroqchilar qo'ldan qutulib qolgan odamgina mening shu paytdagi shod-xurramligimni payqay oladi.

Shod-xurramlikdan ko'nglim juda ko'tarilib, qayig'imni orqaga burdim va chodirni shamol yurayotgan tomonga qaratib tikib, uning salqinida vaqtxushlik bilan orqaga qarab yo'l soldim.

Soat beshlarda sohilga yetib keldim va qulay bir joyni tanlab, qayiqni qirg'oqqa bog'ladim.

Oyoqlarim qattiq yerga tekkach, shu qadar xursand bo'ldimki, buni tasvirlab bo'lmaydi!

Boy va orombaxsh orolimning har bir tup daraxti menga qanchadan qancha aziz ko'rindi! Kechagina yuragimda zerikish va g'am-g'ussa tug'dirgan bu tepalarga va bu vodiya qizg'in muhabbat va zavq bilan tikila boshladim. Ekinzor va daraxtzorlarimni, g'orimni, sodiq itimni va echkilarimni yana ko'rar ekanman, deb qanchadan qancha quvondim! Kapamga olib boradigan yo'l menga shunchalik go'zal bo'lib ko'rindiki, asti qo'yavering!

Daraxtzor bog'imga yetib kelganimda kech kirib qolgan edi. Qo'ra devoridan oshib o'tdim va salqin joyga yetib, juda charchaganimdan darrov uxlab ketdim.

Ammo birovning ovozigiga uyg'onib ketib, juda hayratda qoldim. Darhaqiqat, bu odam ovozi edi! Bu orolda odam bor ekan, u tun yarmida ovozi boricha qichqirdi:

– Robin, Robin, Robin Kruzo! Bechora Robin Kruzo! Qayerga kelib qolding? Seni bu yerga qanday balo keltirib tashladi?

Qayiq eshkaklarini esha berib madorim qurib, holdan ketganimdan juda qattiq uxlagan ekanman, darrov uyg'ona olmadim va ancha vaqtgacha bu ovozni tushimda eshitayotganday bo'ldim.

Lekin ovoz hadeb takrorlana berdi:

– Robin Kruzo, Robin Kruzo!

Eng oxiri, uyg'onib, qayerda ekanimni payqadim. Avval boshda juda qo'rqib ketdim. Sakrab o'rnimdan turib, vahima ichida u yoq-bu yoqqa qaradim va birdan tepamga qarab, to'timga ko'zim tushdi, u qo'ra devoriga qo'nib turar edi.

Albatta, bu so'zlar uning og'zidan chiqqaniga darrov aqlim yetdi: shu xo'rlik so'zlarni unga o'zim

o'rgatgan edim, u bu so'zlarni qattiq uqib olgan edi. U qo'limga qo'nib, tumshug'ini yuzimga yaqin qo'yib olardi-da: «Bechora Robin Kruzo! Qayerga kelib qolding? Seni bu yerga qanday balo keltirib tashladi?» – deb qichqirar edi. Hatto bu qushning to'ti ekaniga va bu yerda to'tidan boshqa narsaning yo'q ekaniga ishonganimdan keyin ham, anchagina o'zimni bosa olmadim.

Birinchiidan, to'tining bog' uyimga qanday kelolganiga va ikkinchiidan, nega boshqa joyga bormasdan, xuddi ana shu joyga uchib kelganiga sira aqlim yetmadi.

Lekin bu qush o'zimning vafodor to'tim ekaniga zarracha ham shubha qilmaganimdan, nomini aytib uni chaqirdim-da, qo'limni uzatdim. O'rgatilgan qush darrov qo'limga qo'nib, yana:

– Bechora Robin Kruzo! Qayerga kelib qolding! – degan so'zlarni takrorlay boshladi.

To'ti meni ko'rganiga juda shod edi. O'z-o'zidan ma'lumki, kapadan ketar vaqtimda to'tini ham yelkamga qo'ndirib, o'zim bilan birga olib ketgan edim.

Mening dengizdagi bu muvaffaqiyatsiz sayohatim uzoq vaqt dengizni havas qilmaydigan qilib qo'ydi, ko'p kunlargacha dengizning meni okeanga olib ketgani va xavf-xatarga yo'liqqanimni eslab yurdim.

Albatta, qayig'im orolning bu tomonida, ya'ni, uyimga yaqinroq joyda bo'lganda ko'p yaxshi bo'lar edi. Unda orolimni sharq tomonidan aylanib chiqmoqqa urinmagan ham bo'lar edim, ammo endi qayig'imni tashlab kelgan joyimdan bu yoqqa qanday olib kelsam ekan? Bu to'g'rida o'ylash bilanoq yuraklarim orqamga tortib, tomirlarim bo'shashib ketdi. Orolning u tomonida ahvol qanaqa ekanidan men tamoman bexabarman. U tomonda ham dengiz suvi bu tomondagi kabi tez oqsa, ahvolim nima kechadi?



Unda suv meni bu tomonda qanday kuch bilan ochiq dengizga olib ketgan bo'lsa, u tomonda ham shunday kuch bilan qirg'oqdagi qoyaga olib borib uradi-ku.

Xullas, bu qayiqni yasamoq va uni suvga tushirmoqqa qancha ko'p kuch va mehnat sarf qilgan bo'lsam ham, jonimdan kechguncha qayiqsiz turgan yaxshiroq, degan fikrga keldim.

Shuni aytmoq kerakki, tirikligim uchun kerak bo'lgan asboblarni qo'lda yasab olmoqqa ancha usta bo'lib oldim. Men bu orolda paydo bo'lib qolgan kunlarimda bolta bilan ish qilishni sira bilmas edim, endi bo'lsa, ayniqsa, asboblarning ozligini nazarga olganda, meni yaxshi duradgor usta desa bo'lardi.

Kulolchilik ishida ham (tamom kutilmagan bir vaqtda) katta o'zgarish yasadim: aylanadigan bir dastgoh qurib oldim, natijada ishim tez va unumli bo'ldi; rangiga qarab bo'lmaydigan beo'xshov idishlar o'rniga endi xushbichim, ko'zga yoqimli, raso idishlar yasay boshladim.

Lekin o'z ixtirolarimdan hech mahal trubka yasab olgan kunimdagi singari quvonganim va faxrlanganim yo'q. Albatta, mening trubkam juda qadim zamonlardagi oddiy trubkaga o'xshar edi, boshqa hamma kulol idishlarim kabi trubka ham o'tda pishirilgan oddiy sopol bo'lib, ancha xunuk edi. Lekin u ancha pishiq, mahkam va yaxshi tutun berar edi, eng muhimi, u bir nav trubka bo'lib, uni ko'p vaqtlardan beri orzu qilardim. Tamaki chekishga odatlanganimga esa ko'p vaqtlar bo'lgan edi. Bizning kemada trubkalar bor edi-yu, lekin men kemadan buyumlarni tashib olganimda bu orolda tamaki o'sishini bilmas edim, ularni olishning hojati yo'q deb o'ylagan edim.

Bu vaqt ichida miltiq dorilari ham ozayib qolibdi. Bu hol meni juda tashvishlantirdi va g'amga solib qo'ydi, chunki dorini hech joydan topib bo'lmas edi. Dorilarimning hammasi tugaganidan keyin nima

qilaman? Echki va qushlarni qanday otib olaman? Umrim oxirigacha go'shtli taom yemoqdan mahrum bo'lib qolsam-a?

### ***O'n beshinchi bob***

## **ROBINZONNING YOVVOYI ECHKILARNI O'RGATIB OLGANI**

Bu orolda hayot kechira boshlaganimning o'n birinchi yili, miltiq dorilarim ozayib qolgach, harna qilib bo'lsa ham yovvoyi echkilarni tiriklay ushlab olish yo'lini axtara boshladim. Mening niyatim echkini bolasi bilan tutib olish edi.

Boshlab tuzoq qo'ydim, echkilar tuzoqqa tez-tez ilinib turdi. Lekin buning nafi kam bo'ldi: echkilar qo'yilgan yemni yeb bo'lib, tuzoqni uzib, bemalol jo'nab keta berdilar. Baxtga qarshi, menda sim yo'q edi, tuzoqni chilvirdan yasashga majbur edim.

Shundan keyin menda choh va chuqurlar qazish fikri tug'ildi. Echkilarni ko'proq o'tlaydigan joyini bilib olib, uchta chuqur choh qazidim, bu choh ustini o'zim to'qigan chetanlar bilan yopib, har qaysi chetan ustiga bitta-ikkitadan sholi bilan arpa boshog'ini qo'yib qo'ydim. Ko'p o'tmay bilsam, echkilar bu chuqurlarga kela boshlapti: ular boshoqlarni yeb ketishibdi, hamma tomonni echki izi tutib yotibdi. Shundan keyin chinakam tuzoq qo'ydim va ertasigayoq bir chuqurda katta bir qari echki, yana bir chuqurda uchta uloq qamalib yotganini ko'rdim, uloqlarning biri erkak va ikkisi urg'ochi edi.

Qari echkini bo'shatib yubordim, chunki uni chuqurdan olib chiqmoq yo'lini topolmadim. U juda asov va hurkak ekan, uni tiriklay ushlab bo'lmasdi (men uning yoniga borishga qo'rqdim), bu echkini so'yib olmoqning menga darkori yo'q edi. Men chetan-ni ko'tarib yuborishim bilanoq u chuqurdan sakrab chiqib, jahd-jadal bilan qochib qoldi.

Keyinchalik tajribadan bildimki, och qolsa, hatto sher ham yuvosh bo'lib, qo'lga o'rganib qolar ekan. Lekin u mahalda men bu hikmatni bilmagan edim. Bilsam, haligi qora echkini uch-to'rt kun och qo'yib, keyin unga suv va ozgina boshqoq olib borib berardim, u mening uloqlarimdan ham yuvosh bo'lib qolar edi.

Echkilar umuman farosatli va so'zga kiradigan bo'ladi. Agar echkilarga yaxshi qaralsa, ularni o'rgatib olmoq qiyin emas.

Lekin, takror aytamanki, u mahalda men buni bilmas edim. Katta echkini bo'shatib yuborgach, uloqlar qamalib qolgan chuqur yoniga keldim, uchala uloqni bitta-bitta chiqarib olib, bir arqonga bog'ladim va uyga zo'rg'a olib keldim.

Ancha vaqtgacha ularga ovqat yedirolmadim. Ular hali ona sutidan boshqa ovqatni tatib ko'rmagan ekanlar. Lekin juda och qolgach, ular oldiga bir necha sut boshqoqni keltirib tashladim, ular bitta-bitta qimtib yeya boshladilar. Ko'p o'tmay, bu uloqlar menga o'rganib, tamoman uy hayvoni bo'lib qoldilar.

Shu vaqtdan boshlab echki asray boshladim. Men echkilarim juda ko'payib, butun bir pada bo'lishini istar edim, nimagaki o'q-dorilarim sob bo'lgandan keyin, o'zimni go'sht bilan bekam-ko'st ta'min etmoqning birdan-bir manbayi shular edi.

Ikki yildan so'ng echkilarim bolalab, o'n ikki boshga yetdi. Men sekin-asta atrofi qo'rg'on olingan beshta yaylov qurdim; echkilarni bu o'tloqlarning biridan ikkinchisiga haydab o'tmoq uchun ularning biridan ikkinchisiga o'tadigan g'ov eshiklar qurgan edim.

Endi men echki go'shti bilan sutga serob bo'lib qoldim. E'tirof qilmog'im kerakki, yangi echki asray boshlagan vaqtimda uning sutini sog'ib olmoq to'g'risida o'ylab ham ko'rmagan edim. Keyingi vaqtlardagina ularni sog'a boshladim.

Men o'ylaymanki, ovqat mahalida oila a'zolarim bilan stol yonida o'tirganimni ko'rsa, har qanaqa damxafa va badqovoq odam ham o'zini kulgidan tiya olmasdi. Stolning eng to'rida – orolning hokimi va egasi, o'z qaramog'imdagi hammaning hayot-mamoti tamoman o'z ixtiyorimda bo'lgan men o'tiraman: o'lim jazosi berish va afu etish, ozod qilish va ozodlikdan mahrum etish mening qo'limda, mening qo'l ostimdagilar orasida bitta ham isyonchi yo'q edi.

Yaqin arboblarning atrofimga tizilishgan bir vaziyatda podshohlar kabi dabdaba bilan ovqatlanar edim. Eng sevimli erkatoym bo'lgani uchun men bilan gaplashishga faqat to'tiga ruxsat qilingan edi. Juda qarib, madori ketib butunlay aqlini yo'qotgan it doim o'z stolining o'ng qo'l tomonida o'tirar, ikki tomonda esa mening o'z qo'lim bilan beriladigan ovqatni kutib mushuklar o'tirar edi. Bu xilda ovqat berish esa podshohlik ehsonining alohida belgisi hisoblanardi.

Bu mushuklar men kemadan olib o'tgan mushuklar emas edi. U mushuklar ko'p vaqtlar avval o'lib ketgan, ularni o'z qo'lim bilan uyim yoniga ko'mgan edim. U mushuklardan biri shu orolda bolalagan edi; men ikkita mushuk bolani olib qolib parvarish qildim, qolganlari chakalakzor ichiga qochib ketib, yovvoyi bo'lib ketdi. Bora-bora ular juda ko'payishib ketib, oxiri menga ham tinchlik bermadi: ular mening omboringa kirishib, ozuqalarni tashib ketisha berdi, faqat ikki-uchtasini otib o'ldirgandan keyingina ulardan tinchidim.

Takror aytamanki, men hech narsadan muhtojlik ko'rmay, asl podshohlardek kun ko'rdim; saroy arboblarning ham yonimda jam turishar edi – faqat odamlar yo'q edi, xolos. Lekin ko'p o'tmay, mening elimda odamlar shuncha ko'payishib ketdiki, bu hol o'quvchiga keyinroq ma'lum bo'ladi.

Dengizda bundan keyin xavf-xatarli sayohat qilmaslikka ahd qilib qoʻygan boʻlsam ham, lekin koʻz oldimda qayiq tursa koshki edi, bu qayiqqa tushib, hech boʻlmasa, shu qirgʻoqqacha borib kelib turar edim, degan fikr mening xayolimni yana band qildi. Men qayiqni orolning uyim turgan tomoniga olib oʻtish toʻgʻrisida oʻylay boshladim. Lekin bu ishni amalga oshirmoq qiyin boʻlganidan, har safar bu toʻgʻrida oʻylaganimda qayiqsiz ham yaxshi yuribman-u, deb oʻzimni yupata boshladim.

Ammo keyingi safar borganimda ustiga chiqqanim tepa nega mening koʻnglimni band qilib olganini, nega hadeb unga borgim kelayotganini oʻzim ham bilmayman. Oʻsha tepa ustiga chiqib olib, qirgʻoqlarning tuzilishini va dengiz girdobining qay tomonga qarab ketishini tomosha qilgim keldi. Oxiri oʻzimni tiyolmay, yoʻlga tushdim, bu safar piyoda yurib, sohilni yoqalab bordim.

Oʻsha vaqtda men kiygan kiyim bilan biror kishi Angliya koʻchalarida koʻrinib qolsa bormi, aminmanki, oʻtkinchilar qoʻrqib qochib ketar yoki kulgidan oʻzlarini tiyolmagan boʻlur edilar; koʻpincha ust-boshimga tikilib turib, oʻzimni ana shu juldir poʻstak kiyimlarim bilan oʻzimizning Yorkshirda yurgan his qilarkanman, beixtiyor kulib yuborar edim.

Boshimda echki terisidan yungi ustiga qilib tikilgan burni uzun beoʻxshov qalpoq, uning orqa tomoni yelkanga tushib turar edi, sababi u boʻynimni oftobdan saqlab turar, yomgʻir yoqqan paytida esa ichimga yomgʻir suvi tushirmas edi. Issiq iqlimda koʻylak ichidan badanga tomib tushgan yomgʻir suvi odamning sihatiga har narsadan ham koʻp ziyon yetkazadi.

Soʻngra egnimda echki terisidan tikilgan, tizzamga tushib turuvchi uzun kamzul bor edi. Shimim juda qari echki terisidan ishlanib, uzun yunglari ustiga chiqarib tikilgan, pochalari boʻlsa iligimgacha berkitib

turar edi. Mening paypoqlarim yo'q edi, kavush o'rniga o'zim oyoq kiyim tikib oldim, lekin poyafzalning nomini nima deb aytishni ham bilmayman, – choriq demak mumkin. Choriqlarimning ikki yonidan tortib bog'lab qo'yadigan uzun ipi bor edi. Oyoq kiyimlarim, aytmochi, boshqa hamma ust-boshim ham, xuddi vahshiyarga xos fasonda tikilgan edi.

Kamzulum ustidan echki terisidan yungi tozalab qilingan keng qayishni kamar qilib tang'ib bog'lab olgan edim; to'qa o'rniga ikki qayishni bir-biriga bog'lab o'tkazdim, ikki yoniga qilich bilan xanjar uchun emas, arra bilan boltani qistirib qo'yish uchun bog'ich qadab oldim.

Yana, yelkamdanda oshirib boylanadigan qayish ham taqib oldim, buning ham xuddi kamardagi singari bog'ichlari bo'lib, bular sal kichikroq edi. Bu qayishga chap qo'l tomonga qulay qilib ikkita xalta tikdim, bularning birida dori, ikkinchisida sochma o'q bor edi. Orqamda gajava, yelkamda miltiq bo'lib, boshimda esa yungli katta soyabon. Soyabon juda qo'pol va beo'xshov bo'lsa ham, safar jabduqlarimning hammasidan ham darkori shu demak mumkin edi. Men uchun soyabondan zaruri yolg'iz miltiq edi, xolos.

Mening ekvatorga yaqin joyda yashaganimni e'tiborga olganda rangim negrlarga kam o'xshar edi va men issiqdan qo'rqmas edim. Avvalo, boshda men soqolimni qo'yib yubordim. Soqolim judayam o'sib ketdi. Keyin soqolimni qirib, faqat mo'ylablarim xuddi turklar mo'ylabiga o'xshab, juda kelishgan bo'lib o'sdi. Mo'ylablarim shuncha<sup>11</sup> uzun ediki, Angliyada bo'lsam, yo'lovchilar ko'rib 1 aqqos qo'rqib ketar edi. Men bular to'g'risida kezi kelgani uchun so'z orasidagina aytib o'tdim: bu orolda mening yuzimni va qaddi-qomatimni ko'rib hushidan ketadigan odamlar aslida yo'q edi, desa bo'ladi, shunday bo'lgach, tashqi qiyofamning qay taxlitda bo'lishi men uchun baribir

emasmi, axir! Men bularni shunchaki aytib o'tdim, bundan buyoq bu to'g'risida so'z ochmayman.

### ***O'n oltinchi bob***

## **QO'QQISDAN YUZ BERGAN QO'RQINCHLI HOLAT.**

### **ROBINZONNING O'Z UYINI MAHKAMLAGANI**

Ko'p o'tmay bir hodisa yuz berdi, bu hodisa mening hayotimni butunlay betinch qilib qo'ydi.

Choshgoh payti edi. Dengiz yoqalab qayig'im turgan joyga qarab borayotgan edim, qum ustiga juda aniq bo'lib tushgan odam iziga birdan ko'zim tushib qoldi, men nihoyat darajada hayratda qoldim va juda qo'rqib ketdim!

Birdan to'xtab, tik turganimcha qotib qoldim, go'yo momaqaldiroqda qolgan odamday hang-u mang edim, go'yo allaqanday ajinalar ko'z oldimdan o'tganday bo'ldi. Atrofga quloq solib, u yoq-bu yoqqa ko'z tashladim, ammo hech kimning ovozini eshitmadim va hech qanday zot ham ko'rinmadi.

Atrofni yaxshiroq tekshirib ko'rmoq uchun yugurib sohil bo'yidagi tepaga chiqdim; yana dengiz bo'yiga tushdim; biroz sohil yoqalab yurdim, hech narsani ko'rmadim: shu oyoq izidan boshqa odam nishonasi yo'q edi.

Qaytib, haligi joyga keldim. Bu joyda yana odam izi bor-yo'qligini aniq tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim. Boshqa iz ko'rinmadi. Ehtimol, bu xayolotdir? Ehtimol, bu odam izi emasdir? Yo'q, shubham noo'rin emas! Bu iz aniq odam izi: men oyoqning kaftini, barmoqlarini va tovonini yaqqol ko'rdim. U odam bu yerga qanday keldi ekan? Qayoqdan kelgan bo'lsaykin? Faraz va gumonlarga cho'mib ketib, bulardan hech biriga ko'nglim qaror topmadi.

Qattiq hayajon va qo'rqinch ichida uyga, o'z qo'rg'onimga qarab oyoqlarim yerga tegmay yugurib

ketdim. Miyamda har xil fikrlar paydo bo'ldi. Men juda qattiq qo'rqqan edim.

Uch-to'rt qadam bosib, orqamga qarar edim. Men har bir butadan va har bir daraxtdan ham qo'rqa boshladim, olisdan to'nka ko'zimga odam bo'lib ko'rina boshladi.

Uchragan har bir narsaning ko'zimga qanday vahimali bo'lib ko'ringanini, o'sha paytda qo'rqinchli va bema'ni fikrlar xayolimga kelganini va yo'lda qanday behuda fikrga borganimni tasvir qilib bo'lmaydi.

Qo'rg'onga yetib kelgach (shu kundan boshlab uyimni qo'rg'on deb atay boshladim), orqamdan birov quvib kelayotganday, hadaha qo'rg'onga kirib oldim.

Men qo'rg'onga har vaqtdagidek narvon qo'yib oshib tushganim ham yoki eshikdan, ya'ni, tepaning tagidan qazilgan yo'lakdan kirganim ham esimda yo'q; ertasiga qo'rg'onga qanday kirganimni eslay olmadim.

Orqasidan it quvib kelayotgan bitta ham quyon, bitta ham tulki o'z iniga menchalik shoshilib yugurmagan bo'lsa kerak.

Tun bo'yi mijja qoqmadim va bu yerga odamzod qanday qilib keldi, degan bir savolning o'zi xayolimda ming qatra takrorlandi.

Ehtimol, bu iz orolga tasodifan kelib qolgan birorta vahshiyning izidir, balki vahshiylar ko'pchilik bo'lgandir? Balki ular o'z pirogalarida kelgandirlar va ularni bu yerga dengiz oqimi yoki shamol keltirib tashlagandir. Ular sohilga chiqqan va keyin yana dengizga tushib qaytib ketishgan bo'lishi juda ehtimol, chunki men ularga yaqin joyda yashagim kelmaganidek, ular ham bu quruq yerda turmoqni lozim ko'rmagandirlar.

Albatta, ular mening qayig'imni ko'rmagan, ko'rgan taqdirda, bu orolda odamlar turishini bilgan, ularni qidira boshlagan va albatta, meni topib olgan bo'lar edidlar.



Ammo boshqa fikr: «Ular mening qayigʻimni koʻrib qolgan boʻlsa-ya?» – degan fikr qoʻrqitib yubordi. Bu fikr meni juda qiynab, ezib tashladi.

«Toʻgʻri, ular yana dengizga tushib qaytib ketishgan, – dedim oʻz-oʻzimga, – lekin ular yana kelmaydi, deb boʻlmaydi; ular qaytib kelishadi, ular, albatta, bir guruh boshqa vahshiyarlarni ham ergashtirib kelishadi va meni topib, yeb ketishadi. Mabodo, meni topolmagan taqdirda ham, baribir ekinzorimni, qoʻrgʻonimni koʻrishadi, gʻallamni payhon qilib, mollarimni haydab ketishadi, shunda men ochlikdan oʻlib ketaman».

Bu qoʻrqinchli hodisadan keyin ikki kungacha qoʻrgʻondan boshimni chiqarolmadim, hatto och qola boshladim. Men uyda tayyor oziq-ovqatni koʻp saqlamas edim. Uchinchi kuni arpa noni bilan suvdan boʻlak hech narsam qolmadi.

Meni yana shu narsa ham katta tashvishga sola boshladiki, har kuni kechqurun sogʻiladigan echkilarim (bu ish kundalik mashgʻulotim boʻlib qolgan edi) endi sogʻiqsiz qola boshladi. Men bechora echkilar sogʻiqsiz qolib juda azob chekishini bilardim, bundan tashqari, ularning suti qochib qoladi, deb qoʻrqar edim. Gumonim toʻgʻri chiqdi: echkilarning koʻpi kasallanib, butunlay sut bermay qoʻydi.

Toʻrtinchi kuni oʻzimni dadil tutib tashqariga chiqdim. Shu orada xayolimga bir fikr keldi, bu fikr meni avvalgidek dadil qilib yubordi. Men qattiq qoʻrqib, vahima ichida har xil xayolga borib, bir fikrga kela olmay turgan vaqtimda, odam izi toʻgʻrisidagi bu hodisani oʻzim oʻylab chiqarmadimmikan, bu oʻz oyogʻimning izi emasmikin, degan fikrga keldim. Men soʻnggi marta qayigʻim yoniga borganimda qum ustidan bosib oʻtgan boʻlishim, shunda izim qolgan boʻlishi mumkin. Toʻgʻri, men odatda boshqa yoʻldan qaytar edim, lekin bunga koʻp vaqt boʻldi, ammo men

bu yoʻldan emas, oʻsha yoʻldan oʻtgan edim, deb ishonch bilan ayta olamanmi?

Men ham goʻrdan tirilib chiqqan odam haqida yolgʻon choʻpchak toʻqib, oʻz choʻpchagidan oʻzi qoʻrqib vahimaga tushgan odamga oʻxshadim, bu – mening oʻz izim, deb oʻzimni ishontirishga harakat qildim.

Darhaqiqat, bu iz oʻz izim edi!

Shunga ishonib oʻzimni dadil ushlab, har xil roʻzgʻor ishlari bilan uydan tashqariga chiqa boshladim. Men yana har kuni bogʻ uyimga boradigan boʻldim. U yerda echkilar sogʻar va uzum uzar edim. Lekin mening gumonsirab, har qadamda atrofga boqib, har lahzada savatchamni tashlab qochishga tayyor odamdek yurganimni koʻrganingizda, meni, albatta, vijdon azobidan qiynalayotgan katta jinoyatchi deb bilar edingiz.

Oradan yana ikki kun oʻtgach, ancha dadil boʻlib qoldim. «Qoʻrquvlarimning hammasi behuda bir xato orqasidan roʻy berdi», – deb oʻzimni batamom ishontirdim, shunday boʻlsa ham, hech qanday shubha qolmasligi uchun oʻsha sohil boʻyiga borib, haligi sirli izni oʻz oyogʻimning izi bilan solishtirib koʻrmoqchi boʻldim. Agar ikki iz ham baravar boʻlsa, meni qoʻrqitgan iz oʻz izim ekaniga va oʻzimdanda oʻzim qoʻrqqanimga ishonch hosil qilmoqchi boʻldim.

Ana shu fikr bilan yoʻlga tushdim. Lekin oʻsha sirli iz turgan joyga kelgach, menga, birinchidan, qayiqdan tushib uyga kelayotganda, bu yerga kelib qolishim aslo mumkin emasligi aniq ayon boʻldi, ikkinchidan, taqqoslab koʻrmoq uchun oyogʻimni haligi iz ustiga qoʻyib koʻrsam, mening oyogʻim ancha kichik ekan!

Yuragimni yana vahima bosdi, xuddi bezgak odamdek qaltiray boshladim; yana har xil gumon va shubhalar miyamni qurshab oldi. Men bu sohilga

odam kelibdi, bitta emas, besh-oltita odam kelibdi, degan qattiq ishonch bilan uyga keldim.

Men hatto, bular boshqa joydan kelgan odamlar emas, shu orolning o'zida yashaydigan odamlardir, degan xayolga ham bordim. To'g'ri, men shuncha vaqt ichida bu orolda bitta ham odam ko'rganim yo'q, lekin ular ko'pdan beri bu yerga yashirilib yurgan bo'lishi, demak, meni bexosdan qo'lga tushirib olmoqlari mumkin.

Bu xavfdan o'zimni qanday saqlashim kerakligi ustida ko'p bosh qotirdim, lekin hech qanday chora o'ylab topolmadim.

«Agar vahshiylar mening echkilarimni topib olsalar va bosh tortib turgan g'allamni ko'rib qolsalar, – dedim o'z-o'zimga, – ular yangi o'ljalar uchun bu orolga doim kelib turadigan bo'ladilar; agar ular mening uyimni ko'rib qolsalar-chi, albatta, uy egalarini qidira boshlaydilar va oxiri meni ham topib oladilar».

Shu sababdan hamma qo'tonlarning devorini buzib, echkilarning hammasini haydab yubormoqchi, so'ngra har ikki ekinzorni buzib, ko'karib turgan sholi bilan arpani ko'mib tashlamoqchi va dushman hech qanday nishona topolmasligi uchun kapamni buzib tashlamoqchi bo'ldim.

Yuragimga vahima solgan shu oyoq izi ko'zimga tushgan vaqtdayoq menda shunday fikr paydo bo'lgan edi. Xavf-xatar to'g'risida o'ylamoq hamisha xatarning o'zidan ko'ra qo'rqinchlidir, yovuzlik to'g'risida o'ylamoq yovuzlikning o'zidan o'n ming baravar yomonroqdir.

Tun bo'yi uxlay olmadim. Ammo uyqusizlikdan tamom holdan ketgach, ertalabga yaqin qattiq uxlab ketibman, juda yaxshi va to'yib uxlabmanki, o'rindan juda tetik bo'lib turdim, ko'p vaqtdan beri men o'zimni bunchalik tetik his qilmagan edim.

Endi bamaylixotir mulohaza qila boshladim va mana bunday fikrga keldim. Mening orolim bu

yerning eng yaxshi joyi. Bu orolning iqlimi juda soz, har xil yovvoyi qush va hayvonlar ko'p, har xil xushbichim, go'zal daraxtlar ko'p. Bu orol qit'aga yaqin bo'lganidan, qit'ada yashovchi vahshiylarning bu orol sohillariga o'z pirogalariga tushib kelib turishlari hech taajjub emas. Ularni bu yoqqa dengiz oqimi yoki shamol surib kelgan bo'lishi ham ehtimoldan uzoq emas. Albatta, bu yerda muqim yashovchi vahshiylar yo'q, lekin o'tkinchi vahshiylar, hech shubhasiz, bu orolga tushib turadi. Shunga qaramasdan, bu orolda yashay boshlaganinga o'n besh yil bo'lgan bo'lsa ham, hozirgacha bu yerda odamzod urug'ini ko'rganim yo'q; shunday ekan: «Vahshiylar bu joyga kelib tursalar ham, hech vaqt uzoq turmaydilar. Ular ozmi-ko'pmi, bu yerda istiqomat qilmoqni lozim ko'rmagan yoki foydali deb bilmagan ekanlar, bundan buyon ham bu yerga kelib yashamaydilar», – deb faraz qilmoq kerak.

Demak, meni birgina xavf, ya'ni, ular mening orolimga tasodifan kelib qolgan vaqtlarda ular bilan uchrashib qolish xavfi qo'rqitadi, xolos. Lekin ular bu yerga kelgan taqdirda ham bizning duch kelib qolishimiz juda gumon, chunki, birinchidan, vahshiylar bu yerda turmaydilar, ular har safar bu yerga kelganlarida uylariga tezroq qaytib ketmoqqa oshiqishlari turgan gap: ikkinchidan, ular doim orolning mening uyimdan ancha uzoq tomoniga tushadilar, deb ishonch bilan aytsa bo'ladi.

Men orolning u tomoniga juda kam boraman, shu sababdan, menga vahshiylardan uncha qo'rqmoqning o'rne yo'q; shunday bo'lsa ham, ular yana orolga kelgan taqdirda yashirina olishim mumkin bo'ladigan bexatar bir joy qilmoq to'g'risida o'ylamoq kerak.

Men yerto'lani kengaytiraman deb, undan hovli tashqarisiga chiqadigan yo'lak qaziganim uchun endi qattiq pushaymon yedim. Harna qilib bo'lsa-

da, bu xatoni to'g'rilamoq kerak edi. Ko'p o'ylagach, yerto'ladan chiqadigan eshikni hovli ichida qoladigan qilib, qo'rg'on atrofini aylantirib yana bir devor tortmoqchi bo'ldim.

Lekin menga yangi devor solmoq uchun hojat ham bo'lmadi: men bundan o'n ikki yil avval eski devor atrofiga ikki qator daraxt tikkan edim, bu daraxtlar juda qalin tikilgan edi, ular g'uj o'sib, o'z-o'zidan devor o'rnini bosib qolibdi. Endi daraxtlar orasiga qoziq qoqib, uni mustahkam devor kabi qilmoq qoldi, xolos. Men shunday qildim ham.

Endi qo'rg'onimning atrofiga ikki qator devor olingan edi. Lekin ishim bu bilan tugamadi. Keyingi devorning orqa tomonidan maydonning hammasiga majnuntolga o'xshash daraxtlardan o'tqazdim. Ular juda yaxshi ko'karib, tez orada katta bo'lishdi. O'tqazgan daraxtim yigirma ming tupga yetar edi. Keladigan dushmani olisdan turib ko'rmoq mumkin bo'lsin, deb devor bilan daraxtzor o'rtasida ancha bo'shlik joy qoldirgan edim, shunday qilmaganimda dushmanlar daraxtlarni pana qilib, mening devorim tagiga kelib olishlari mumkin edi.

Ikki yil o'tgach, uyim atrofida ko'm-ko'k chakalakzor paydo bo'ldi, besh-olti yildan so'ng esa tavarak-atrofim odam yura olmaydigan qalin chakalakzorga aylandi – bu daraxtlar ana shunday aql bovar qilmaydigan darajada tez o'sdi. Endi hech kim, vahshiy ham, madaniyatli odam ham, bu changal o'rmon orqasida uy borligini payqay olmaydi.

Qo'rg'onga kirib chiqmoq uchun men tepalikka narvon qo'yib oshib o'tadigan bo'ldim (chunki daraxtlar orasidan odam o'tadigan yo'lak qoldirmagan edim). Narvon olib qo'yilgach, mening uyimga odam bolasi sog' o'ta olmas edi.

Hayotim tahlika ostida qolayotgandek bo'lib ko'ringan birgina xayolot orqasida o'zimga ana

shuncha og'ir ishni orttirib oldim! Odamlar orasi-  
dan uzoq bir joyda shuncha yil darvishona ya-  
shab, asta-sekin odamlardan begona bo'lib ketdim,  
nazarimda, odamlar arslon va yo'lbarslardan ham  
dahshatliroq bo'lib qoldi.

### **O'n yettinchi bob**

## **ROBINZONNING O'Z OROLIDA ODAMXO'RLAR BORLIGIGA ISHONCH HOSIL QILGANI**

Qum ustida odam izini ko'rganimdan buyon ikki  
yil o'tdi. Shunday bo'lsa ham, men avvalgidek xotir-  
jam yura olmadim. Mening tinch turmushim tamom  
bo'ldi. Hayotimning qanchalik g'amgin va qayg'uli  
bo'lib qolganini uzoq yillar hayoti tahlika ostida qolib,  
qo'rquv ostida qolgan odamgina tushuna oladi.

Orolni kezib yurib, bir kuni uning g'arbiy to-  
mondagi sohiligacha bordim, avvallari bu joyga hech  
kelmagan edim. Sohilga yetib kelmasdan tepa ustiga  
chiqdim. Birdan ko'zimga ochiq dengizda uzoqdan  
qayiq ko'rinayotgandek bo'ldi.

«Ko'zim aldayotgan bo'lsa kerak, – deb o'yladim, –  
axir shuncha yillardan buyon har kuni dengizga tiki-  
laman, bu yerda bitta ham qayiq ko'rganim yo'q-ku».

Afsuski, durbinni olib kelmagan ekanman. Mening  
bir necha durbinim bor edi; ularni kemadan olib  
kelingan sandiqlarning biridan topib olgan edim.  
Attangki, ular uyda qolgan. Garchi ancha vaqtgacha  
dengiz tomonga tikila berib, ko'zlarim og'rib ketsa  
ham, uning rostdan qayiqmi yo boshqa narsa ekanini  
bilolmadim. Tepadan pastga tushgach, hech narsani  
ko'rolmadim; shunday qilib, uning nima ekanini  
hozirgacha bilolganim yo'q, dengiz tomonga tikilib  
turishni tark qilishga majbur bo'ldim. Lekin bundan  
buyon hech mahal uydan durbinsiz chiqmaslikka  
qasd qilib qo'ydim.

Sohilga yetib kelgach (bu sohilga avval hech kel-maganimni yuqorida aytib o'tdim), bu yerda odam izi mening orolimdagidaqa kamyob bo'lmay, juda ko'p ekanligiga ishonдим. Shunga ham ishonch hosil qildimki, agar men vahshiylikimda, orolimda vahshiylar oz emasligini va uning g'arbiy sohili vahshiylarning doim kelib turadigan joyi bo'lganini, buning ustiga ular bu joylarda dahshatli, katta bazmlar qurib, odamlarni o'ldirib yeyishlarini allaqachonlar bilib olar edim.

Tepadan tushib, sohilga kelganimda, ko'rgan narsalarim meni tong qoldirib, dovdiratib qo'ydi. Sohil odam suyaklari: bosh suyagi, qovurg'alar, qo'l va oyoq suyaklari bilan to'lib yotgan ekan.

Bu odam suyaklarini ko'rib, shunchalik qo'rqib ketdimki, so'z bilan izhor qilolmayman!

Vahshiy qabilalar doim bir-birlari bilan urush qilishini bilar edim. Ular ko'pincha dengizda urushadilar: bir qayiqdagilar ikkinchi guruhning qo'liga asir tushadi.

Jang tamom bo'lgach, g'olib kelganlari o'z harbiy asirlarini bu yerga olib kelib, o'zlarining vahshiylik rasm-odatlaricha, shu yerda o'ldirib yesalar kerak, chunki ularning hammasi ham odamxo'r bo'lishadi, deb o'yladim.

Shu yerning o'zida bir davraga ko'zim tushdi, doira o'rtasida gulxan izlari bor edi: u yirtqich hayvonlar, mudhish aysh-ishratlari vaqtida o'z yaqinlarining go'shtini shu joyda o'tirib yegan bo'lsalar kerak.

Bu mudhish manzarani ko'rib qattiq hayratda qol-ganimdan, dastlabki paytda bu sohilda o'z boshimga kelayotgan xatar ham esimga kelmadi. Bu badnom vahshiylik qahr-g'azabimni shuncha oshirib yubordiki, men qo'rqish nima ekanini ham bilmay qoldim.

Men bunaqa mudhish shafqatsizlikni ko'p bor eshitgan edim, ammo hozirgacha bu holni o'z ko'zim

bilan ko'rmagan edim. Bu manzaradan jirkanib yuz o'girdim. Ko'nglim aynib, behuzur bo'ldim.

Hushdan ketib yiqilayozgandek bo'ldim. Hushimni yig'ishtirgach, bu yerda bir daqiqa ham turmog'im mumkin emas degan fikrga keldim: chopib tepa ustiga chiqdim-da, jadal uyga jo'nadim.

G'arbiy sohil juda orqada qolib ketgan bo'lsa ham, hamon tuzuk-quruq o'zimga kelolmadim. Oxiri to'xtadim, sal o'zimga keldim va aql-hushimni yig'ishtira boshladim. Bu jirkanch odamlar orolga hech mahal o'lja uchun kelmasliklariga ishondim. Ehtimol, ular hech narsaga muhtoj emasdir, balki bu yerda arziydigan o'lja-g'animat topa olmasliklariga ishongandir.

Orolimning daraxtzor qismiga ham ko'p marta boranliklariga hech shubha yo'q, lekin ular bu yerdan o'zlariga qo'l keladigan biror narsa topolmay, qaytib ketgan bo'lsalar kerak.

Demak, ehtiyot bo'lmoq kerak. Bu orolda o'n sakkiz yilcha istiqomat qilib, hozirgacha bu yerda odanzod urug'ini ko'rmagan ekanman, yana o'n sakkiz yil yashaganimda ham vahshiylar ko'ziga ko'rinmayman, ammo tasodifan ularga duch kelib qolmog'im mumkin, xolos. Darhaqiqat, bunday tasodif yuz bermog'i mumkin, demak, bundan buyon mening birdan bir vazifam bu orolda yashab turganligimni mumkin qadar sezdirmaslikdan, hamma nishonalarni yaxshilab yashirishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Orolga ovrupoli odamlar kelib qolishsa, boshqa gap, ular muruvvatli, madaniyatli, boshiga kulfat tushgan o'z birodariga yordamini ayamaydigan odamlardir. Ammo men bunday baxt to'g'risida o'ylay ham olmas edim.

Istasam, biror pana joydan turib, vahshiylarni ko'ra olar edim, lekin yirtqichlar singari bir-birining go'shtini yeydigan bu qonxo'r darrandalarga tikilmoq menga juda jirkanch bo'lganidan, ularning yuzini



ko'rishni istamadim. Odamlarda shu qadar vahshiyona axloq borligi haqidagi fikr meni qiynab-ezg'ilab tashladi.

Men ikki yilcha orolning mol-mulklarim joylashgan qismidan, ya'ni, tepa tagidagi qo'rg'on, daraxtzor ichidagi kapamdan va echkilar boqiladigan daraxtzor ichidagi yalang joydan, atrofi devor qilingan o'tloqdan chekkaga chiqmay ishladim. Shu ikki yil ichida bir marta ham borib qayig'imdan xabar olmadim.

«Boshqa bir qayiq yasab olganim yaxshi, avvalgi qayig'im hozirgi turgan joyida qola bersin, – deb o'yladim. – Uni olib kelgani borish xatarli. U tomondagi sohilda dengizdan keladigan odamxo'r vahshiylar menga hujum qila oladilar, shubha yo'qki, ular go'shtimni boshqa asirlari kabi burda-burda qilib yeydilar».

Ammo bir yilcha o'tgach, harna bo'lsa ham qayig'imni bu yoqqa olib kelmoqqa qaror berdim, chunki yangi qayiq yasamoq juda qiyin edi! Yangi qayiq yasashga kirishsam, u ikki-uch yildan keyin tayyor bo'lar va men bu vaqt ichida dengizda suzib yurmoq imkonidan mahrum bo'lar edim.

Qayig'imni orolning sharqiy sohiliga omon-eson olib keldim, bu yerdan atrofini baland toshlar to'sgan bejirimgina qo'ltiqcha topib, qayiqni shu yerga qo'ydim. Dengiz suvi orolning sharqiy sohilini yoqalab doim juda tez, o'shqirib oqib o'tar edi, shuning uchun ham, vahshiylarning bu yerga sira kelolmasliklarini bilar edim.

Ana shuncha zo'r tashvish va qo'rquv ta'siri ostida o'z ahvolimni yaxshilash va uy-ro'zg'orimni tuzatish uchun sira hafsalam qolmaganini aytsam, o'quvchi taajjublanmasa kerak. Hamma ixtirochiliklarim ham chekkada qolib ketdi. Ovqatni yaxshilashga harakat qilgudek holim yo'q edi, shu vaqtlarda jonimni omon saqlab qolishdan boshqani o'ylay olmadim. Mix qoqish, o'tin yorishga ham yuragim dov bermadi, go'yo

vahshiylar taq etgan ovozni eshitib qolayotgandek doim xavf-xatarda turdim. Miltiq otmay qo'yganimga esa ko'p vaqtlar bo'ldi.

Har safar o't yoqqanimda esa yana ham qattiqroq qo'rqardim, chunki tutun kunduz kuni uzoq-uzoqlardan ko'rinadi, u hamisha meni bildirib qo'ymog'i mumkin. Shu sababdan olov yoqib qilinadigan hamma ishlarni (shu jumladan, kulolchilik ishini ham) shu voqeadan sal ilgari topilgan yangi uyga ko'chirdim.

Kunlardan bir kun o'rmonda ishlab turgan vaqtimda, baxtinga, omadim kelib, tosh orasidagi g'orni ko'rib qoldim.

G'orning ichi juda keng edi, lekin men aminmanki, hech bir vahshiy bu g'orga kirmoqqa jur'at qilolmagan bo'lur edi. Darhaqiqat, bexatar boshpanaga zor bo'lgan men kabi odamgina bu tor teshikka kirmoqni xayol qila olar edi.

Men bu g'orni tasodifan ko'rib qoldim.

O'rmonda bolta bilan katta bir daraxtning qalin shoxini kesib bo'luvdim, bir kamarga ko'zim tushib qoldi. Bu kamarning uzunligini bilmoqqa qiziqdim. Ko'p qiyinchilik bilan bir amallab uning ichiga kirdim, ichkarisi katta g'or ekan. G'or shuncha keng va baland ediki, men bemalol tikka tura oldim. Lekin e'tirof qilamanki, men bu g'orga kirganimga qaraganda undan ancha tez qaytib chiqdim.

Qorong'ida diqqat bilan tikildim, to'ppa-to'g'ri menga qarab o'qrayib ikkita yoniq ko'z tikilib turibdi: bu ko'zlar yulduzga o'xshab yaltiramoqda, g'orga tashqaridan tushayotgan yorug' bu ko'zlarda aks etmoqda. Bu ko'zlar kimning ko'zlari – shaytonnikimi yoki odam ko'zimi – bilolmadim, to'g'risi biror mulohazaga bormayoq g'ordan chiqib qochdim.

Bir necha kundan keyin aql-hushim joyiga kelib, o'zimni ming martalar ahmoq deb koyidim.

«Kishi qadami tegmagan orolda yigirma yil yashagan odam shaytondan qoʻrqmasligi kerak. Haqiqatda esa bu gʻorda mening oʻzimdanda qoʻrqinchli narsa yoʻq», – dedim oʻz-oʻzimga.

Yonib turgan yogʻochlardan qoʻlimga ushlab, yuragimni dadil tutib yana gʻorga kirdim. Ammo mashʼal bilan yoʻlimni yoritib, hali uch qadam ham bosganim yoʻq ediki, yana avvalgidan ham qattiqroq qoʻrqdim: bir narsaning qattiq inqillagan ovozi eshitildi; odamlar kasal boʻlganda shunday inqillaydi. Soʻngra, alahlashga oʻxshash allaqanday uzuq-yuluq tovush eshitildi, keyin ogʻir nafas olindi.

Orqamga tisarildim va qoʻrqqanimdan turgan joyimda qotib qoldim; aʼzoyi badanlarimdan sovuq ter chiqib ketdi, sochlarim tikka boʻlib ketdi. Lekin yuragimni dadil qilib, mashʼalni boshimdan baland koʻtarib, yana ilgari yurdim, yerda juda katta, bahaybat qari echki yotar edi.

Echki oʻrnidan qoʻzgʻalmay yotar va oʻlim talvasasida ogʻir nafas olardi; u qarilikdan boʻlsa kerak, oʻlmoqda edi. Echki oʻrnidan tura olarmikan, deb oyogʻim bilan uni sekingina turtdim. U turishga harakat qildi-yu, lekin tura olmadi. «Yotaversin. U meni qoʻrqitdimi, bu gʻorga bosh suqqan har qanday vahshiy ham undan shunday qoʻrqsin!» – dedim.

Ertasiga oʻzim yasagan shagʻamlardan oltitasini olib (bu vaqtlarda echki yogʻldan juda yaxshi shagʻam yasaydigan boʻlib olgan edim, piligini uncha durust qilolmadim, xolos), gʻorga qaytib keldim.

Gʻorning old tomoni keng edi, lekin bora-bora torayib, gʻorning ancha ichkarisiga borgach qaddimni bukib yurishga majbur boʻldim va oʻn yardcha joyga emaklab bordim. Bu ishimi zoʻr qahramonlik edi, desam boʻladi, chunki bu gʻorning boshi qayerda ekani va qanday xavf-xatarga yoʻliqishimni bilmas edim. Gʻorning tobora kengayib borayotganini sezdim. Sal

yurgach qaddimni ko'tardim, shunda ma'lum bo'ldiki, bemalol tik turib yursam bo'lar ekan. G'orning gumbazi yigirma futcha baland ko'tarildi. Shag'amlardan ikkitasini yoqdim va shunday bir ajib manzaraga ko'zim tushdiki, bunaqasini umrimda ko'rgan emas edim. Men juda keng g'or ichiga kirib qoldim. Yonib turgan ikki devorlarda shag'am alangasining aksi yaltirab ko'rina boshladi. Ular yuz minglarcha turli rangdagi alanga bo'lib aks etdi. G'or devorlaridagi toshlar olmoslarmi yoki boshqa xil qimmatbaho toshlarmi? Bularning nimaligini bilolmadim. Haqiqatda esa bular oltinlar edi.

Yer o'z bag'rida bunday ajoyibotni yashirib yotar, deb ham o'ylamagan edim. Bu g'or kishi hayratda qoladigan ajoyib bir g'or edi. G'orning tagi quruq va tep-tekis bo'lib, oyoq osti mayda qum edi. Hech qayerida: devorida ham, gumbazida ham zax alomati ko'rinmasdi. Birdan bir kamchiligi yo'lagining torligi edi, lekin uning tor bo'lganligi men uchun har narsadan a'lo edi, chunki men shuncha vaqtlardan buyon bexatar joy qidirib yurgan edimki, bundan bexatar boshpana topmoq amrimahol. Men o'zimning bu ziyrakligimdan behad quvondim, juda ehtiyot qilib yurgan buyumlarimni va zaxiralarimni, ya'ni, ikkita ov miltig'imni va uchta pilta bilan otiladigan miltiqni fursatni boy bermay g'orga olib kelishga qaror berdim.

Buyumlarni yangi omborga tashishga kirishmasdan avval, dastlab ichiga suv kirib dorisi ivib qolgan bochkaning og'zini ochdim. Men bu dorining hammasi buzilib qolgan deb o'ylagan edim, lekin suv bochkaga atigi uch-to'rt duymcha kiribdi, dorining suv tekkan yuza qismi qotib, metinga aylanib ketibdi; qolgan qismi esa chaqilmagan yong'oq ichidagi mag'izga o'xshab zararsiz, omon saqlanibdi. Shunday qilib, hech kutilmagan bir vaqtda a'lo sifatli yangi doriga ega bo'ldim.

Bu tasodifdan ozmuncha xursand bo'lmadim! Oltmish qadoqdan kam bo'lmagan dorining hammasini saqlash uchun g'orga ko'tarib keldim, vahshiylarning hujum qilish ehtimolidan saqlanmoq niyatida uchto'rt qadoq dorini yonimda olib qoldim. O'q qilinadigan qo'rg'oshinning bor-yo'g'ini ham g'orga tashib oldim.

Endi o'zimni toshlar orasida va odamzod kira olmaydigan g'orda umr kechirgan afsonaviy azamatlardan biri deb his qildim.

«Basharti, besh yuz vahshiy bir bo'lib butun orolni tit-pit qilganda ham, mening bu sirli joyimni topolmaydi, mabodo topsa ham, unga aslo hujum qilolmaydi!» – dedim o'z-o'zimga.

Bu yangi g'orda ko'rganim kekxa echki, ertasiga qaragam, qotib qolibdi, men uni o'zi yotgan joyini kavlab, shu yerga ko'mib qo'ydim, chunki ko'mish uni g'ordan ko'tarib tashqariga olib chiqishdan ancha oson edi.

Orolda umr kechira boshlaganimning yigirma uchinchi yili o'tmoqda. Bu orolning tabiati va iqlimini shuncha yaxshi bilib oldimki, agar har daqiqa bu yerga yopirilib kelishi ehtimoli bo'lgan vahshiylardan qo'rqmaganimda shu kekxa echki singari yerga cho'zilib qolib o'lgunimcha, qolgan umrimni shu yerda o'tkazishga jon deb rozi bo'lgan bo'lar edim.

So'nggi yillarda, ya'ni, vahshiylar mening hayotimni tahlikada qoldirishini bilgunimcha, men o'zimga ba'zi bir ermak topib oldim, bular menga juda yupanchiq bo'ldi. Ana shular tufayli men avvalgiga qaraganda vaqtimni ancha xursandchilik bilan o'tkazdim.

Birinchiidan, yuqorida aytib o'tganimdek, men to'timni so'zga o'rgatdim, uning tili shu qadar shirin va so'zlarni shunchalar burro va aniq aytar ediki, uning so'zlarini tinglab rohat qilar edim.

Menimcha, unaqa biyron gapiradigan to‘ti bo‘lmasa kerak. U mening qo‘limda kam deganda yigirma olti yil umr ko‘rdi. Yana uning qancha umr ko‘rishini bilmayman; Braziliya xalqi, to‘tilar yuz yil umr ko‘rishadi, deyishadi.

Mening yana ikkita to‘tim bor edi, ular gapirishni bilar va «Robin Kruzol!» deb qichqirar edi, lekin ular u to‘tim singari biyron gapira olmasdilar. To‘g‘ri, men u to‘tini gapga o‘rgatishga bu ikkoviga qaraganda ancha ko‘p vaqt va mehnat sarf qildim.

Itim olti yil muttasil menga eng yaxshi hamroh va sodiq do‘st bo‘ldi. Keyin u qarib qolib o‘ldi, lekin u meni juda ham yaxshi ko‘rganini hech unutmayman.

Men uyimga olib kelgan mushuklar ham katta oilamning to‘la huquqli a‘zolaridan bo‘lib qolishdi.

Bulardan tashqari men doim ikki-uchta uloqni uyda asrab, ularni qo‘limda ovqat yedirishga o‘rgatar edim. Men hamisha ko‘p xil parrandalar asrardim: bularni sohildan ushlab kelardim-da, uchib ketolmaydigan qilib qanotlarini kesib hovliga qo‘yib yuborar edim, ular ko‘p o‘tmay o‘rganishib qolar va meni ostonada ko‘rish bilan chiyillashib yonimga yugurib kelishar edi.

Qo‘rg‘on yoniga ekkan yosh daraxtlarim allaqachon o‘sib, qalin chakalak bo‘ldi va bu chakalakda ko‘pdan ko‘p qushlar uy qurishdi. Qushlar past-past daraxtlarga qurgan uyalarida bola ochishdi, atrofimdagi zavqli turmushni ko‘rib yupanar va xursand bo‘lganimdan yakkaligim bilinmas edi.

Shunday qilib, takror aytamanki, agar vahshiylar hujum qilib qolmasmikin, deb qo‘rqmaganimda, yaxshi va bekam-u ko‘st yashagan, taqdirimdan tamoman rozi bo‘lgan bo‘lur edim.

## ***O'n sakkizinchi bob***

### **VAHSHIYLARNING ROBINZON OROLIGA YANA KELISHGANI. KEMANING HALOKATGA UCHRASHI**

Dekabr boshlandi, hosilni yig'ib-terib olishim kerak. Erta tongdan kechgacha dalada ishlay boshladim. Bir kuni g'ira-shira tong payti uydan chiqib, g'orimdan ikki milcha narida, sohilda yonib turgan katta gulxan alangasini ko'rib, juda hayratda qoldim va qo'rqib ketdim.

Demak, mening orolinga yana vahshiylar kelishibdi! Ular orolning men hech mahal bormagan narigi tomonida emas, balki menga yaqin joyda paydo bo'libdi. Hayron bo'lib, turgan joyimda qotib qoldim.

Uyim atrofini o'rab turgan chakalakka yashirindim, vahshiylar ko'ziga ko'rinib qolmaslik uchun bir qadam ham jilmadim.

Chakalak ichida pisib tursam ham, ko'nglim sira tinchimadi: mabodo, vahshiylar orolni kezib qolsa, mening ekinzorimni, hayvonlarimni, uyimni ko'rib qoladi, bu yerda odam turishini darrov bilib qolishadi, keyin meni topib olmaguncha qo'ymaydi, deb o'ylab qo'rqdim. Darhol harakat qilmoq kerak edi. Hadaha qo'rg'on yoniga borib, izimni yo'qotmoq uchun narvonni ham o'zim bilan birga olib o'tdim va mudofaaga tayyorlana boshladim.

Bugun, artilleriyamni o'qladim (pilta miltiqlarimni artilleriya deb atadim), u yoq-bu yog'ini tekshirib, ikki to'pponchamni ham o'qladim va oxirgi nafasgacha mudofaa qilmoqqa qaror berdim.

Istehkomimni mudofaa qilmoq uchun yana qanday choralar ko'rmoq kerak, degan fikr bilan shug'ullanib qo'rg'onim ichida ikki soatcha turdim.

«Afsuski, bor-yo'q askarlarim bir kishi, xolos! Hech bo'lmasa, razvedkaga yubormoq uchun ayg'oqchilarim ham yo'q», – deb o'yladim.

Dushman tomonida nimalar bo'layotganidan bexabarman. Bu bexabarlik tinkamni quritdi. Durbinni qo'limga olib, narvonni qo'yib tepa ustiga chiqdim. Yerga qornim bilan yotib olib, gulxan chiqqan tomonni kuzatdim. Ma'lum bo'ldiki, vahshiylar to'qqiz kishi ekan. Ular hammasi kichik bir gulxan atrofida qip-yalang'och o'tirishar edi.

Albatta, ular gulxanni isinish uchun yoqqan emas, isinmoqqa ularning ehtiyoji yo'q, chunki kun issiq edi. Yo'q, men ishondimki, ular bu gulxanni o'zlarining odam go'shtidan qilinadigan vahshiy ovqatlarini pishirmoq uchun yoqqanlar! Ovqat bo'ladigan asir, muqarrar tayyorlab qo'yilgan edi, lekin o'lik yo tirik ekanligini bilolmadim.

Bu odamxo'rlar ikki qayiqda kelgan ekan, ularning qayiqdari qum ustida turibdi: dengiz suvi qaytgan vaqt edi, aftidan, mening vahimali mehmonlarim qaytib ketmoq uchun suvning mavj urib sohilga kelishini kutayotganga o'xshaydi.

To'g'ri, shuni kutayotgan ekanlar: suvning mavj urishi boshlandi deguncha vahshiylar darrov qayiqdariga tushib ketishdi. Darvoqe, aytmoq xayolimdan ko'tarilibdi, ular jo'nab ketmasdan bir-bir yarim soatcha oldin hammalari sohilda o'yinga tushishdi: men durbin bilan ularning vahshiylarcha tanlarini o'ynatganlarini va sakrashganini aniq ko'rib turdim.

Vahshiylar oroldan jo'nab, g'oyib bo'lganiga ishonch hosil qilish bilanoq men tepadan tushib, ikkala miltiqni ham yelkamga osib oldim, ikki to'pponchamni kamarga qistirib, qinsiz ulkan qilichimni yonimga osib oldim, keyin vaqtni o'tkazmay sohilda odam asarini ko'rgach, ustiga chiqib birinchi marta atrofni kuzatgan boyagi tepaga qarab jo'nadim.

Bu joyga yetib kelib (ko'targan qurollarim og'ir bo'lganidan bu yerga yetib kelguncha kam deganda ikki soat o'tdi), dengiz tomonga nazar tashladim va



qayiqqa tushib, oroldan qit'aga qarab ketayotgan vahshiylarni ko'rib qoldim.

Bularni ko'rib, g'azabim jo'sh urib ketdi. Sohilga qarab yugurdim, endigina bo'lib o'tgan vahshiyo-na aysh-ishrat qoldiqlarini, ya'ni, bu yirtqichlar xursandchilik qilib va o'yinga tushib, yeb-ichib ketgan odam qonini, suyaklari va go'sht parchalarini ko'rib, qahr-g'azabim kelganidan qichqirib yuboray dedim.

Mening g'azabim shu qadar jo'sh urib, qotillarga nafratim shu qadar oshib ketdiki, men qonxo'rlardan qattiq qasos olmoqchi bo'ldim. Bu vahshiylar yana shu sohilda bazm qurganliklarini ko'rib qolsam, ularga hujum qilib, qancha bo'lsa, bitta qoldirmay, hammasini qirib tashlayman, deb qasam ichdim.

«Tengsiz jangda halok bo'lsam bo'layin, ular meni tilka-pora qilsalar qilsinlar, ammo men ko'z oldimda odamlarning odam yeb turishlariga jim qarab turolmayman!» – dedim o'z-o'zinga.

Shundan keyin oradan o'n besh oy o'tib ketsa ham, vahshiylar qaytib kelishmadi. Men ham g'azabdan tushmadim; doim bu odamxo'rlarni qirib tashlamoq to'g'risidagina o'ylardim, xolos. Men ularga qo'qqisidan, ayniqsa, ular so'nggi safargi kabi ikki guruhga bo'linganda hujum qilmoqchi bo'ldim.

Mening sohilimga kelgan vahshiylarning hammasini (ular o'n yoki o'n ikki kishi bo'lganda ham) qirib tashlagan taqdirimda ham, ertasiga yoki bir haftadan keyin, ehtimol, bir oy o'tgach boshqa vahshiylarga qarshi, undan keyin yana boshqalariga qarshi, shunday qilib, men ham o'z birodarlarimning go'shtini yeydigan shu yirtqichlar singari ashaddiy qotilga aylanib ketgunimcha urusha berishga to'g'ri kelishini xayolimga keltirmabman.

O'n besh-o'n olti oygacha muttasil tashvishda yurdim. Men uxlay olmaydigan bo'lib qoldim, kecha-

lari vahimali tushlar ko'rib, ko'pincha a'zoyi badanim titrab, o'rnimdan sakrab turib keta boshladim.

Ba'zan tushimda vahshiylarni o'ldirardim va tushimda ular bilan qilgan janglarim o'ngimda ko'z oldimdan aniq o'tar edi. Kunduz kunlari ham xotirjam bo'lolmadim. Agar to'satdan yuz bergan hodisa fikrimni boshqa tomonga burib yubormaganida, doim tashvish, vahima ichida yurish orqasidan bir kunmas-bir kun aqldan ozishim ham ehtimoldan xoli emas edi.

Mening ko'rimsiz yog'och kalendarimga ishonilsa, bu hodisa shu orolda istiqomat qila boshlaganimning yigirma to'rtinchi yili, may oyida yuz berdi.

Shu kuni, ya'ni, 16-mayda qattiq dovul bo'lib, kun bo'yi tinmay hayqirib turdi, havo guldirab, chaqmoq chaqaverdi, momaqaldiraq bir daqiqa ham tinmadi. Bo'ron kechasi ham to'xtamadi. Tashvishlarimni unutmog' niyatida kechasi kitob o'qishga tutindim. Qo'qqisidan to'p ovozi eshitib qoldim. To'p ovozi menga dengiz tomondan eshitilganday bo'ldi.

O'rnimdan sakrab turdim, darrov narvonni tepaga tirab, g'animat vaqtning bir daqiqasini ham o'tkazib yubormay, darhol narvon pog'onalariga oyoq qo'yib yuqoriga chiqdim. Men tepa ustiga chiqib olgan hamonoq ro'paramdan dengizning uzoq joyida o't ko'rindi, chindan ham yarim daqiqa o'tar-o'tmas ikkinchi marta to'p otildi.

«Dengizda kema halokatga uchradi, – dedim o'z-o'zimga. – U signal bermoqda, qutqazib olar degan umidi bor. Nariroqda boshqa bir kema bo'lsa kerak, o'shani yordamga chaqirmoqda».

Men juda to'lqinlangan va hayajonlangan edim, lekin hech bir dovdiramadim va men bu odamlarga yordam berolmasam ham, ularning menga yordam berishlari mumkin, degan fikrni xayolimga keltira oldim. Darrov shu yaqin oradagi shoxlarni bir joyga

uyib, yoqib yubordim. Shoxlar quruq edi, u darrov o't oldi, qattiq shamol bo'lishiga qaramay, juda tez yondiki, agar bu haqiqatan ham kema bo'ladigan bo'lsa, undagi odamlar mening signalimni ko'rmasliklari mumkin emas edi. Hech shubha yo'qki, ular o'tni ko'rgan edilar. chunki gulxan alangasi ko'tarilgan hamonoq haligi tomondan ustma-ust uch to'p otildi.

Men tun bo'yi o't yoqib chiqdim, tong yorishib, ertalabki tuman sal ko'tarilgach, dengizda, xuddi sharq tomonda bir narsaning qorasini ko'rib qoldim. Lekin bu g'ira-shira ko'ringan narsa, kemanding odam tushadigan joyimi yoki yelkanimi, buni hatto durbin orqali ham ajrata olmadim, chunki u narsa juda uzoq bo'lib, dengizda hali tuman ko'tarilmagan edi.

Ertalab ancha vaqt dengizdagi narsaga tikilib turdim va ko'p o'tmay, uning harakatsiz, o'rnidan qimirlamay turganiga ishondim. U xuddi langar tashlab turgan kemaga o'xshardi.

Chidab turolmadim: miltiq bilan durbinni olib janubi-sharqiy sohilga, ya'ni, dengizda qator-qator bo'lib ko'tarilib turgan qoyalar tomoniga qarab yugurdim.

Tuman tarqalib ketgan edi, men nariroqdagi bir tosh ustiga chiqib qarab, parchalangan kemanding odam tushadigan xonalarini yaqqol ko'rdim. Achinganimdan yuragim orqamga tortib ketdi. Aftidan, bebaxt kema suv tagida ko'zga ko'rinmay turadigan qoyaga kelib urilgan va dengizning shiddatli oqimini to'sib turuvchi bu qoyalar turgan joyda yo'lini yo'qotib qo'ygan. Xuddi shu qoyalar bir mahal meni ham halok qilayozgan edi.

Agar halokatga yo'lliqqan kishilar orolni ko'rganlarida hech bo'lmasa, qayiqqa tushib, qirg'oqqa chiqib olishga harakat qilgan bo'lur edilar.

Bo'lmasa, ular men gulxan yoqqan zamonoq nega to'plardan o'q uzdilar ekan?

Balki ular gulxanni ko'rib, kemadagi ehtiyot saqlangan qayiqni suvga tushirib, sohilga chiqib olishga harakat qilganlar-u, hayqirib turgan shiddatli dovulda qayiqni eplab yurgiza olmagandirlar, to'liqin bo'lsa ularni boshqa tomonga surib olib ketgan va ular dengizga g'arq bo'lganlar. Ehtimol, ular halokatga yo'liqquncha qayiqsiz qolgandirlar? Dovul vaqtida mana bunday hollar ham bo'ladi: kecha suvga g'arq bo'layotgan mahalda odamlar kema yukini yengillatish uchun qayiqlarni kemadan chiqarib tashlashga majbur bo'ladilar. Ehtimolki, bu kema yolg'iz bo'lmagandir? Balki bundan boshqa yana ikki-uchta kema bo'lgandir, ular bu kemaning signalini eshitib, o'zlarining baxtsizlikka yo'liqqan sheriklari yoniga suzib kelganlar va undagi odamlarni olib ketgandirlar? Ammo bunday bo'lishi juda gumon: men hech qanaqa kemaning nishonasini ko'rmadim.

Shunisi borki, ular qanday halokatga yo'liqqan bo'lmashinlar, men ularga yordam berolmas edim, faqat ularning halok bo'lganiga achinib, yig'lardim, xolos.

Men ularga ham, o'zimga ham qayg'urdim.

O'zimning yakka-g'arib bo'lib qolganligimni shu kuni har qachongidan qattiq his qildim. Kemaning qorasini ko'rishim bilanoq odamlarni juda sog'in-ganligim, ularning qiyofasini ko'rishga, ovozlarini eshitishga, qo'llarini siqib ko'rishishga, ular bilan dardlashib, hamsuhbat bo'lishga juda zor bo'lganligim yana ham ayon bo'ldi! Beixtiyor quyidagi so'zlarni ustma-ust takrorlay berdim: «Oh, hech bo'lmasa, ikki-uch kishi, yo'q, aqalli bir kishi omon qolib, mening yonimga suzib kelsa, koshki edi! U menga o'rtoq, do'st bo'lar va men u bilan qayg'u va shodliklarimni o'rtoqlashgan bo'lur edim».

Yakka-yolg'iz umr kechira boshlaganimdan buyon odamlar bilan birga bo'lmoqni hech mahal bunchalik qattiq ixtiyor qilganim yo'q.

– Aqalli bittasi omon qolsa, koshki edi! Oh, aqalli bittasi-ya! – deb ming karra takrorladim.

Bu soʻzlar yuragimdagi qaygʻu-hasratni shunchalik oʻt oldirib yubordiki va bu soʻzlarni takrorlar ekanman, mushtlarimni shu qadar mahkam siqib, tishlarimni bir-biriga shunchalik qattiq qisibmanki, keyin xiyla vaqt ularni bir-biridan ajratolmay turdim.

### ***Oʻn toʻqqizinchi bob***

## **ROBINZONNING OʻZ OROLIDAN YANA KETMOQCHI BOʻLGANI**

Bu oroldan kelgunimcha ham men halokatga uchragan kemadagi odamlardan birortasi omon qolgan-qolmaganini bilolmadim.

Kema halokatidan bir necha kun keyin kema majaqlangan joyning roʻparasidagi sohilda suvga gʻarq boʻlgan bir matros shogirdining jasadini koʻrdim. Unga ich-ichimdan qaygʻurib termildim. U yuzlari juda muloyim, sofkoʻngil yosh yigit edi! U tirik boʻlganda, ehtimol, men unga mehr qoʻygan boʻlardim va turmushim ham ancha baxtli kechar edi!

Nachora, asliga qaytarib boʻlmaydigan ishga gʻam chekmoq oʻzi oʻrinsizdir. Ancha vaqt sohilda sandiraqlab yurdim, keyin yana jasad yoniga qaytib keldim. Uning egnida kanop gazlamadan tikilgan kalta shim, kanop gazmoldan tikilgan koʻk koʻylak va matroslar kiyadigan paxtalik bor edi. Uning qaysi millatdan ekanini bilib boʻladigan nishonasi yoʻq edi: choʻntagidan ikkita oltin pul va bitta trubkadan boshqa hech narsa chiqmadi.

Boʻron pasaydi, men qayiqni olib, haydab kema yoniga borgim keldi. Kemadan oʻzimga kerakli koʻpgina buyumlar olishimga sira shubham yoʻq edi. Lekin meni buyumlar topishdan boshqa narsa qiziqtirardi:

ehtimol, kemada biror jon egasi omon qolgandir, ehtimol, men uni o'limdan qutqazib olarman, degan fikr meni har narsadan ham ko'proq jalb etdi.

«Men uni qutqaza olsam, hayotim xiyla shod-xurram o'tadigan bo'ladi», – dedim o'z-o'zimga.

Butun qalbmni shu fikr chulg'ab oldi: halok bo'lgan kemaga bormaguncha, kechasi-yu kunduzi oromim bo'lmaydi, deb ko'nglimdan o'tkazdim. O'z-o'zimga bunday dedim:

«Nimaiki bo'lsa bo'lsin, u yerga borishga harakat qilib ko'raman. Vijdon azobida qolishni istamas ekanman, boshimga har nima kelsa ham, dengiz sari bormog'im lozim».

Shu niyatda qo'rg'onimga qaytib kelib, qiyin va xatarli safarga hozirlana boshladim.

Non, bir katta ko'zada suv, bir shisha rom, bir savatcha mayiz va kompas oldim. Bu qimmatbaho narsalarni yelkanga ko'tarib, qayig'im turgan sohilga qarab jo'nadim. Uning ichidagi suvni sepib tashlab, buyumlarni joyladim va boshqa narsalarni olib kelmoq uchun uyga qaytdim. Bu safar bir katta qopda gurunch, yana bir ko'za toza suv, yigirmatacha kichik-kichik arpa noni, bir shisha echki suti, bir bo'lak pishloq hamda soyabon oldim.

Bu yuklarni qayiqqa zo'rg'a keltirib, safarga jo'nadim. Boshlab eshkaklar bilan mumkin bo'lgancha qirg'oqqa yaqin joydan suzib ketdim. Orolning shimoli-sharqiy chegarasiga yetib, chodirni ko'tarish va ochiq dengizga tushish vaqti kelganda, yuragim betlamay, to'xtadim.

«Yuraversammi, yo'qmi?.. Tavakkal qilaymi, yo'qmi?» – deb so'radim o'zimdanda o'zim.

Orolni yoqalab o'tayotgan dengiz girdobiga tikilib, birinchi dafa safarga chiqqanimda qanday dahshatli xatar ichida qolganligimni esladim va asta-sekin shashtdan tusha boshladim. Dengizning ikkala oqimi

shu yerga kelib to'qnashdi, men bulardan qaysi biriga duch kelib qolmay, ochiq dengizning ichkarisiga ilib olib ketishi turgan gap edi.

«Qayig'im juda kichkina, sal shamol tursa bas – darhol uni to'lqinga olib borib uradi, men muqarrar halok bo'laman», – dedim o'z-o'zimga.

Ana shu fikrlar ta'sirida judayam qo'rqib qoldim va o'z tadbirimdan qaytish darajasiga yetdim. Kichkina bir qo'ltiqqa kirib, qayiqni sohil labiga olib borib, undan tushdim va nima qilarimni bilmay, xayolga cho'mib ketdim.

Ko'p o'tmay, dengiz mavj ura boshladi, bildimki, ahvol uncha tang emas: oqimning pasayishi orolning janub tomonidan, oqimning mavj urishi shimol tomonidan kelar ekan, demak, men majaqlangan kemadan qaytib kelayotganda, orolning shimoliy sohiliga yo'l tutsam, ziyon ko'rmay, omon, qolaman.

Demak, qo'rqib turishning hojati yo'q ekan. Men yana g'ayratga kirib, ertalab tong otishi bilan dengizga tushib yo'lni davom ettirmoqchi bo'ldim.

Tun kirdi. Matroslar po'stiniga o'ralib, qayiq ichida uxladim, keyin ertalab turib yo'lga tushdim.

Sharq tomonga qarab borayotgan oqimga tushib qolmaslik uchun boshlab ochiq dengizga, ya'ni, to'ppa-to'g'ri shimol tomonga yo'l tutdim. Meni oqim juda tez surib ketdi va ikki soat o'tar-o'tmas kemaga yetib bordim.

Ko'z oldimda juda vahimali manzara paydo bo'ldi: kema (ispan kemasi bo'lsa kerak) burni bilan ikki tosh orasiga qisilib qolibdi. Kemaning quyrug'i uzilib ketibdi: faqat burun qismi but qolibdi. Bosh machta ham, oldingi tomondagi machta ham tag-tugidan qirqilib ketibdi.

Kema bortiga yetganimda, palubada it ko'rindi. It meni ko'rib, ulib g'ingshiy boshladi, men uni chaqirdim, it sakrab suvga tushib, yonimga suzib keldi. Itni

qayiqqa chiqarib oldim. U ochlikdan va tashnalikdan o'layozgan ekan. Men unga bir burda non tashladim, u qish paytida och qolgan bo'ridek jahd bilan non-ga otildi. Itning nafsi qongach, biroz suv berdim, u shoshib-pishib, suvni tili bilan shapillatib icha ketdi. Qo'yib bersam, yorilib ketguncha suv ichar edi.

Shundan keyin kema ichiga kirdim. Birinchi ko'rgan narsam ikkita jasad bo'ldi; ikki o'lik kapitan kemani idora qiladigan joyda bir-birini mahkam ushlab yotishar edi. Ehtimolki, kema qoyaga kelib urilganda, katta-katta to'liqlar uni har tarafdin ura bergandir, chunki bo'ron juda qattiq edi va bu ikki kishi to'liqin bizni kemadan uloqtirib tashlaydi deb qo'rqib, bir-birlariga mahkam yopishib olgan va shu tariqa halok bo'lishgan. To'liqlar juda baland bo'lib, tez-tez palubadan oshib o'tavergan: kema esa doim suvga ko'milib turgan va to'liqin urib suvga olib tushib ketmagan odamlar kayuta va kubrik ichida og'zi-burniga suv kirib o'lib ketgan.

Kemada itdan boshqa tirik jon qolmabdi.

Aftidan, buyumlarning ham ko'p qismini to'liqin dengizga oqizib ketibdi, ba'zi qolgan-qutganlari esa ivib qolibdi. To'g'ri, pastki qavatdagi omborda, allaqanday bochkalarda vinomi yoki araq bor edi, nima ekanini bilolmadim, bochkalar juda katta bo'lganidan ularni qimirlatib ham ko'rmadim.

Bir necha sandiq ham bor edi, bular matroslarniki bo'lsa kerak; ikkita sandiqni ochib-netib turmas-danoq, dangal ko'tarib qayiqqa joyladim. Agar kemaning burun tomoni o'rniga uning quyruq qismi but qolgan bo'lsa edi, ko'p qimmatli narsalar topib olgan bo'lur edim, mana shu ikki sandiq ichidan ham ancha-muncha qimmatbaho buyumlar chiqdi. Aftidan, kemada qimmatli buyumlar ko'p bo'lganga o'xshaydi.

Kemadan sandiqdan bo'lak yana bir bochka spirtga o'xshash ichimlik topib oldim. Bochka yigirma gallon-



cha kelar edi, shunga qaramasdan, uni zo'rg'a qayiqqa ko'tarib keldim. Kayutadan bir nechta miltiq va dori soladigan katta bir idish topib oldim, bunda to'rt qadoqcha miltiq dorisi bor edi. Miltiqlarga tegmadim, chunki ularning keragi yo'q edi, ammo miltiq dorisini oldim. Ko'mir uchun kurakcha bilan otashkurakni oldim, bu buyumlar menga juda zarur edi. Men qozon bilan misdan qilingan kofe qutisini ham oldim.

Bu yuklarning hammasini qayiqqa ortib va itni olib kemadan jo'nab ketdim, chunki bu chog' dengizda suv qirg'oqqa qarab yurib qolgan edi. Judayam charchab, tinkam qurib, shu kuni kechasi soat birlarda orolga yetib keldim.

Topgan g'animatlarimni yerto'laga emas, yana g'or-ga tashib keltirmoqchi bo'ldim, chunki g'or bu yerga ancha yaqin edi. Kechasi yana qayiqda tunadim, ertalab turib, ovqatlanib bo'lib, keltirilgan buyumlarni sohilga tushirdim, keyin ularni bir boshdan tekshirib chiqdim. Bochkadagi narsa rom ekan, lekin e'tirof qilishim kerakki, bu rom ancha yomon, biz Braziliyada ichgan romlarga qaraganda past ekan; sandiqlarni ochuvdim – ko'p foydali va qimmatli buyumlar chiqdi.

Sandiqlarning biridan, masalan, juda bejirim va chiroyli quti chiqdi, bu quti ichida qo'rg'oshin bilan mahkamlangan ko'pgina shisha bor ekan; bu shishalarning har birida kamida uch pint<sup>12</sup> keladigan xushbo'y likyor bor edi. Yana to'rtta qutichada juda soz qiyom topdim; afsuski, bulardan ikkitasini ichiga dengizning sho'r suvi kirib aynib qolibdi, lekin ikkitasining og'zi juda mahkam qilib berkitilgan ekan, bir tomchi ham suv kirmabdi. Shu sandiqdan yana bir necha ohorli ko'ylak topdim, bu narsa meni juda xursand qildi: so'ngra, o'n sakkizta guldor bo'yin ro'moli va yana shuncha surpdan qilingan dastro'mol

---

<sup>12</sup> Pint – Angliya va Amerika Qo'shma Shtatlarida suyuqlik o'lchovi, yarim litrga baravardir.

topdim, bular meni ko'p xursand qildi, chunki issiq kunlarda yuzdagi terni yupqa surp ro'molcha bilan artish juda yoqimlidir.

Sandiqning tagidan uch xaltacha pul va chamamda bir qadoqqa yaqin bir necha bo'lak oltin topib oldim.

Ikkinchi sandiqda arzon matodan tikilgan va ancha eskirib qolgan paxtalik shim va kamzullar bor ekan.

E'tirof qilmog'im kerakki, men bu kemaga suzib borayotganimda ancha-muncha foydali va qimmatli buyumlar topib olarman deb o'ylagan edim. To'g'ri, men ancha katta pul egasi bo'lib qoldim, ammo pul menga keragi yo'q axlat-ku! Men ko'p yillardan buyon oyog'imga poyafzal va paypoq kiyganim yo'q, hozir bu pullarning hammasini uch-to'rt juft eng oddiy poyafzal bilan paypoqqa jon deb ayirbosh qilgan bo'lar edim.

Bu buyumlarni ishonchli joyga qo'yib, yana qayiqqa o'tirdim va sohilni yoqalab, kelgan yo'limga qarab jo'nab ketdim. Uyga qaytib kelganimda kechasi bo'lib qolgan edi. Uyda hamma narsa o'z o'rnida, tinch, saranjom va jimjit edi. To'ti meni shirin so'zlar aytib tabrik qildi, uloqlar suyunishib yonimga yugurib kelishdiki, men ularning boshini silab, yangi boshq berishga majbur bo'ldim.

Shu vaqtlardan buyon mening avvalgi qo'rqishlarim yodimdan ko'tarilgandek bo'ldi, yana eskicha, betashvish, ekin ekib, mollarni parvarish qilib yashay boshladim, men bularga avvalgidan ham ko'proq mehr qo'yib qoldim.

Hech kamlik ko'rmay keng-mo'lichilik bilan yana ikki yilcha umr o'tkazdim. Lekin shu ikki yil ichida bu oroldan qanday qilib qutulib ketmoq yo'lini o'yladim, xolos. Menga ozodlik va'da qilgan o'sha kemani ko'rganimdan buyon, tanho va g'aribligim yana ham

jonimga tegdi. Kecha-yu kunduz fikru yodim bu avaxtadan qochib qutulmoq bilan band bo'ldi. Hech bo'lmaganda, ixtiyorimda qora arab eshigidan qochib qutulganimdek katta bir qayiq bo'lganda ham, dengizga tushardim-da, shamol qayoqqa olib ketsa ham, boshim oqqan tomonga ketaverar edim.

Nihoyat, orolimga keladigan biror vahshiyini ushlab olganimgagina bu yerdan qutulib ketmog'im mumkin degan fikrga keldim. Eng yaxshisi, odamxo'r yirtqichlar bu yerga pora-pora qilib yemoq uchun olib keladigan bechora tutqunlardan birini qo'limga tushirsam, koshki. Men uni o'limdan qutqazaman, u meni bu yerdan qutulib ketmoqqa yordam qiladi. Ammo bu reja juda xatarli va qiyin: chunki o'zimga kerakli bir vahshiyini qo'lga tushirmoq uchun bir guruh odamxo'rlarga hujum qilishim va ularning hammasini qirib tashlashim lozim bo'ladi, ammo bu ishni bajara olmog'im gumondir. Bundan tashqari, bu fikrni o'ylar ekanman, o'zimning qutulib ketmog'im uchun bir talay odamning qonini to'kmog'im kerakligini o'ylarkanman, dilim titrab ketdi.

Menda bir-biriga zid fikrlar kurashi ancha vaqtgacha davom qildi, ammo ozodlikni juda-juda qo'msash hamma mulohaza va vijdon dalillaridan ustun keldi. Vahshiylar orolimga kelishi bilanoq harna qilib bo'lsa ham, albatta, ulardan birini qo'lga tushirish payiga tushdim.

### ***Yigirmanchi bob***

## **ROBINZONNING BIR VAHSHIYNI QUTQAZIB, OTINI JUMABOY QO'YGANI**

Yana bir yarim yil o'tdi. Bir kuni ertalab sohil labida besh-oltita qayiqni ko'rib, hang-mang bo'lib qoldim. Odamlar ko'rinmas edi, vahshiylar sohilga chiqib, qayoqqadir g'oyib bo'lgan.

E'tirof qilamanki, har bir qayiqqa oltita va undan ham ko'proq kishi o'tirishini bilib, ancha dovdirab qoldim. Bunchalik ko'p dushman bilan jang qilardim, deb sira o'ylamagandim.

«Bular yigirmata keladi, ehtimol o'ttiztacha ham kelsa. Yolg'iz boshimga buncha ko'p dushmanni yengmoq qayda?» – dedim o'ksinib o'z-o'zimga.

Taraddudga tushib, yuragim dov bermay, nima qilardimni bilmay qoldim, lekin shunga qaramay, qo'rg'on ichida o'tirib jangga tayyorlana boshladim.

Hammayoq jimjit. O'sha tomonda vahshiylarning qiyqirig'i va o'yin-kulgisi eshitilmasmikan, deb ancha vaqt quloq solib turdim. Oxiri, kutaverib zerkidim. Miltiqlardimni narvon tagida qoldirib, o'zim tepa ustiga chiqdim.

Bosh chiqarish xatarli edi. Tepa orqasiga yashirinib turib, durbin bilan kuzata boshladim. Vahshiylar qayiqdagi yoniga qaytib kelgan edilar. Ular kamida o'ttiz kishi edi. Ular sohil bo'yida gulxan yoqib, aftidan, olovda allaqanday ovqat pishirmoqda edilar. Ular nima pishirayotganlarini aniq bilolmadim, ammo vahshiylar, odatda, doira tortib o'yin tushganidek, ularning gulxan atrofida shiddat bilan sakrashib, o'yin qilayotganlarini ko'ra oldim, xolos.

Durbin bilan qarab turib, qayiq yoniga chopishib kelganlarini, qayiqdan ikki kishini sudrab chiqib, ularni gulxan yoniga keltirganlarini ko'rdim. Aftidan, bu sho'rliklar o'ldirilishga tayinlab qo'yilgan edilar. Bu fursatgacha ular qo'l-oyoqlari bog'lanib qayiqda yotgan bo'lsalar kerak. Ulardan birini darrov urib yiqitdilar, aftidan, uning boshiga katta to'qmoq bilan yoki vahshiylar quroli bo'lgan qilich bilan tushirgan edilar; keyin shu ondayoq ikki-uch kishi tashlanib, ishga tutindi: uning qornini yorib, ichak-chovog'ini tozalay boshlashdi.

Ikkinchi asir sherigi boshiga tushgandek qismatni kutib, ulardan sal nariroqda turar edi.

Zolimlar birinchi qurbon bilan ovora bo'lib ketib, ikkinchisini unutilib qo'ydilar. Bu tutqin o'zini ozod deb sezdi va aftidan, unda qochib qutulmoq umidi tug'ildi: u birdan olg'a intilib, jon-jahdi bilan qocha boshladi. U to'g'ri qumloq sohil bo'ylab mening uyimga qarab qochdi.

Rostini aytsam, to'ppa-to'g'ri menga qarab kelayotganini ko'rib, qattiq qo'rqdim. Qo'rqmay bo'ladimi: birinchi daqiqada, nazarimda, go'yo uni butun olomon quvib kelayotganday bo'ldi.

Shunga qaramay, men postimda turdim va shu orada uning orqasidan ikki-uch kishigina quvib kelayotganini ko'rib qoldim, boshqalari esa biroz yugurishib, keyinda qolishdi, so'ngra orqasiga burilib, gulxan yoniga qaytishdi. Ko'nglim ancha tinchidi. Lekin qochqin o'z dushmanlarini juda orqada qoldirib ketganini ko'rib, tamom xotirjam bo'ldim: agar u yana yarim soat shu taxlitda yugursa, vahshiylarning uni sira tutib ololmasliklari aniq edi.

Quvishib kelayotganlar bilan mening qo'rg'onim oralig'ida bir tor qo'ltiq bor edi, bu qo'ltiq kema-mizdagi buyumlarni olib o'tgan vaqtimda solni kiritib, qirg'og'iga bog'lab qo'ygan o'sha qo'ltiq edi.

«Qo'ltiqqa yetib kelgach, bu bechora nima qiladi? U qo'ltiqdan suzib o'tmog'i kerak, bo'lmasa uni tutib oladilar», – deb o'yladim.

Men uning uchun bekor tashvish tortgan ekanman: u o'ylab-netib turmasdan, o'zini suvga tashladi, qo'ltiqdan suzib bu sohilga o'tdi va darhol yana yugurib ketdi.

Uning orqasidan quvib kelayotgan uch kishidan ikkisi o'zini suvga tashladi, uchinchisi esa botinolmadi, u narigi sohilda to'xtadi, sheriklari ketidan tikilib turib, sekin-sekin yurib ketdi.

Qochqin orqasidan quvib kelayotgan vahshiylarning qochqinga qaraganda ikki baravar sekin suzayotganini ko'rib juda xursand bo'ldim.

Endi harakat qilmoq payti kelganini tushundim. Yuraklarim junbushga keldi.

«Yo maqsadim hozir amalga oshadi, yo bo'lmasa, hech qachon amalga oshmaydi, – dedim o'z-o'zimga va olg'a yugurdim. – Bu bechorani har nima qilib bo'lsa ham qutqazmog'im kerak, qutqazmog'im!».

Fursatni boy bermay, darhol narvondan tepa tagiga tez tushdim va pastdagi miltiqlarni ko'tarib, yana tez ustiga chiqdim, keyin tepaning u tomoniga tushdim va vahshiylarni to'xtatmoq uchun muyulishdan kesib, to'ppa-to'g'ri dengiz tomonga yugurdim.

Eng qisqa yo'l bilan tepa bag'ridan pastlikka qarab yugurganimdan, tez orada qochib kelayotgan bilan uni quvib kelayotganlar o'rtasida paydo bo'ldim. Qochqin hech orqasiga qaramasdan qochmoqda edi, u meni ko'rmay qoldi.

Men:

– To'xta! – deb qichqirdim.

U qayrilib qarab, avvalda o'z dushmanlariga qaraganda mendan qattiqroq qo'rqdi. Menga yaqinroq kel, deb imo-ishora qildim-u o'zim uni quvib kelayotgan ikki vahshiyga qarab sekin qadam tashlab bora berdim. Oldinda yugurib kelayotgan vahshiy yonimga kelay deganda miltiq qo'ndog'i bilan bir urib uni yiqitdim. U yoqda qolgan vahshiylar eshitib, to'polon ko'tarmasin deb, qo'rqib miltiq otmadim, ammo otganimda ham hech narsa bo'lmas edi, chunki ular juda olisda qolib ketgan bo'lib, miltiq ovozi eshishlarida ham buning nima ekanini bilolmas edilar.

Quvib kelayotganlarning biri yiqilgach, ikkinchisi qo'rqib to'xtab qoldi. Men bamaylixotir unga yaqin bora berdim. Yaqinroq borib, uning qo'lida kamon va o'q borligini, u meni nishonga olayotganini ko'rib

qoldim, shunda miltiq otishga majbur bo'ldim. Nishonga olib turib, tepkini bosdim, u turgan joyida yerga ag'darilib tushdi.

Qochgan sho'rlikning ikkala dushmanini o'ldirgan bo'lsam ham (har holda u shunday deb bilmog'i lozim edi), miltiq o'tidan va uning gumbirlagan ovozidan shunchalik qo'rqib ketgan ediki, hatto qadam bosgani holi qolmagan edi; u xuddi mixlab qo'yganday bir joyda hang-u mang bo'lib turardi, qochishni ham, yonimga kelishni ham bilmasdi, madori kelsa, ehtimol, qochgan ham bo'lardi.

Unga yana qichqirib va ishoralar qilib, yaqin kel, dedim.

U tushundi: ikki qadam bosib yana to'xtadi, keyin yana bir necha qadam bosdi va yana suratdek qotib to'xtab qoldi.

Ko'rsam, uning a'zoyi badani qaltiramoqda, aftidan, sho'rlik mening qo'limga tushsa, haligi vahshiylar singari darhol o'ldiradi, deb qo'rqayotgan bo'lsa kerak. Men: «Yaqinroq kell!» – deb unga imo-ishora qildim va unga dalda berib ko'nglini ko'tarishga harakat qildim.

U menga yaqin kela boshladi. O'n-o'n ikki qadam bosib, hadeb tizzalab mukka tushaverdi. Aftidan, uning jonini saqlab qolganim uchun menga minnatdorlik bildirmoqda.

G'orda unga non, bir bosh mayiz va biroz suv berdim. U yugurib toliqqan, juda-juda och va tashna edi.

U ovqatlanib darmonga kelgach, men g'orning burchagida bir bog' sholi poxoli turgan joyni ko'rsatib, imo-ishora bilan kechasi shu yerda yotmog'ing mumkin, deb tushuntirdim.

Bechora yotdi-yu, darhol uyquga ketdi.

Men fursatdan foydalanib, uning qiyofasiga yaxshilab tikildim.

U xushbichim, baland bo'yli, chiroyli yigit edi; uning qo'llari va oyoqlari baquvvat edi; rang-ro'yiga

qarab yigirma besh-yigirma olti yoshlar berish mumkin edi. Yuzida hech qanday badqovoqlik va shafqatsizlik alomatlarini ko'rmadim, uning qiyofasi ovrupolikning botirona, shu bilan birga muloyim va yoqimli kishisi yuziga o'xshardi, ko'proq, ayniqsa kulgan vaqtda, uning yuzida beozorlik namoyon bo'lar edi. Uning sochlari qora va uzun; ular qo'y yungiga o'xshash jingalak emas, balki tutam-tutam bo'lib yuziga tushib turardi. Peshanasi keng, ochiq, tani qora emas, to'q jigarrang, Braziliyadagi mahalliy aholining taniga o'xshash sarg'ish-qora emas, xuddi zaytun daraxtining rangiga o'xshash juda yoqimli. Yuzlari yumaloq, betlari to'la, burni kichkina, lekin negrlar burni singari yuziga qo'shib ketgan yassi emas edi. Og'zi chiroyli, lablari yupqa, nozik, tishlari esa bir tekis, xuddi fil suyagiday oppoq edi.

U yarim soatcha uxladi, to'g'risi uxlamadi, balki mijja qoqdi, xolos, keyin darrov o'rnidan turib, g'ordan mening oldimga chiqdi.

Men yaylovdagi echkilarni sog'ib turgan edim. Meni ko'rishi bilan yonimga yugurib kelib, yana oyoqlarim tagiga o'zini tashlab, turli-tuman imo-ishoralar bilan menga tashakkur va sadoqatini izhor qila boshladi.

U yuzlarini yerga tirab, yana boshi ustiga oyog'imni qo'ydi va boringki, o'zining rasm-odatiga muvofiq, menga sadoqatli qul ekanini isbot qilishga va shu kundan boshlab to umrining oxirigacha mening xizmatimda bo'lajagini tushuntirmoqchi bo'ldi.

Uning aytmoqchi bo'lgan gaplaridan ko'p narsa tushundim va sendan juda mamnunman, degan fikrni unga uqtirishga harakat qildim.

Shu kundan uni inglizcha so'zlashga o'rgata boshladim. Avvalo, unga Juma deb ot qo'ymoqchi bo'lganimni bildirdim (uning jonini saqlab qolgan kunimning xotirasi uchun unga Juma deb ot qo'ydim). So'ngra, unga o'z otimni aytishni, shuning-



dek, «ha» va «yo'q» deb gapirishni o'rgatdim hamda bu so'zlarning ma'nosini tushuntirdim.

Unga sopol xurmachada sut keltirib berdim, keyin sutga non botirishni ko'rsatdim. U bularni darrov o'rganib oldi va men bergan ovqatlar unga juda ma'qul tushganini imo-ishoralar bilan ko'rsata boshladi.

Biz shu kuni g'orda tunadik, lekin tong otishi bilan Jumaga orqamdan yurishni buyurdim va uni qo'rg'onimga boshlab keldim. Unga ba'zi bir kiyimlar bermoqchi ekanimni tushuntirdim. Aftidan, u juda xursand bo'ldi, chunki u qip-yalang'och edi.

Biz kecha o'ldirilgan ikki vahshiy ko'milgan joydan o'tgan vaqtimizda, u menga ularning qabrini ko'rsatib, ikkala jasadni ham go'rdan olib, darhol yemog'imiz kerak degan fikrni tushuntirmoq uchun ko'p urindi.

Juda jahli chiqqan odamdek rang-ro'yimni o'zgartirib, bu haqdagi so'zlarni aqalli eshitgim ham kelmaydi, bu fikr esimga kelsa, ko'nglim ayniydi, agar o'liklarga tegadigan bo'lsang, yomon ko'raman va senga nafrat bilan qarayman, degan ma'noni anglatdim. Oxiri, qo'limni siltab, qabr yonidan nari ket, deb buyurdim; u itoat qilib, darhol qabr yonidan nari ketdi.

Shundan so'ng biz ikkimiz tepa ustiga chiqdik, chunki men vahshiylarning hali ham shu yerda turganmi-yo'qmi ekanini bilmoqchi edim.

Durbinni olib, vahshiylar turgan kechagi joyga tikildim. Ulardan nom-nishon yo'q: sohilda bitta ham qayiq ko'rinmadi. Ular hatto orolda qolib ketgan ikki o'rtoqlarini qidirib ham turmay, jo'nab ketganliklari shubhasiz edi.

Ularning bu yerdan ketganliklaridan xursand edim, albatta, ammo bu beor mehmonlarim haqida aniq ma'lumot olmoqchi bo'ldim. Axir men yolg'iz emasman, yonimda Jumaboy bor, shu sababdan

men ancha dadil bo'lib qoldim, bu dadillik orqasida qiziqish ham paydo bo'ldi.

O'ldirilgan vahshiylardan biri yonida kamon, sadoq va o'qi qolgan edi. Jumaboyga bu qurolni borib olishga ruxsat qildim, u shundan buyoq qurolni kecha-yu kunduz yonidan qo'ymaydi. Tez orada ishondimki, mening vahshiy do'stim kamon bilan otishga juda usta ekan. Bundan tashqari, qilichimni uning yoniga osib, boshqa ikki miltiqni qo'lga oldim, ikkimiz yo'lga tushdik.

Biz kecha odamxo'r vahshiylar bazm qurgan joyga yetib kelganimizda, ko'z oldimizda shunday bir dahshatli manzara paydo bo'ldiki, buni ko'rgach yuragim orqamga tortib ketdi, tomirlarimda qon to'xtab qoldi. Ammo Jumaboy hech seskanmay barmaylixotir tura berdi: bu manzara uning nazdida vahshiyona emas edi.

Ko'p joy qonga belangan edi. Yerda cho'g'da pishgan odam go'shtining parchalari yotibdi. Butun sohil odam suyaklariga to'lib: uchta bosh suyak, beshta qo'l, uch-to'rtta oyoq suyagi va boshqa ko'p suyaklar sochilgan.

Jumaboy imo-ishoralar bilan, vahshiylar bu yerga to'rtta asir olib kelgan edilar: uchtasini yedilar, to'rtinchisi men edim, dedi. (Oxirgi so'zlarni u barmoqlari bilan ko'kragiga urib aytdi.)

Albatta, uning aytgan so'zlaridan ba'zilarini tushundim. Uning so'zlariga ko'ra, bundan bir necha kun burun Jumaboy mansub bo'lgan urug' bilan boshqa bir vahshiylar podshosi qo'l ostidagi qabila o'rtasida juda katta jang bo'libdi. Vahshiylar yengib, juda ko'p odamni asir olibdilar. G'oliblar asirlarni o'zaro bo'lishib olib, o'ldirib yemoq uchun har tomonga olib ketishibdi, mening orolim sohillaridan biriga kelib, bazm qurib, aysh-ishrat qilgan vahshiylar ham o'sha guruhlardan biri ekan.

Men Jumaboyga katta gulxan yoqishni va hamma suyaklarni va go'sht parchalarini yig'ishtirib, shu gulxanga tashlab kuydirib yuborishni buyurdim.

Bildimki, Jumaboy odam go'shtidan juda yegisi kelyapti (bu hol ajablanarli emas: chunki u ham odamxo'r edi). Lekin men ham turli imo-ishoralar vositasi bilan menimcha, bu haqda o'ylashning o'zi ham eng jirkanch bir narsa ekanini ko'rsatdim va shu ondayoq, mening amrimni buzishga sal harakat qilsang ham, itday rasvo qilib o'ldiraman, deb uni qo'rqitdim.

Shundan keyin biz qo'rg'onga qaytib keldik, men darhol Jumaboyni kiyintirishga tutindim.

Avvalo, unga shim kiydirdim. Halokatga yo'liqqan kemadan olib kelgan sandiqlarimning birida kanop gazmoldan tikilgan bir shim topildi; uni sal tuzatdim. So'ngra, Jumaboyga echki terisidan kamzul tikdim, bu kamzulning yaxshi chiqishi uchun boryo'q hunarimni ishlatdim (bu vaqtlarda men ancha usta tikuvchi bo'lib olgan edim) va quyon terisidan bejirimgina, ancha chiroyli qilib shapka tikib berdim.

Shunday qilib, dastlab u boshdan oyoq kiyindi va uning kiyimlari menikidan xunuk bo'lmagani uchun, bilishimcha, u juda xursand bo'ldi.

To'g'ri, kiyim kiyishga odatlanmaganidan ancha o'ng'aysizlanib yurdi, chunki u umr bo'yi yalang'och yurgan edi, shim, ayniqsa, qo'pollik qildi. U kamzulidan ham shikoyat qildi: yengi qo'ltig'imni qisyapti va yelkamga ishqalanyapti, dedi.

Kamzulini oz-moz tuzatib berishga to'g'ri keldi, lekin u bora-bora kiyim kiyib yurishga o'rganib ketdi.

Ertasiga uni qayerga joylashtirsam ekan, deb o'ylay boshladim.

Uni durustroq joyga yotqizishni istar edim, lekin hali unga yaxshi ishonmaganimdan, o'z yonimdan joy qilib berishga qo'rqdim. Uyim bilan qo'rg'on o'rtasida

bo'lgan ikki devor orasidagi ochiq joyga unga atab kapa tikdim, shunday qilib, u mening uyim oldidan olingan devor orqasidagi hovlida qoldi.

Rostini aytsam, bu ehtiyotkorlik butunlay noo'rin bo'lib chiqdi. Ko'p o'tmay, Jumaboy meni judayam yaxshi ko'rishini amalda isbot qildi. Uni eng yaqin do'stim deb bilmasdan boshqa ilojim qolmadi, hadiksiramay qo'ya qoldim.

Hech bir kishi bunday mehribon, bunday sadoqatli va ixlosmand do'stni topgan emas. U mendan hech achchig'lanmas va mug'ambirlik qilmas edi: hamma vaqt astoydil xizmat qilar va muloyim, mo'min edi, u menga xuddi o'z otasidek mehr qo'yib qoldi. Aminmanki, agar lozim bo'lib qolsa, u meni deb jonini ham ayamaydi.

Men, oxiri kelib, o'zimga o'rtoq topganim uchun juda baxtiyor edim va turmushda asqotadigan hamma narsani unga o'rgatmoqqa, avvalo, bir-birimizning fikrimizni tushunish uchun uni o'z vatanim tilida gapirishga o'rgatmoqqa ahd qildim. Jumaboy tengi yo'q zehqli shogird bo'lib chiqdi.

Uning eng qimmatli xususiyati shu bo'ldi: u juda qunt bilan, e'tiqod qo'yib o'qidi va gaplarimga astoydil quloq soldi, undan nima talab qilayotganimni tushunganida, o'zimni behad baxtiyor his qildim, unga dars berish va u bilan suhbatlashish men uchun ko'ngilxushlik bo'ldi.

Jumaboy men bilan birga bo'lgandan buyon turmushim shu qadar huzur-halovatli va yengil bo'lib ketdiki, agar boshqa vahshiyatlardan o'zimni xavf-xatarsiz bilganimda, to'g'risi, umrimni oxirigacha shu orolda qolib ketishga rozi bo'lgan bo'lar edim.

## ***Yigirma birinchi bob***

### **ROBINZONNING JUMABOY BILAN SUHBAT QILIB, UNGA NASIHAT BERGANI**

Jumaboy qo'rg'onimga kelganiga ikki-uch kun bo'lganda, xayolimga, agar odam go'shtini yemasin desam, uni hayvon go'shti yemoqqa o'rgatishim kerak, degan fikr keldi.

«U echki go'shtini tatib ko'rsin», – dedim o'z-o'zimga, keyin uni ovga birga olib bormoqchi bo'ldim.

Biz erta azonda o'rmonga kirib ketdik, uydan ikki-uch milcha yuruvdik, ikki bolasi bilan daraxt tagida turgan yovvoyi echkini ko'rib qoldik.

Jumaboyning qo'lidan tutib, qimirlamay tur, deb imo qildim. Keyin uzoqdan nishonga olib turib, bir uloqni yiqitdim.

Bechora vahshiy, tirik jonivorni yaqin bormay turib qanday o'ldirish mumkinligiga aqli yetmay (garchi dushmanini otib o'ldirganimni ko'rgan bo'lsa ham), tamom dovdirab qoldi. U qaltirab-titrab, gandaraklab ketdi va men: u hozir yiqiladi, deb o'yladim.

U men otib o'ldirgan uloqni ko'rmay qoldi va xuddi men uni, Jumaboyni o'ldirmoqchi bo'lganimdek, biror joyimdan qon chiqmayaptimikin, deb badanlarini ushlab ko'ra boshladi. Keyin yarador bo'lmadimmikin deb, hatto kamzulinging etagini ko'tarib ko'rdi va o'ziga hech zarar yetmaganiga, omon qolganiga ishonch hosil qilgach, tiz cho'kib, oyoqlarimni quchoqlab oldi va o'z tilida uzoq gapirib, nimanidir menga bayon qila boshladi.

Uning gapini tushunib bo'lmadi, lekin mendan o'zini o'ldirmaslikni iltimos qilayotganini darhol payqadim.

Unga yomonlik qilish niyatim yo'qligini anglatmoq uchun qo'lidan ushlab, kulimsiradim va o'ldirilgan uloqni ko'rsatib, borib olib kel, deb buyurdim.

Jumaboy buyrug‘imni o‘rniga yetkazdi. U uloq bilan ovora bo‘lib, uloqning nega o‘lib yotganini bilmoq uchun unga tikilib turgan mahalda men miltiqni yana o‘qlab oldim.

Shu orada miltiq o‘qi yetadigan masofadagi bir daraxtda bizdagi qarchig‘ayga o‘xshash katta bir qush qo‘nib turganini ko‘rib qoldim. Jumaboyga miltiqdan otishning nima ekanini tushuntirmoq niyatida, uni yonimga chaqirdim, avval unga qushni ko‘rsatdim, keyin miltiqni, so‘ngra qush qo‘nib turgan daraxtning tagini ko‘rsatdim va go‘yo: «Mana, qarab tur, hozir bir ish qilaman, ko‘rsan – o‘sha qush yiqilib tushadi», – degan gapni tushuntirib, miltiqni otdim. Qush yiqilib tushdi, ma‘lum bo‘ldiki, u qarchig‘ay emas, katta bir to‘ti ekan. Shuncha tushuntirishlarimga qaramay, Jumaboy bu safar ham qo‘rqqanidan qotib qoldi.

Miltiq otganimda, ayniqsa, uni hayratda qoldirgan narsa nima ekanini men endi tushundim, miltiqni qanday o‘qlaganimni u hozirgacha ko‘rgani yo‘q va shu sababdan u, bu temir kaltak ichida o‘lim keltiruvchi sehrli bir quvvat bor, har qanday uzoqdagi odamga ham, hayvonga, qushga, umuman, tirik jonivorga, uzoqdami-yaqin joydami – baribir, qayerda turgan bo‘lsa ham, o‘lim keltiradigan narsa shu quvvat, deb o‘ylagan bo‘lsa kerak.

Har safar uzgan o‘qimdan u juda dovdirab hayron qolar edi, shu yo‘sinda u ancha vaqtgacha es-hushini yig‘ib ololmadi. Bilishimcha, ijozat bersam, u menga va miltig‘imga go‘yo xudo deb topinib, ta‘zim qilgan bo‘lur edi.

U dastlabki vaqtlarda miltiqqa qo‘l tegizishga ham botinolmadi, ammo meni eshitmadi deb o‘ylab, miltiq bilan go‘yo jonivor bilan gaplashgandek gaplashar va miltiq ham javob qaytarayotir deb bilar edi. Keyinchalik, rahm-shafqat so‘rab miltiqqa yolborganini bo‘yniga oldi.

Jumaboy es-hushini sal yig'ib olgach, unga: o'ldirilgan qushni olib kel, deb buyurdim. U shu ondayoq chopib ketdi, ammo tez qaytib kelmadi, chunki qushni axtarib topguncha ancha vaqt o'tdi: ma'lum bo'lishicha, o'qimdan qush o'lmay, faqat yarador bo'lipti va u ancha uzoqqa ketib qolibdi. Jumaboy oxiri qushni topib, menga olib keldi; uning yo'qligidan foydalanib, miltiqni yana o'qlab oldim. Vaqti-soati kelguncha miltiqning qanday o'qlanishi va otilishini unga bildirmay turganim yaxshiroq deb o'yladim.

Men yana biror parrandani uchratamiz deb umid qilgan edim, lekin hech narsa yo'liqmadi. Biz uyga qaytib keldik.

Shu kuni kechqurun o'ldirilgan uloqning terisini shildim, ehtiyot bilan uning ichak-chavog'ini olib tashladim; keyin o't yoqib, uloq go'shtidan bir parcha kesib, sopol kuvachada sho'rva qaynatdim. Juda mazali go'shtli sho'rva bo'ldi. Sho'rvadan o'zim totib ko'rib, Jumaboyga ham taklif qildim. Pishirilgan ovqat unga juda ma'qul tushdi, u faqat sho'rvaga tuz solganimga hayron bo'ldi, xolos, U imo-ishoralar bilan, tuz – ko'ngil aynitadigan va bemaza narsa, deb ko'rsata boshladi. U bir chimdim tuzni og'ziga solib, tupurib tashladi va go'yo quskisi kelayotgandek aftini bujmaytirdi, keyin og'zini suv bilan chayib tashladi.

Unga e'tiroz bildirmoq uchun men ham bir bo'lak tuzsiz go'shtni og'zimga olib tupurib tashladim, tuzsiz ovqat yesam, ko'nglim ayniydi, deb ko'rsatdim.

Jumaboy o'jarlik qilib, o'z fikrida turib oldi. Shunday qilib, men uni tuzli ovqatga o'rgata olmadim. Ko'p vaqt o'tgandan keyingina, u ovqatga tuz solib yedi.

Vahshiy do'stimni uloq go'shti va sho'rvasi bilan to'yg'azib, ertasi kuni uni shu uloq go'shtidan kabob qilib, mehmon qilmoqchi bo'ldim, go'shtni o't yoqib, cho'g'da pishirdim, bu xil kabob bizning Angliyada kamdan kam qilinadi. Gulxanning ikki tomoniga

tayoqchalar tiqib, ustiga ham ko'ndalangiga tayoqchalar teriladi va shu tayoqchalarga go'shtni ilib qo'yib, to pishguncha aylantirib turiladi.

Bu ishlar Jumaboyga juda ma'qul bo'ldi. U kabobdan tatib ko'rgach, quvonchi ichiga sig'may ketdi. Bu ovqat o'ziga juda ham yoqqanini quvonchli harakatlari bilan menga tushuntirmoqchi bo'ldi, bundan buyon hech qachon odam go'shtini yemayman, deb so'z berdi. Men bu gapni eshitib, nihoyatda xursand bo'ldim.

Ertasiga uni ishga soldim: oldin o'zim ko'rsatib berib, uni g'alla yanchish va sovurishga buyurdim. U buni darrov tushundi va g'ayrat bilan ishlay boshladi. Xususan, buning nima uchun qilinayotganini bilgach, yana ham chaqqon va puxta ishladi. Don nega kerakligini u shu kuniyoq bilib oldi, chunki uni o'z unimizdan pishirilgan non bilan to'yg'azgan edim.

Ko'p o'tmay, Jumaboy ishda mendan qolishmaydigan bo'lib qoldi.

Endi ikki kishini boqishim kerak bo'lganidan, kelajak to'g'risida o'ylamoq lozim bo'lib qoldi. Avvalo, ekin maydonini kengaytirib, ko'proq don sepmoq zarur edi. Kattaroq bir bo'lak yerni tanlab, atrofiga g'ov qura boshladim. Jumaboy ishda nihoyatda halollik, juda zo'r ishtiyoq va xursandlik bilan menga yordam qildi. Unga: bu joy don ekmoq uchun yangi yer bo'ladi, chunki biz endi ikki kishimiz, yolg'iz men uchun emas, sen uchun ham don g'amlab olishimiz kerak, deb tushuntirdim. Uning g'amini yeb tashvish tortayotganligim unga juda ta'sir qildi: Jumaboy endi menga ko'p ish ortganini imo-ishoralar vositasi bilan tushuntirishga urindi va meni kerakli ishlarning hammasiga tezroq o'rgating, ularni bor kuchimni sarf qilib bajarishga harakat qilaman, deb mendan iltimos qildi.

Bu yil orolda umr kechira boshlaganimdan buyon eng xursandlik bilan o'tgan yil bo'ldi.



Jumaboy inglizcha gapirishni ancha yaxshi o'rganib oldi: u qariyb hamma kerakli narsalarning otini va men uni yuborishim mumkin bo'lgan joylarning nomini bilib oldi, shu sababdan u hamma topshiriqlarimni bekam-ko'st bajarar edi.

U juda dilkash bo'lib, gaplashishni yaxshi ko'rar edi, endi men shuncha yillardan buyon noiloj jim yurganligimning hissasini chiqarib olmog'im mumkin.

Jumaboy menga juda yoqib qoldi, buning sababi u bilan gaplashib yurmoq imkoni tug'ilganidangina emas. Uning halolligi, oqko'ngil va samimiyligini kun sayin hurmat qila boshladim. Asta-sekin unga astoydil ko'ngil qo'yib, suya boshladim. U ham meni shunday yaxshi ko'rib qoldiki, ehtimol, bungacha hech kimga bunchalik mehr-muhabbat qo'ymagan bo'lsa kerak.

Kunlardan bir kun uning o'tmish hayotini surishtirib, yurtini sog'ingan-sog'inmaganligini va uyga qaytib ketishni xohlash-xohlamasligini bilgim keldi. Bu vaqtlarda uni inglizcha yaxshi gapira oladigan qilib o'rgatgan edim, u har bir savolga javob bera oladigan bo'lib qolgan edi.

Uning urug'-aymoqlari to'g'risida quyidagilarni so'radim:

Jumaboy, u botir urug'mi? Dushmanlarni yenggan vaqti ham bo'lganmi? U kulimsirab, javob berdi.

– Bo'lmasa-chi, biz juda botirmiz, biz urushda doim yengamiz.

– Biz urushda doim yengamiz, deysanmi? Bo'lmasa, seni qanday qilib asir oldilar?

– Shunday bo'lsa ham, biznikilar ularni urib yiqdi, ko'pini urib yiqdi.

– Sen u vaqt bizni ular yengdi demabmiding? Ular seni va boshqalarni asir olganlar-ku?

– Meni asir olishgan joyda dushmanlar juda ko'pchilik edi. Ular bizni – bitta, ikkita, uchta va meni

tutib oldilar. Biznikilar ularni boshqa joyda yengdilar, u yerda men yo'q edim. U joyda biznikilar ulardan bitta, ikkita, uchta, ko'plarini ushlab oldilar.

– Nimaga siznikilar yordamga kelib, dushmanlardan sizlarni qutqazib olmadilar?

– Dushmanlar bitta, ikkita, uchtamizni tutib olib, qayiqqa tushirib olib ketdilar, shu paytda biznikilarning qayig'i yo'q edi.

– Ayt-chi, Jumaboy, asir tushganlarni siznikilar nima qilishadi? Ular ham asirlarni uzoq bir joyga olib borib, men ko'rgan odamxo'rlar singari o'ldirib yeydilarmi?

– Ha, biznikilar ham odamlarni yeydi... hammasi ham odam yeydi.

– Ularni yemoq uchun qayoqqa olib boradilar?

– Har yoqqa, xohlagan tomonlariga olib bora-veradilar.

– Bu yoqqa ham keladilarmi?

– Ha, ha, bu yoqqa ham keladilar. Har joyga ham kelaveradilar.

– Sen o'zing ular bilan bu yerga kelganmiding?

– Ha. Kelganman. U tomonga kelganman.

Jumaboy qo'li bilan orolning shimoli-g'arbiy burchini ko'rsatdi, aftidan, uning urug'-aymoqlari doim shu tomonga kelib yig'ilishsa kerak.

Shunday qilib, mening do'stim va ulfatim Jumaboy ham orolning uzoq sohillariga kelib turadigan vahshiylardan ekan, uni vahshiylar yemoqchi bo'lgan joyda o'zining ham bir necha bor odamlarni yeganligi ma'lum bo'ldi.

Birmuncha vaqt o'tgandan so'ng sohilga qarab jo'nadim (uyulib yotgan odam suyaklarini birinchi marta shu sohilda ko'rgan edim), bu yerga Jumaboyni birga olib keldim, u bu joyni darrov tanidi. U bir kuni urug'-aymoqlari bilan mening orolimga kelganda, shu joyda yigirma erkakni, ikki xotin va

bir bolani yeganlarini soʻzlab berdi. U «yigirma» soʻzini inglizcha ayta olmadi, qancha odam yeganlarini men- ga tushuntirmoq uchun yigirmata toshni bittadan yerga qoʻyib koʻrsatdi.

Jumaboy bilan suhbatni davom ettirib, undan: vahshiy turadigan yer mening orolimdan qancha uzoqda, bu yoqqa kelishda ularning koʻp qayiqlari halok boʻladimi, deb soʻradim. Bu yerda qayiq bilan yurmoq tamom bexatar ekanligi maʼlum boʻldi: Ju- maboy, bu yerda bir marta ham bironing halokatga uchragani, dengizga gʻarq boʻlganini bilmayman, dedi, chunki bizning oroldan sal naridan dengiz oqimi oʻtadi; bu oqim ertalabki paytlarda doim shamol yurayotgan tomonga qarab oqib boradi, kechqurun esa shamol ham, oqim ham qarshi tomonga qarab yuradi.

Boshlab bu oqim dengiz suvining koʻtarilishi va qaytishi orqasida yuzaga keladi deb oʻylagan edim, ancha keyin bilsam, bu oqim shiddatli Orinoko dar- yosi oqimining davomi boʻlib, mening orolim bu daryo mansabining xuddi roʻparasida ekan. Men qitʼa deb faraz qilib kelgan gʻarb va shimol-gʻarbdagi yerlar esa shu daryo mansabining shimoliy qismi qarshisidagi Trinidad degan kattakon orol ekan.

Oʻsha yer va unda yashovchi odamlar toʻgʻrisida Jumaboyga minglab savollar berdim: u yerdagi so- hillarning xatarli va bexatar ekanligini, u joyda den- gizning tezmi oqishini, u yerning odamlari judayam yirtqichmi ekanini va ularga yaqin joyda qanday odamlar turishini soʻradim. U har bir savolinga bajonidil javob qaytarib, bilganlarining hammasini dangal aytib berdi.

U joylarda yashaydigan har xil vahshiylar qabi- lasining nomlarini ham soʻradim, lekin u: «Karibe, karibe», – deb takrorlay berdi. Bundan men, albatta, Jumaboy, jugʻrofiya xaritalarimizdan bizga maʼlum

boʻlgan joylarda yashovchi, yaʼni, Amerikaning Ori-noko daryosi mansabidan to Gvianagacha va Santo-Marta<sup>13</sup> shahrigacha boʻlgan qismidagi sohillarni ishgʻol qilgan karaiblar toʻgʻrisida gapirayotganini darhol payqadim.

Bundan tashqari, Jumaboy «oy orqasidagi» uzoq joyda, yaʼni, oy botadigan tomonda, yoki boshqacha qilib aytganda, uning yurtining gʻarbida menga oʻxshagan oq tanli sersoqol odamlar yashashini (u mening uzun moʻylablarimga ishora qildi, moʻylabimni oʻstirib yuborganimni yuqorida aytib oʻtgan edim) va bu odamlar «juda-juda koʻp odamlarni oʻldirganini» aytdi.

Jumaboy ispan istilochilarini aytayotganini tushundim, oʻsha mahalda ular oʻz shafqatsizliklari bilan nom chiqargan edilar.

Men undan: bilmaysanmi, menga dengiz orqali oʻsha oq tanli odamlar yoniga oʻtib bormoq imkoni yoʻqmi, deb soʻradim.

U:

– Ha, ha, borsa boʻladi: ikkita qayiqda suzib borish kerak, – deb javob berdi.

Uning nima demoqchi boʻlganini anchagacha tushunolmadim, lekin oxiri xoʻb oʻylagach, uning tilida ikkita qayiq degani katta qayiq, hech boʻlmaganda, kichkina qayiqqa ikkita keladigan kattakon yelkanli qayiq kerak ekanini tushundim.

Jumaboyning bu soʻzlari menga zoʻr xursandlik baxsh etdi: shu kundan boshlab menda, bir kunmas-bir kun bu yerdan qutulib ketaman va ozodlikka yetishganim uchun bechora yovvoyi doʻstimdan minnatdor boʻlaman, degan umid tugʻildi.

---

<sup>13</sup> Santo-Marta – Karib dengizi sohiliga joylashgan shahar

## ***Yigirma ikkinchi bob***

### **ROBINZON BILAN JUMABOYNING QAYIQ YASAGANI.**

#### **VAHSHIYLAR BILAN BO'LGAN JANG**

Yana bir necha oy o'tdi.

Bu vaqtlarda Jumaboy aytgan gaplarimga tushunadigan bo'lib qoldi. Garchi uncha to'g'ri gapirolmasa ham, o'z fikrini ingliz tilida tushuntira olardi. Men boshimdan o'tganlarning hammasini unga bir boshdan aytib berdim. Bu orolga meni qanday qismat keltirib tashlaganini, bu yerda necha yil umr ko'rganimni va shu yillar ichida nimalar qilganimni boshdan oyoq so'ylab berdim.

Miltiqdan otishning sirini Jumaboyga bundan avvalroq aytgan edim (chunki bu narsa unga haqiqatan ham sir edi); unga o'qni ko'rsatdim, miltiq dorisining nimaligini tushuntirdim, keyin uni miltiqni o'qlab otishga o'rgatdim. Miltiqlarimdan birini uning o'ziga berib qo'ydim. Unga bir pichoqni tortiq qildim, bu tortiqdan u judayam xursand bo'ldi. Unga Angliyada odamlar bellariga xanjar osib yuradigan g'ilofga o'xshatib qayishdan g'ilof tikib berdim, lekin beliga osib yurish uchun xanjar o'rniga boltani berdim, bu bolta, darhaqiqat, yaxshi bir qurol bo'lishi bilan birga, har qanday xo'jalik ishlariga ham qo'l keladigan bir asbob edi.

Jumaboyga Ovrupo mamlakatlari haqida, xususan, o'z vatanim haqida ko'p narsalarni aytib berdim. Unga qanday turmush kechirishimizni, urf-odatlarimizni tushuntirdim. Dunyoning hamma qit'alarida qanday savdo qilishimizni va katta kemalarda suzib yurishimizni gapirib berdim. Unga katta yelkanli kemanding tuzilishini tushuntirdim va halokatga uchragan kemada bu yerga qanday kelganligimizni aytdim, unga uzoqdan turib kema dengiz

tomonga kelib urilgan joyni ko'rsatdim. Albatta, men unga bu joyni taxminan ko'rsatdim, chunki kema allaqachonlaroq parcha-parcha bo'lib, dengizda oqib ketgan edi. Biz jon saqlab qolmoq uchun kemadan chiqib ichiga tushib olgan qayig'imizni, ya'ni dovul bizni ana shu sohilga keltirib tashlagan va o'zi chirib yotgan qayiqni ham unga ko'rsatdim.

Jumaboy bu qayiqni ko'rib, fikrga toldi va ancha vaqt jim qoldi. Men undan, nega bunchalik o'ylab qolganini so'radim, u birozdan so'ng bunday dedi:

– Men shunga o'xshagan bir qayiqni ko'rganman. U qayiq mening xalqim yashaydigan joyga suzib kelgan edi.

Uning nima demoqchi bo'lganini xiyla vaqtgacha anglolmadim. Nima, ular yashaydigan joyda vahshiylar shunday qayiqlarda suzib yuradilarmi yoki shunga o'xshash bir qayiq ular turgan sohil yonidan suzib o'tganmi – tushunolmadim.

Oxiri, ko'p surishtirgandan keyin, ma'lum bo'ldi ki, uning urug'i yashab turgan yerning sohiliga xuddi shunga o'xshash bir qayiq suzib borgan ekan.

– Uni sohilimizga yovuz bo'ron olib keldi, – dedi-yu, Jumaboy yana jim qoldi.

«O'sha sohillarda birorta Ovrupo kemasi halokatga uchragan bo'lsa kerak. Quturib turgan to'lqin kemadagi qayiqni olib borib, shu vahshiylar yashaydigan joyga eltib tashlagandir», – deb o'yladim. Lekin ziyraksizligimni ko'ringki, bu qayiqda odamlar bo'lgandir, degan fikr fahmimga ham kelmabdi va Jumaboydan surishtirar ekanman, faqat qayiq to'g'risidagina o'ylabman.

– Ayt-chi, u qandaqa qayiq edi?

Jumaboy qayiqni batafsil tasvirlab berdi va qiziqqonlik bilan birdaniga mana bunday deb qo'shib qo'ydi:

– Oq tanli odamlar dengizga g'arq bo'lishmadi, biz qutqazib oldik!

– Qayiqda oq tanli odamlar ham bormidi? – deb soʻradim shoshilib.

– Ha, qayiq oq tanli odamlarga toʻla edi! – deb javob berdi u.

– Ular necha kishi edi?

U menga oʻnta barmogʻini koʻrsatdi, keyin yana yettita barmogʻini koʻrsatdi.

– Ular qayerda? Ular tirikmi? U javob berib:

– Ular tirik. Biznikilar bilan birga yashamoqda, – dedi.

Xayolimga birdan: bu oʻn yettita oq tanli kishi oʻsha qattiq boʻron boʻlgan kechasi mening orolim yaqinida halokatga uchragan kemasidagi odamlar emasmikan, degan fikr keldi.

Kema toshga kelib urilgach, uni qutqazib olish imkoni boʻlmaganidan, kishilar qayiqqa oʻtirib joʻnagan boʻlishlari, keyin boʻron ularni vahshiylar yashaydigan yerga eltib tashlagan va shu vahshiylar joyiga borib tushishga majbur boʻlgan boʻlishlari ehtimol.

– Men qovogʻimni solib, Jumaboydan, hozir oʻsha odamlar qayerda, deb jiddiy suratda soʻroqladim. U yana boyagidek qizgʻinlik bilan javob berdi:

– Ular tirik! Ular yaxshi turishibdi!

Jumaboy, bu odamlar oʻzining hamqishloqlari bilan birga yashay boshlaganiga yaqinda toʻrt yil boʻlishini, ularga ozor bermay, balki toʻla erk berib qoʻyganliklarini va har xil ovqatlar berib turishlarini aytdi.

Men undan:

– Qanday qilib vahshiylar bu odamlarni oʻldirib yeb qoʻymadilar? – deb soʻradim.

U mana bunday deb javob berdi:

– Oq tanli odamlar biz bilan aka-uka boʻlib ketdilar. Biznikilar faqat urushda yengib, qoʻlga tushirib olganlarnigina yeydilar.

Yana bir necha oy oʻtdi. Kunlardan bir kun Jumaboy bilan birga orolni sayr qilib yurarkanmiz,

sharqiy tomonga borib qolib, bir tepalik ustiga chiqdik. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bundan bir necha yil avval shu tepa ustiga chiqib, bir bo'lak yerni ko'rgan va bu yerni o'zimcha Janubiy Amerika qit'asi bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim.

Darvoqe, tepa ustiga birinchi bo'lib Jumaboy chiqdi, tepa baland va ancha tikka bo'lganidan men keyinda qolib ketdim.

O'sha vaqtdagiga o'xshab bugun ham havo tip-tiniq edi.

Jumaboy uzoqlarga qarab ancha vaqt tikilib qoldi, keyin birdaniga suyunchi ichiga sig'may qichqirib yubordi, xuddi telbalardek u yoqdan-bu yoqqa yugurib, o'yinga tusha boshladi ham menga: tezroq tepa ustiga chiq, deb qichqira boshladi. Men hayron bo'lib, unga tikilib qoldim.

Men hech mahal uning bu zayilda quvonib, hayajonga kelganini ko'rmagan edim. Nihoyat, u o'yinga tushishdan to'xtab, meni chaqira boshladi:

– Tezroq, tezroq bu yoqqa chiq!

Men undan so'radim:

– O'zi nima gap? Nega bunchalik xursandsan?

– Ha, ha! Xursandman. Mana bu yoqqa qara... shu yerdan ko'rinib turibdi... mening yurtim, mening xalqim o'sha yerda...

Uning yuzida benihoya shodlik alomatlari paydo bo'ldi: ko'zlari chaqnab ketdi: go'yo o'sha tomonga, o'z qarindoshlari va yor-og'aynilari turgan tomonga uchib ketgudek bo'ldi.

Uning bunchalik suyunib, quvonganini ko'rib, kuyundim.

«Bu odamga bunchalik mehr qo'yib chakki qilgan ekanman. U sodiq do'st bo'lib ko'rinsa ham, nuqul bir iloj qilib qochishni o'ylar ekan», – dedim o'z-o'zimga.

Unga juda zo'r gumon bilan tikildim va:

«Hozir u beozor ham mo'min, lekin boshqa vahshiylar orasiga qo'shilgan hamono, rosti, jonini



saqlab qolganimni darrov unutib yuboradi, keyin meni o'z aymoqlariga tutib beradi; u mening orolimga vahshiylarni ergashtirib keladi. Ular meni tutib o'ldirib, go'shtimni yeydilar; avvallari o'zlariga dushman bo'lgan vahshiy qabilalarni yenggan vaqtlarida, bu yerga kelib g'alaba tantanasini qanday o'tkazgan bo'lsalar, mening go'shtimni yeganlarida ham Jumaboy xuddi o'shanday shod-xurram bo'lib qatnashadi!» – deb o'yladim.

O'sha kundan boshlab gumonim kuchayaverdi.

Kechagi do'stimdan ko'nglim qaytib, unga juda quruq va sovuq muomala qiladigan bo'lib qoldim.

Bu hol bir necha hafta davom qildi va so'zsiz men bu oqko'ngil yigitdan gumonsirab, juda noma'qul ish qildim.

Men uning ko'nglida yomonlik va xoinlik niyati bor deb gumonsirab yurgan vaqtimda, u menga avvalgidek sadoqat ko'rsata berdi; uning har bir so'zi beozor va bolalarcha sof ediki, bora-bora gumonlarimdan pushaymon bo'ldim. Uni yana o'zimga eng yaqin do'st deb seza boshladim va o'z gunohimni yuvishga harakat qildim. U ko'nglim sovuganini sezgani ham yo'q, uning juda samimiy, soddaligi buni aniq ko'rsatib turar edi.

Kunlardan bir kun Jumaboy ikkimiz tepa ustiga chiqqanimizda (bu safar dengizni tuman bosganidan, ro'paradagi sohil ko'rinmasdi), undan:

– Jumaboy, o'z yurtingga, qarindosh-urug'laring yoniga qaytib ketging keladimi? – deb so'radim.

– Ha, u yerga qaytsam, oh, qanday xursand bo'lardim! – deb javob berdi u. Men yana savol berdim:

– U yerda nima qilarding? Yana vahshiy bo'lib ketarding, qonxo'r bo'lib, yana avvalgidek odam go'shtini yeyishga tutunarding, shunday emasmi?

So'zlarim uni hayajonga soldi, shekilli, boshini chayqab, bunday dedi:

– Yo‘q, yo‘q! Jumaboy o‘z aymoqlarining hammasiga: yaxshi yashanglar, dondan qilingan non yenglar, sut ichinglar, hayvon go‘shiti yenglar, odam go‘shiti yemanglar, degan bo‘lur edi.

– Bunday desang, ular seni tutib o‘ldiradilar-ku. U menga tikilib, yana bunday dedi:

– Yo‘q, o‘ldirmaydilar. Ular yaxshilikni o‘rganganlari uchun xursand bo‘lishadi.

Keyin mana bunday qo‘shib qo‘ydi:

– Ular qayiqda kelgan sersoqol odamlardan ko‘p narsa o‘rgandilar.

– Uyga judayam qaytib ketging kelyaptimi? – deb so‘radim yana. U kulimsirab dedi:

– Juda uzoq sabil, suzib yetolmayman.

– Agar qayiqni bersam, o‘z yurtingga, qarindoshlaring yoniga qaytib ketarmiding? – deb so‘radim undan.

– Ketardim! Lekin sen ham men bilan birga ketishing kerak, – dedi qizishib u.

– Men qanday boraman? Ular meni darhol yeb qo‘yadilar-ku, – deb e‘tiroz bildirdim.

– Yo‘q, yo‘q, yemaydilar, – dedi qizishib. – Men shunday qilamanki, ular seni yemaydilar, men ularni seni juda yaxshi ko‘radigan qilaman.

Jumaboy bu so‘zlari bilan, men uning dushmanlarini o‘ldirib, Jumaboyni o‘limdan saqlab qolganimni ularga aytib bermoqchi ekanini bildirmoqchi bo‘ldi. Uning jonini omon saqlab qolganim uchun ular meni juda sevib-izzat qilishlariga u qattiq ishongan edi.

Jumaboy shu gaplardan keyin menga bo‘ron uning eli yashayotgan sohilga eltib tashlagan o‘sha o‘n yettita sersoqol kishiga ular juda mehribonlik ko‘rsatib, ko‘p yaxshiliklar qilganlarini gapirib berdi. E‘tirof qilishim kerakki, shu paytdan boshlab menda, har nima qilib bo‘lsa ham vahshiyalar yurtiga suzib o‘tish va Jumaboy aytgan o‘sha oq tanli «sersoqol odamlarni» qidirish ixtiyori paydo bo‘ldi.

O'sha odamlarning ispanlar yoki portugaliyaliklar bo'lishiga, agar ularni ko'ra olsam va hamsuhbat bo'lolsam, ular bilan birgalashib bu yerdan qutulib ketmoq yo'lini topishimizga hech shubham yo'q edi: «Biz o'n sakkiz kishi bo'lib olsak, qutulib ketmoq uchun, hech bo'lmaganda, zo'r umid tug'iladi, biz hammamizning ozod bo'lishimiz uchun birgalashib harakat qilamiz. Yo'qsa, ular turgan sohildan qirq mil uzoqda turib yolg'iz o'zim, hech yordamchisiz, nima ham qila olar edim!»

Bu fikr mening ko'nglimga qattiq joylashib qoldi, bir necha kundan keyin yana shu haqda gapirdim.

Jumaboyga, yurtingga qaytib ketishing uchun qayiqni beraman, dedim, keyin shu kuniyoq uni qayiq turgan kichkina qo'ltiqqa ergashtirib bordim. Qayiq ichidagi suvni sohib tashlab, qayiqni sohilga keltirib Jumaboyga ko'rsatdim. Qayiqning yurishini sinab ko'rmoq uchun ikkimiz ichiga tushib o'tirdik. Jumaboy juda yaxshi eshkakchi ekan, eshkak eshishda mendan qolishmadi. Biz sohildan ancha nari ketganimizda unga:

– Xo'sh, Jumaboy, hamqishloqlaring yoniga boramizmi? – dedim.

U menga ma'yus va xafa bir tarzda tikildi: aftidan, uning fikricha, qayiq bunday uzoq safar uchun juda kichik edi. Men unga bundan boshqa, kattaroq qayig'im bor, dedim, ertasiga uning bilan birga birinchi marta o'zim yasagan va suvga tushira olmaganim vajidan o'rmon ichida qolib ketgan qayiq yoniga jo'nadik. Bu qayiq Jumaboyga ma'qul tushdi.

– Bunisi yaraydi. Bunga non, suv va boshqa narsalarni ko'p joylab olmoq mumkin, – deb tasdiqladi u.

Lekin bu qayiq qurilgandan buyon yigirma uch yil o'tgan edi. O'sha vaqtdan buyon bu qayiq qarovsiz, ochiq havoda yotar edi, u oftobda qaqrab, yomg'irda qolib, tamom qovjirab, chirib qolgan edi.

Shunga qaramasdan, u meni qit'aga borish to'g'risidagi taradduddan qaytara olmadi.

– Mayli, xafa bo'lma! Biz xuddi shuning o'ziga o'xshash qayiq yasaymiz, uyingga qaytib ketasan, – dedim Jumaboyga.

U bir og'iz ham so'z qotmadi, lekin yuzini g'am va qayg'u bosdi. Senga nima bo'ldi, deb so'ragan edim, bunday dedi:

– Robin Kruzo Jumaboydan nega xafa bo'ladi? Men nima gunoh qildim?

– Sendan xafa bo'lyapman deyapmanmi, qayoqdan topding bu gapni! Sendan sira ham xafa emasman, – dedim.

– Xafa emasman emish, xafa emasman-a! – deb olti-yetti marta qaytardi u. – Bo'lmasa, nimaga Jumaboyni hamqishloqlari va qarindoshlari yoniga jo'natasan?

– Uyga ketgim kelyapti, deb o'zing aytding-ku, – dedim.

– Ha, ketgim kelyapti, lekin faqat sen bilan birga ketaman, – dedi u. – Sen ham, men ham ketamiz. Robin bormasa, Jumaboy ham bormaydi. Jumaboy Robinni tashlab ketmaydi.

U meni tashlab ketishga sira unamadi.

– O'zing o'ylab ko'rgin, axir, men nima deb u yerga boraman? Xo'sh, u yerda nima qilaman?

Jumaboy qizishib e'tiroz bildirdi:

– U yerda nima qilarding? Ko'p ish qilasan, yaxshi ish qilasan: vahshiy odamlarni yaxshi yo'lga solasan, aql o'rgatasan, ularga yangi turmush qurish yo'lini ko'rsatasan.

Men o'pkam to'lib, bunday dedim:

– Azizim, Jumaboy, nimalar deyayotganingni o'zing bilmaysan. Menday ojiz bir notavon qayda-yu, odamlarni yaxshilikka o'rgatish qayda!

U qiziqqonlik bilan e'tiroz bildirib, dedi:

– Noto'g'ri! Meni yaxshilikka o'rgatdingmi, boshqa odamlarni ham yaxshilikka o'rgatasan!

– Yo'q, Jumaboy, mensiz keta ber, men bo'lsam shu yerda odamsiz, yakka o'zim qolaman! Shu vaqt-gacha yakka o'zim yashab keldim-ku!

Aftidan, bu so'zlar uni qattiq ranjitdi, shekilli, shu yaqinda turgan boltani jahl bilan qo'liga oldi-da, menga uzatdi.

– Menga boltani nima uchun berding? – deb so'radim. U javob berib:

– Jumaboyni o'ldir! – dedi.

– Seni nimaga o'ldiraman. Sen menga hech yomonlik qilganing yo'q, – dedim.

U darg'azab bo'lib dedi:

– Bo'lmasa, Jumaboyni nega quvlaysan? Jumaboyni quvlagandan ko'ra, o'ldira qol!

U juda qattiq kuyungan edi. Uning ko'zlari jiqqa yoshga to'lganini ko'rib qoldim. Xullas, u menga shunchalik mehr qo'yib bog'lanib qolgan ediki, uni ketkazishni xohlasam ham, baribir ketkaza olmagan bo'lur edim. Men shu yerdayoq uning o'ziga, men bilan qolmoqchi ekansan, yurtingga jo'nashing to'g'risida bundan so'ng aslo og'iz ochma, dedim va keyinchalik ham bu so'zlarni bir necha bor takrorladim.

Shunday qilib, Jumaboyning menga sadoqati umrbod ekaniga tamom ishonch hosil qildim.

U o'z vataniga qaytib ketmoqchi bo'lgan ekan, buning sababi urug'-aymoqlarini jon-u dildan sevgani edi: u meni ham o'z yurtiga boradi va ularni yaxshilikka o'rgatadi deb ishongan edi.

Lekin men yaxshilikka, nasihatgo'ylikka yaramasligimni yaxshi bilar edim. Butun bir xalqni yaxshilikka o'rgatish, albatta, qo'limdan kelmasdi. Bu qadar qiyin ishga, ya'ni, vahshiy qabilani ma'rifatli qilish ishiga tutinmoq uchun menda iste'dod ham, istak ham yo'q edi.

Lekin bu hol mening Jumaboy yurtiga tezroq borib, u yerda yashovchi sersoqol odamlarni ko'rishni juda orzu qilishimga mone' bo'lmadi. Nihoyat, ochiq dengizda suzib bormoq mumkin bo'ladigan katta qayiq yasashga tezroq kirishishga ahd qildim.

Avvalo, tanasi ancha yo'g'on, qayiqqa yaraydigan bir daraxt topish kerak edi.

Bu narsa ishning to'xtab qolishiga sabab bo'lolmas edi: orolda azim daraxtlar shu qadar ko'p ediki, bulardan bir qayiqqina emas, balki butun bir katta flot qursa bo'lardi. Men daraxtzorda katta qayiqni qurganimda qanday xato qilganligimni esladim, bu qayiqni dengizdan juda uzoq joyda qura boshlab, keyin uni sohilga olib kelolmagan edim. Shu xato takror bo'lmasligi uchun dengizga yaqinroq joydagi daraxtlardan birini tanlash fikriga keldim, chunki dengizga yaqin bo'lish qayiqni ozroq mehnat sarf qilib suvga tushirishga imkon berar edi.

Shunisi borki, sohil yoqasidagi daraxtlarning ko'pchiligi past va kichik edi. Boshdan oyoq butun sohilni aylanib chiqib, ko'ngilga o'tiradigan bitta ham daraxt topmadim. Jumaboy bu ishda jonimga ora kirdi. Qarasam, bu masalada u mendan ko'p bilar ekan. Ish o'ngidan keldi. Biz qayiq yasagan daraxt qaysi turdan ekanini men haligacha bilolmayman.

Jumaboy vahshiylar qayiq yasaganlarida qilgani kabi daraxtlarning ich tomonini kuydirish kerak deb maslahat berdi. Lekin men unga: iskana va boshqa asboblardan bilan yo'nish yaxshiroq, dedim va daraxt-ni qanday yo'nish kerakligini ko'rsatib bergandim, shundan keyin u mening usulim to'g'ri va yaxshi usul ekanini e'tirof qildi. Jumaboy bu ishni ham darrov o'rganib oldi.

Ishga zo'r ishtiyoq bilan kirishdik, bir oy deganda qayiq tayyor bo'ldi. Biz qayiqni yasash uchun ko'p mehnat sarf qildik, uning sirtini bolta bilan yo'nib

silliqladik, u bo'yi baland, bortlari mahkam, dengizda bemalol yura beradigan qayiq bo'ldi; u didimizga mos, talabimizga to'la javob beradigan, yigirma kishini bemalol ko'taradigan qayiq edi.

Shundan keyin qayig'imizni suvga tushirib olmoq uchun ikki haftacha vaqt kerak bo'ldi. Bu ish uchun biz yog'ochdan g'altaklar yasadik, lekin qayiq behad og'ir, uni suradigan odam nihoyatda oz bo'lganidan, g'altaklar – vositasi bilan ham qayiq juda sekin, bir duymdan surilib bordi.

Qayiq suvga tushirilgach, Jumaboyning qayiqni juda mohirlik bilan idora qilgani, uni goh o'ng tomonga, goh chap tomonga tez qaytarganini va eshkaklarni juda yaxshi eshayotganini ko'rib qoyil qoldim.

Undan: bu qayiqda ochiq dengizda yurish xavf-xatarsizmi, fikring qalay, deb so'radim.

– Bo'lmasa-chi, qattiq shamol bo'lib turganda ham bu qayiqda bemalol suzib yuraversa bo'ladi, – deb javob berdi u.

Lekin dengiz safariga jo'nashdan burun yana bir ish qilmoqchi bo'ldim, bu fikrni hozircha Jumaboyga aytganim yo'q, men: qayiqqa machta bilan chodir o'rnatish, shuningdek, langar yasash va kema arqonlarini bog'lash fikrida edim. Machta yasamoq uncha qiyin emas edi: orolda g'oyat to'g'ri va silliq o'sgan kedr daraxtlari ko'p edi. Yosh bir daraxtni tanladim, u yangi qayig'imiz turgan qo'ltiqqa yaqin joyda edi. Jumaboyga bu daraxtni kesishga buyurdim. So'ngra mening rahbarligimda Jumaboy daraxtning po'stlog'ini archib, uni yo'nib, juda silliqyadi. Machta tayyor bo'ldi.

Chodirni yasash mening zimmamga tushdi. Omborxonamda eski chodirlar, to'g'rirog'i, chodir parchalari saqlanib turgan edi. Lekin bu chodirlarning tashlab qo'yilganiga yigirma olti yildan ko'proq bo'lgan edi. Bir vaqt kelib bu tashlandiqlardan chodir

tikarman, deb o'ylamaganimdan, bularga sira e'tibor bermagan va ularni butun saqlash to'g'risida hech bir g'am yemagan edim.

Men: bu chodirlar hammasi allaqachon chirib bitgandir, deb o'ylagan edim. Xuddi o'ylaganimdek bo'lib chiqdi: uning ko'p qismi chirib qolgan ekan. Shunga qaramasdan, bular orasidan korimga yararliklari topildi. Ikkita durustrog'ini tanlab, tikishga tutindim.

Bu ishga ko'p mehnat sarf qildim. Bu ish – tikish emas, bir mashaqqat bo'ldi: mening katta ignam ham yo'q edi! Shunday bo'lsa ham, bir iloj qilib amalladim: birinchidan, katta uchburchak chodir tusida beso'naqay bir narsa yasadimki, bu narsa Angliyada ishlatiladigan chodirlarga o'xshardi (Angliyada bu xil chodirni «qo'y tuyoq» deb ataydilar), ikkinchidan «blind» deb ataladigan kichkina chodir yasadim. Bu xil yelkanli qayiq'larni yurgizishga juda usta edim, chunki Berberidan qaroqchilar qo'lidan qutulib qochgandagi qayig'imizda ham xuddi shungaga o'xshash chodirlar bor edi.

Qayiqqa machta bilan chodirlarni o'rnatib bo'lgunimcha ikki oycha vaqt o'tdi, lekin ish juda puxta qilindi. Bu ikki chodirdan tashqari yana uchinchisini ham yasadim. Bu uchinchi chodirni qayiqning burniga o'rnatdim. Bu chodir shamol qarshisiga yurib bormoq uchun qayiqning yo'lini o'zgartirish kerak bo'lganda bizga yordam qilmog'i lozim edi. So'ngra juda yaxshi rul yasab, uni qayiqning quyrug'iga o'rnatdim, bu narsa qayiqning idora qilinishini ancha osonlashtirar edi.

Dengiz kemalari qurish ishida men no'noq va bilimsiz bo'lsam ham, rul singari asbobning foydasi katta ekanini yaxshi bilar edim, shuning uchun bu ishdan mehnatimni ayamadim. Lekin bu ish osonlik bilan bitmadi: birgina shu rulni yasash uchun



qayiqni va uning hamma asboblari yasashga ketganicha vaqt ketdi.

Bu narsalar hammasi tap-tayyor bo'lgach, Jumaboyga qayiqni idora qilishni o'rgata boshladim, chunki u rul to'g'risida ham, chodir to'g'risida ham hech narsa bilmas edi. Men qayiqni rul bilan qanday burganimni, chodirning goh u tomondan, goh bu tomondan shishib turganini dastlab ko'rganda, u juda hayratda qoldi, bu hol unga allaqanday mo'jiza bo'lib ko'rindi.

Shunga qaramasdan, mening rahbarligim bilan u tez vaqt ichida o'rganib; juda mohir dengizchi bo'lib oldi. U faqat bir narsani, ya'ni, kompas bilan yurishni bilolmadi. Lekin bu yerlarda yomg'ir yoqqan vaqtlardagina tuman bo'lganidan, kompas unga kerak bo'lmas edi. Biz kunduzi uzoqdan ko'rinib turadigan sohilni, kechasi esa yulduzni nishon qilib yura olardik. Yomg'irgarchilik faslida esa ahvol qiyin bo'lardi, lekin baribir bu vaqtlarda dengizda ham, quruq yerda ham sayohatga chiqib bo'lmaydi.

Bu zindonda yakka-yolg'iz umr kechira boshlaganimning yigirma oltinchi yili boshlandi. Darvoqe, so'nggi uch yilni bazo'r bu hisobdan chiqarib tashlamoq mumkin, chunki sodiq do'stim Jumaboyning orolda paydo bo'lishi bilan mening turmushim tamoman o'zgardi.

Yomg'irgarchilik fasli yaqinlashdi, bu vaqtda ko'p kunlari uydan chiqmay o'tirishga to'g'ri keladi. Yomg'irgarchilik vaqtini o'tkazmoq va qayig'imizga yomg'ir ziyon yetkazmasligi uchun chora ko'rmoq zarur edi. Biz uni sollarimni keltirib to'xtatgan qo'ltiqqa keltirib qo'ydik, keyin suvning qirg'oqqa qarab yo'nalishini kutib, uni qirg'oqqa keltirib bog'lardik. Keyin Jumaboy mening ko'rsatmam bilan shu qayiq turgan joydan dokka o'xshatib qayiq bemalol sig'adigan chuqur qazidi. Biz bu chuqurni to'g'on olib

dengizdan ajratdik, suv kirib turishi uchun atigi torgina yo'l qoldirdik. Bizning kichkina dokimiz suv bilan to'lgach, to'g'onni hech suv o'tmaydigan qilib bekitdik, endi qayiq suv ichida bo'lib, dengiz to'liqlari unga kira olmaydigan va suv qirg'oqdan ortga qaytganda uni olib ketolmaydigan bo'ldi. Qayiqni yomg'irdan asrash uchun ustiga qalin qilib shox yopdik, qayiq shoxlar tagida tom ichidagidek tura berdi.

Endi biz noyabr yoki dekabr oylarida yelkanli qayiqda dengizga safar qilmoq uchun yaxshi havoning boshlanishini xotirjamlik bilan kuta olamiz.

Yog'ingarchilik to'xtab, quyosh yarqirab chiqdi denguncha, men ertalabdan kechgacha safarga hozirlik ko'ra boshladim. Bizga qancha oziq-ovqat ketishini oldindan hisoblab chiqib, zaxirani ajrata boshladim.

Ikki haftadan keyin, ehtimolki, bundan ham oldinroq, to'g'onni buzib, qayiqni dokdan olib chiqish lozim, deb chamalab qo'ydim.

Ammo safarimiz peshanamizga yozilmagan ekan.

Bir kuni ertalab odatdagicha safarga tayyorlanar ekanman, miyamga boshqa ovqatliklardan tashqari yana biroz toshbaqa go'shti ham g'amlab olsak yaxshi bo'lardi, degan fikr keldi.

Jumaboyni chaqirib, dengiz bo'yiga borib toshbaqa tutib kelmoqqa buyurdim. (Biz har hafta toshbaqa tutar edik, chunki ikkimiz ham toshbaqa go'shtini va tuxumini yaxshi ko'rar edik.)

Jumaboy topshiriqni bajargani g'izillab ketdi, lekin oradan chorak soat o'tar-o'tmas qo'rg'on orqasida uning yugurib, go'yo qanot paydo qilgandek uchib kelayotganini ko'rib qoldim. Nima bo'ldi, deb so'rashga ulgurmasimdanoq, u qichqirdi:

– Sho'rimiz quridi, sho'rimiz quridi! Baxtsizlikka yo'liqdik! Ish chatoq.

– Nima gap? Nima bo'ldi, Jumaboy? – deb so'radim hovliqib.

– U yerda, sohil bo'yida bitta, ikkita, uchta... bitta, ikkita, uchta qayiq turipti! – dedi u.

Uning so'zlaridan qayiqlarning hammasi oltita ekan deb tushundim, keyin bilsam, qayiqlar uchta ekan, u juda hovliqqanidan raqamlarni takror-takror aytipti.

– Qo'rqma, Jumaboy! Botir bo'lish kerak! – deb unga dalda berishga harakat qildim.

Bechora juda qo'rqib ketgan edi. Negadir u, vahshiylar mening izimdan kelgan, endi mening go'shtimni burda-burda qilib yeydi, deb o'ylapti. U qo'rqqanidan shunday qaltirar ediki, qanday qilib uning ruhini ko'tarishni bilolmay qoldim. Qo'limdan kelgancha yupatdim. Unga, sening boshingga kelgan xavf mening boshimda ham bor, seni yesa, meni ham qo'shib yeydi, dedim.

– Shunisi ham borki, biz o'zimizni himoya qila olamiz, ular qo'liga tirik tushmaymiz, – dedim. – Biz ular bilan jang qilamiz, o'zing ko'rasan, biz albatta g'alaba qilamiz! Axir sen yaxshigina urushasan, shunday emasmi?

– Otishni bilaman, lekin ular ko'p-da, juda ko'p bo'lib kelgan, – dedi u.

– Hech gap emas, bittasini o'ldirishimiz bilan, qolganlari miltig'imizning ovozi bilan qo'rqib qochib ketadi, – dedim. – Ishonaver, seni xo'rlatgani qo'ymayman, o'zimni ham, seni ham mardona himoya qilaman. Lekin sen ham meni shunday mardona himoya qilasanmi hamda buyruqlarimni to'la bajarasanmi?

– O'l desang, o'laman, Robin Kruzoz!

Shundan keyin g'orga kirib bir katta ko'zacha rom keltirib unga ichirdim (romni juda ehtiyot qilib sarflaganimdan hali ham anchagina bor edi).

So'ngra pilta bilan otiladigan miltiqlarimizni va ov miltiqlarimizni bir joyga yig'ib, ularni tozaladik, keyin o'qladik. Bundan tashqari, men har vaqtdagidek

qinsiz qilichni osib oldim, Jumaboy bo'lsa boltani osib oldi.

Shu tariqa jangga tayyorlanib bo'lgach, durbinni qo'lga olib kuzatmoq uchun tepaga chiqdim.

Durbinni dengiz sohiliga qaratishim bilan darrov vahshiylarga ko'zim tushdi: ular yigirma chog'lik bo'lib, ulardan boshqa sohilda qo'l-oyog'i bog'lab qo'yilgan uch kishi yotar edi. Takror aytamanki, qayiqlar oltita emas, faqat uchta edi. Aniq ravshan bo'ldiki, vahshiylar orolga bitta maqsadda, ya'ni, dushman ustidan qozongan g'alabalarini bayram qilgani kelishgan. Juda mudhish va qonli bazm qurishga tayyorlanar edilar.

Shuni ham payqadimki, bu safar bundan uch yil burun, ya'ni, biz Jumaboy bilan uchrashgan kuni-miz tushgan joylariga emas, balki mening qayig'im turgan qo'ltiqqa ancha yaqin joyga tushibdilar. Bu yerda sohil ancha past bo'lib, qalin daraxtzor dengiz bo'yigacha tutashib borgan edi.

Hozir qilinishi kerak bo'lgan yovuzlik meni qattiq hayajonga solmoqda edi. Sustkashlik qilish mumkin emas. Tepadan yugurib tushdim-da, Jumaboyga: «Bu qonxo'r yirtqichlarga darrov hujum qilib, ularning bittasini ham qoldirmay qirib tashlamoq kerak», – dedim.

Shu o'rinda undan yana, menga yordam qilasanni, deb so'radim. U endi o'zini tamom tutib olgan edi (rom ham qisman ta'sir qilgan bo'lsa kerak) va dadil turib, hatto xursandlik bilan men uchun jonini fido qilishga ham tayyor ekanini aytdi.

Men hamon darg'azab ekanman, to'pponcha bilan miltiqni qo'lga oldim (qolganlarini Jumaboy oldi), biz yo'lga tushdik. Har ehtimol uchun deb bir shisha romni cho'ntagimga solib oldim, bir katta xaltadagi zaxira o'q va dorini ko'tarib borish uchun Jumaboyga berdim.

– Orqamdan yur, bir qadam ham keyin qolma, nafasingni chiqarma. Mendan hech narsa so‘rama. Darvoqe, mendan ruxsatsiz o‘q otma, – dedim.

Daraxtzorning sohilga yaqinroq joyiga kelib to‘xtadim, astagina Jumaboyni chaqirib, baland bir daraxtni ko‘rsatdim va shu daraxt tepasiga chiqib qara, vahshiylar shu yerdan ko‘rinadimi, ko‘rinsa, ular nima qilishyapti, bil, dedim. U buyrug‘imni bajardi va darrov daraxtdan tushib, vahshiylar gulxan atrofida o‘tirishib, o‘zlari olib kelgan asirlardan birini yemoqdalar, boshqasi o‘sha joyda qum ustida yotibdi, dedi.

– Keyin unisini ham yeydilar, – dedi tamom xotirjamlik bilan Jumaboy. Bu so‘zlarni eshitar ekanman, g‘azab o‘tin yonib ketdi.

Jumaboy menga asirlarning ikkinchisi negr emas, bizning sohilga qayiq bilan kelgan oq tanli sersoqol odamlarning biri, dedi. «Hujum qilmoq kerak», – degan fikrga keldim. Daraxt orqasiga yashirinib turib, durbin bilan sohilda yotgan oq tanli odamni aniq ko‘rdim. U qimirlamay yotardi, chunki oyoq-qo‘llari xipchin bilan mahkam bog‘lab tashlangan edi.

Hech shubhasiz, u ovrupoli odam – uning ustida kiyim-boshi bor edi.

Oldinda butalar o‘sib yotar, butalar orasida daraxt bor edi. Butalar juda qalin bo‘lganidan, u yerga hech sezdirmay borib olmoq mumkin.

Garchi men juda qattiq g‘azabga kelgan, oqibatining nima bo‘lishini sira o‘ylamasdan, shu ondayoq odamxo‘rlar ustiga tashlangim kelib tursa ham, g‘azabimni tiydim va ehtiyot bo‘lib daraxt orqasiga bordim.

Daraxt tepa ustida edi. Shu tepadan turib, sohilda bo‘layotgan mudhish voqealarning hammasini ko‘rdim.

## *Yigirma uchinchi bob*

### **ROBINZONNING ISPANIYALIK BIR KISHINI QUTQARIB QOLGANI. JUMABOYNING O'Z OTASINI TOPGANI**

Vahshiylar gulxan atrofida doira tortib yonma-yon o'tirishar edi. Ular o'n to'qqiz kishi. Sal nariroqda, qo'l-oyog'i bog'langan ovrupoli kishi tepasida yana ikkita vahshiy engashib turmoqda. Ular bu kishini o'ldirib, go'shtini maydalab, bazm qurib o'tirgan vahshiylarga ulashib berishlari kerak edi.

Jumaboyga o'girildim.

– Menga qara, men nimaiki qilsam, sen shunday qil, – dedim. Shunday deb, bitta pilta miltiq bilan ov miltiqni yerga qo'ydim, ikkinchi bir pilta miltiq bilan vahshiylarni nishonga oldim. Jumaboy ham xuddi shunday qildi.

– Tayyor bo'ldingmi? – deb so'radim undan.

– Ha, – dedi u.

– Qani, ot! – dedim. Ikkimiz baravar o'q uzdik.

Jumaboy mendan ko'ra merganroq chiqdi: u ikki kishini o'ldirib, uch kishini yarador qildi, men bo'lsam ikkisini yarador qilib, birini o'ldirdim.

Bizning otgan o'qimizdan vahshiylar shunday sarosimaga tushdiki, buni tasavvur etmoq qiyin emas. Ulardan omon qolganlari sapchib o'rinlaridan turishdi-yu, ammo qayoqqa qochishni va qayoqqa qarashni bilolmay hang-mang bo'lib qolishdi, chunki ular o'lim xavfi ostida qolganliklarini payqasalar ham, lekin qayoqdan o'q otilganini bilolmadilar.

Jumaboy buyruqlarimni bajarib, mendan ko'z uzmay turdi. Birinchi o'qdan keyin vahshiylarga es-hushini yig'ib olishga imkon bermay, pilta miltiqni qo'yib, ov miltiqni qo'lga oldim va tepkini ko'tarib, yana nishonga oldim. Men nimaiki qilgan bo'lsam, Jumaboy ham shuni takrorladi.

- Tayyormisan, Jumaboy? – deb soʻradim.
- Tayyorman, – deb javob berdi u.
- Ot! – deb buyurdim.

Ikki miltiqdan baravar gumbirlab oʻq uzildi, lekin bu safar biz miltiqlarga sochma oʻq solib otganimizdan, atigi ikki kishi oʻldi (ishqilib ikkitasi yiqildi), ammo juda koʻp vahshiy yarador boʻldi. Yaradorlar qonlariga belanishib sohil boʻyida dod-faryod solib u yoqdan-bu yoqqa yugurisha boshladi. Uchtasi ogʻir yarador boʻlibdi, shekilli, sal oʻtmay yerga yiqilishdi. Lekin ular tirik edi.

Men oʻqlab qoʻyilgan pilta miltigʻimni qoʻlimga olib: «Jumaboy, orqamdan yur!» – dedim-da, daraxtzordan ochiq maydonga yugurib chiqdim. Dovyurak Jumaboy mendan bir qadam ham orqada qolmadi.

Dushmanlar meni koʻrganlarini payqab, qichqirganimcha olgʻa yugurdim.

- Sen ham qichqir! – deb buyurdim Jumaboyga.

U shu zahotiyoc mendan koʻra qattiqroq qichqirdi. Afsuski, mening qurol-aslaham juda ogʻir boʻlganidan yugurishga imkon bermas edi. Lekin bechora ovrupolikni qutqarib olmoq uchun toʻppa-toʻgʻri unga qarab yugurganimdan qurollarning ogʻirligini sezmadim, ovrupolik shoʻrlik boʻlsa, dengiz bilan vahshiylar gulxani oʻrtasidagi qumloqda yotardi. Uning yaqinida hech kim yoʻq. Uni nimta-nimta qilmoqchi boʻlib turgan ikki vahshiy birinchi dafa oʻq chiqqani zahotiyoc qochib ketgan edi. Ular ikkovi qoʻrqqanidan oʻtakasi yorilib, dengiz tomon yugurishdi, qayiqqa tushib, eshkaklarini esha boshladi. Shu qayiqqa yana uch vahshiy tushib oldi.

Men Jumaboyga qayrilib qarab, qayiqdagilarni bartaraf qilishni buyurdim. U darhol buni fahmlab, qirq qadamcha chopib bordi va qayiqqa yaqinlashib turib, ularga oʻq uzdi.

Beshalasi ham qayiqdan agʻdarilib tushishdi. Men bularning hammasi oʻlgandir, deb oʻylagan edim, lekin

ikkisi darrov o'rnidan qo'zg'aldi. Aftidan, ular qo'rqib yiqilib tushgan bo'lsa kerak. Qolgan ikkitasi o'q tekkan zamon o'lgan ekan, uchinchi esa juda og'ir yarador bo'lganidan qaytib boshini ko'tara olmapti.

Jumaboy dushmanlarini otib yurgan vaqtda, men cho'ntagimdan pichoqni olib asirning qo'l-oyog'i bog'langan kanopni kesdim. Keyin ovrupolikni suyab o'rnidan turg'izdim, so'ngra Portugaliya tilida gapirib, kimligini so'radim. U:

– Espanole (ispaniyalik), – deb javob berdi.

Sal o'tmay u o'ziga keldi va jonini saqlab qolganim uchun imo-ishoralar qilib menga samimiy tashakkur izhor qila boshladi.

Ispan tilidan bilgan so'zlarimni xayolimga keltirib turib, unga ispancha qilib bunday dedim:

– Senyor, biz keyinroq gaplashamiz, hozir jang qilmog'imiz kerak. Agar oz-moz kuchingiz qolgan bo'lsa, mana bu qilich bilan to'pponchani qo'lga oling.

Ispaniyalik kishi qurollarning har ikkisini ham zo'r minnatdorlik bilan qabul qildi va qo'lga olgach, butunlay boshqa odam bo'lib ketdi. Unda bu qadar kuch qayoqdan paydo bo'ldi?! U vahshiylar ustiga quyundek otilib, bir zumda ikki kishining kallasini uzib tashladi.

Darvoqe, bu xil qahramonlik uchun uncha ko'p kuchning keragi yo'q edi; miltiqlarimizning gumbirlagan ovozi sarosimaga tushib, garang bo'lib qolgan sho'rlik vahshiylar shunchalik qo'rqan edilarki, ular qochishdan ham, o'zlarini himoya qilishdan ham ojiz edilar. Otgan o'qimiz tegmay, yonlaridan o'tib ketsa ham, Jumaboy o'q otganda qayiqdagi cho'rt uchib tushgan boyagi ikki vahshiy singari bular ham yumalashib tushar edilar.

Qilich bilan to'pponchani ispaniyalikka berganimdan keyin qo'limga atigi pilti qoldi. Miltiq



o'qlangan edi, men o'qni eng zarur paytda ishlatgani asrab turdim. Otmadim.

Biz birinchi dafa o'q uzgan chakalakzorda, bir daraxt tagida ov miltig'imiz qolgan edi. Jumaboyni chaqirib, o'sha miltiqni olib kelishni buyurdim.

U buyrug'imni juda tez bajardi. Men Jumaboyga qo'limdagi miltiqni berdim, keyin ispaniyalik bilan Jumaboyga miltiq kerak bo'lganda oldimga kelishlarini aytib, o'zim ularni o'qlashga tutindim. Ular buyruqlarimni bajarishga hozir ekanliklarini izhor qildilar. Men miltiqlarni o'qlab turganda ispaniyalik kishi qahr-g'azab bilan bir vahshiyga hujum qildi, ular o'rtasida qattiq jang boshlandi.

Vahshiyning qo'lida juda katta yog'och qilichi bor edi. Vahshiylar bu ajal qurolini ishlatishga juda usta bo'lishadi. Ispaniyalik gulxan yaqinida bandi bo'lib yotganda, ular shu qilichlarning biri bilan uning boshini olmoqchi edilar. Hozir bu qilich yana uning boshiga keldi. Men bu ispaniyalik odamni shunchalik botirdir, deb o'ylamagan edim; to'g'ri, u tortgan azob-uqubatlaridan uncha o'ziga kelmagandan, hali zaif edi, shunday bo'lsa ham, u zo'r matonat bilan olishdi va dushman boshiga qilich bilan ikki bor zarb urdi. Vahshiy baland bo'yli, muskullari baquvvat, juda kuchli edi. Birdan u qilichini qo'lga olib, ikkisi qilichbozlik qila ketdi. Ispaniyalik juda tang holga tushib qoldi: vahshiy darhol uni yiqitdi va tagiga bosib, qo'ldan qilichini tortib olmoqchi bo'ldi. Lekin ispaniyalik sarosimaga tushib qolmadi: u qilichni qo'yib yubordi-da, yonidan to'pponchani olib, vahshiyini otib o'ldirdi. Jumaboy esa qochib ketayotgan vahshiylarni mardonalik bilan quvib bormoqda. Uning qo'lida boltadan boshqa qurol yo'q. Shu bolta bilan u dastlab o'q uzganimizda yarador bo'lgan uch vahshiyini o'ldirdi, undan keyin yo'lida uchraganiga hech omon bermay, qirib boraverdi.

Ispaniyalik kishi esa o'z joniga qasd qilgan daroz vahshiyning ishini bitirib, irg'ib o'rnidan turdi va yonimga yugurib kelib, o'qlab qo'yilgan ov miltiqlardan birini olib, ikki vahshiyini quvib ketdi. U ikki vahshiyini ham yarador qildi, lekin ispaniyalik quvib yetolmagach, vahshiylar daraxtzor ichiga kirib yashirindilar.

Jumaboy boltasini o'qtaganicha ular orqasidan quvib ketdi. Yaradorligiga qaramasdan bir vahshiy o'zini dengizga tashlab, qayiq orqasidan suza boshladi: qayiqda sohildan birmuncha nariroqqa suzib ketgan uch vahshiy bor edi.

Qayiqdagi uch vahshiy o'q yog'inidan omon qolmoq uchun zo'r berib eshkaklarni eshib bormoqda edi.

Jumaboy ular orqasidan ikki-uch marta o'q uzdi-yu, aftidan, tekizolmadi. U, vahshiylar sohildan uzoq ketmaslaridan, ularning qayiqlaridan birini olib, ketlaridan quvib yetish kerak, deb mendan o'tina boshladi.

O'zim ham ularning qochib qutulishlarini istamas edim. Ular borib, urug'-aymoqlariga bizning hujum qilganligimizni aytib bersalar, quyundek ustimizga yopirilib kelishadi va ta'zirimizni berishadi, deb qo'rqar edim.

To'g'ri, bizning miltiqlarimiz bor, ularning esa yolg'iz kamon-u yog'och qilichlari bor, xolos, lekin dushman qayiqlarining butun bir flotiliyasi bizning sohilimizga yopirilib kelgudek bo'lsa, albatta, bizni bitta qoldirmay qirib tashlaydi. Shuning uchun ham, Jumaboyning iltimosiga ko'ndim. Uni orqamdan yurishga buyurib, qayiq yoniga yugurib bordim.

Qayiq tepasiga borib, tamom hayratda qoldim, qayiqda odam yotibdi! Bu odam kekxa bir vahshiy edi. U qo'l-oyoqlari bog'langan qayiq tagida yotardi. Aftidan, uni ham gulxan yonida yemoqchi bo'lgan bo'lsalar kerak. Atrofdan bo'layotgan dahshatga aqli

yetmay (uni chambarchas qilib bog'lab tashlaganlaridan, qayıqdan bosh chiqarib qarashga iloj topolmapti), o'lay deb qolibdi.

Darrov cho'ntagimdan pichoqni olib, chambarchas bog'lab tashlangan chivirlarni kesdim, keyin uni o'rnidan turg'izmoqchi bo'ldim. U oyoqqa bosib turolmadi. Hatto uning gapirishga ham madori qolmagan, faqat mungli bir ohangda ingrar edi: bechora, so'yib yemoq uchun meni bog'lovdan bo'shatdi, deb o'ylagan bo'lsa kerak.

Shu mahalda Jumaboy yugurib kelib qoldi.

Men Jumaboyga qarab:

– Bu odamga ayt, u endi ozod, biz unga hech ziyon yetkazmaymiz, uning dushmanlari yo'q qilindi, degin, – dedim.

Jumaboy chol bilan gaplashdi, cholning og'ziga bir necha tomchi rom quydim.

Ozodlik to'g'risidagi xabar bechora cholga ruh berdi: u qayıq tagidan qaddini ko'tarib, allanima deb gapirdi.

Bu chog' Jumaboyning qanday holga tushganligini tasavvur qilib bo'lmaydi! Shu daqiqada uning qay holga tushganligini kuzatib turgan odam, garchi bag'ri tosh bo'lsa ham, ko'ngli buzilib, ko'zlaridan lim-lim yosh to'kar edi. U cholning ovozini eshitishi va yuzini ko'rishini bilanoq uni quchoqlab o'pa boshladi, goh yig'lab, goh kulib, uni mahkam bag'riga bosdi, qichqirib yubordi, keyin uning atrofida irg'ib sakray boshladi, keyin yana yig'ladi, qo'llarini silkitib, o'zining boshiga va yuziga ura boshladi, xullas, jinni holiga tushdi.

Men undan, nima gap bo'ldi, deb so'radim, anchagacha undan javob ololmadim. Birmuncha vaqt o'tgach, u sal o'ziga kelib, bu odam mening otam bo'ladi, dedi.

Bu jo'shqin farzandlik muhabbati mehrimni shu qadar iydirib yubordiki, buni izhor qilmoqqa tilim

loldir! Bir nodon vahshiy o'z otasi bilan uchrashganda shu qadar hayajonga tushib, shu qadar shod-xurram bo'lar, deb hech o'ylamagan edim.

Shu bilan birga otasiga farzandlik muhabbatini izhor qilib irg'ishlaganini va imo-ishoralar qilganini ko'rganda, kulmasdan iloj yo'q edi. U o'n marta qayiqdan irg'ib tushib yana irg'ib qayiqqa chiqdi; goho kamzulining tugmalarini yechib, ko'kragini yalang'ochlab otasining boshini mahkam bag'riga bosib oladi, goho uning uvishib qotib qolgan qo'l-oyoqlarini silab-siypab, uqalashga tutinadi.

Cholning badanlari uyushib qolganligini ko'rib, rom surib ishqalash kerakligini maslahat qildim, Jumaboy darhol uni uqalab-silashga tutindi.

Qochib ketayotgan vahshiylar orqasidan quvib borish, albatta, xayolimizdan batamom ko'tarilib ketdi; ularning qayig'i juda uzoqlab ketib, ko'zdan g'oyib bo'lgan edi.

Ular orqasidan quvib borishga harakat qilmadik, quvib bormay juda yaxshi qilgan ekanmiz, chunki oradan ikki soatcha o'tgach, qattiq shamol turdi, shamol qayig'imizni, albatta, ag'darib tashlar edi. Shamol shimoli-g'arb tomondan, xuddi qochib ketayotgan vahshiylarning ro'parasidan urib berdi, menimcha, ular bo'ronga bardosh bera olmay va o'z sohillariga yetolmay to'fqinda halok bo'lib ketgan bo'lsalar kerak.

Kutilmagan bu shodlik Jumaboyni zo'r hayajonga solganidan, uni otasidan ajratishga hech ko'nglim bo'lmadi. «Mayli, yupanaversin», – dedim-da, sal nariroqqa borib, xursandlik hovridan tushishini kutib turdim.

Ancha vaqt o'tdi. Oxiri Jumaboyni chaqirdim. U xursandligi ichiga sig'may, kulganicha yonimga chopib keldi. Undan, otangga non berdingmi, deb so'radim. U xafa bo'lib boshini chayqadi:

– Non yo'q: ahmoq it, hech qoldirmay hammasini o'zi yeb qo'ydi.

Shunday deb, o'zini ko'rsatdi.

Men sumkamda qolgan bor-yo'q ovqatni – bita kichik non-u ikki-uch shingil mayizni olib Jumaboyga berdim. U go'dak bolalarga xos erkalik bilan parvona bo'lib otasini ovqatlantira boshladi. Qattiq hayajonlanganidan, qaltirayotganini ko'rib, men qolgan romni ichib, o'zingni tutib ol, deb maslahat berdim, lekin u o'zi ichmay, cholga ichirdi.

Bir daqiqadan so'ng Jumaboy orqa-oldiga qaramay chopib ketdi. U umuman juda chopqir edi; to'xta, qayoqqa borayotganingni aytib ket, deb uning orqasidan qichqirsam ham hech narsa demay, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Darvoqe, oradan chorak soat o'tgach, Jumaboy qaytib keldi. Endi u ancha sekin yurib kelmoqda edi. Yaqinroq kelgach, bir nimani ko'tarib kelayotganini ko'rdim. Qarasam, qo'lidagi sopol ko'zacha, unda otasiga suv keltirmoqda edi. U, suv uchun uyga, qo'rg'onimizga boribdi, darvoqe, ikkita katta non ham olib kelibdi. Nonni menga berdi, suvdan ham menga bir necha qultum ichirdi, men juda chanqagan edim, keyin suvni otasiga olib bordi. Suv cholga spirtidan ham yaxshi davo bo'ldi: u tashnalikdan o'layozgan ekan.

Chol suvga qongach, men Jumaboyni chaqirib, suvdan qoldimi deb so'radim. U, bor dedi. Qolgan suvni bu vahshiy choldan ham battar tashna bo'lib, tomoqlari qaqrab ketgan bechora ispaniyalik kishiga eltib berishni buyurdim. Unga bitta non ham yubordim.

Ispaniyalik odam hali ham zaif edi. U tamom holdan ketib, daraxt tagidagi maysa ustida o'tirar edi. Vahshiylar uni qattiq bog'lagan ekanlar, shuning uchun uning qo'l va oyoqlari shishib ketgan edi.

U suvga qonib, nonni yeb bo'ldi, men uning yoniga borib, bir hovuch mayiz berdim. U boshini ko'tarib, zo'r minnatdorlik bilan menga tikildi. Keyin o'rnidan

turmoqchi bo'lgan edi, turolmadi, shishib ketgan oyoqlari juda qattiq og'rir edi. Bu kasal odamga tikilib, hozirgina uning kuchli dushman bilan qahramonlarcha olishganini tasavvur etmoq qiyin edi. Unga o'rnida qimirlamay o'tirishni maslahat berib, Jumaboyga uning oyoqlarini rom surtib silashni buyurdim.

Jumaboy uning oyoqlarini silab turgan paytda, men ko'z olmay uni kuzatib turdim. Jumaboy har minut sayin, bir nima kerak emasmikan, deb qayrilib otasiga qarar edi. Otasi qayiq ichida o'tirganidan Jumaboyga boshigina ko'rinardi. Bir marta qayrilib qaraganida, otasining boshi ko'rinmay qoldi. Jumaboy shu zamonAQ otasi oldiga yugurdi. U yugurib emas, uchib ketdi: uning oyoqlari yerga tegmas edi. Lekin qayiq yoniga chopib borib, otasining dam olmoq uchun cho'zilib yotganini ko'rgach, darrov yonimizga qaytib keldi.

Ispaniyalik kishiga, mening do'stim sizga turgani yordam beradi ham qayiqqacha sizni suyab olib boradi, qayiqda sizni uyimizga olib ketamiz, dedim.

Shunda bo'yi novcha, o'zi polvon Jumaboy, xuddi yosh bolani ko'targanday, uni dast ko'tarib, orqasiga opichib olib ketdi. Qayiq yoniga yetib, ispaniyalikni avaylab qayiqqa suyadi, keyin otasining yoniga yotqizdi. So'ngra sohilga tushib, qayiqni suvga itardi, keyin qayiqqa chiqib olib, uni haydab ketdi. Men piyoda yurdim.

Jumaboy qayiqni juda tez haydadi, qattiq shamol bo'lishiga qaramasdan, qayiq qirg'oq yoqalab juda tez suzdi, men qayiq orqasidan sira yetib yurolmadim.

Jumaboy qayiqni bizning gavanga bexatar olib keldi, otasi bilan ispaniyalik kishini shu yerga qo'yib, o'zi sohilga chiqib yugurgancha orqasiga qaytib ketdi. U mening yonimga yetib kelganda, undan:

– Qayoqqa chopypasan? – deb so'radim.

– Yana bir qayiqni olib kelgani ketyapman! – dedi chopib ketayotib va to‘xtamay o‘tib ketdi.

U shuncha tez chopmoqda ediki, hech bir odam, hech qanday ot unga yetolmas edi.

Qo‘ltiqqa yetmasimdanoq u ikkinchi qayiqni ham yetkazib keldi. Irg‘ib sohilga tushdi-da, yangi mehmonlarimizga qayiqdan chiqishga yordamlashdi, lekin ular ikkisi ham juda holdan ketganligidan endi oyoq ustida ham tura olmadilar.

Bechora Jumaboy nima qilarini bilmay qoldi.

Men ham o‘ylanib qoldim.

– Mehmonlarni hozircha sohilda qoldirib, o‘zing orqamdan yur, – dedim unga.

Shu yaqin joydagi chakalakzorga kirib ikki-uchta niholchani kesdik va naridan-beri qilib zambil yasab, mehmonlarni solib, qo‘rg‘onning tashqi sahnigacha ko‘tarib keldik.

Shu yerga kelganda, nima iloj qo‘llashimizni bilmay dovdirab qoldik. Bunchalik baland devordan ikki katta kishini ko‘tarib o‘tgim kelmadi. Yana aqlni ishga solib, nima qilmoq tadbirini o‘ylay boshladim. Jumaboy ikkimiz ishga kirishdik, ikki soatdan so‘ng ustiga qalin shox tashlangan durustgina kapa tayyorladik.

Shu kapaga sholi poxolidan ikkita o‘rin to‘shab, to‘rtta ko‘rpa yasadik.

### ***Yigirma to‘rtinchi bob***

## **OROLNING YANGI FUQAROLARI. INGLIZLARNING KELGANI**

Hozirgina asirlikdan qutqazib olingan betob mehmonlarimizga bino yasab, ularni yangi uyga olib kirib yotqizdim, ular bu yerda dam olib, kuchga kirmoqlari mumkin, endi ularga ovqat pishirib bermoq kerak. Jumaboy mening ko‘rsatmalarimga binoan ovqat

tayyorladi. U arpa uni va gurunch solib, sho'ruva pishirdi. Sho'ruva juda mazali bo'ldi. Ovqat ochiq yerdagi pishirildi, sababi shuki, men qo'rg'on ichida hech mahal o't yoqmas edim.

Biz ovqatni yangi kapaga keltirib, to'rtovlon shu yangi uyda ovqatiandik.

Ovqat ustidagi gurungga men bosh bo'ldim va mehmonlarimizni gapga soldim. Jumaboy menga tarjimon bo'ldi. U otasi bilan gaplashgan vaqtimdagina emas, ispaniyalik kishi bilan gaplashgan vaqtimda ham tarjimonlik qildi, chunki ispaniyalik kishi vahshiylar tilini ancha yaxshi bilib olgan ekan.

Ovqatlanib bo'lganimizdan keyin Jumaboyni qayiqlardan biriga tushirib, qurol-aslahalarimizni olib kelishga yubordim. Vaqtimiz ziq bo'lganidan, qurollarni jang bo'lgan joyda qoldirib kelgan edik; ertasiga esa uni o'ldirilgan vahshiylarning jasadini ko'mib kelgani, shuningdek, odamxo'rlikdan iborat mudhish aysh-ishrat izini ham yo'q qilib kelgani yubordim.

Jumaboy buyrug'imni xuddi aytganimday qilib bajaribdi. U vahshiylarning asarini bitta ham qoldirmay yo'q qilibdi, men yana qaytib shu joyga borganimda, uni darrov bilib ololmadim. Odamxo'rlar shu yerdagi aysh-ishrat qilib o'tirganini sohil bo'yidagi daraxtlaridagina tusmollab payqab oldim.

Bir necha kun o'tgach, yangi do'stlarim boshlariga tushgan og'ir azoblardan keyin dam olib, o'zlarini biroz tutib olganlaridan so'ngra Jumaboyni tarjimon qilib, ular bilan suhbatlasha boshladim.

Men, avvalo, Jumaboyning otasidan qochib qutulgan vahshiylar orolga bir gala vahshiylarni boshlab kelib, bizdan qattiq qasos olishidan gumon qilmay-sizmi, deb so'radim.

Chol javob berib aytdiki, qochib qutulgan vahshiylar o'sha kechasidagi qattiq bo'ronda o'z sohillariga hech yetib ololmaydilar, ularning qayig'i bo'ronda



ag'darilib, o'zlari dengizga g'arq bo'lib ketgan bo'lishlari ehtimoldan xoli emas.

– Mabodo tirik qolgan bo'lsalar ham, bo'ron ularni boshqa tomonga surib ketgan va boshqa bir dushman qabilaning yurtiga borib qolganlar, u yerda esa ularning barini tutib yeganlar, – dedi u.

Chol biroz sukut qilgach, so'zini davom ettirdi:

– Ular o'z yurtiga omon-eson yetib olgan ham bo'lsin, lekin shunda ham qaytib kelishga botin olmaydilar. Ular sizlarning qo'qqisdan qilgan hujumingizdan, miltiqlaringizning gumbirlab otilishidan shu qadar qattiq qo'rqqan edilarki, o'z urug'-aymoqlariga: o'rtoqlarimiz momaqaldiraq va yashinda halok bo'ldi deb aytishlari turgan gap. Ular siz bilan Jumaboy ikkingizni: ruh g'azabga keldi, bizni yo'q qilib yubormoq uchun yerga shaytonlar tushdi, deb bildilar. Ularning bu haqda bir-birlariga aytgan gaplarini o'z qulog'im bilan eshitdim. Ular oddiy ajal kelganda o't chiqib chaqmoqdek izg'ib yurishini, gumbirlashini va hatto qo'lini ham ko'tarmay uzoq joydan turib o'lim keltirishini hech tasavvur qilolmaydilar.

Chol to'g'ri aytgan ekan. Keyinchalik bilishimcha, vahshiylar hatto mening orolimga yaqin ham yo'lolmabdilar. Aftidan, biz halok bo'lib ketdi deb o'ylagan qochoqlar bir amallab yurtlariga yetib olgan, ammo o'zlarining vahimali gaplari bilan boshqa vahshiylarni ham qo'rqitib yuborgan bo'lsalar kerak, ularning urug'-aymoqlari orasida hatto bu sehrli orolga qadam bosgan kishini xudo o't bilan o'ldiradi, degan e'tiqod hosil bo'lgan bo'lishi ehtimol.

Bu ehtimolning to'g'riligiga aqlim yetmasdan, ko'p vaqtgacha vahshiylar qasos olmoq uchun kelishadi, deb qo'rqib yurdim. Ammo men ham, mening kichkina armiyam ham jang qilmoqqa doim tayyor edik: axir biz endi to'rt kishimiz, bizga yuzta dushman

yopirilib kelganda ham, ular bilan jang qilmoqdan sira qoʻrqmas edik.

Shunisi borki, vahshiylar ikki yuz-uch yuz kishi boʻlib kelmoqlari ham mumkin edi, unda bizni yenga olar edilar.

Kunlar oʻtaverdi, lekin vahshiylar qayigʻi biz tomonga yoʻlamadi. Shu bilan birga, men qitʻaga borish toʻgʻrisidagi avvalgi fikrni qayta-qayta oʻylay berdim. Jumaboyning otasi, «Mening hamyurtlarim sizni juda xursandlik bilan kutib olishadi, chunki siz mening oʻgʻlimni va oʻzimni oʻlimdan saqlab qoldingiz, bunga amin boʻling», – deb koʻp ishontirdi.

Ispaniyalik kishi bunday dedi: vahshiylar oʻz sohillarida halokatga yoʻliqqan oʻn yetti kishi bilan iborat ispaniyalik va portugaliyaliklarga joy bergan boʻlsalar ham, lekin baribir ovrupolilar hammasi nihoyatda qiynalmoqda, hatto och ham qolmoqda. Vahshiylar ularga taaddi qilmaydilar, toʻla erk berib qoʻyganlar, lekin vahshiylarning oʻzlari juda xarob turishadi va yangi kelgan odamlarni boqishga koʻpincha ojizlik qilishadi.

Men ularning soʻnggi safarlarini soʻradim. U, bizning kemamiz Rio-de-la Platidan chiqib Gavanaga borayotgan edi. Gavanaga moʻyna, kumush olib borib, undagi Ovrupo mollaridan yuklab ketishi lozim edi, deb aytdi.

Gavanaga borayotganda ular bungacha halokatga uchragan boshqa bir kemanding portugaliyalik matrosalaridan besh kishini qutqazib olibdilar; dengizda boʻron koʻtarilgan mahalda ularning kemasidagi xizmatchilardan besh kishi suvga gʻarq boʻlib ketibdi, qolganlari koʻp kunlar azob chekib, xavf-xatarlarga yoʻliqib, tashnalik va ochlikka giriftor boʻlib, oxiri odamxoʻr vahshiylar yurtiga kelib qolibdilar. Bu yurtga kelib tushgach, ular bizni vahshiylar ana hozir, mana hozir yeb qoʻyadi, deb hadeb hadiksiray

beribdilar. Ular yonida mulohazalari bo'lsa ham, o'qlari ham, dorilari ham yo'q ekan: o'zlari bilan qayiqda olib kelgan dorining qariyb hammasi yo'lda ivib qolibdi, qolganini esa ular kelgan kunlaridayoq tamom qilib qo'yibdilar, chunki dastlabki vaqtlarda ular faqat ov qilish yo'li bilangina ovqat topibdilar.

Men undan, sizning fikringizcha, o'rtoqlaringizning taqdiri qanday bo'ladi, sizlar u yerdan qutulib ketish uchun hech harakat qilib ko'rdilaringizmi, deb so'radim. U, biz bu haqda juda ko'p maslahat qilishdik, lekin maslahatlarimiz hammasi ko'z yoshi to'kish va hasrat-nadomat bilan tamom bo'ldi, dedi.

– Bizning dengizda suzib ketishga imkon beradigan kemamiz ham, kema yasamoq uchun asboblaringiz ham, ozuqalarimiz ham yo'q edi, – dedi u.

Men unga bunday dedim:

– Men siz bilan ochiqchasiga, rostini gaplashay. Men o'rtoqlaringizga bu yerga, mening orolinga kelishni taklif qilsam, ular rozi bo'ladilarmi, sizning fikringiz qalay? Mening fikrimcha, hammamiz birgalashib harakat qilsak, bir amallab biror Ovrupo mamlakatiga yetib olishimiz va undan o'z vatanimizga qaytib ketish uchun yo'l topishimiz mumkin bo'lardi. Men faqat bir narsadan, ya'ni, ularni bu yerga taklif qilib, o'zimni ularga tutib bermasmikanman, deb qo'rqaman. Mehmondo'stligimga qaramay, ular yaxshilik o'rniga menga xiyonat qilsalar nima bo'ladi? Umuman aytganda, yaxshilikni bilmaydigan odamlar ham bo'ladi. Ishoningki, haligacha bitta ingliz<sup>14</sup> boshini omon ko'tarib chiqolmagan Yangi Ispaniyada odamlarni balodan qutqazsang-u, o'zing ularga asir bo'lib qolsang – bundan nohaq, bundan alamli ish bo'lmas. Shafqatsiz poplarning changaliga tushgan-

---

<sup>14</sup> Inglizlar – protestantlik mazhabida, ispanlar – katolik mazhabida bo'lganlaridan u zamonda ular orasiga diniy nizo juda kuchli edi.

dan yoki inkvizitorlar qoʻlida kuydirilib oʻlgandan koʻra, vahshiyalar yeb ketgani yaxshiroq. Agar sizning oʻrtoqlaringiz bu yerga kelsalar, – dedim soʻzimdada davom etib, – koʻpchilik boʻlib, katta bir kema qurib olmogʻimiz hech gap emas. Biz bu kemaga tushib, janub tomonga borib Braziliyaga yoki shimol tomonga borib Ispaniya mulkiga yetib olgan boʻlur edik. Lekin maʼlumki, mabodo, men ular qoʻliga qurol bersam, ular esa mening qilgan yaxshiliklarimdan minnatdor boʻlish oʻrniga oʻzlarini mendan kuchli bilib, bu qurolni menga qarshi qaratsalar, mening erkimni tortib olgan va meni ularga qilgan shuncha yaxshiliklarimdan afsus-nadomat qilishga majbur etgan boʻladilar.

Ispaniyalik kishi chin qalbdan kuyunib bunday dedi:

– Oʻrtoqlarim juda-juda ogʻir falokatga duchor boʻlganlaridan va nihoyatda mushkul ahvolda qolganliklarini yaxshi bilganlaridan oʻzlarini shu tutqinlikdan qutulishga yordam beradigan kishiga yomonlik qilarlar, degan fikrni xayolimga ham keltira olmayman. Agar xohlasangiz, – dedi soʻzida davom etib u, – shu chol bilan ular oldiga borib, taklifingizni aytaman va javob olib kelaman. Agar ular shartlaringizga koʻnsalar, men ulardan: «Bizlar sizning izingizdan yurib, siz oʻzingiz koʻrsatgan yerga boramiz, uylarimizga qaytib ketgunimizcha sizni oʻzimizning yoʻlboshchimiz deb bilib, sizning izmingizdan chiqmaymiz», – degan tantanali qasam ichiraman. Siz buyurasiz, biz bajaramiz. Agar istasangiz, yozma shartnoma tuzib, har birimiz shu shartnomaga qoʻl qoʻyamiz va buni men sizga olib kelaman.

Sidqidil aytilgan shu samimiy soʻzlardan keyin shubhalarim tarqaldi, men bu kishilarni qutqazib qolish uchun harakat qilmoqqa ahd qildim. Ispaniyalik kishiga, sizni va bu vahshiy cholni ular yoniga yuboraman, dedim.

Lekin ularni jo'natish uchun hamma narsa tayyor bo'lgach, ispaniyalik kishi, bu ishni bir necha oy yoinki bir yil keyinga qoldirsak yaxshiroq bo'lardi, degan fikrni aytdi.

– Mehmonlarni keltirishdan oldin ularning ovqati to'g'risida g'am yeb qo'ymog'imiz kerak, – dedi u.

U tamom haqli edi. Bizning oziq-ovqatimiz oz. Ozuqalarimiz to'rt kishiga zo'rg'a yetar edi, agar mehmonlar kelishsa, bor-yo'q zaxiramizni bir hafta ichidayoq yeb tamomlashadi va biz och qolishimiz turgan gap.

– Shuning uchun, – dedi ispaniyalik, – ekin ekmoq uchun yangi yer tayyorlashga ruxsat etishingizni so'rayman. Bu ishni uchalamizga topshiring, biz hoziroq ishga kirishib, sepmoq uchun siz lozim ko'rgan urug'lik donning hammasini sepamiz. G'alla pishig'igacha kutib turamiz; hosilni yig'ishtirib olgach, ko'targan hosilimiz yangi mehmonlarni boqish uchun yetarli bo'lsa, keyin men Jumaboyning otasi bilan ularni olib kelgani boraman. Agar ular bu orolga hozir kelsalar, qattiq ocharchilikda qoladilar. Buni aslo istab bo'lmaydi, chunki ochlik ular o'rtasida nifoq va bir-biriga dushmanlik chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu odamning idrok bilan uzoqni o'ylashi menga juda ma'qul bo'ldi. Uning haqiqatan ham mening baxt-saodatim yo'lida tashvish tortayotganini va menga chin qalbidan sodiq ekanini bildim.

To'rtovimiz darhol yangi yerni chopishga kirishdik. Biz tuproqni zo'r g'ayrat bilan kavlay boshladik (yog'och asboblari bilan imkoni boricha kavladik); bir oydan so'ng, don sepish payti yetganda katta bir bo'lak yerni juda sozlab ekishga tayyorladik, bu yerga yigirma ikki bushel arpa va o'n olti bushel sholi sepdik, ya'ni, urug'liq uchun ajratishim mumkin bo'lgan donning hammasini sepdik.

Endi to'rt kishi ekanimiz, vahshiylar juda ko'plashib yopirilib kelgan taqdirdagina bizga zarar yet-

kaza olishlari mumkin edi. Biz vahshiylardan sira tap tortmay orolni bemaolol aylanib yuraverdik. Hammamiz ham qanday qilib bo'lmasin, bu yerdan tezroq ketish payida bo'lganimizdan, shu fikrni amalga oshirmoq uchun astoydil g'ayrat qilib ishladik. Orolni kezib yurgan vaqtlarimda kema qurishga yaraydigan daraxtlarni belgilab qo'ygan edim. Jumaboy otasi bilan birga bu daraxtlarni kesa boshladi, ispaniyalik kishini esa ular ishiga rahbar qilib tayinlab qo'ydim.

Har bir taxtani qanday qattiq mehnat sarf qilib yo'nganligimni ularga ko'rsatdim va biz hammamiz birgalashib yangi taxtalar tayyorlay boshladik. Biz bir dujinacha taxtani yo'nib tayyorladik. Bular bo'yi o'ttiz fut, eni ikki fut va qalinligi to'rt duym keladigan qattiq dub taxtalar edi. Bu ishga qanchalik ko'p mehnat sarf qilganligimizni har kim ham aniq tasavvur qila oladi.

Ayni vaqtda men o'zimning ozgina chorvamni imkon boricha ko'paytirishga harakat qildim. Bu ish uchun har kuni ikki kishi bo'lib yovvoyi uloqlar tutib kelgani bordik, natijada, oradan ko'p o'tmay, echkilarimizning soni yigirmaga yetib qoldi.

Yana oldimizda juda muhim ishlardan biri turardi: biz mayiz tayyorlashga kirishmog'imiz lozim edi, chunki uzum pisha boshladi. Biz juda ko'p mayiz quritib oldik. Mayiz non bilan baravar turadigan asosiy ovqatimiz hisoblanar edi. Hammamiz mayizni juda yaxshi ko'rar edik. To'g'risi, men bundan ko'ra shirin va to'q tutadigan shirinlikni bilmayman.

O'rim-yig'im vaqti boshlandi. Hosil yomon bo'lmadi, eng yuqori hosil yetishmagan bo'lsa ham, har holda shunchalik bo'ldiki, biz endi ellik kishi bo'lsak ham boqa olar edik. Biz juda ko'p hosil oldik. Bu miqdor don kelgusi hosilgacha yeb-ichganda ham hammamizdan ortib qolar edi: bu qadar ko'p ozuqa bilan bizning bemaolol dengiz safariga chiqishimiz

va Janubiy Amerikaning istagan sohiliga yetib olmog'imiz mumkin edi.

Buncha sholi bilan arpani qayerga to'kamiz? Buning uchun katta savat idishlar kerak edi. Hammamiz darhol savat to'qishga kirishdik, darvoqe, ispaniyalik kishi bu ishning juda mirishkori ekan.

Endi yangi mehmonlarni boqmoq uchun go'sht va donni yetarli darajada g'amlab olgach, ispaniyalik kishiga qayiqni olib, mehmonlarni olib kelishga jo'nash uchun ruxsat berdim. Ulardan, menga hech bir yomonlik qilmaslik, qo'liga qurol olib menga hujum etmaslik va buning ustiga har qanday dushman-dan meni saqlashga qasamnoma olmasdan bu yerga bir kishini ham olib kelmaslikni yaxshilab uqtirdim. Bu qasamni ular bir qog'ozga yozib, tagiga hammalari qo'l qo'yishlari lozim edi.

Men halokatga yo'liqqan ispaniyaliklar yonida siyoh ham, qog'oz ham yo'qligini unutibman.

Shu topshiriqlarni olgach, ispaniyalik kishi bilan kekxa vahshiy mening orolinga kelishgan qayiqqa tushib jo'nab ketdilar.

Ularni bu safarga jo'natarkanman, men shunday quvondim, shunday xursand bo'ldimki, asti qo'ying! Axir bu orolga surgun bo'lib yurganimdan buyon o'tgan yigirma yetti yil ichida men bu yerdan qutulib ketishimga birinchi marta umid bog'lay oldim. Ular-ga o'zlari uchun va bo'lg'usi mehmonlarimiz uchun bermalol yetadigan mayiz va non berdim.

Oxiri ularni qayiqqa o'tqazib, oq yo'l tiladim. Ular bilan xayrlashayotgan vaqtimda, ispaniyaliklarni olib kelganingizda ochiq dengizda turib bayroq ko'taringiz, toki men sizlarning qayiqqlaringizni shu belgidan tanib olayin, deb uqtirdim.

Ular oktabrning oy to'lishgan kuni, shamol esib turgan paytda jo'nab ketdilar. Afsuski, ular qaysi kuni jo'nab ketganlarini aniq aytolmayman, chunki

men kun va hafta hisobini unutib qo'ygach, uni qaytib eslay olmadim.

Sayyohlarim jo'nab ketganiga xiyla vaqt bo'ldi. Ularni kun-bakun kutmoqda edim. Nazarimda ular kechikib qolgandek bo'ldi, ular sakkiz kun avval qaytib kelishlari kerak edi. Qo'qqisdan kutilmagan bir hodisa ro'y berdi, men shu orolda umr kechirgan yillar ichida bunday voqea hech sodir bo'lmagan edi.

Bir kuni tong otar mahali, hali qattiq uyquda yotgan edim, Jumaboy yugurib kelib ovozi boricha:

– Kelayotirlar! Kelayotirlar! – deb qichqirdi.

O'rnimdan sakrab turib, darrov kiyindim-da, devordan oshib o'tdim va xavf-xatarni xayolimga ham keltirmay chakalakka yugurib kirdim (darvoqe, bu chakalak shu qadar o'sib, zichlashib ketgan ediki, bu chog' uni o'rmon deb atasa ham bo'lardi). Ehtiyotni shunchalik unutib qo'yibmanki, aksiga olib, bu safar qo'linga hech bir qurol ham olmabman. «Ispaniyalik kishi o'z do'stlari bilan qaytib kelayotir», – deb astoydil ishongan edim.

Sohildan besh milcha narida, dengiz ichida uch-burchak chodirini yoyib kelayotgan begona qayiqni ko'rib benihoyat hayratda qoldim! Qayiq to'ppa-to'g'ri orolga qarab yo'l solmoqda, orqadan turgan kuchli shamol esa uni juda tez haydab kelmoqda. U qit'a tomondan emas, orolning janub tomonidan kelar edi.

Xullas, bu qayiq biz shuncha kundan beri kutayotgan qayig'imiz emas edi.

Har ehtimolga qarshi mudofaaga tayyorlanish kerak edi.

Jumaboyga daraxtzorga yashirinib, qayiqdagi odamlarni mijja qoqmay, yaxshilab kuzatishni buyurdim, chunki ularning dushmanmi yoki do'stligi bizga noma'lum edi. Keyin o'zim uyga qaytib kelib, durbinni oldim va atrofni kuzatmoq uchun narvon bilan tepa ustiga chiqib, yotib oldim; dushman hu-



jumidan xavfsiragan vaqtimda doim shu joyga chiqib kuzatar edim.

– Hali tepa ustiga chiqib ulgurmasimdan oq dengizdagi kemaga ko‘zim tushdi.

Bu kema orolning janubi-sharqiy burchida, mening uyimdan sakkiz milcha narida langarda turmoqda edi. Bu kema shak-shubhasiz, ingliz kemasi edi, shuning uchun ham, bu qayiq ham inglizlarniki ekan, deb bildim.

Bu narsaning meni qanchalik turli-tuman hissiyotlarga chulg‘aganini aytib bermoqqa tilim loldir.

Kemani, buning ustiga, ingliz kemasini ko‘rgandagi quvonchimni, vatandoshlarim bilan (demak, do‘stlarim bilan) hozir uchrashish arafasidagi quvonchimni tasvir qilib bermoq maholdir.

Shu bilan birga, qandaydir ichki hayajon meni ehtiyot bo‘lmoqqa majbur qildi, buning sababini o‘zim ham bilmay qoldim.

Avvalo, o‘zimga-o‘zim ingliz savdogarlarining kemasi inglizlarning menga ma‘lum bo‘lgan hamma savdo yo‘llaridan chetda bo‘lgan bu joyga nega kelib qoldi ekan, degan savolni berdim. Bu kemani bo‘ron surib kelmaganligini bilar edim, chunki so‘nggi mahallarda bo‘ron turgani yo‘q. Basharti, kema dagilar darhaqiqat inglizlar bo‘lganda ham, ma‘lum vaqtgacha men ularning ko‘ziga ko‘rinmasligim kerak, chunki ularning bu yerga yaxshi niyat bilan kelmaganliklari turgan gap edi. Shubhali odamlarga ishonib, allaqanday o‘g‘rilar va qotillar qo‘liga tushib qolgandan ko‘ra bundan buyon ham shu orolda qolib ketganim yaxshiroq!

Tepa ustida turib, yaqin kelayotgan qayiqni kuzatdim.

Bu qayiq birdan burilib, bir mahalda men o‘z stolimni to‘xtatgan qo‘ltiqqa tomon qirg‘oq bo‘ylab jo‘nadi. Aftidan, qayiqdagi kishilar kelib to‘xtash uchun

qulay joy qidirmoqda edilar. Ular qo'ltiqni ko'rmay, undan yarim milcha nari borib to'xtadilar.

Ularning o'sha yerga borib tushganlariga juda xursand bo'ldim, nimagaki, basharti, ular shu qo'ltiqqa kelib, mening uyim ostonasiga tushganlarida, kim biladi deysiz, meni qo'rg'ondan haydab chiqarishlari, uyimdagi bor narsani talab ketishlari ehtimoldan uzoq emas edi!

Odamlar sohilga tushishdi, men endi ularning chindan ham inglizlar ekaniga ishonдим.

Ulardan bir-ikki kishi gollandiyalik bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, men xato qilibman. Ular hammasi bo'lib o'n bir kishi ekan.

Ulardan uch kishi, aftidan, asir qilib olib kelinganga o'xshaydi, chunki ularning yonida hech qanday qurolni ko'rmadim, nazarimda, ularning oyoqlari bog'lab qo'yilgandek ko'rindi. Sohilga avval tushgan besh kishi ularni qayiqdan sudrab chiqarganini ko'rib turдим.

Asirlardan biri nimanidir iltimos qildi: uning iltijosi azob chekkanini, yalinib-yolborayotganini va umidsiz ahvolga tushganini bildirar edi.

U es-hushini tamom yo'qotib qo'ygan ko'rinadi. Boshqa ikkisi ham qo'llarini osmonga ko'tarib yalinar edi, lekin bular umuman birmuncha tinch va o'z alamlarini uncha oshkor bayon qilmas edilar.

Men ularga tikilib, nima gapligiga hech tushunolmadim. Birdan Jumaboy chalakam-chatti inglizcha qilib bunday dedi:

– Ho, Robin Kruzo! Bunga qara: oq tanli odamlar ham vahshiyarga o'xshab odam yer ekan.

– Esingni yedingmi, Jumaboy! Nahot, shu odamlar ularni yeydi deb o'ylasang? – dedim unga.

– Albatta, yeydilar, – deb javob qildi u.

– Yo'q, yo'q, Jumaboy, yanglishasan; bu odamlar ularni o'ldiradi deb qo'rqaman, lekin yemaydilar, – dedim.

Ko'z oldimda nima voqea bo'layotganini hali ham payqab ololganim yo'q, lekin hozir, ko'z o'ngimda qon to'kiladi, deb o'ylab, butun badanlarimni qaltiroq bosdi.

Nazarimda, qaroqchilardan biri o'z asirining boshiga xanjar yoki tig'siz qilichga o'xshash qurol bilan tushirgandek bo'ldi.

A'zoyi badanim uyushib ketdi: bu sho'rlik shu tobda jonidan ayriladi, deb o'yladim. Hozir yonimda ispaniyalik kishi bilan chol vahshiyning yo'qligiga juda afsus yedim.

Qaroqchilardan bittasining qo'lida ham miltiq ko'rmadim.

«Hozir bir amallab ularga yaqinroq borilsa-yu, to'ppa-to'g'ri o'q uzib, bu asirlarni qutqazib olinsa, ko'p yaxshi bo'lur edi», – deb o'yladim.

Lekin vaziyat o'zgardi.

Aftidan, qaroqchilar asirlarni o'ldirish niyatida emas ekanlar. Bu battollar ularga do'q urib va sho'rliklarni masxara qilib, keyin o'zlarining qayerga kelib qolganlarini bilmoq uchun bo'lsa kerak, orolga tarqalishib ketishdi.

Ular asirlarga qarab turish uchun o'rtoqlaridan ikkisini qoldirib ketdilar. Lekin bular mast, shekilli, sheriklari nari ketgan hamono qayiqqa tushib, uxlab qoldilar.

Shu tariqa asirlar o'zlari qoldi. Lekin ular o'zlariga berilgan shu qulay fursatdan foydalanib qolish o'rni-ga, qum ustida umidsizlik bilan atrofga termilishib o'tira berdilar.

Bu orolga kelib qolgan birinchi kunlarimda men ana shu holga tushgan edim.

Xuddi shularga o'xshash men ham sohilda atrof-ga termilib o'tirar edim. Men ham o'zimni halok bo'lgan deb hisoblagan edim. Meni yirtqich darran-dalar pora-pora qilib yeb ketadi, deb o'zimdan umid uzgandim, tunni daraxt ustiga chiqib o'tkazgan edim.

Umuman aytganda, bu yerda hech mahal dastlabki vaqtlardagidek qoʻrqqanim yoʻq. Holbuki, butun shu yillar davomida men bu yerda juda osoyishta yashadim! Ammo u vaqtda bu hol xayolinga kelgani yoʻq.

Xuddi menga oʻxshab bu uch shoʻrluk ham nima qilarini bilmay, qutulishlari yaqin ekanidan bexabar, noumid boʻlib oʻtirmoqda edilar.

### ***Yigirma beshinchi bob***

## **ROBINZONNING INGLIZ KEMASI KAPITANI BILAN UCHRASHGANI**

Qaroqchilar orolga suv sohilga qaytganda kelgan edilar. Ular u yoq-bu yoqni kezib chiqquncha ancha vaqt oʻtib ketdi; suv qaytib, qayiq sayoz yer ustida qoldi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, qayiqda ikki kishi qolishib, tezda uxlab qolishdi.

Bir soatdan soʻng, ulardan birovi uygʻonib qarasa, qayiq sayoz joyda turib qolibdi, u qayiqni qum ustidan sudrab suvga olib bormoqchi boʻldi, lekin kuchi yetmadi. Keyin u boshqa sheriklarini chaqirdi. Ular yugurishib kelib, unga yordam bera boshladilar, lekin qayiq juda ogʻir, qum juda nam va loyqa boʻlganidan qayiqni suvga eltishga kuchlari yetmadi.

Ular asl dengizchilar singari – maʼlumki, dengizchilar juda begʻam va hech mahal kelgusini oʻylab turmaydigan odamlar boʻlishadi – qayiqni qoldirib, yana sayr qilgani ketishdi. Ketish oldidan, ulardan birovi sherigiga ovozi boricha mana shunday dedi:

– Qoʻy uni, Jek! Qoʻlingni qavartirib nima qilasan!  
Suv sohilga qaytganda oʻzi suvga tushib oladi.

Bu soʻz ingliz tilida gapirildi. Demak, chindan ham bu odamlar mening vatandoshlarim ekanlar.

Ular ketishguncha, men qoʻrgʻon devori orqasida pusib turdim yoki tepa ustiga chiqib ularni kuzatdim.

Dengizda suv qaytguncha kamida hali besh soat bor.

Demak, shuncha vaqt muqarrar ularning qayig'i qum ustida turadi.

Kechqurun, qorong'i tushganda, o'zimning xilvatgohimdan chiqib, matroslarga yaqinroq boraman, ularning har qadamini, yurish-turishini va harakatlari sinchiklab tekshiraman, ehtimol, ularning nima to'g'rida gaplashganlarini eshitsam.

Hozir esa qosh qoraymagan ekan, jangga tayyorlanmoq kerak. Mening hozirgi dushmanim avvalgilarga qaraganda kuchli va xavflidir, binobarin, yaxshi tayyorlanmoq, shay bo'lib turmoq kerak.

Miltiqlar bilan ancha ovora bo'ldim, ularni tozalab, o'qladim, keyin esa Jumaboyga boshdan oyoq qurollanmoq to'g'risida buyruq berdim. Jumaboy bu vaqtlarda juda mergan bo'lib olgan edi. O'zim ikki ov miltiq oldim, Jumaboyga uchta pilta miltiq berdim. Boshqa qurol-aslahani ham ikkimiz bo'lishib ko'tarib oldik.

Shuni aytmoq kerakki, bu yarog'-aslahalarni osib olganda, mening vajohatim tamomila harbiycha bo'lib ketdi. Egnimda echki terisidan tikilgan qo'pol kamzul, boshimda uchi uzun paxmoq shapka, ikki yonimda esa g'ilofsiz yalang'och qilich osig'liq, belimdagi qayishga ikkita to'pponcha qistirilgan, ikki yelkamda bittadan miltiq osig'liq edi.

Qorong'i tushguncha hech bir harakat qilmaslikka qaror berganimni boya aytib o'tgan edim. Lekin soat ikkilarda, kun juda isib ketgan mahalda, ularning o'rmonga kirib ketganlaricha qaytib kelmaganlarini payqab qoldim. Balki ular issiqda halloslab, keyin salqinga borib uxlab qolishgandir.

Lekin ularning asirlari uxlaydigan holda emas edi. Ular katta bir daraxt tagida g'amgin holda boshlarini xam qilib o'tirishardi.

Ular yonida hech kim qolmadi, men kech kirishini kutmay, yaqinroq borib, ular bilan gaplashishga ahd qildim. Ularning kimligini va bu yerga nima uchun kelib qolganligini hech kechiktirmay bilib olgim keldi. Hozirgina tasvir qilib bergan beso'naqay vajohatim bilan ular oldiga qarab jo'nadim. Jumaboy ham izimdan qolmay kelaverdi. U garchi o'z xo'jayini kabi qo'rqinchli vajohatda bo'lmasa ham, boshdan oyoq qurollangan edi.

Uchala asirga yaqin bordim (ular orqa o'girib o'tirganlaridan meni ko'rmadilar), ispan tilida qattiq ovoz bilan so'radim:

– Kim bo'lasizlar, senyorlar?

Ular bu tasodifdan seskanib ketishdi, lekin o'zlariga yaqin kelgan bu vahimali vajohatni ko'rib, yana ham battarroq qo'rqishdi.

Ularning hech biri javob qaytarmadi, nazarimda, ular mendan qochmoqchi bo'layotgandek ko'rindi.

Bu holni ko'rib, men inglizcha gapirdim.

– Jentlmenlar, qo'rqmanglar, – dedim. – Kutmagan bir joyda o'zingizga do'st topsangiz, ajab emas. Men ham inglizman, sizlarga yordam qilmoqni istayman. Ko'rib turibsizki, biz faqat ikki kishimiz – men-u xizmatkorim; bizda qurol va o'q-dori bor. To'ppa-to'g'ri ayta bering, sizning mushkulingizni nima bilan oson qila olamiz, boshingizga qanday kulfat tushdi?

– Bizning boshimizga tushgan kulfat shunchalik kattaki, uni aytib bermoqqa uzoq fursat kerak, – dedi asirlardan biri, – bizni bu kulfatlarga duchor qilgan zolimlar yaqin joyda o'tirishibdi, hozir kelib qolishlari mumkin. Qisqasi, ser, bizning boshimizdan o'tgan voqealar mana bunday: men kema kapitaniman, kemamdagi xizmatchilar isyon ko'tarishdi. Men o'z matroslarimni har doim sevardim, ular ham meni sevar edilar. Mening qo'l ostimda ular juda yaxshi yashar edilar. Lekin kemamga so'nggi vaqtda ishga

kirgan bir necha muttaham ularni yoʻldan ozdirdi. Shu muttahamlar dengizda uchragan kemalarni talab, yondirmoq niyatida ularni dengiz qaroqchisi boʻlib ketishga koʻndirdilar. Siz bu yerda koʻrib turgan oʻrtoqlarim (biri – mening yordamchim, ikkinchisi – yoʻlovchi) yalinib-yolvorib bizni oʻldirmay, omon qoldirishga ularni zoʻrgʻa koʻndirdilar. Oxiri ular bizni biror huvullagan sohilga qoldirib ketishga rozi boʻldilar. Shunday qilib, ular bizni mana bu yerga olib keldilar. Biz bu yerda ochdan oʻlamiz, deb ishongan edik, chunki bu yerni odam qadami tegmagan bir yer deb bilgan edik. Bu yerda, bizni oʻlimdan xalos qilishga tayyor turgan odamlar turishini hozir koʻrib turibmiz.

– U badbaxtlar qani? Qayoqqa ketishdi? Qaysi tomonga? – deb soʻradim. Kapitan menga yaqin joydagi daraxtzorni koʻrsatib, bunday dedi:

– Ular anovi daraxtlar tagida yotishibdi, ser. Qoʻrqqanimdan yuragim uyushmoqda: ular sizlarni koʻrishdi va bizning gaplarimizni eshitdi, deb qoʻrqaman. Agar koʻrishgan boʻlsa, biz halok boʻldik, deyaving! Ular hech qaysimizga rahm-shafqat qilmay, hammamizni oʻldirishadi.

– Ularning miltiqlari bormi? – deb soʻradim.

– Atigi ikkita miltiqlari bor, buning ham bittasi qayiqda.

– Juda soz, – dedim, – qolganini menga qoʻyaving.

Ular hammasi uxlashmoqda, sezdirmasdan yaqin borib, hammasini qirib tashlay olamiz, ammo ularni tiriklay qoʻlga tushirmoq yaxshi emasmikan? Balki ular bu yoʻldan qaytishib, qaroqchilikni tashlashar hamda insofli odamlar boʻlib ketishar.

Kapitan aytdiki, bular orasida ikkita xavfli yovuz bor, ularga rahm qilmasa ham boʻladi, lekin boshqalarini shu ikki kishidan ajratib olinsa, aminmanki, ular qilmishlariga pushaymon boʻladilar va avvalgi ishlariga qaytadilar.

Men undan shu ikki kishini ko'rsatishni so'radim. U, ora juda uzoq, ularni tanimoq qiyin bo'lar, agar taniy olsam, albatta, ko'rsataman, dedi.

– Umuman aytganda, – dedi u, – men va o'rtoqlarim sizning hamma buyruqlaringizga itoat qilishga tayyormiz. Biz o'zimizni tamom sizning ixtiyoringizga topshiramiz. Har bir buyrug'ingizni qonun deb bilamiz.

– Gap shunday bo'lsa, nariroq ketaylik, ular bizni ko'rmasinlar va gapimizni eshitib qolmasinlar. Ular uxlasha bersin, bu orada biz nima qilmoq kerakligini maslahatlashib olamiz.

Uchalasi o'rnidan turib, mening orqamdan yurishdi.

Ularni daraxtzor ichiga olib borib, kapitanga murojaat qilib bunday dedim:

– Men sizlarni qaroqchilardan qutqazib qolishga harakat qilaman, ammo, avvalo, ikki shart qo'yaman.

U gapimni tamom qilgani qo'ymadi.

– Men har qanday shartingizni ham qabul qilaman, ser, – dedi u, – basharti, sizga isyonchilardan kemamni qutqarib qolish nasib bo'lsa, o'zimni ham, kemamni ham xohlaganingizcha ishlata bering. Agar niyatingizga yetisha olmasangiz, men siz bilan birga shu yerda qolaman va umrim oxirigacha sodiq yordamchingiz bo'laman.

Uning o'rtoqlari ham shunday va'da berishdi.

– Gap shunday ekan, mening ikki shartim mana bular, – dedim, – birinchidan, kemangizga borib olguncha kapitan ekaningizni unutasiz hamda har bir buyrug'ingizga so'zsiz itoat qilasiz. Agar men sizga qurol bersam, har qanaqa sharoitda ham bu qurolni menga va mening qo'l ostimdagi odamlarga qarshi qaratmaysiz va birinchi marta talab qilishim bilan uni menga qaytarib berasiz. Ikkinchidan, agar kemangiz qo'lingizga qaytarib olib berilsa, meni va do'stimni hech haq olmasdan Angliyaga olib borasiz.



Kapitan inson aqliga kelishi mumkin bo'lgan hamma qasamni yod qilib, men va mening o'rtoqlarim sizning har ikki talabingizni muqaddas bilib bajarimiz, deb qasam ichdi.

– Bu talablarni tamoman o'rinli deb bilganim uchungina emas, – dedi u so'ziga qo'shimcha qilib, – balki eng muhimi, o'limdan qutqazib qolganingiz uchun sizdan minnatdorman va umrim oxirigacha o'zimni sizning oldingizda qarzdor deb bilaman.

– Bunday bo'ladigan bo'lsa, sustkashlik qilmaylik, – dedim. – Mana oling, sizga uchta pilta miltiq, o'q va dori. Endi sizningcha qanday chora qo'llanmoq kerakligini ayting.

– Mendan maslahat so'raganingiz uchun sizdan minnatdorman, – dedi kapitan, – lekin men sizga maslahat bera olamanmi? Siz bizning boshlig'imizsiz, sizdan buyruq bermoq, bizdan uni so'zsiz bajarmoq.

– Mening fikrimcha, ularni osonroq bartaraf qilmoq uchun, – dedim, – ular hali uyquda ekan, sezdirmasdan yaqinroq borib olishimiz va hamma miltiqlardan bir yo'la o'q uzishimiz lozim. Kuni bitgani o'ladi. Omon qolganlari esa taslim bo'lib, rahm-shafqat so'rashadi, ularning gunohidan o'tmoq mumkin, deb o'ylayman.

Kapitan iymanib e'tiroz bildirdi va bunchalik qon to'kishni istamaganligini, agar mumkin bo'lsa, bu xil shafqatsizlikdan qaytmoqni lozim bilganini aytdi.

– Bu odamlar orasida, – dedi u, – tuzalmaydigan yaramaslar ikki kishi, xolos, mening kemamdagi isyonni boshlaganlar ham shular. Agar ular bizdan qochib qutulsalar va kemaga qaytib borsalar, sho'rimiz quriydi, chunki ular qolgan matroslarning hammasini ergashtirib kelib, bizni yo'q qilib tashlashadi.

– Demak, mening maslahatimni qabul qilmoq kerak, – dedim. – O'zingiz ko'rib turibsiz – biz rahmsiz bo'lmog'imiz lozim: omon qolmog'imiz uchun birdan bir yo'l shu.

Garchi bu odamlar kapitanning o'zini ochlikdan o'lib ketishga mahkum qilgan bo'lsalar ham, uning uxlab yotgan buncha ko'p kishini o'ldirishni va majruh qilishni sira istamasligi ko'rinib turar edi.

Uning ko'nglidagini payqab, men bo'lmasa, o'rtoqlaringiz bilan oldinga tushib, o'z bilganingizcha harakat qiling, dedim.

Bizning maslahatimiz bitmasidan qaroqchilar uyg'ona boshlashdi. Ulardan ikkitasining tik turganini ko'rib, kapitandan: isyon tashabbuschilari shular emasmi, deb so'radim.

– Yo'q, bular so'nggi daqiqagacha ham o'z burchlarini sadoqat bilan bajarishdi, ammo qo'rqituv orqasidan isyon tashabbuskorlari ta'siriga tushib qolishdi, – dedi u.

– Mayli, ular ketisha bersin, tegmaymiz, – dedim. – Gunohsizlarni taqdir o'zi o'qdan saqlab qoldi. Agar boshqalariga qutulib ketmoqqa imkon bersangiz, o'zingizdan ko'ring. Ular sizni tutib oladilar va aslo rahm-shafqat qilmaydilar.

Bu so'zlar kapitanni shijoatga keltirdi. Kapitan bilan o'rtoqlari miltiqlarni qo'llariga olib, to'pponchalarni bellariga qistirib olishdi, keyin olg'a qarab dadil qadam bosib ketishdi.

Qaroqchilardan biri qadam sharpasini eshitib orqasiga qayrilib qaradi va o'z asirlari qo'lida miltiq ko'rib voy-dod soldi.

Endi vaqt o'tgan, dod-voyning foydasi yo'q edi. U qichqirgan hamono birdan ikki o'q uzildi. Merganlar o'qni xato yuborishmadi: qaroqchilardan biri shu ondayoq o'ldi, ikkinchisi qattiq yarador bo'ldi, lekin yarador darrov o'rnidan turib, boshqalarni yordamga chaqira boshladi. Bu chog' kapitan darhol uning tepasiga yetib bordi.

– Kechikding! – dedi u. – Endi seni hech kim qutqazib ololmaydi. Xoinlik qilganing uchun mana senga jazo.

Kapitan shu soʻzlarni aytib turib, miltiq qoʻndogʻi bilan uning boshiga soldi. U shu ondayoq til tortmay oʻldi.

Endi oʻrmonning boshqa bir qismiga kirib ketgan uch kishini hisobga olmaganida, bizning dushmanlarimizdan atigi uch kishi qoldi, bulardan ham biri yengil yarador qilindi. Bu chogʻ biz Jumaboy ikkimiz yetib keldik. Dushmanlar qochib qutulmoq imkoni yoʻqligini koʻrib, rahm-shafqat soʻray boshladilar. Kapitan ularga javob berib, qilgan xoinliklaringizga pushaymon yeb, tavba qilsalaringiz, buni amalda koʻrsatsalaringiz, kemani qoʻlga kiritishda menga yordam berishga qasamyod etsalaringiz, gunohingizdan oʻtib, joningizni omon qoldiraman, dedi. Ular kapitan roʻparasiga kelib tiz choʻkdilar va qilmishlariga chin yurakdan pushaymon ekanliklariga uni ishontira boshladilar.

Kapitan ularning qasamiga ishondi va gunohingizdan oʻtib, joningizni omon qoldiraman, dedi. Men bunga qarshilik qilmadim, lekin asirlarning qoʻl-oyoqlarini bogʻlashni talab qildim.

Muzokaralar tamom boʻlgan hamono Jumaboy bilan kapitan yordamchisiga, darhol qayiqqa borib, undan yelkan bilan eshkaklarni olib qoʻyishga buyurdim.

Oradan koʻp oʻtmay orolda sandiraqlab yurgan boyagi uch matros qaytib keldi. Ular juda uzoqqa ketib qolishgan ekan, endi miltiq ovozi eshitib yugurishib kelibdi.

Ular kapitan endi ularning bandisi emas, balki ular ustidan gʻolib boʻlib turganini koʻrgach, hech bir qarshilik ham koʻrsatmayoq, oʻzlarini bogʻlatdilar.

Shu tariqa biz gʻolib chiqdik.

## ***Yigirma oltinchi bob***

### **QAROQCHILAR BILAN JANG QILINGANI**

Endi men bemalol boshimdan o'tganlarni hamda ko'rgan mashaqqatlarimni kapitanga batafsil hikoya qilib berishga va undan boshiga tushgan kulfatni, kemasidan ayrilib qolish sabablarini so'rashga imkon topdim.

Avval so'zni men boshladim. So'nggi yigirma yetti yillik hayotimda qanday qilib kun kechirganimni boshdan adoq unga aytib berdim. Mening hikoyamni u miq etmay zo'r e'tirof bilan tingladi, mening muqarrar o'limdan omon qolishimga imkon bergan ajoyib hodisalarni eshitib, benihoya hayratda qoldi.

Endi u bu odam qadami tegmagan orolda kechirgan kunlarimni batafsil bilib olgandan keyin kapitan va hamrohlarini qo'rg'onimga taklif qildim. Biz qo'rg'onga doim o'zim kiradigan yo'ldan kirdik, ya'ni, narvon qo'yib oshib tushdik. Mehmonlarim oldiga turli taomlar qo'yib yemoqqa taklif qildim, so'ngra ularga shu uzoq yillar ichida yakka-yolg'iz yashab qilgan uy-ro'zg'orlarimni bir boshdan ko'rsatdim.

Bu odamlar bu yerda nimaiki ko'rgan bo'lsa-lar, hammasi ularga bir mo'jiza bo'lib tuyuldi. O'z to'g'rimda aytib berganlarim ularga ajoyib-g'aroyib ertak bo'lib eshitildi. O'zim qurgan istehkomni va uyimning daraxtzor ichiga juda ustalik bilan yashirilganini ko'rib, ular yana ham hayron qoldilar. Bu yerda daraxtlar Angliyadagi daraxtlardan ancha tez o'sganidan, chakalakzorim yigirma yetti yil ichida qalin o'rmonga aylanib ketgan edi. Daraxtlarni ekayotganimda ilon izi qilib tor yo'lka qoldirgan edim, endi faqat shu yo'ldangina mening hovlimga borish mumkin edi.

Kapitanga, bu qo'rg'on mening asosiy turar joyim, lekin hamma qirollarda bo'lgani kabi mening ham

poytaxtdan uzoqroq joyda yozgi saroyim bor, men ham qirollarga o'xshab bu saroyga kamroq borib turaman, dedim.

– Uni sizlarga bajonidil ko'rsatardim-u, lekin bizning oldimizda undan muhimroq ish, ya'ni, sizning kemangizni qanday qilib dushmanlar qo'lidan tortib olish yo'lini topish ishi turibdi, – dedim.

– Nima qilmog'imiz kerakligiga aqlim bovar qilmay turibdi, – dedi kapitan. – Kemada yana yigirma olti kishi bor. Ularning hammasi ham fitnaga aralashgan, ya'ni, bu jinoyatlari uchun bizdagi qonunga muvofiq ularga o'lim jazosi bermoq kerak. Qaroqchilar juda yaxshi biladilar – agar ular taslim bo'lsalar, Angliyaga borgan hamono dorga osiladilar. Shu sababdan ular jon-jahdlari bilan olishadilar. Shunday ekan, shu ozgina kuch bilan biz ular bilan jang qilmog'imiz mumkin emas.

Men o'ylab qoldim, kapitanning so'zlari menga tamom o'rinli bo'lib ko'rindi. Mumkin qadar tezroq biror yo'l topmoq kerak. Salgina sustkashlik ham bizga halokat xavfini solmoqda: kemadan qaroqchilarning yangi bir guruhi kelib, hammamizni qiyma-qiyma qilib ketmog'i mumkin. Eng yaxshisi hiyla ishlatib, ularni tuzoqqa tushirib, bexosdan hujum qilishdir. Lekin buni qanday qilmoq kerak? Ular mana shu daqiqaning o'zida bu yerga kelib qolishlari mumkin-ku.

– Kemadagilar qayiqning hozirgacha qaytib bormaganidan tashvishga tushayotgan bo'lsalar kerak, – dedim kapitanga. – Har zamon ular sohilga yuborilgan matroslardan xabar olgani bu yerga boshqa qayiq yuboradilar. Bu safar qayiqda qurollangan odamlar kelishadi, ularni yengmog'imiz mahol bo'ladi.

Kapitan mening fikrimga to'la qo'shildi.

– Avvalo, qaroqchilar qayiqlarini bu yerdan olib ketolmasliklarining yo'lini qilmog'imiz kerak, – dedim so'zimdada davom etib, – buning uchun esa uni suvda

suzolmaydigan qilishimiz, ya'ni, uning tagini teshib qo'yishimiz lozim.

Biz shu ondayoq qayiq yoniga keldik. Bu qayiq baland qirrali katta qayiq edi. Qayiqda turli-tuman kerakli narsalar ko'p ekan. Qayiqdan ba'zi bir qurol, dori soladigan xalta, bir shisha aroq, bir rom, chodirga o'rab qo'yilgan anchagina qotgan non, katta bir bo'lak qand (besh-olti qadoq keladi) topib oldik. Bu narsalar hammasi, ayniqsa, aroq bilan qand menga juda zarur edi: men ko'p yillardan buyon aroqni ham, qandni ham tatib ko'rganim yo'q.

Bu g'animatlarning hammasini sohilga chiqarib, eshkaklarni, machtani, chodir bilan qayiq rulini qo'limizga olib, qayiqning tagini katta qilib teshib qo'ydik. Shunday qilib, dushmanlar bizdan ustun chiqqan taqdirda va biz ularni yenga olmaganimizda ham har qalay ularning qayiqdari bizning qo'limizda qoladigan bo'ldi, to'g'risini aytganda, men ko'proq shu maqsadni ko'zda tutdim.

Rostini aytsam, kemani qaroqchilardan tortib olib bilishimizga uncha ishonmagan edim. «Ular bizga qayiqni qoldirsalar bas, – dedim o'z-o'zimga. – Uni tuzatib olmoq hech gap emas, bu xil qayiq bilan Karib dengizining shimoli-sharqidagi Sharqiy Hindistongacha yeta olaman. Yo'lda odamxo'r yovvoyilar orasida azob chekayotgan ispaniyalik do'stim va uning vatan-doshlari yoniga ham tusha olaman».

Hammamiz birgalashib qayiqni to'liqin yetmaydigan baland joyga chiqarib qo'yganimizdan keyin dam olish va endi nima qilish kerakligini maslahatlashgani o'tirdik.

Bu choq kemadan birdan to'p otilganini eshitdik. Kema bayrog'ini ko'tardilar. Bu narsa qayiqni chaqirib signal berganlari bo'lsa kerak.

Bir ozdan keyin yana bir necha bor o'q uzildi. To'xtovsiz bayroqni hilpillata boshladilar, lekin bu

signallar hammasi javobsiz qoldi: qayiq turgan joyidan jilmadi. Nihoyat, kemadan qayiq tushirdilar (biz bularning hammasini durbin bilan baralla ko'rib turdik). Qayiq sohilga qarab kela boshladi, u yaqinroq kelgach, qayiqda kam deganda miltiqlar bilan qurollangan o'n kishi borligini ko'rdik.

Kema turgan joyidan sohilgacha olti milcha joy, shu sababdan biz shoshmay qayiqdagi odamlarni kuzata olamiz.

Biz ularning aft-basharalarini ham aniq ko'rib turdik, suv oqimi bu qayiqni avvalgi qayiq kelib to'xtagan joydan birmuncha sharqiy tomonga olib ketdi, lekin eshkakchilar uni xuddi shu joyga tomon olib kelmoqchi bo'lib, ancha vaqt sohil bo'ylab yurishga majbur bo'ldilar. Ana shu paytda biz ularni yaqqol ko'roldik. Kapitan ularni tanidi va har birovi to'g'risida o'z fikrini menga aytib turdi.

Kapitanning so'ziga qaraganda, bular orasida uchta juda halol matros bor; bularning fitnaga o'z ixtiyorlari bilan emas, balki qo'rqitish va zo'rlik orqasida kirganliklariga uning imoni komil, ammo botsman bilan boshqalari – hammasi ham ashaddiy qaroqchilardir.

– Bularga kuchimiz yetmas, deb qo'rqaman, – dedi u so'zida davom etib. – Bular hammasi jonidan kechgan battol odamlar, endi yana bizning qarshilik ko'rsatmoqchi ekanimizni bilishsa, bizga, o'layin oblo, hech rahm-shafqat qilmaydi. Ularning bizning boshimizga soladigan kulfatlarini o'ylamoq o'zi bir dahshat.

Men kulimsirab, unga bunday javob berdim:

– Qo'rquvni tilga olganingiz nimasi? Ajabo, qo'rqmoqqa bizning nima haddimiz bor? Kelajakda holimiz nima kechsa ham, turmushimiz bundan ko'ra yaxshi bo'ladi; binobarin, biz bu ahvoldan nima qilib bo'lsa ham, hatto o'lib qutulsak ham, shukr

qilishimiz kerak. Aqalli mening bu yerda yolg'izlikda kechirgan kunlarimni bir eslang. Odamlar dunyosidan yigirma yetti yil ajralib yashamoq oson gapmi? Men o'z ozodligim yo'lida jonimni ayamagan bir vaqtda, nahotki, ser, siz qo'rqasiz? Yo'q, meni xavf-xatar emas, boshqa narsa hayratda qoldirmoqda, – dedim.

– Nima? – deb so'radi u.

– Siz: «Bu odamlar orasida uch-to'rt matros bor, ularga rahm qilmog'imiz kerak», – dedingiz, shu gapingiz meni hayratda qoldirmoqda. Ular hammasi yovuz odamlar bo'lmaganda ham, barini yo'q qilib yuborishga haqqim bor, bunga hech shubha qilmayman. Ularni yenga olishimizga esa batamom ishonaman, chunki bu orolga qadam bosgan har bir kishi qo'limizga tushadi, uni o'ldirmoq yoki yashamoq uchun unga imkon bermoq bizning ixtiyorimizda.

Men qattiq ovoz chiqarib, ochiq chehra bilan gapirdim. Mening g'alabaga bo'lgan ishonchim kapitanning ruhini ko'tardi, keyin biz g'ayrat bilan ishga tutindik.

Ular kemadan qayiqni tushira boshlagan vaqtidayoq biz asirlarimizni uzoqroq joyga bekitib tashladik. Kapitan eng xavfli deb bilgan ikki kishini Jumaboy bilan kapitan yordamchisiga haydatib, g'orga yubordim. Bu turmadan chiqib qochmoq oson gap emas, mabodo, bir amallab har ikkala devordan oshib o'ta olganlarida ham, baribir, qo'rg'on atrofidagi qalin o'rmon ichida adashib qolardilar, chunki sheriklarining ovozi bu yerga kelmas va orolda nima voqea bo'layotganini bu yerdan ko'rib ham bo'lmas edi. Bu yerda ularni yana bog'lab qo'yibdilar, lekin Jumaboy ularni yaxshilab to'ydirib, yerto'lada ularga o'zimiz yasagan shag'amlardan bir nechasinini yoqib beribdi, kapitan yordamchisi esa ularga, agar jim yotsalaringiz, bir-ikki kundan keyin sizlarni ozod qilamiz, deb e'lon qilibdi.



– Shuni bilingki, qochishni xayol qilsangiz, darrov hech ayovsiz sizni otib o'ldiradilar, – debdi u.

Ular qamoq muddatini chidam bilan o'tashga va'da berib, ovqatsiz va chirog'siz tashlab ketmaganlari uchun ularga samimiy tashakkur bayon qilishibdi.

Jumaboy bandilarni g'orga qamab, eshikni berkitib, darhol mening yonimga yetib keldi, lekin bandilar, u ketgani yo'q, eshik orqasida bizni poylab turibdi, deb o'ylabdilar.

Qolgan to'rt asirni unchalik qattiq tutmadik. To'g'ri, ikkisini ma'lum muddatgacha bog'langanicha qoldirdik, chunki kapitan ularga ishonmadi, ammo boshqa ikkitasini esa men kapitanning alohida tavsiyasi bilan xizmatga ham qabul qildim. Ular ikkisi ham menga, sadoqat va samimiyat bilan xizmat qilamiz, deb qasamyod qilishdi.

Shu tariqa, bu ikki matrosni va kapitanni ikki o'rtog'i bilan hisoblaganda, endi biz yaxshi qurollangan yetti kishi bo'ldik va hozir keladigan o'n yigitni bartaraf qilishimizga hech shubha qilmadim. Buning ustiga, kapitanning so'ziga ko'ra ular orasida halol kishilar bor ekan, ularni o'z tomonimizga o'tkazib olishga umid bog'lamoq mumkin.

Qaroqchilar oroldagi o'zlarining katta qayiqlari turgan joyga kelib to'xtadilar, qayiqdan tushib, uni sohilga chiqarib qo'ydilar, buni ko'rib, ko'p xursand bo'ldim. Rostini aytsam: «Ular o'zlaridan xavfsirab, sohilga yetib kelmasdan langar tashlaydilar, qayiqni qo'riqlash uchun ikki-uch matrosni poyloqchilikda qoldiradilar, biz uni qo'lga tushirolmaymiz», – deb qo'rqqan edim.

Sohilga tushish bilanoq ular dastlab katta qayiqlari yoniga yugurib kelishdi. Qayiqdagi hamma asbob-uskunaning olib ketilganini, butun yuk g'oyib bo'lganini, qayiqning tagi katta qilib teshib qo'yilgani-

ni ko'rib, ular benihoyat hayratda qoldilar, buning sababi esa ayondir.

Ular qayiq atrofiga to'planishib, qayiqlarining qanday sabab bilan bu holga duchor bo'lganini xiyla vaqt qizg'in muhokama qilishdi, keyin esa bor ovozlari bilan o'rtoqlarining nomini aytib chaqira boshlashdi. Ularga hech kim javob bermadi.

Shundan keyin ular doira tortib, komanda bilan hamma qurollaridan baravar o'q uzdilar. O'rmonning aks sadosi bular miltig'ining ovoziga jo'r bo'lib, uni bir necha bor takrorladi. Lekin bu ham hech natija bermadi: g'or ichidagilar bular miltig'ining ovozini eshita olmadilar; bizning yonimizda o'tirganlari esa, eshitsalar ham ovoz chiqarib, javob qilishga botinolmadilar.

Qaroqchilar bu harakatlarining hammasi natijasiz qolayotganini bilib, juda qo'rqib ketishdi va darhol kemalariga qaytib borib, u yerdagilarga qayiqning tagi teshilib yotibdi, orolga borgan kishilar o'ldirilgan, yo'qsa, albatta, ovoz chiqarib javob berar edilar, deb xabar yetkazmoqchi bo'ldilar.

Kapitan bu vaqtgacha kemani qo'lga olishimizga ishongan edi, lekin hozir tamom umidi uzildi.

– Ish rasvo bo'ldi! – dedi u qayg'urib. – Orolga kelgan matroslarning g'oyib bo'lgani xabari kemaga yetkazilishi bilanoq yangi kapitan langarni bo'shatishga buyruq beradi va men kemamdan ajralaman!

Tezda kapitanni yana ham qo'rqitgan bir hodisa yuz berdi.

O'n daqiqa ham o'tmasdan, sohildan jo'nab ketgan qayiq birdan orqasiga qaytib, yana bizning orolimizga qarab kela boshladi. Aftidan, matroslar yo'lda o'zaro maslahatlashib, boshqa biror fikrga kelishgan bo'lsa, ehtimol.

Biz damimizni chiqarmay ularni kuzatib tura berdik.

Ular sohilga kelib to'xtadilar, qayiqda uch kishini qoldirib, yetti matros yugurishib, qirg'oq ustiga chiqishdi-da, orol ichkarisiga qarab ketishdi, aftidan, ular yo'qolgan o'rtoqlarini qidirib ketishdi.

Bu hol bizni qattiq tashvishga soldi.

Biz sohilga chiqqan yetti kishini qo'lga tushirganimizda ham, baribir bizning g'alabamiz natijasiz bo'ladi, chunki biz qolgan uch kishini va qayiqni qo'lga tushira olmaymiz. Bular qutulib ketib, kema qaytib borishadi-da, yuz bergan baxtsizlikni o'rtoqlariga aytishadi, kema shu zahotiyoq langarini bo'shatib jo'nab ketadi va undan umrbod ayrilamiz.

Nima iloj qilmoq kerak? Bu voqealarning oxiri qayerga borib tugashini kutib turishdan boshqa ilojimiz qolmadi. Yetti matros qirg'oqqa chiqib olgach, qayiq qirg'oqdan ancha nari ketib, langar tashladi, shunday qilib, biz bu qayiqni o'g'irlab, yashirib qo'yishdan mahrum bo'ldik.

Sohilga tushgan matrosalar bir-birlaridan ajralishgisi kelmadi, shekilli, yonma-yon yurib borib, tepalik ustiga chiqa boshlashdi, mening uyim shu tepa tagida edi. Biz ularni baralla ko'rib turdik, lekin ular bizni ko'ra olmadilar. Agar ular bizga yaqinroq kelsalar, ko'p xursand bo'lardik – biz ularni otib tutdek to'kkan bo'lur edik.

Ular hech bo'lmasa orolning ro'paradagi sohili-ga qarab yurishar, deb umid qilgan edik, chunki ular orolning bu tomonidan nari ketmaguncha, biz qo'rg'ondan bosh chiqara olmasdik. Lekin ular tepaning sirtiga, orolning butun shimoli-sharqiy qismi, o'rmon hamda vodiylari baralla ko'rinadigan sirtiga yetib to'xtadilar va yana bor ovozlari bilan o'rtoqlarini chaqira boshladilar.

Nihoyat, javob ham kutib turmasdan, ehtimol, sohildan nari ketishga qo'rqqan bo'lsalar kerak, bir daraxt tagiga o'tirib, maslahatlasha boshladilar. Bu-

lar ham ertalab kelgan qaroqchilarga o'xshab, uxlab qolsalar, ko'p yaxshi bo'lardi, bizlar darrov ularning adabini berib qo'ya qolardik. Lekin ular uxlashni xayollariga keltirmadilar. Ular orol xatarli ekanini sezdi, garchi qanaqa xavf-xatar va uning qayerdan paydo bo'lishini bilmasalar ham, hushyorroq bo'lishga harakat qildilar.

Ularning maslahatlashayotganini ko'rib, kapitan juda ma'qul fikrni aytdi.

– Ular harbiy kengashlarida bedarak ketgan o'rtog'lariga o'zlarini ma'lum qilmoq uchun yana bir bor signal berish fikriga kelib, hammalari baravar o'q uzishlari juda ham ehtimol, – dedi u. – Ular o'q uzib, miltiqlarini bo'shatgan hamono, biz birdan hujum qilib, ustlariga bostirib borsak – bas, marra bizniki. Ularning taslim bo'lishdan boshqa chorasi qolmaydi, keyin ish qon to'kilmasdanoq bir yoqlik bo'ladi.

Bu reja menga ancha ma'qul tushdi, lekin uning yuzaga chiqmog'i uchun biz hozir dushmanga juda yaqin masofada turgan bo'lishimiz lozim edi. Chunki biz ular o'q uzgan hamono darhol ular ustiga yopirilib borishimiz kerak. Ammo ular bizdan ancha uzoq, shunday ekan, ularga qo'qqisdan hujum qilmoq to'g'risida o'ylashning hojati yo'q edi.

Darvoqe, ular o'q ham uzmadilar.

Biz nima qilishni bilolmay, ancha vaqt pistirmada turdik.

Oxiri bunday dedim:

– Menimcha, biz qorong'i tushguncha hech ish qilolmaymiz. Agar bu yetti matros qayiqqa qaytib kelmasa, kechasi bildirmay dengiz bo'yiga borib, biror hiyla ishlatamiz hamda qayiqda qolgan uch kishini qo'lga tushiramiz.

Uzoq vaqt pistirmada turib, qaroqchilarning turgan joyidan qo'zg'alishini zoriqib kutdik. Bizga ularning kengashi hali-beri tugamaydigandek tuyildi.

Birdan ular o'rinlaridan sapchib turib, dengiz tomonga yura boshladilar. Aftidan, ular orolda turmoq xatarli ekanini payqashdi va halok bo'lgan o'rtoqlarini qidirib ovora bo'lmasdan kemaga qaytib ketmoqchi bo'lishdi.

«Ishimiz chatoq! – deb o'yladim. – Bizga kemadan tamom umid uzishga to'g'ri keladi».

Bu fikrimni kapitanga aytdim; u qattiq hayajonga va umidsizlikka tushdi – oqibat hushidan ketishga oz qoldi.

Bu chog' bir harbiy hiyla o'ylab topdim va darhol bu hiylani ishga soldim. Bu hiyla juda oddiy edi, shunga qaramay, rejam juda muvaffaqiyatli chiqdi.

Jumaboy bilan kapitan yordamchisini chaqirib, ularga: qo'ltiq bo'yiga boringlar (bir mahallar odamxo'rlardan qochgan vaqtda Jumaboy shu qo'ltiqdan suzib o'tgan edi), so'ngra, uni aylanib o'tib, yarim milcha g'arbga boringlar, keyin to qayiqqa qaytib ketayotgan matroslar eshitmaguncha bor ovozlaring bilan qichqiringlar, deb buyruq berdim. Matroslar eshitib, javob qaytargach, boshqa joyga yugurib borib yana qichqiringlar, ho-holanglar, shu tariqa, doim o'rinlaringni o'zgartirib, dushmanlarni orolning juda ichkari tomoniga ergashtirib, ular tamom adashib qolguncha ovora qilaveringlar, keyin aylanma yo'llar bilan yonimga qaytib kelinglar, deb tushuntirdim.

Matroslar endigina qayiqqa o'tirib, jo'naymiz, deb turganlarida, qo'ltiq tomondan birdaniga qattiq ovoz eshilib qoldi: bu ovoz Jumaboy bilan kapitan yordamchisining ovozi edi.

Qaroqchilar ularning ovozini eshitish bilanoq qichqirib javob berdilar va qirg'oq bo'ylab ovoz chiqqan tomonga qarab yugurdilar, biroq suv qirg'oqqa qaytgan mahali bo'lib, qo'ltiqda suv juda toshib turganidan ular o'tolmadilar. Keyin ular o'zlarini narigi sohilga

o'tkazib qo'yimoq uchun qayiqda qolgan matroslarni chaqirdilar.

Men ana shuni kutgan edim.

Ular suvdan o'tib, yonlariga yana bir kishini olib, yugurib ketdilar. Shunday qilib, qayiqda atigi ikki kishi qoldi. Ular qayiqni qo'ltiqning eng oxiriga, quruq yerga yaqinroq olib borib, ingichka bir daraxtga bog'lab qo'yganlarini ko'rib turdim.

Bundan juda suyundim. Jumaboy bilan kapitan yordamchisiga o'z ishlarini davom ettirishni topshirib, otryadning qolgan qismiga orqamdan yurishni buyurdim.

Biz qalin o'sib ketgan chakalakzorni panalab, qo'ltiqni aylanib o'tdik va qo'qqisdan sohilda qolgan qaroqchilar ro'parasida paydo bo'ldik. Ularning bit-tasi qayiqda o'tirmoqda va ikkinchisi sohilda yotib, mudramoqda edi. U bizni o'zidan uch qadamcha narida ko'ra solib, o'rnidan sapchib turib qochmoqchi bo'ldi, lekin oldinda turgan kapitan unga tashlanib, miltiqning qo'ndog'i bilan tushirdi. Keyin ikkinchi matrosga o'zini o'nglagani imkon bermasdan:

– Taslim bo'l, yo'qsa, o'lasan! – deb qichqirdi.

Bu odam kapitanning, o'z xohishidan tashqari, zo'rlik orqasida fitnachilarga qo'shildi, degan uch matrosning biri edi. U biz talab qilgan hamono taslim bo'libgina qolmay, balki shu zahotiy oq bizning otryadimizga kirish istagini aytdi. Oradan sal o'tmay u bizning ishonchimizga loyiq ekanini o'z ishi bilan isbot qildi.

Jumaboy bilan kapitan yordamchisi bu orada ho-holab, qichqirib turdilar. Matroslarning ovozlari-ga javob qilib, ularni tepadan tepaga, daraxtzordan daraxtzorga ergashtirib, qorong'i tushguncha sohil bo'yiga chiqa olmaydigan qilib qalin daraxtlar ichiga eltib adashtirib yubordilar. Ular dushmani juda ha-

lak qildilar, lekin o'zlari ham juda charchab, holdan ketib yonimizga qaytib keldilar.

Endi biz qaroqchilarning qayiqni qoldirgan joylariga qaytib kelishlarini poylab turishimiz va qorong'ida ularga qo'qqisdan hujum qilib, bizga asir tushishga majbur qilishimiz kerak, xolos.

Ular tez orada qaytib kelishmadi. Bir necha soat poylab turishga majbur bo'ldik, eng oxiri ularning juda sekin yurib, sohilga qarab kelayotganini eshitdik. Ular yakka-yakka, birin-ketin kelishmoqda edi. Oldingilari orqadagilarni:

– Tezroq yuring! – deb undar edi.

Orqadagilari esa:

– Tez yurolmaymiz, holdan ketib, oyoqni zo'rg'a bosyapmiz, – deb javob berardilar. Bularning hammasi bizning foydamiz edi.

Oxiri ular qo'ltiqqa yetib keldilar. Shu bir necha soat ichida suv orqaga qaytib, dengiz pasaygan, shuning uchun daraxtga bog'lab qo'yilgan qayiq endi quruq yerda qolgan edi.

Qayiqning qum ustida turganini va odamlar g'oyib bo'lganini ko'rgan qaroqchilarning qay holatga tushganini tasvir qilib bo'lmaydi. Ular dod-faryod solib, o'z taqdirlariga la'natlar o'qib, sohilda u yoqdan-bu yoqqa yugurishdilar; ular, allaqanday sehrli orolga kelib qoldik, bu yerda yo hammamizni pora-pora qiladigan bosqinchilar, yo bo'lmasa, bizni tiriklay yeydigan iblislar bor, deb qichqirishar edi.

Ular o'z o'rtoqlarining nomlarini va laqablarini atab bir necha bor chaqirib ko'rdilar, hech javob bo'lmadi.

Ularning o'z boshlariga urib, u yoqdan-bu yoqqa yugurishgani qorong'ida bizga ko'rinib turdi. Qaroqchilar bu natijasiz yugurishdan tamom charchab, dam olmoq uchun qayiqqa bordilar, ammo bir daqiqa o'tar-o'tmas sohilga chiqib, yana u yoqdan-bu yoqqa yugura boshladilar.

Sheriklarim qorong'i tushgan hamono dushmanga hujum qilmoqqa ijozat berishimni iltimos qila boshladilar. Lekin mening bunchalik ko'p qon to'kkim kelmadi, isyonchilarni ancha tinch yo'l bilan bartaraf qilmoqchi bo'ldim. Eng muhimi esa, dushmanning boshdan oyoq qurollanganini bilar edim, shu sababdan o'z kishilarimning hayotini o'lim xavfi ostida qoldirgim kelmadi. Dushman kuchlari ikki-uch guruhga bo'linib ketmasmikan, deb kutib turmoq lozim edi, shu uchun hozircha askarlarimizga dushman ustiga hamla qilib boraverishni buyurdim.

Jumaboy bilan kapitanni oldin yubordim. Ular emaklashib dushmanga yaqin borishlari, lozim bo'lib qolsa, yaqindan turib o'qqa tutishlari kerak edi.

Lekin ular uncha ko'p emaklab bormadilar: taso-difan sheriklaridan ayrilib qolgan uch qaroqchi ularga duch kelib qolayozdi, isyonni boshlab, boshqalarni shu yo'lga solgan botsman ham shular orasida edi, u hozir hammadan ko'p qo'rqan edi.

Kapitan o'z boshiga tushgan kulfatlarning bosh aybdori bo'lgan botsmanning tovushini eshitishi bilan oq endi u o'z domiga tushganini bildi va g'azablanib o'rnidan tura solib, birinchi o'q bilan uning ko'kragini teshdi. Jumaboy ham o'q uzdi.

Botsman bir o'q yeboq o'ldi, ikkinchi qaroqchi esa og'ir yarador bo'ldi (u ikki soatdan so'ng o'ldi), uchinchi qaroqchi bo'lsa qochib qutuldi.

Miltiq ovozi eshitib darhol soni hozir sakkiz kishiga borgan armiyamning asosiy kuchini hujumga soldim. Armiyam nom-banom mana shular edi: men o'zim – birinchi feldmarshal, Jumaboy – general-leytenant, keyin kapitan bilan yana ikki ofitser va uch kishidan iborat oddiy askarlar – bular harbiy asirlar, bularga o'zimiz ishonib qurol bergan edik.



Biz dushmanga yaqin borganimizda tamom qorong'i tushgan, shuning uchun ham, necha kishi ekanimizni bilib bo'lmaz edi.

Harbiy asirlardan birini yonimga chaqirib, sobiq o'rtoqlaringning nomlarini aytib chaqir, deb buyurdim. Bu odam qaroqchilar qayiqda qoldirib ketgan matros edi, u hozir bizning safimizda jang qilmoqda edi.

Ularga o'q uzishdan oldin ular bilan muzokara yurguzib ko'rmoqchi va muzokara natijali chiqsa, bu holni sulh bilan tamom qilmoqchi bo'ldim. Bu ishning natijasi juda yaxshi bo'ldi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi: dushmanlar tamom umidsiz holga keltirilgan va taslim bo'lmoqdan boshqa ilojlari qolmagan edi.

Ana shunday qilib haligi matros ovozi boricha chaqirdi:

– Tom Smit? Tom Smit!

Tom Smit darhol javob qildi:

– Meni chaqirayotgan kim? Senmisan, Jimmi Roy?

Tom Smit matrosni ovozidan tanidi. Jimmi Roy javob qaytardi:

– Ha, ha, menman! Tom Smit, qurollaringni tashlab taslim bo'l, yo'qsa, xarob bo'lasiz! Bo'lmasa, sizni hozirning o'zidayoq yo'q qiladilar.

– Kimga taslim bo'lish kerak? Ular o'zi qayerda? – deb qichqirdi yana Tom Smit.

– Shu yerda, – deb javob berdi Jimmi Roy. – Bular ellik kishi, bizning kapitan ham shular bilan birga. Ular ikki soatdan beri sizlarning payingizda turmoqda. Botsmanni o'ldirdilar, Bill Frey yarador bo'ldi, meni esa asir oldilar. Sizlar hozirning o'zidayoq taslim bo'lmasangiz, joningizdan kecha bering, sizga rahmshafqat qilmaydilar.

Shundan keyin Tom Smit:

– Ulardan so‘ra-chi, bizning gunohimizdan o‘tarmikanlar. Agar gunohimizni kechishsa, biz hoziroq taslim bo‘lamiz, ularga shunday degin, – dedi.

– Yaxshi, aytaman, – deb javob berdi Jimmi Roy. Shu ondayoq kapitan o‘zi gapga aralashdi.

– Ey Smit, – deb qichqirdi u. – Mening ovozimni taniyapsanmi? Eshit! Agar hoziroq qurollaringizni tashlab, taslim bo‘lsangiz, Bill Atkinsdan bo‘lak ham-mangizning gunohingizdan o‘taman.

– Kapitan, xudo haqqi, meni kechiring! Boshqalardan ortiq mening nima yomonligim bor. Men nima yomonlik qildim? Boshqalar ham mendek gunohkor-ku, – deb yolvora boshladi Bill Atkins.

Uning so‘zlari qip-qizil yolg‘on edi, chunki Bill Atkins o‘taketgan qaroqchi va o‘g‘ri bo‘lib, ko‘pdan beri matroslarni dengiz qaroqchisi bo‘lishga undab kelar edi; isyon boshlangach, birinchi bo‘lib kapitanga hujum qilgan, uning qo‘llarini bog‘lab, haqorat qilib so‘kkan edi. Shuning uchun kapitan Bill Atkinsga, hech shartsiz taslim bo‘la ber, seni o‘ldirish yoki o‘ldirmaslik masalasini orol boshlig‘ining o‘zi hal qiladi, dedi. (Orol boshlig‘i – men edim, endi hamma meni boshliq deb atar edi.)

Bill Atkins taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi.

## ***Yigirma yettinchi bob***

### **KAPITANNING YANA KEMASIGA KOMANDIR BO‘LGANI. ROBINZONNING OROLDAN KETGANI**

Shunday qilib, qaroqchilar qurollarini tashlab, rahm-shafqat qilishni so‘ray boshladilar.

Qaroqchilar bilan gaplashgan matros va yana ikki kishi mening buyrug‘imga binoan ularning qo‘llarini bog‘ladilar, ana shundan keyin mening ellik kishidan iborat dahshatli armiyam (haqiqatda esa uch asirni ham qo‘shganda hammasi bo‘lib sakkiz kishi edi)

asirlarni qurshab, ularning qayiqlarini ishg'ol qildi. Biroq oliy siyosatning ba'zi mulohazalariga ko'ra o'zim ularga ko'rinmadim.

Kapitan endi o'z matroslari bilan ochiq gaplasha oldi. U matroslarni xoinlikda aybladi va xiyonat qilganlari uchun qattiq ta'na qildi.

– Sizlar qaroqchi bo'lib, dengizda bosqinchilik qilmoq niyatida kemamni tortib olmoqchi bo'ldingiz, – dedi ularga. – Bu qabih ish va razolat. Sizlar o'zingizni umrbod sharmandayi sharmisor qildingiz. O'zingiz chuqur qazidingiz va mabodo dorga osilmay omon qolsalaringiz, taqdiringizdan minnatdor bo'lishingiz lozim.

Jinoyatchilar, aftidan, qilmishlariga chin yurakdan pushaymon bo'ldilar, shekilli, ular yolg'iz bir narsani, ya'ni, o'zlarini omon qoldirishni yolborib so'radilar, xolos.

– Bu ish mening ixtiyorimda emas, – deb javob berdi kapitan. – Endi sizning taqdiringizni orol boshlig'i hal qiladi. Sizlar bizni odam qadam bosmagan, kimsasiz sohilga keltirib tashladik, deb o'ylagan edingiz, lekin taqdir sizni ingliz bosh bo'lib turgan aholi yashaydigan joyga keltirganini fahmladingiz. Juda rahmdil odam bo'lganidan orol boshlig'i sizning gunohingizdan o'tdi, u sizni Angliyaga yuborsa ehtimol, u yerda qonunga muvofiq jazo tortasiz. Ammo orol boshlig'i Bill Atkinsni o'limga buyurdi: ertaga ertalab uni osadilar.

Kapitan bu gaplarning hammasini ichidan o'ylab chiqardi, o'ylab topgan bu gaplari ko'ngildagidek ta'sir qoldirdi: Atkins tiz cho'kib, orol boshlig'idan o'zini tilab olishni so'rab kapitanga yalina boshladi, boshqalari ham bizni Angliyaga yubormasin, deb xudoni shafi keltirib, yolbora boshladi.

O'lim xavfidan o'ti yorilayozgan bu ojiz odamlarning bosh egganliklarini ko'rib, men o'z-o'zimga bunday dedim:

«Mening bu yerdan qutulib ketmoq fursatim keldi, bu shoʻrliklar qattiq qoʻrqqanlaridan, bizning har qanday talabimizni ham, albatta, bajarishadi; buyursak, bas, ular kemani egallab olishimizga yordam qilishadi».

Oroldagi dahshatli boshliqning gʻaribona ust-boshiga ularning koʻzi tushib qolmasin, degan mulohaza bilan oʻzimni nariroqdagi bir daraxt panasiga olib turib, qichqirdim:

– Kapitanni menga chaqirib bering!

Odamlarimizdan biri dabdaba bilan kapitan yoniga borib bunday dedi:

– Kapitan, sizni boshligʻimiz chaqiradi!

– Oliy janoblariga ayting, hozir boraman.

Bu gaplarni eshitgach, isyonchilar tamom bosh egdilar. Ular, shu yaqin orada ellik kishidan iborat askari boʻlgan gubernatorning oʻzi turgan, deb ishon-dilar.

Kapitan yonimga keldi, men unga asirlarimizni ish-ga solib kemani qoʻlga kiritmoqchiman, deb aytdim. Kapitan nihoyat xursand boʻldi. Tong otishi bilanoq bu rejani amalga oshirmoqchi boʻldik.

– Bu rejani, albatta, ijro qilmoq uchun asirlarni bir-biridan ajratmogʻimiz kerak, – dedim. – Atkinsni ikkita eng battoli bilan birga qoʻshib gʻorga qamay-miz. Yordamchingiz Jumaboy bilan birga ularni oʻsha joyga olib borsin. Qolganlari uchun esa men muvofiq joy topaman.

Biz xuddi shunday qildik: uch kishini gʻorga eltib qoʻydik, bu joy haqiqatan ham qorongʻi tur-maga oʻxshar edi, boshqalarini esa oʻrmon ichidagi kapamga joʻnatdim. Baland devorli bu joy ham an-cha mustahkam turmaga oʻxshar edi, buning usti-ga bandilarning qoʻli bogʻliq, oʻz taqdirlari oʻzlarini qanday tutishlariga bogʻliq ekanini ular bilar edilar.

Ertasiga ertalab kapitanni bu matroslar yoniga yubordim. Kapitan ular bilan gaplashib, asl niyatlarini bilishi va keyin ular bilan bo'lgan suhbatida menga batafsil hisob berishi kerak edi. Men bu odamga ishonmoq mumkinmi-yo'qligini va ularni kemaga birga olib borish xatarlimi-yo'qligini bilib olmoqchi edim.

Kapitan juda oqilona va qat'iy yo'l tutdi. U matros-larga bunday yomon ahvolda qolganliklariga o'zlari aybdor ekanliklarini eslatib, garchi orol boshlig'i o'z ixtiyori bilan sizlarning gunohingizdan o'tgan bo'lsa ham, lekin kema Angliyaga yetib borgach, u yerda sizlarni xoin deb biladilar va hech shubhasiz, osib o'ldiradilar, dedi. Yana u:

– Agar sizlar qaroqchilardan kemamni tortib olishda menga yordam qilsalaringiz, orol boshlig'i o'z ixtiyoringiz bilan haq ishga xizmat qilganingizni e'tiborga olib, gunohingizni tilab olishga harakat qiladi, – debdi.

Bu odamlar kapitanning taklifini juda mamnuniyat bilan qabul qilganligi turgan gap.

Ular tiz cho'kib kapitanga qasamyod qilishibdi. Oxirgi tomchi qonimiz qolguncha siz uchun kurashamiz, agar bizning gunohlarimizni tilab olsangiz; umrimizning oxirigacha sizga bepul xizmat qilamiz, hatto dunyoning u burchiga desangiz ham, siz bilan boramiz va sizni o'z otamiz deb bilamiz, deb va'da berishibdi.

– Juda soz, – debdi kapitan, – bu gaplaringizni orol boshlig'iga yetkazaman va o'z nomimdan sizlarning gunohingizdan o'tishini iltimos qilaman.

Keyin kapitan mening yonimga qaytib kelib, matros-lar bilan bo'lgan gaplarini batafsil aytib berdi va fikrimcha, bu odamlarga tamom ishonmog'imiz mumkin, dedi.

Lekin men ehtiyot bo'lmog hamisha zarur degan fikrda edim, shu sababdan kapitanga bunday dedim:

– Mana bunday yo'l tutamiz: hozircha ularning faqat beshtasini olamiz. Bizni odamlari oz ekan, deb o'ylamasinlar tag'in. Borib ularga ayting: garchi odamlarimiz yetarli bo'lsa ham, sinamoq uchun ulardan besh kishini olamiz; qolgan ikkingizni qo'rg'onda (ya'ni, mening yer tagidagi uyimda) qamoqda yotgan uch kishi bilan birga orol boshlig'i garovga qoldiradi deng, agar ularning bizning tomonimizda turib jangga ishtirok qilgan o'rtoqlari o'z ontlariga xiyonat qilib, labzlaridan qaytsalar, bu yerda garovga qoldirilgan besh kishining hammasi osib o'ldiriladi.

Bu eng qattiq chora edi. Kapitan mening javobimni ularga yetkazganda, asirlar orol boshlig'i bilan hazillashib bo'lmasligini tushunishibdi. Albatta, mening shartlarimni qabul qilishdan boshqa iloj qolmagan edi.

Garovga olib qolingani bandilar ham o'zlarining ozod bo'lgan o'rtoqlariga kapitanga xiyonat qilmaslikni uqtirib nasihat qilibdilar.

Buyuk jang arafasida bor-yo'q qo'shinim mana shular:

Birinchidan, kapitan, uning yordamchisi va bir yo'lovchi;

Ikkinchidan, kapitanning iltimosiga ko'ra ozod qilingan ikki asir; uchinchidan, yana ikki kishi, bular mening kapamga eltib qo'yilganlar (kapitanning talabi bilan endi ular ham ozod qilingan edi).

To'rtinchidan, biz eng keyin ozod qilgan besh kishi; garovga olib qolinib, yerto'lada yotmoqda bo'lgan besh kishi bu hisobga kirmaydi.

Kapitandan, shu ozgina kuch bilan kemaga hujum qilmoqni lozim ko'rasizmi, deb so'radim. Jumaboy ikkimizga bu yerdan jilish takoni yo'q edi, bizning qo'limizda yetti kishi bor. Biz ularni saqlashimiz va boqishimiz lozim edi.

G'orda yotgan besh kishiga parvo qilmaslikka qaror berdim. Jumaboy kuniga ikki marta ularga ovqat va suv eltib berib, o'zi ovqatlantirib turdi, chunki biz ularning bog'liq qo'lini yechmadik. Qolgan ikkitasiga esa bir qadar erkinlik berib qo'ydik.

Oxiri men bu ikki kishiga ko'rinmoqchi bo'ldim. Ular oldiga kapitan bilan birga keldim. Kapitan ularga mana bunday dedi: bu kishi orol boshlig'ining ishonchli odami, boshliq bu kishini harbiy asirlarni nazorat qilib turish uchun yubordi, demak, bu kishidan ijozat olmay o'rningizdan qo'zg'alishga haqqingiz yo'q, basharti, itoatsizlik qilsangiz, sizlarni gubernator qo'rg'onidagi qorong'i g'orga qamab qo'yadilar.

Shu vaqtdan boshlab asirlarga bir marta ham orol boshlig'i sifatida ko'rinmadim, har safar ham uning ishonchli odami bo'lib bordim, shu bilan birga har safar ularga boshliq haqida, garnizon, to'plar va qo'rg'on to'g'risida gapirib turdim.

Endi bo'lajak jangga tayyorlanishgina qoldi: ikki qayiqni ham puxta yamab, tuzatish, qurol-jihozlar bilan ta'minlash va har biriga komanda tayinlash lozim.

Bu ishlarning hammasini kapitanga yukladim.

U kichkina qayiqqa yo'lovchi kishini komandir qilib tayinlab, uning ixtiyoriga to'rt kishi berdi; kapitanning o'zi va uning yordamchisi hamda yana besh matros katta qayiqqa o'tirdilar.

Kapitan: eng yaxshisi kemaga tun qorong'isida borish kerak, deb juda to'g'ri aytdi, ular kechasi sohildan jo'nab ketdilar.

Yarim kechasi kemadagilar eshkaklarning suvni shapillatgan ovozini eshitib, qayiqqa javob qilibdilar, kapitan Jimmi Royga bir o'zi ovoz chiqarishni buyurib, boshqalarga jim turinglar, debdi.

Jimmi Roy: «Hamma matroslarni olib keldim, lekin ularni qidirib topguncha ko'p ovora bo'lib kechikib

qoldim», – debdi va keyin yolgʻon-yashiqlarni aytib, gapni choʻzib yuboribdi.

U ana shunday boʻlar-boʻlmas gaplarni aytib boʻlguncha katta va kichik qayiq ikkisi kema bortiga yetib olibdi.

Kapitan va uning yordamchisi qoʻllarida qurol bilan kema palubasiga hammadan oldin chiqib, shu zamonAQ hech narsadan shubha qilmay bexosdan chiqib kelgan ikki isyonchini miltiq qoʻndogʻi bilan urib agʻdaribdilar; maʼlum boʻlishicha, bular qarqchilar tomoniga oʻtib ketgan kema duradgori bilan kapitanning ikkinchi yordamchisi ekan.

Kapitanning butun otryadi ahil va mardona kurashibdi. Palubadagi matroslar hammasi ushlanib asir olinibdi, shundan keyin kapitan pastdagi odamlarning hammasini chiqarmaslik uchun lyukni<sup>15</sup> bekitishni buyuribdi. Bu orada ikkinchi qayiqning komandiri va matroslari yetib kelib, ular kema oshxonasiga kiradigan eshikni toʻsibdilar va yana uch kishini asir olibdilar.

Palubada va ustki qavatdagi sahnda bitta ham dushman qolmagandan keyin kapitan oʻz yordamchisiga – komandadan yoniga uch kishi olib, bosh kayuta eshigini buzib kirishni topshiribdi; toʻpolon boshlangan hamono bu yerga isyonchilar saylagan yangi kapitan bilan ikki matros-u bir matros shogird (yunga) yashirinishgan ekan.

Ular oʻzlari bilan qurollarini olvolishgan ekan, shu uchun ham kapitan yordamchisi oʻz odamlari bilan kayuta eshigini sindirgan hamono bularni oʻqqa tutibdilar. Kapitan yordamchisining qoʻlini miltiq oʻqi yaralabdi, ikki matros ham yarador boʻlibdi, lekin bir kishi ham oʻlmabdi.

Kapitan yordamchisi: «Yordam!» – deb qichqiribdi. U ogʻir yarador boʻlishiga qaramay, bir qoʻliga

<sup>15</sup> Kemaning ostki qavatiga tushadigan eshik.



to'pponcha ushlab, ichkariga kirib yangi kapitanning miyasidan otibdi. Yangi kapitan bir og'iz so'z ham aytolmay mukka tushibdi: o'q uning og'zidan tekkan ekan. Shundan keyin qolgan isyonchilar hammasi jangsiz taslim bo'libdi va ortiq qon to'kilmabdi.

Kapitan o'z kemasini qo'lga kiritib xo'jayin bo'lib olishi bilanoq yetti marta to'p otishga buyruq beribdi. Kapitan ishning muvaffaqiyat bilan tamomlanganini menga ma'lum qilmoq uchun to'p ottirgan edi. Men sohil bo'yida signal berilishini kutib ikki soatcha turdim, to'p ovozi eshitib, behad quvondim.

Batamom xotirjam bo'lib, darhol uyga qaytib, joyimga yotdim, yotgan hamono uxlab qolibman, chunki shu kunlardagi tashvishlar bilan nihoyatda charchagan edim.

Yangidan otilgan o'q ovozigga uyg'onib ketdim. Sapchib turdim, allakimning chaqirayotganini eshitdim.

– Xo'jayin! Xo'jayin!

Kapitanning ovozi darrov tanidim. U mening qo'rg'onim tepasidagi tepa ustida edi. Darrov narvonni qo'yib, uning yoniga chiqdim. U meni quchoqlab, qo'li bilan dengiz tomonni ko'rsatib, bunday dedi:

– Qimmatli do'stim! Xaloskorim! Sizning kemangiz ana. Kema ham va undagi narsalarning hammasi ham sizniki! Kapitanning o'zidan tortib, hammamiz siznikimiz!

Ma'lum bo'ldiki, do'stim kapitan, qaroqchilarni yengib, darhol langarni olishga buyuribdi va ro'paradan kelib turgan shamol yordami bilan bir vaqtlar men o'z solimni to'xtatgan qo'ltiqqa kemani olib kelibdi. Suvning qaytishini kutib turib, qayiq bilan qo'ltiqqa tushibdi va o'z kemasining eshigim oldida turganidan xabardor qilmoq uchun yonimga yugurib kelibdi.

Kutilmagan bu xushxabarni eshitib hushimdan ketayozdim.

Axir men ko'p vaqtlardan beri zoriqib kutgan ozodligimni aniq ko'rmoqda edim. Ozodlik mana shu yerda, o'z qo'limda! Meni istagan joyga olib bora biladigan katta kema xizmatimga tayyor turibdi.

Shu qadar suyunib ketdimki, hatto dastlab kapitanga bir og'iz ham javob qilolmadim, agar kapitan meni suwab qolmaganda, yerga yiqilib tushar edim.

Birdaniga yuz bergan bu xursandlik natijasida juda holdan ketganimni payqab, kapitan men uchun olib kelgan allaqanday bir shisha dorini yonidan oldi. Undan bir qultum ichib, men sekin yerga o'tirib qoldim. Garchi es-hushim o'zimga kelgan bo'lsa ham, men xiyla vaqt gapirolmadim.

Bechora kapitan ham men singari juda hayajonlangan edi.

Meni hushimga keltirmoq uchun u ming xil shirin so'zlar aytdi. Ammo xursandligimdan mening o'pkam choch bo'lib ketgan edi, shu uchun uning gaplarini durust ajrata olmadim. Oxiri xursandlikdan yig'lab yubordim va shundan keyingina gapirish layoqati o'zimga qaytdi. Shu ondayoq yangi do'stimni quchoqlab, chin yurakdan tabrikladim. Har ikkalamiz ham behad shod-xurram bo'ldik.

Biz biroz o'zimizga kelgandan keyin kapitan: men sizga ba'zi bir buyumlar olib keldim, baxtimizga, kemada shuncha vaqt egalik qilgan bosqinchilar bu buyumlarni isrof qilmagan ekanlar, dedi.

– Bu buyumlar sizga asqotsa kerak, deb o'ylayman, – dedi kapitan. U qayiqda qolgan matroslarini chaqirdi:

– Hoy, yigitlar, orol boshlig'iga olib kelgan tugunlarni keltiringlar! Juda katta sovg'a keltirildi: xuddi men bu orolda umr bo'yi qolib ketadigandek, kapitan ko'pdan ko'p har xil buyumlar keltiribdi.

Tugunni ochib qarasak, unda o'n ikki bo'lak tuzlangan go'sht, olti bo'lak vetchina, bir xalta no'xot,

yuz qadoqcha qotgan non bor ekan. U yana bir yashik qand, bir yashik un, bir xalta limon va ikki shisha limon suvi ham olib kelibdi.

Men uchun eng zaruri kiyim-bosh edi. Shu sababdan do'stim kapitanning menga oltita ohori to'kilmagan yangi ko'ylak, oltita juda yaxshi ro'molcha, ikki juft qo'lqop, shlapa, oyoq kiyimi, paypoq, juda yaxshi, yap-yangi, o'zimga mos kostum olib kelganini ko'rib behad quvondim; xullas, u meni boshdan oyoq kiyintirdi.

Sovg'a juda quvontirarli va qimmatli edi, ammo men bu yangi kostumni kiygach, u ustimda naqadar beo'xshov va beso'naqay ko'ringanini va dastlab o'zimni naqadar qo'pol va o'ng'aysiz sezganimni tasavvur qilolmaysiz.

Sovg'alarni ko'zdan kechirib, ularni qo'rg'onga eltib qo'yishni buyurdim-da, o'zim kapitan bilan, asirlarni birga olib ketamizmi yoki shu yerda qoldirib ketamizmi, deb maslahatlashmoqqa tutindim.

– Ularni birga olib ketmoq juda xavfli, – dedi kapitan.

– Bular ashaddiy kallakesarlar. Bulardan ikkitas, ayniqsa, xavfli, tuzalmas, battol qaroqchilardir. Men ularni o'z kemamda olib ketishga rozi bo'lganimda ham, faqat bandi qilibgina olib ketaman. Men ularning qo'l-oyoqlariga kishan solib, yo'ldagi birinchi ingliz mustamlakasiga tushgan hamono sud qo'liga topshirajakman.

– Unday bo'lsa, ularni shu yerda qoldirib ketmoq kerak, – dedim kapitanga.

– Men shunday bir yo'l tutamanki, bu ikki qaroqchi bizdan o'zlarini shu yerda qoldirib ketishni iltimos qilishga majbur bo'ladilar.

– Agar shunday qilolsangiz, men behad mamnun bo'laman, – dedi kapitan.

– Soz. Hozir ular bilan sizning nomingizdan gaplashaman, – dedim. Soʻngra Jumaboyni va yana ikki bandini chaqirib (oʻrtoqlari, oʻz soʻzlarining ustidan chiqqanligi uchun biz bularni ozod qilgan edik), beshala asirni gʻordan kapaga olib kelishni buyurdim.

Bir ozdan keyin kapitan ikkimiz kapaga joʻnadik; yangi kostumni kiyib olib, bu safar orol boshligʻi sifatida bordim. Bogʻ hovlinga yetgach, bandilarni olib chiqishga buyurdim, keyin ularga mana bunday dedim:

– Men sizlarning hamma jinoyatlaringizni bila-man. Sizlar kemadagi qurolsiz yoʻlovchilarga hujum qilib, ularni oʻldirganlaringiz ham menga ayon. Zi-yonsiz, tinch kemalarni talamoq niyatida qaroqchi boʻlishga harakat qilganligingiz ham menga ayon. Sizlarga maʼlum boʻlmogʻi kerakki, mening amrim bilan kema yana kapitanning qoʻliga topshirildi va reydgga keltirib qoʻyildi. Endi sizlarni jinoyat ustida qoʻlga tushgan bosqinchilar sifatida oʻlimga hukm qilmogʻim qoldi, xolos. Shu sababdan oʻzlaringizni oqlamoq uchun aytadigan soʻzlaringiz boʻlsa aytib qoling, chunki sizlarni qotil va xoinlar sifatida oʻlimga hukm qilmoqchiman.

Ularning hammasi nomidan bittasi gapirib, oʻzimizni oqlaydigan hech soʻzimiz yoʻq, dedi.

– Ammo biz qamoqqa olingan vaqtda, kapitan sizlarga rahm qilamiz, deb vaʼda bergan edi, shu sababdan buyuk olijanoblik koʻrsatib, bizni omon qoldirishingizni soʻraymiz.

– Toʻgʻrisini aytganda, sizlarga qanday marhamat koʻrsatmoqni bilmayman, – dedim ularga. – Men hamma odamlarimni olib, oroldan joʻnab ketmoqchiman, biz Angliyaga joʻnaymiz. Sizga kelganda, kapitanning soʻziga koʻra, u sizlarni kishanlab, Angliyaga yetgan hamono xiyonat qilganingiz va isyon koʻtarganingiz uchun sudga topshirmoqchi. Ravshanki, sud sizni

darhol o'limga hukm qiladi. Boshqacha hukmning bo'lishi ham mumkin emas. Angliyada sizni dorga osib o'ldiradilar. Demak, biz sizlarni birga olib ketganligimiz bilan siz xursand bo'lmaysiz. Sizlar uchun birgina najot bor, u ham bo'lsa, sizlar shu orolda qolishlaringiz kerak. Shu shart bilangina sizning gunohingizdan o'ta olaman.

Ular mening taklifimga juda xursandlik bilan rozi bo'ldilar va menga ko'p minnatdorlik bildirdilar.

– O'z vatanimizga borib, dorga osilib o'lguncha, shu yerda yashaganimiz yaxshi, – deyishdi ular.

Men ularning qo'llarini yechishni buyurdim, keyin ularga bunday dedim:

– O'rmonning o'zingiz qo'lga tushgan joyiga borib, orqangizdan odam borguncha o'sha yerda turing. Sizlarga ba'zi qurol-aslaha va oziq-ovqat qoldirish uchun topshiriq beraman va dastlabki kunlarda nima qilmoq kerakligini aytaman. Tirishib qattiq mehnat qiladigan bo'lsalaringiz, bu yerda juda yaxshi turmush kechira olasiz.

Shu muzokaradan keyin uyga qaytib kelib, uzoq safarga tayyorlik ko'ra boshladim. Darvoqe, men kapitanga, yo'l harakatini ko'rib, yig'ishtirinmog'im uchun biroz fursat kerakligini aytdim va undan kema-ga mensiz ketib, ertalab qayiq yuborishini so'radim.

Kapitan jo'nab ketgach, asirlarni chaqirtirib kelib, ular bilan jiddiy yo'sinda gaplasha boshladim.

Ularga yana bunday dedim: mening fikrimcha, sizlar orolda qolib, ma'qul ish qilayotirsiz. Chunki kapitan sizlarni o'zi bilan birga vatanga olib ketganda ham, u yerda sizni dorga osib o'ldirishlari turgan gap.

Men ularga, bu orolga qanday kelib qolganimni, asta-sekin xo'jaligimni yaxshilab olganimni, uzum uzib kelib quritganimni, sholi va arpa ekib dehqonchilik qilganimni, non yopishni qanday o'rganganimni batafsil gapirib berdim.

Ularga o'z istehkomimni, omborlarimni, ekinzor va yaylovlarimni ko'rsatdim, xullas, orolda turmush kechirishda uncha qiynalmasliklari uchun zarur narsalarning hammasini tushuntirdim.

Qurol-aslahalarimning hammasini (beshta pilta miltiq, ikkita ov miltiq va uchta qilichni) ularga qoldirdim. Yana bir yarim quti miltiq dorisi ham qoldirdim va echkilarni qanday ushlash, qanday sog'ish, boqib semirtirish, yog' va pishloq qilish yo'llarini aytib berdim.

Shunday qilib, bu odamlarga orolda yigirma sakkiz yil mobaynida mashaqqat chekib, mehnat qilib, yakka-yolg'iz kechirgan hayotimni boshdan oyoq gapirib berishga to'g'ri keldi.

Ular bilan xayrlashib, kapitandan sizlarga yana bir quti miltiq dorisi va sabzavot urug'i ham qoldirishni iltimos qilaman, deb va'da berdim hamda sabzavot urug'im bo'lmaganligi natijasida juda qiynalganligimni aytdim.

Kapitan menga ovqat uchun keltirgan bir xalta no'xotni ularga berdim va no'xotni ko'paytirmoq uchun buning hammasini urug'lik qilishlari lozimligini tayinladim.

Quvg'indilar bilan gaplashib bo'lgandan keyin, ertasiga ertalab kemaga keldim.

Garchi yelkanni ko'tarib, uzoq safarga jo'nash uchun g'oyat orziqayotgan bo'lishimizga qaramay, yana bir sutka shu yerda turdik. Ertasiga ertalab kemaga tomon suzib kelayotgan ikki kishiga nazari-miz tushdi. Ma'lum bo'ldiki, bular biz orolda qoldirib ketgan besh kishidan ikkitasi ekan.

– Bizni ham o'z'laringiz bilan birga olib ketingiz! Bizni orolda qoldirib ketgandan ko'ra osib o'ldiringiz! Chunki o'rtoqlarimiz bu yerda bizni o'ldiradi, – deb qichqirishdi ular.

Kapitan ularning iltimosiga javob berib, mening ruxsatimdan tashqari ularni olib ketolmasligini aytdi. Oxiri, ular: biz tavba qildik, bundan so'ng yomonlik qilmaymiz, deb ont ichdilar, shundan keyin ularni kemaga qabul qildik.

Tez orada suvning qirg'oqqa toshishi boshlandi, men orolda qoldirilgan odamlarga va'da qilgan buyumlarni qayiqqa ortib, sohilga yubordik. Kapitan mening iltimosim bilan bu buyumlar yoniga bir sandiq har xil kiyimlar qo'shib yubordi. Ular bu sovg'ani juda minnatdorlik bilan qabul qilib olibdilar.

Shuni aytmoq kerakki, men u quvg'indi odamlarga, sizlarni unutib yubormayman, agar yo'ldagi biror portda shu orol tomonga kelayotgan kemani uchratsam, o'sha kema kapitanidan sizlarni olib, o'z yurtlaringizga eltib qo'yishlarini iltimos qilaman, deb va'da bergan edim.

Bu oroldan jo'nab ketayotganda, xotira uchun o'z qo'lim bilan echki terisidan tikilgan qo'pol shapkamni, soyabon va to'tilarimdan birini oldim. Pulni olishni ham unutmadim, lekin bu pul uzoq vaqt qo'l tegmay bir joyda yotganidan zang bosib xiralaniq qolibdi. Yaxshilab tozalagandan keyingina ular kumush tusiga kirdi. Shuningdek, halokatga uchrab buzilib ketgan ispan kemasidan topib olingan oltin pullarni ham yonimga solib oldim.

Kema jurnalidan keyinchalik aniqlashimga ko'ra, men oroldan 1686-yil 19-dekabrda jo'nab ketibman. Shunday qilib, men bu orolda yigirma sakkiz yil-u ikki oy-u, o'n ikki kun umr o'tkazibman.

Yo'lda ispaniyaliklar yoniga tushib, ularni kemaga solib oldim. Ular juda xursand bo'lishib, mendan behad minnatdor bo'lishdi.

Jumaboy hammadan ham ko'proq xursand bo'ldi, chunki uning kekxa otasi ham uzoq safarga biz bilan birga jo'nab ketdi.

## MUNDARIJA

<i>Birinchi bob.</i> Robinzonning ota-onasi hamda uning o'z uyidan qochib ketgani haqida .....	3
<i>Ikkinchi bob.</i> Dengizdagi birinchi hodisa.....	5
<i>Uchinchi bob.</i> Robinzonning asir tushgani, qochgani, braziliyaga borgani.....	11
<i>To'rtinchi bob.</i> Robinzonning braziliyada turib qolgani, yana dengizga safar qilgani, kemasining halokatga uchrangani.....	30
<i>Beshinchi bob.</i> Robinzon odam qadam bosmagan orolda. Robinzonning kemasidagi buyumlarini olib chiqqani va o'ziga uy solib olgani.....	38
<i>Oltinchi bob.</i> Robinzon yangi uyda. Echki va uloq.....	51
<i>Yettinchi bob.</i> Robinzonning kalendari. Robinzonning o'z uyini tuzatib olgani .....	54
<i>Sakkizinchi bob.</i> Robinzonning kundaligi. Zilzila .....	60
<i>To'qqizinchi bob.</i> Robinzonning dengizga g'arq bo'lib ketgan kemadan buyumlar topib olgani, kasallik va zerikish.....	70
<i>O'ninchi bob.</i> Robinzonning o'z orolini tekshirgani.....	84
<i>O'n birinchi bob.</i> Robinzonning g'orga qaytib kelgani. Uning dehqonchiligi .....	88
<i>O'n ikkinchi bob.</i> Robinzonning kulolchilik qilgani.....	92
<i>O'n uchinchi bob.</i> Robinzonning qayiq yasagani va o'ziga yangi kostum tikib olgani.....	97
<i>O'n to'rtinchi bob.</i> Robinzonning boshqa bir kichikroq qayiq y asab, orol atrofini aylanib chiqishga harakat qilgani .....	104
<i>O'n beshinchi bob.</i> Robinzonning yovvoyi echkilarni o'rgatib olgani .....	113
<i>O'n oltinchi bob.</i> Qo'qqisdan yuz bergan qo'rqinchli holat. Robinzonning o'z uyini mahkamlagani.....	118
<i>O'n yettinchi bob.</i> Robinzonning o'z orolida damxo'rlar borligiga ishonch hosil qilgani.....	125
<i>O'n sakkizinchi bob.</i> Vahshiylarning robinzon oroliga yana kelishgani. Kemaning halokatga uchrashi.....	134
<i>O'n to'qqizinchi bob.</i> Robinzonning o'z orolidan yana ketmoqchi bo'lgani .....	140
<i>Yigirmanchi bob.</i> Robinzonning bir vahshiyni qutqazib, otini jumaboy qo'ygani .....	146
<i>Yigirma birinchi bob.</i> Robinzonning jumaboy bilan suhbat qilib, unga nasihat bergani .....	156
<i>Yigirma ikkinchi bob.</i> Robinzon bilan jumaboyning qayiq yasagani. Vahshiylar bilan bo'lgan jang .....	164
<i>Yigirma uchinchi bob.</i> Robinzonning ispaniyalik bir kishini qutqarib qolgani. Jumaboyning o'z otasini topgani .....	181



<i>Yigirma to'rtinchi bob.</i> Orolning yangi fuqarolari. Inglizlarning kelgani.....	190
<i>Yigirma beshinchi bob.</i> Robinzonning ingliz keması kapitani bilan uchrashgani.....	203
<i>Yigirma oltinchi bob.</i> Qaroqchilar bilan jang qilingani .....	211
<i>Yigirma yettinchi bob.</i> Kapitanning yana kemasiga komandir bo'lgani. Robinzonning oroldan ketgani.....	225

---

*Adabiy-badiiy nashr*

DANIYEL DEFO

**ROBINZON KRUZONING  
HAYOTI VA AJOYIB SARGUZASHTLARI**

*Roman*

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Musahhih

Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 15.12.2016-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 7,5. Shartli bosma tobog'i 12,6.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozı.

Adadi 44 221 nusxa. Buyurtma № 16-858.

Bahosi kelishilgan narxda.

«O'ZBEKISTON» NMIU bosmaxonasida chop etildi.

100011. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi 30-uy.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 147-00-14, 129-09-71.

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

# Daniyel Defo (1660–1731)

1660-yil Angliyaning London shahrida tug‘ilgan. Roman janrining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan yozuvchi 500 ga yaqin asar, turli mavzulardagi pamflet va maqolalar muallifi bo‘lgan.

Ulkan mahorat sohibining 1719-yilda yozilgan «Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari» kitobi dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan. Zero, badiiy noma tarzida yozilgan mazkur asar ingliz romanchiligining eng sara durdonalaridan sanaladi.

«Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari» muayyan voqeaga asoslangan bo‘lib, kitob qahramonining hayotdagi timsoli Aleksandr Selkirk hisoblanadi. Selkirk 1704-yildan 1709-yilgacha Tinch okeanidagi kishi qadami yetmas Xuan-Fernandes orolida yashagan...